

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI



ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI

Samarqand, 2018-yil 25-may



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK
VA DERIVATSION QONUNIYATLAR**

**Respublika ilmiy-amaliy anjumani
M A T E R I A L L A R I**

Samarqand shahri, 2018-yil, 25-may

Samarqand – 2018

BBK 74.202.2, 81.2.(-5)-9

Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Samarqand: SamDCHTI nashri, 2018.- 270 b.

Ushbu to'plamdan "Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani ishtirokchilarining maqolalari o'rin olgan bo'lib, undan barcha tilshunos, adabiyotshunos va pedagoglar foydalanishi mumkin.

Tahrir hay'ati:

Dotsent I. M. Tuxtasinov	rais
Dotsent Sh.Ashurov	rais o'rinbosari
Professor N.Q.Turniyozov	a'zo
Professor Sh.S.Safarov	a'zo
Professor T.A. Bushuy	a'zo
Dotsent X.Z Xayrullayev	a'zo
Dotsent B. Turniyozov	a'zo
Dotsent R.D.Jo'raqulov	a'zo
Dotsent A.M.Turobov	mas'ul muharrir
O'qituvchi Sh. Alamov	mas'ul kotib

ISBN 978-9943-4399-4-8

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'ul.

1-SHO‘BA

TIL TARAQQIYOTINING DERIVATSION QONUNIYATLARI

И.М.Тухтасинов (СамДЧТИ ректори)

ДЕРИВАЦИЯ - ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИКНИНГ ЭНГ ИЛҒОР ЙЎНАЛИШЛАРИДАН БИРИ СИФАТИДА

Деривация жараёни – тилнинг доимий такомиллашуви таъминлайди. Деривацион қонуниятлар тил ва нутқнинг барча бирликларига таълуқлидир. Деривация ҳар доим тилшуносларимиз тадқиқотларининг илмий ва амалий объекти бўлиб келган. Тил нафақат айрим бир тилнинг яратилиши, балки тилнинг ўзини ўзи ясаши томонидан ўрганилади. Бу ҳодиса ҳозирги тилшунослик фанида тилнинг ўзига хос хусусиятларидан бири бўлмиш **“ДЕРИВАЦИЯ”** деб аталади.

Мустақил Республикамиз бугунги кунда эришган ва эришаётган жаҳон миқёсида ҳам муҳим аҳамият касб этаётган ютуқлар фан-техника соҳасида ўз аксини топмоқда. Бу эса фан ходимлари, шу жумладан тилшунослар олдига улкан вазифаларни кўймоқда. Ана шундай вазифалардан бири жаҳон тилшунослигида эришилган ютуқлардан фойдаланган ҳолда ўзбек тилшунослигида ҳам энг аввал деривация масалаларининг илмий талқинини ва бу билан бевосита боғлиқ бўлган тилимиз таракқиётининг деривацион муаммолари таҳлилини атрофлича ёритишдан иборатдир.

Деривация - замонавий тилшуносликнинг энг илғор йўналишларидан биридир. Жаҳон тилшунослигида тил таракқиётининг ҳозирги даврига қадар структур тилшунослик муаммолари ҳисобланмиш дистрибутив таҳлил, нутқ материалининг бевосита иштирокчилари, трансформацион таҳлил, тил материалининг функционал таҳлили, синтактик ва семантик деривация талқини, психолингвистика, нейролингвистика муаммоларининг ўрганилиши борасида жуда катта ютуқларга эришилди. Бироқ мазкур масалалар талқини, ушбу анжуман муаллифларининг айримлари ишларини ҳисобга олмаганда, ўзбек тилшунослигида ҳали том маънода амалга оширилгани йўқ. Бу эса, ўз навбатида, анжуман мавзусининг ўта долзарблигидан далолат беради.

Анжуманда асосий урғу бериладиган масалаларнинг илмий талқини, ҳали хорижий тилшуносларнинг тадқиқотларида қарийб қузатилмайди. Хусусан, гапдан катта нутқ бирликлари микро ва макроматн материали асосида ҳозирча дескриптив тилшунослик методлари доираси ҳам, Прага функционализмида ҳам синтактик деривация назарияси замирида ҳам бирор бир жиддий тадқиқот амалга оширилгани йўқ.

Тилшунослик фани таракқиётининг ҳозирги даврида тил материалининг структур-систем таҳлили долзарб масалалардан бири эканлиги изоҳ талаб қилмайди. Бу биринчи галда фан ва техника таракқиёти билан узвий боғлиқдир. Математик лингвистика, компьютер лингвистикаси, машина ёрдамида таржима қилиш, луғат тузиш ва ҳ.к. каби масалалар аънавий тилшунослик назария ва методлари воситасида иш юрита олмайди. Шу боис бугунги тилшуносликда тил материалининг структур-систем талқини масаласи лингвистик тадқиқотларнинг кун тартибига асосли равишда кириб келди.

Тилнинг кишилар ўртасида алоқа қуроли эканлиги барчага маълум. Аммо, у ўзининг мураккаб системаси ва структурасига эга бўлган қуролдир. Муайян тилда сўзлашувчиларнинг асосий вазифаси ана шу қуролни амалда қўллай билишдан иборатдир. Тил системаси белгилар мажмуасидан иборат бўлиб, ана шу белгиларнинг синтагматик қаторда фаол қўлланиши жараёнида синтагматик муносабат шаклланади, синтагматик муносабат замирида эса синтактик структуралар шаклланади.

Одатда, энг кичик синтактик муносабат сўзларнинг сўз бирикмаси сатҳидаги боғланиши деб ўрганилиб келинди. Бироқ фактик тил материалининг таҳлили энг кичик синтактик муносабат сўз сатҳида морфемаларнинг ўзаро боғланиши жараёнида воқеланишини кўрсатмоқда. Синтагматик муносабат эса фонемаларнинг горизонтал қаторда ўзаро боғланишида ҳам қузатилади.

Биз аниқ бир тилда бўлаётган ўзгаришларни эмас, балки тил ўзини – ўзи ривожлантираётганлиги ҳақида маълумотга эга бўлишимиз керак. Замонавий тилшунослик тилнинг бир йўналишидан иккинчи йўналишини қандай яратилишини инсониятга тушунтиришни ва ўзи ҳам шу йўналишни ривожлантиришни тақоза этади. Янги семантик маъноларни яратиш ва уни ишлаб чиқиш учун аффиксация ва ўзакни кенгайтиришга эътибор берилиши керак. Шу жиҳатдан олиб қараганимизда деривация оддий ҳол эмас балки, катта бир жараёндир. Айнан мана шу деривацион жараён сув каби, ҳаво каби тилга ўз-ўзини таракқий эттириш ҳукуқини беради.

Деривацион жараён орқали нутқнинг бир бирлиги асосида янгисини яратиш каби инсон қобилияти орқали яратиладиган хусусиятлари мавжуд. Тил аффикслар ёрдамида ўзакни кенгайтириб, янги маъно яратади. Тилнинг сўзларни сўз ясалиши тўпламига жамлашдек имкониятини қандай

изохлаш ва тушунтириш мумкин? Бу саволга жавоб излаб, тилшунослик деривацияни оддий хусусият эмас, балки жараён деб ҳисоблайди.

Бу жараён олимларни тилнинг ривожланишини турли нуқтаи назарлар бўйича таҳлил қилишга чорлайди. Масалан, деривацион жараён тилнинг структур муаммоларини тушунтиради.

Деривацион қонуниятларнинг кўриниши тил структураси, яъни тил эгаси ва тил бирликлари орасидаги алоқага нур бағишлайди. Буни эса бугун биз мазкур алоқанинг когнитив мазмуни деб атамоқдамиз. Бундан ташқари деривацион қонуниятлар матннинг чегарасини ривожланиши ва кенгайишини ўрганади.

Шу ўринда деривацион жараён ҳар бир тилда турлича намоён бўлишини таъкидлаш жоиз. Тилларнинг хилма-хиллиги ҳар бир табиий тил хусусиятини тушунишни талаб қилади. Бироқ тилшунослар деривацион қонуниятлар тилнинг хилма-хилликлари келиб чиқиши муаммоларига ойдинлик киритади деб ишонадилар.

Н.Қ.Турниёзов (СамДЧТИ)

ТИЛ БИРЛИКЛАРИНИНГ НУТҚИЙ ДЕРИВАЦИЯСИ

Нутқ лингвистикаси муаммолари тадқиқи тилшунослик фанининг бугунги тараққиёти даврида ўта долзарб эканлиги изоҳ талаб қилмайди, зотан, айтиш пайтда нутқ лингвистикаси тилшуносликнинг мустақил соҳаси сифатида илмий асосланди. Бу эса нутқ бирликларини аниқлаб олиш муаммосини ўртага қўймоқда. Чунки нутқ ҳам бошқа соҳалар каби ўз бирликларига эга бўлмас экан, унинг текшириш объекти ҳам бўлмайди. Ана шулардан келиб чиқиб, ҳозирги тилшуносликда нутқ бирликлари сифатида гап, мураккаб синтактик қурилма (гапдан катта бирлик) ва абзац кўрсатилмоқда.

Албатта, нутқнинг энг кичик бирлиги гапдир. Гапдан катта нутқ бирликлари эса матн мақомидадир. Масалан, анъанавий кўшма гаплар (мураккаб синтактик қурилмалар) камида икки гапнинг ўзаро бирикувидан ташкил топади. Бу эса уларнинг матн мақомида эканлигини кўрсатади. Демак, тил бирликларининг ҳам, нутқ бирликларининг ҳам амалда қўлланиши учун улардан бир поғона катта бирлик учун эҳтиёж бўлади. Бошқача айтганда, гаплар ўзларидан кичик бирликлар учун қўлланиш объектлари бўлиб келиб, поғонали муносабат шаклланишига имкон яратади. Агар фикримизни давом эттирсак, сўз доирасида морфемалар ҳамда фонемаларнинг нутқий фаоллик олишлари жараёнида ҳам қуйи даражали шу тарздаги муносабат шаклланишини кўраемиз. Яъни бу ҳолат қуйидагича намоён бўлади: фонема – морфема – сўз ўртасидаги поғонали муносабат тил доирасида (унинг системаси сатҳида) вужудга келади, сўз – гап – матн ўртасида содир бўлувчи поғоналилик эса нутқ доирасида воқеланади. Поғонали муносабат қонуниятига мувофиқ тил сатҳларининг барчаси гап доирасида ўзаро кесишади¹, нутққа хос бўлган сатҳлар эса (гап, мураккаб синтактик қурилма, микроматн) матн доирасида ўзаро муносабат боғлайди.

Бу билан тилдан нутқни ёки нутқдан тилни ажратиш қўймоқчи эмасмиз, албатта, бундай бўлиши мутлақо мумкин ҳам эмас. Чунки нутқнинг материали тил бўлганидек, тилнинг қўлланиш объекти нутқдир. Л.Ельмслевнинг тўғри таъкидлашига кўра: «Тил мавжуд бўлмаса, матн ҳақида сўз бўлиши мумкин эмас, зотан, унинг асосида тил ётади»². Бироқ шундай бўлса ҳам, тилга хос қонуниятларни нутқ қонуниятларидан фарқлаб ўрганиш лозим кўринади. Акс ҳолда ё парадигматик, ёхуд синтагматик режаларнинг бири амалда қўлланган бўларди.

Шуни ҳам айтиш кераки, система тушунчаси фақат тилга эмас, балки нутқ учун ҳам характерлидир. Тил системасининг барча унсурлари алоҳида сатҳлар доирасида ўзига хос парадигмаларни ташкил этиб, умумий яхлитликни вужудга келтиради.

Бу ҳақда мулоҳаза билдирганида Б. Н. Головин қуйидагиларни таъкидлайди: «Тил система сифатида турли сатҳларга тегишли бўлган унсурларга бўлинадик, мазкур «унсурларнинг» энг умумий ва йириклари сифатида фонетика, лексика, сўз ясалиши, морфология, синтаксисни кўрсатиш мумкин»³.

Демак, ҳар бир сатҳ бирликлари алоҳида микросистемалардир. Ана шу боис тил сатҳлари бирликлари нутқий жараёнга ўтганда уларда биз системанинг амалдаги фаолиятини кўраемиз, аммо бу ўринда ҳам поғоналилик вужудга келади: микросистема фаолият кўрсатиши учун макросистемага эҳтиёж туғилади. Навбатдаги поғоналилик воқеланишида эса мазкур макросистема ўзидан катта система таркибига кириб, унга нисбатан микросистемага айланади.

¹ Қаранг: Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование.-М.:Наука,1971, С. .84. Хайруллаев Х. Нутқ бирликларининг поғонали муносабати. – Самарқанд, 2008, 21-бет.

² Ельмслевнинг мазкур фикри И. Ф. Вардулнинг «Основы описательной лингвистики» (- М., 1977) асарининг 51-бетидан олинмоқда.

³ Головин Б. Н. Язык // Общее языкознание. - М., 1979.- С. 93.

Айтиш жоизки, анъанавий тилшуносликда кўшма гаплар ҳақида фикр юритилганда ушбу иерархик муносабат қонуниятларига амал қилинмаётганлигини кузатамиз. Назаримизда бу изоҳ талаб қилмайди.

Рус тилшуноси А.М. Пешковский шу боис ҳам “кўшма гап” тушунчасининг истеъмолда эканлигига ижобий баҳо бермаган эди. Шу сабабли олим “кўшма гап” атамаси ўрнига “сложное целое” терминини таклиф қилган ва бирдан ортиқ гапларни бир гап тарзида тасвирлаш ноқулайликлар келиб чиқишига сабаб бўлишини таъкидлаган эди⁴.

М. Н. Петерсон эса “кўшма гап” тушунчасини мутлақо инкор қилади. Унинг фикрига кўра, боғланган кўшма гап ва эргаш гапли кўшма гап деб аталиб келинаётган синтактик қурилмаларда гапларнинг эмас, балки сўз бирикмаларининг ўзаро боғланаётганлигини кўрамыз⁵.

Табиийки, тил бирликларининг нутққа қай тарзда кўчирилиши ва бу жараёнда поғонали муносабат қоидаларига амал қилмаслик бундай мунозарали фикрларни юзага келтиради. Бу масалаларни мукамал ўрганувчи назария эса синтактик деривация назариясидир.

Синтактик деривация жараёнида нафақат тил ва нутқ факторлари, балки экстралингвистик омиллар ҳам ўзаро кесишади. Чунки деривация тушунчаси тил омилларини ҳам, нутқ омилларини ҳам тўлиқ камраб олади. Яъни Л.Н. Мурзин таъбири билан айтганда, деривация тил ва нутқ ўртасида тафовут ҳосил қилмайди, чунки нутқ тилни жонлантиради. Тилнинг бу фаоллашуви меъёрларга нисбатан эркинликда кечади. Бошқача айтганда, нутқ жараёнида тил катта эркинликка эга бўлади⁶. Унинг фикрича, лексик бирлик, образли қилиб айтганда, ҳар қандай грамматик либосни кия олади⁷.

Дарҳақиқат, тил бирликлари нутқда реал қўлланилар экан, улар турли ўзгаришларга дуч келади, қайта шаклланади, бир-бировига ўтади, яъни транспозицияга учрайди. Бу эса, маълум даражада, функцияга киришиш жараёнида улар ўртасидаги чегарани йўқотади. Кўринадики, деривация универсал характерга эга. Бир томондан у тил доираси билан нутқ доирасини бирлаштириб турса, иккинчи томондан у функционал жиҳатдан турли даражадаги тил бирликларини: фонема, морфема, лексема ва ҳ. к.ларни тенглаштиради. Айтиш жоизки, тил нутққа яхлит структура тарзида эмас, балки алоҳида лавҳалар билан, сўзловчининг эҳтиёжлари асосида танлаб олинган қурилма элементлари билан кириб келади⁸. Сўз (тил бирлиги) инсон томонидан нутқ орқали билимларини ва ўз фикрига бўлган субъектив муносабатини ифодалаш учун қўлланилади. Нутқ эса, маълумки, ҳар доим иккита субъект, яъни сўзловчи ёки ёзувчи ҳамда тингловчи ёки ўқувчига (китобхонга) эга бўлади. Тингловчисиз нутқ мавжуд бўлмайди. Ҳатто иккинчи одамнинг иштирокисиз сўзланган нутқ ҳам инсоннинг ўз-ўзи билан мулоқоти тарзида баҳоланади. Бу ўринда иллокутив ва перлокутив прагматик актларнинг ўзаро узвий муносабатини кўрамыз.

Юқоридагилар билан бир қаторда шуни ҳам таъкидлаш жоизки, ҳозирда дериватология соҳаси тилни турли йўналишлар билан ўрганишти: лингвистик йўналиш (деривация атамаси остида тил бирликларининг шаклланиши тушунилади); когнитив йўналиш (тил бу доимий кузатувдаги узлуксиз жараён, фикрни ифодалашнинг энг муҳим воситасисифатида ўрганилади (тил материаллари ва шакллари асосида)) ва психологик йўналиш (бунда деривация тил бирликларини фаоллаштирувчи жараён сифатида кўзга кўринмас, мавҳум тарзда ифодаланади. У сўзловчининг онгида шаклланади ва деривацион жараённи унинг айрим натижаларига, билвосита маълумотларга кўра кузатиш мумкин).

Кўринадики, деривацион назария ҳозирга қадар лингвистик доирада энг талаби кучли назариялардан биридир, чунки мазкур йўналиш Е. С. Кубрякова таъбири билан айтганда, тилшунослик ривожланишининг замонавий тамойилларига тўлиқ жавоб беради⁹. Тил табиатини ва нутқ фаолиятини ўрганар экан, дериватология тил жараёнини тўлиқ очиб беради.

У бир қатор назарий муаммоларнинг ҳал қилинишига имконият яратди ва марказида инсон онги турувчи лингвокогнитология, матншунослик, нутқ лингвистикаси каби янги лингвистик йўналишларнинг шаклланишига асос бўлиб хизмат қилди.

Адабиётлар:

1. Вардуль И. Ф. Основы описательной лингвистики, М., 1977.
2. Головин Б. Н. Язык // Общее языкознание.- М., 1979.
3. Кацнельсон С.Д. Категории языка и мышления. Из научного наследия, М., 2001.
4. Кубрякова Е.С. Когнитивные аспекты процессов деривации. – Пермь, 1998.

⁴Қаранг: Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 7 – изд.- М., 1956. – С. 447.

⁵Қаранг: Петерсон М. Н. Очерк синтаксиса русского языка.- Пг., 1923.- С.32.

⁶Қаранг: Мурзин Л.Н. О степенях свободы языка.- Екатеринбург: Урал. Унив. Публ., 1997.- С. 127-133.

⁷Қаранг: Мурзин Л.Н. Глагол и его маски.- Екатеринбург: Урал. Унив. Публ., 1993.- С. 4-10.

⁸Қаранг: Кацнельсон С.Д. Категории языка и мышления. Из научного наследия, М., 2001. – С.25.

⁹Қаранг: Кубрякова Е.С. Когнитивные аспекты процессов деривации. – Пермь, 1998.- С.45.

5. Мурзин Л.Н. О степенях свободы языка.- Екатеринбург: Урал. Унив. Публ., 1997.
6. Мурзин Л.Н. Глагол и его маски.- Екатеринбург: Урал. Унив. Публ., 1993.
7. Петерсон М. Н. Очерк синтаксиса русского языка.- Пг., 1923.
8. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 7 – изд.- М., 1956.
9. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование.-М.: Наука, 1971.
10. Хайруллаев Х. Нутқ бирликларининг поғонали муносабати. – Самарқанд, 2008.

U. Sanaqulov (SamDU)

XI ASR TIL ILMIGA OID “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARI VA UNING O‘RGANILISHI

Mahmud Qoshg‘ariy birgina “Devonu lug‘otit turk” asari bilan dunyo tilshunoslik sivilizatsiyasiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan, turkiy xalqlar ma‘naviy-madaniy merosining ming yillar avvalgi darajasini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilla olgan turkiy lingvistika tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk qomusiy olim hisoblanadi.

Uning “Devonu lug‘otit turk” asari milodiy asr boshlarida yashagan turkiy qavmlar foydalangan til va unga hos lug‘aviy birliklar qiyosiy metod asosida talqin etilgan. Boshqacha aytganda, bu asar leksikografik, ya‘ni oddiy lug‘at emas, balki bundan ming yillar avval O‘rta Osiyoda yashagan turkiy qavmlar tilida iste‘molda bo‘lgan so‘zlarning ma‘noviy va funksional-stilistik, fonetik, grammatik xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan lingvistik asar hamdir. Shunchaki lingvistik asar emas, balki umumturkiy tilshunoslikda til nazariyasi va qiyosiy-tarixiy metodning yuzaga kelishiga ilk asos, ildiz bo‘lgan ilmiy-amaliy manba ham hisoblanadi. Bu asarning mohiyatan ahamiyatli yana bir tomoni borki, hozirgi turkiy xalqlarning o‘tmish tarixi, etnogenezi, etnologiyasi (shajarasi), qadimiy etnografiyasi (turmush tarzi, urf-odatlar, folklori) kabilari bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyatda ishonchli muhim ma‘lumotlar mavjud. Bu asar qomusiy xarakterga egadir. Shu bois, o‘ziga xos bu qomusiy asardan nafaqat lingvistika tarixida, balki adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, tarix, geografiya-o‘lkashunoslik, tarixshunoslik, etnografiya, etnologiya, va faylsafa kabi juda ko‘p sohalar bo‘yicha o‘tmishda ham, hozir ham tadqiqotchilar o‘zlarini qiziqtirgan masalalar bo‘yicha samarali foydalanib kelishgan va kelmoqdalar.

Masalan, ushbu asarni tadqiq etgan o‘tmish olimlaridan biri *Ali Amiriy quyidagilarni yozib qoldirgan edi: “Kitobni qo‘lga olishim bilan o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. Bu kitob dunyoda qiyosi yo‘q, ham ma‘lum bo‘lmagan bir turk qomusi va grammatikasi edi. Arab tili uchun Sibavayxiyning kitobi qanday muhim bo‘lsa, bu ham turk tili uchun shunday ahamiyatlidir. Hozirga qadar turk tilida buning kabi kitob yozilgani yo‘q. Bu kitobning haqiqiy bahosini aniqlamoqchi bo‘lsangiz, jahonning xazinalari bunga teng kelolmas”*.¹⁰

Xususan, so‘nggi yangi davr olimlari tomonidan tadqiq etilib, ushbu asarning ilmiy qiymati haqida ko‘plab fikrlar bayon etilgan. Masalan, bular orasida mashhur sharqshunos olim *P.K.Juzening “Devonu lug‘otit turk” asari haqidagi quyidagi fikrlari xarakterlidir: “Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqurki, hatto bunday asar XIX asrda yozilganda ham, unga shon-sharaf bo‘lardir. Mahmud Qoshg‘ariyning devoni singari asar fan olamida keyingi asrlarda ham yaratilgan emas. Uning asari bamisoli “Turkiy qomus”dir*”.

Bu asarga bo‘lgan munosabatning birinchi bosqichida tadqiqotchilar uni tarjima qilish bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Natijada uning o‘zbek, turk, ozarbayjon, qozoq, uyg‘ur, shuningdek, eron, ingliz, nemis, rus, xitoy tillaridagi tarjima variantlari yuzaga keldi. Bu borada ulkan xizmatlari bo‘lgan turkiyalik Besim Atalay, o‘zbekistonlik Solih Mutallibov, ozarbayjonlik Ramiz Esker, qozog‘istonlik Asqar Agaboyov, uyg‘uristonlik Muhammad Fayziy va Ahmad Ziyoyev, eronlik Husayn Muhammadzoda Siddiq, rossiyalik turkolog S.E.Malov, angliyalik Robert Denkoff va Jizm Makkali, germaniyalik Karl Brokkelman va boshqalarning ishlarini qayd etish mumkin. Bu xayrli ishlar hamon davom etmoqda. Fan-texnika taraqqiyoti tufayli endilikda asarning elektron nusxalari internet saydalaridan joy olgan. Ushbu asar oradan o‘n asr vaqt o‘tganligiga qaramasdan bugun dunyo ilmiy ma‘rifat ahlining nazarida turibdi. “Devonu lug‘otit turk” asari bo‘yicha jahon bo‘yicha va O‘zbekistonda amalga oshirilgan ishlar haqida J.Xudoyberdiyevning “Mahmud Qoshg‘ariy hayoti va «Devonu lug‘otit turk» asarining o‘rganilishi” nomli ilmiy ommabob riisolasida juda yaxshi ma‘lumotlar berilgan¹¹.

“Devonu lug‘otit-turk”ga bo‘lgan munosabatning ikkinchi bosqichi asarni ilmiy tadqiq etish bilan bog‘liq. Bu borada olib borilgan va olib borilayotgan ishlar ko‘lamini dunyo miqyosida belgilash mumkin. Zero o‘zbekistonlik olim J.Xudoyberdiyev xayrli bir ishga qo‘l urib, Mahmud Qoshg‘ariy va uning devoni

¹⁰ Худойбердиев Ж. Махмуд Қошғарий ҳаёти ва «Девону луғотит турк» асарининг ўрганилиши. – Тошкент, 2010, -Б.4. (-48 б.)

¹¹ Худойбердиев Ж. Махмуд Қошғарий ҳаёти ва «Девону луғотит турк» бўйича яратилган асарлар кўрсаткичи” – Тошкент, 2010 (-169 б.).

tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzasidan kuzatishlar olib borgan, uning natijasi o'laroq «Mahmud Koshgariy xayoti va «Devonu lugotit turk» asarining o'rganilishi» asarini (Toshkent, «Fan», 2010), ayniqsa, «Mahmud Qoshg'ariy hayoti va «Devonu lug'otit turk» bo'yicha yaratilgan asarlar ko'rsatkichi» nomli muhim ilmiy ommabop risolasini chop qilgan. Xususan, «Mahmud Qoshg'ariy hayoti va «Devonu lug'otit turk» bo'yicha yaratilgan asarlar ko'rsatkichi» kitobida olim faoliyati bilan bog'liq 1800 ga yaqin yuzaga kelgan ishlar ro'yxati keltirilgan. Bu juda katta raqam bo'lib, «Ko'rsatkich»da keltirilgan ma'lumotlarda mavzu doirasidagi eng ko'p tadqiqotlar turk tilida 501 ta, rus tilida 393 ta, o'zbek tilida 309 ta, ozarbayjon tilida 164 ta, turkman tilida 147, ingliz tilida 126 ta, tilida nashr etilgan. 20 tadan 40 tagacha bo'lgan ishlar nemis (37), uyg'ur (26), qozoq (22), xitoy (20) tillarida; 1 tadan 9 tagacha bo'lgan tadqiqotlar qirg'iz (9), tatar (5), fransuz (3), venger (3), yapon (3), boshqird (2), italyan (2), qoraqalpoq (2), tojik (2), ukrain (2), fors (1) tillarida chop etilgan. Bizningcha, bu ko'rsatkich hali mukammal emas, chunki o'zbek olimlarining barchasi bo'yicha qilingan ishlar to'liq aks etmagan. Balki xorijiy olimlarning ishlari bo'yicha ham shunday xulosaga kelish mumkin. Hozirgi paytda, har qaysi ilmiy dargohlarda yozilgan ilmiy ishlar va tadqiqotlarni to'liq ro'yxatini hisobga olinsa Mahmud Qoshg'ariy faoliyati bilan bog'liq yuzaga kelgan ishlarning soni 2000 dan oshib ketadi, balki undanda ortar. Zero turkologiyada, jumladan, o'zbek tilshunosligida har yili Mahmud Qoshg'ariy faoliyati va «Devonu lug'otit turk asari bo'yicha o'nlab tadqiqotlar, ilmiy maqolalar yozilmoqda. Bunday ishlarning amalga oshishi turk tilshunosligidan keyin, o'zbek olimlarining ishi ikkinchi o'rinda deyishimiz mumkin. Chunki rus tilida yozilgan ishlarning 60 ga yaqini o'zbek tilshunoslari tomonidan amalga oshirilgan, buning ustiga O'zbekistondagi quyuda amalga oshirilgan ishlar ko'rsatkida mukammal hisobga olinmagan.

Hozirgi davrlarda Mahmud Qoshg'ariy buyuk tilshunos olim sifatida tilshunoslikning barcha sathlari bo'yicha ishonchli ma'lumotlar berganligi haqida va uning ilmiy xulosalari hamda nazariy fikrlarini asosli ravishda turli sarlavhalar asosida maqolalar, ilmiy ishlar yozilgan va yozilmoqda. Birgina Samarqand shahridagi bilim dargohlarida o'tgan asrning oxirlari va hozirgi davrlarda o'nlab maqolalar va malakali bitiruv (diplom) ishlari, magistirlilik dissertatsiyalari yozilgan. Masalan, keyingi uch-to'rt yillarda va ushbu yilda ham Mahmud Koshg'ariy hamda uning devoni bo'yicha malakaviy bitiruv ishlari va 10 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etildi. Bu ishlar SamDCHTI va SamDU dargohlarida, axbarotnomalari va ilmiy to'plamlarda ham chop etilganligi samarqandlik olimlarimizga ma'lum. Mana ikki yildan beri Mahmud Koshg'ariyning til bilmiga doir nazariy qarashlarining o'rganilishi masalasida ilmiy anjumanlar va axborotnomalari orqali chiqishlar qilib kelishganligim ko'pchilikka ma'lum. Mahmud Koshg'ariyning fonetik olim sifatidagi qarashlari haqida ba'zi bir fikrlarni aytmoqchiman, bu sohada uning nazariy qarashlarini qisqacha tavsiflamoqchiman.

Mahmud Qoshg'ariy, o'z davri darajasida eng avvalo, fonetist olim sifatida qimmatli nazariy fikrlarini bildira olgan. Eng ahamiyatlisi shundaki, olimning mazkur sohaga doir g'oyalari, nazariyalari, qarashlari hozirgi turkiyshunoslik va o'zbekshunoslik fonetikasida o'z qimmatini yo'qotganicha yo'q.

1. Mahmud Qoshg'ariy turkiyshunoslikda ilk bor nutq tovushlarning fonemalik mezonini seza olgan va o'z atamasi bilan belgilagan. Fonema bilan variant orasiga chegara sezgan. Nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi holatini ko'rsatgan. Nutq tovushlarini nutq a'zolarining holatiga va harakatiga qarab guruhlashtirgan. Demak, olim fonema va harf munosabatini ham turkiyshunoslikda ilk bor belgilagan.

2. Orfografiya va orfoepiya masalasi fonetikaning g'oyat muammoli nuqtasi sanaladi. SHuning uchun fonetika bilan shug'ullangan olimlarning aksariyati uni chetlab o'tmaydilar. Bu masalaga ham ular bevosita yoki bilvosita o'z munosabatini bildirib o'tganlar. Garchi Mahmud Qoshg'ariy o'z asarida yozuv masalasiga maxsus bo'lim ajratmagan bo'lsa-da, bu sohaga o'z munosabatini bildirgan. Eng e'tiborlisi, orfografiya masalasidagi muammolarni orfoepiya bilan bog'lab sharhlaydiki, bunday usul orfografiyadagi ayrim nazariy jihatlarini yechishda manbaning yordami katta ekanligini ko'rsatadi. Ayni paytda, turkologiyada orfografiya prinsiplari orfoepiya qonuniyatlaridan kelib chiqib belgilanganligini ta'kidlaydi.

Mahmud Qoshg'ariy turkiyshunoslikda ilk bor imlo talaffuzdagi tovushlarni ifodalashdan o'jiz ekanini ochib berdi. Uning o'zi birinchi bo'lib yozuvdagi kamchilikni to'ldirish maqsadida ayrim harflarni belgiladi.

3. Mahmud Qoshg'ariy turkiyshunoslikda ilk bor tovushni maxsus kuzatdi, ularni ilmiy jihatdan o'rgandi. Tovushlarning kombinatsiya natijasidagi mavqelarini-akustik va fiziologik holatlarini belgiladi. Olim fonetikaga doir juda ko'p yangiliklar ochdi, bu sohani yangi-yangi qoidalar bilan boyitdi. Olim ularning undosh tovushlardan farqini ajratar ekan, ulardagi kenglik va torlik, cho'ziqlik va qisqalik holatlaridagi qonuniyatlarni ochadi. Unli tovushlardagi ana shu xususiyatlarni asos qilib muallif turkiy tillardagi umumiylik va ular orasidagi xususiylikni belgilaydi.

4. Mahmud Qoshg'ariy e'tiroficha, fonetik jarayon g'oyat ko'p holatlar bilan bog'liq. Shuning uchun uni izchil va to'g'ri talqin qilish ham unga katta imkoniyat yaratadi. Olim undan shu maqsadlarda foydalangan. Chunonchi, u fonetik jarayonlarning ko'p holatda so'zlar etimologiyasini aniqlashga yordam berishini qayd etadi. «Devonu lug'otit turk»da Mahmud Qoshg'ariy shu usul orqali juda ko'p so'zlarning

etimologiyasini belgilaydi. Bu albatta, hozirgi umumturkologiya va o'zbek tilshunosligi uchun so'zlar etimologiyasini aniqlash, xususan, etimologik lug'atlar tuzish yo'lida g'oyat ahamiyatlidir.

Turkiy tillarda undoshlar juftligi, undosh tovushlarning juft holda qator kelishi yoki kelmasligi haqida turkologiya va o'zbek tilshunosligida xilma-xil fikrlar mavjud. Ayrim olimlar undosh tovushlarning takrorlanib kelganligini tan olmasalar, ayrimlar uni cho'ziq undoshlar deb ataganlar. Ba'zilar uni boshqa tillarning ta'siri sifatida ko'rsatgan. Mahmud Qoshg'ariyning ushbu fonetik jarayon yuzasidan tahlili bu boradagi qarashlarga ham oydinlik kiritishi mumkin. Olimning qayd etishicha, tovushlardagi ikkilik turli maqsadda yuzaga keladi. Chunonchi, mubolag'a, ta'kid, kuchaytiruv maqsadlari sabab bo'lishi mumkin. Ba'zan bir tovushning ikkinchi tovushga singishi ham ushbu fonetik jarayonni yuzaga keltiradi. Tadqiqotchi undoshlardagi juftlik tilda keyin yuzaga kelgan fonetik jarayon ekanligi haqidagi g'oyasini olg'a surar ekan, ularning so'z turkumlari bo'yicha ham turlicha ekanligini qayd etadi. Mahmud Qoshg'ariy bu jarayonni qoidalashtirib, aslida bir harf iikki qayta takrorlangan so'z turkiy tillarda sira yo'qdir. U faqat oxirgi harfi "t" bo'lgan fe'llardagina paydo bo'ladi. Ismlarda esa bu holat juda ozdir, deydi.

Xullas, Mahmud Koshg'arining nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki umumturkologiyada fonetiksiga doir nazariy fikrlari haligacha mukammal o'rganilgan emas.

Adabiyotlar

1. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-том. -Т.: “Фан”, 1960(-490 б.).
2. Худойбердиев Ж. Махмуд Қошғарий ҳаёти ва «Девону луғотит турк» асарининг ўрганилиши. – Тошкент, 2010. (-48 б.)
3. Худойбердиев Ж. Махмуд Қошғарий ҳаёти ва «Девону луғотит турк» бўйича яратилган асарлар кўрсаткичи” – Тошкент, 2010 (-169 б.)

Hoshim Ismoil Hamam Ali (Misr Arab Respublikasi) O'ZBEK MUTAFFAKIRLARNING DUNYO ILMI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSALARI¹²

Bizga ma'lumki jahon ilmiy sivilizatsiyasi rivojiga ko'plab mutafakkir va allomalarning qo'shgan hissasi va tutgan roli beqiyosdir. Shuningdek islom, arab ilmi juda ko'p ilm va fan sohalarining chuqur o'rganilishiga, boy ilmiy izlanishlar olib borilishiga va ilmiy yangiliklari bilan fan sohalarining tadqiq obyektining yanada kengayishiga xizmat qildi. Quyidagi alloma, mutafakkir va ularning keng tarmoqda olib borgan izlanishlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin: Imom al-Buxoriy va Muslim hadis ilmida, Abu Asvad Dualiy va Sibaviy grammatikada, Halil ibn Ahmad aruz vazni ilmida, Maxmud az-Zamaxshariy, Ibn Kasir va Nasafiylar tafsir ilmida, Tabariy tarixda, Ibn Mansur lug'tashunoslik ilmida, Muso al-Xorazmiy algebrada, Abu Ali ibn Sino tibbiyotda, Abu Qahhor Jurjoniy notiqlik asoslari ilmida va boshqa ko'plab allomalar turli fan sohalarida qomusiy olim sifatida tanilganlar. Qadim tarixda hozirgi O'zbekiston hududlari Movarounnahr nomi bilan mashhur bo'lgan davlati chegaralari doirasida bo'lgan. Insoniyat taraqqiyoti, ilmiy va madaniy sivilizatsiyasi ravnaqiga ulkan hissa qo'shishgan yuqoridagi alloma va mutafakkirlarning ko'pchiligi ya'ni Buxoriy, Zamaxshariy, Ibn Kasir, Xorazmiy, Ibn Sino va Nasafiylar huddi shu tuproq va buyuk zaminda tug'ilishgan edilar. Shu zaminda yashayotgan har bir inson yuqoridagi allomalarning avlodi ekanligi bilan fahrlanishi va g'ururlanishi lozim. Ushbu maqolada dunyo ilm-fani va insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga o'ziga xos hissa qo'shgan Maxmud az-Zamaxshariy hayoti va ilmiy izlanishlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Uning to'liq ismi Imom Abulqosim Maxmud ibn Umar ibn Muhammad Zamaxshariy, U milodiy 1074 (hijriy 467) yil rajab oyining to'rtinchi sanasida Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. U milodiy 1143 (hijriy 538) yil Makka shahridan Arofat kechasidan qaytganidan so'ng vafot etgan.¹³ Zamaxshariy tarixda Muhammad ibn Nushtakin tomonidan asos solingan va Xorazmshohlar sulolasi nomi bilan mashhur bo'lgan davlatda tug'iladi va o'sha davrda bu ulkan davlatni Abu Fattah Malikshoh idora qilardi. Umrining oxirgi yillarida Xorazmshohlar davlatiga "Utuz" laqabi bilan mashhur bo'lgan Bahouddin ad-Davla hukmdorlik qilayotgan edi.¹⁴

Maxmud az-Zamaxshariyning oila qurmaganligi sababli farzandlari bo'lmagan. Buning sababi sifatida Zamaxshariy ilmni va izlanishni barcha narsadan ustun qo'yganligi bilan izohlanishi mumkin.¹⁵ Zamaxshariy asarlarining aksariyatini fors tilida yozgan bo'lsa-da, arab tilini o'rganish va tadqiq qilishga juda ko'p vaqt sarflagan. Bu haqda Zamaxshariy o'zining "Muqaddimat ul-adab" ("Adab ilmiga muqaddima") asarida quyidagicha ta'rif keltirib o'tgan: "Barcha tillarning yaxshisi bu-arab tilidir, kitoblarning eng muqaddasi esa Qur'oni Karimdir".

¹² Tarjimon Z.A.Norboyev

¹³ . Qarang: Ibn Xilikan. Vafiyat al-Ayan. 4-jild. M., 1965 4-bet.

¹⁴ Qarang: Maxmud az-Zamaxshariy. Muqaddimat ul-adab. 2-bet.

¹⁵ Qarang: Maxmud az-Zamaxshariy. Navobig' ul-kalim. 3-bet

Zamaxshariy dastlab Xorazmda mahalliy olimlar qo`lidan ta`lim oladi, so`ngra o`z ilmini boyitish maqsadida Buxoro va Samarqand shaharlariga boradi. Qomusiy olim bo`lish maqsadi uni keyinchalik Bog`dod shahriga olib bordi, so`ngra o`z ilmini yanada boyitish uchun Ka`ba (Olohning uyi) joylashgan Makka shahriga ko`chib boradi. Zamaxshariy Makka shahrida juda ko`p asarlarni yozadi. Shundan so`ng u "Jarulloh" (Olohning qo`shnisi) nisbati bilan ataladi. Unga bunday nisbat berilishiga sabab uning Makka shahrida yozgan asarlari islom va arab sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo`shganligidadir.

Zamaxshariy bir oyog`idan ajralgan edi. Buning sababini quyidagicha berib o`tgan: "Yosh edim, bir chumchuq ushlab oldim va oyoqlarini ip bilan bog`lab, uni qo`limda uchirib yurgan edim, bir mahal chumchuq bir teshikka kirib qoldi. Uni chiqarish maqsadida oyog`iga bog`langan ipni tortdim. Lekin uning oyoqlari ip bilan yulinib chiqdi". Shunday kunlarning birida Zamaxshariy ilmini yanada mustahkamlash maqsadida Buxoro shahriga ko`chib keladi. Kuchli shamolli kunda Zamaxshariy oyog`ini sindirib oladi va unga oyog`ini kesishdan boshqa chora yo`qligini aytadi. Shundan so`ng uning bir oyog`ini kesishadi va oyog`i o`rniga yog`och oyoq qo`yishadi. Unga odamlar uning oyog`ining bittasi yo`q deb emas, balki oyog`ini singan deb o`ylashlari uchun yog`ochli oyog`ini o`rab yurishini aytadi.¹⁶

Maxmud az-Zamaxshariy ilm o`rganish maqsadida juda ko`p shaharlarga borgan va uning ustozlari ham ko`p bo`lgan. Masalan: Abu Mudar Maxmud ibn Jarir Dabbiy Isfahoniy, Abu Bakr Abdulloh ibn Talxa ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Yabiriy Andalusiy, Abu Xattab ibn Batar, Abu Mansur Javaliqiy Abu Ali Xasan ibn Muzaffar an-Nishopuriy, Abu Mansur Nasr al-Xarasiy va boshqalar. Shu qatorda Zamaxshariyning shogirdlari ham ko`p bo`lgan, undan ko`plab yoshlar ilm olishga harakat qilishgan. Zamaxshariyning shogirdlari: shayxlar hujjati nomi bilan mashhur bo`lgan Abu Xasan Ali ibn Muhammad ibn Ali ibn Ahmad ibn Marvon Umroniy al-Xorazmiy, Muhammad ibn Qosim ibn Boyajuk al-Baqoliy, Abu Yusuf Yoqub ibn Ali, Xorazm notiqi nomi bilan shuhrat qozongan Al-Muvaffaq ibn Ahmad Abu Said Is`hoq, nasl-nasabi tomonidan Ali ibn Abu tolibga borib tutashadigan Ali ibn Iysa ibn Hamza ibn Vaxas va boshqalar.

Zamaxshariy ko`plab fanlarning bilimdoni bo`lgan, u yozgan asarlar buning tasdig`idir. U tafsir ilmida uning "Al-Kashshof an haqiqi it-tanziyl va uyun il-aqoviyl fi vujuh it-ta`viyl" ("Qur`on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so`zlar ko`zlarini ochish") asari Qur`on tafsiriga bag`ishlangan. Notiqlik san`atiga ilmiga bag`ishlangan "Asos al-Balog`a" ("Notiqlik asoslari") asarida fikrni chiroyli ibora va so`zlar bilan ifodalash uchun kishi balog`at ilmlaridan yaxshi xabardor bo`lishi kerakligini alohida ta`kidlab o`tgan. Arab tili nahvi va sarfini o`rganishda yirik qo`llanma sifatida noyob hisoblangan "al-Mufassal" ("Grammatika bo`yicha mufassal kitob") asari, bu kitobning muxtasar nusxasi "Al-Unmuzaj" ("Namuna") nomi bilan ataladi. Hadis ilmida ma`nosini anglash qiyin bo`lgan ibora va soz`larning to`liq ma`nosi uning "Al-foiq fi g`arib al-hadis" ("G`arib hadislar haqida qimmatli kitob") asarida keltirilib o`tilgan. Geografiya sohasida uning "Kitob al-jibol valamkina valmiyoh" ("Tog`lar, joylar va suvlar haqida kitob") asarida geografik joylar to`g`risida qimmatli ma`lumotlar berilgan. Leksikologiya sohasiga bag`ishlangan "Muqaddimat ul-adab" ("Adab ilmiga muqaddima") asarida arabcha so`zlar ostida forsiy tarjimalarini bergan, bu kitob o`zbek tarixiy leksikologiyasi uchun qimmatli manbadir. Shuningdek adabiyotshunoslik ilmida aruz vaznida so`z yurituvchi "Al-Qustos fil-aruz" ("Aruzda o`lchov") asari muhim manbalardan biri sifatida qaraladi. Shuningdek Zamaxshariy asarlari orasida "Atvoq uz-zahab fil-mavo`iz val-xutab" ("Xutbalar va va`zlar bayonida oltin shodalar") nasihatlar to`plamini ham keltirib o`tishimiz mumkin.

Maxmud az-Zamaxshariy arab tili ilmi rivojiga ham ulkan xizmat qilgan. Uning "Al-Mufassal" asari azaldan Sharqda ham, G`arbda ham shuhrat topgan edi. Bu asar arab tili grammatikasi bo`yicha mufassal kitob edi. Bu kitodni yod olganlar arab tili nahvu sarfining yetuk bilimdoni bo`lishar edi. U o`sha davrda bu tilning eng mashhur olimlariga shogird tushishga harakat qildi va ulardan boy ilmiy meroslarini o`rgandi. Uning ilmiga turli xil ilmiy doiralar yuqori baho berishgan, ya`ni, Zamaxshariyning ko`plab asarlari fors tilida yozilgan bo`lsada uning arab tili ilmi rivojiga qo`shgan hissasi uchun bejizga uni "Arab va g`ayri arablar ustozlari" nisbati bilan aytishmagan bo`lar edi.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkin-ki, O`zbekiston zaminida tug`ulib jahon ilm-fani, madaniyati va san`atiga qo`shgan ulkan ma`daniy merosi bilan shuhrat qozongan ajdodlarimiz bilan g`ururlanishimiz, fahrlanishimiz kerak. Har bir shu zamin farzandi madaniy va ilmiy beshik o`chog`ida yashayotganligini unutmazligi lozim.

Adabiyotlar

1. Ibn Xilikan. Vafiyat al-Ayan. 4-jild. Misr Arab Respublikasi, 1965. 4-bet.
2. Maxmud az-Zamaxshariy. Muqaddimat ul-adab. XII asr. 2-bet
3. Maxmud az-Zamaxshariy. Navobig` ul-kalim. XII asr. 3-bet
4. Maxmud az-Zamaxshariy. Atvoq uz-zahab fil-mavo`iz val xutab. XII asr. 23-bet

¹⁶ Qarang: Maxmud az-Zamaxshariy. Atvoq uz-zahab fil-mavo`iz val xutab. 23-bet

КАСБ-ХУНАР ТЕРМИНЛАРИ ДЕРИВАЦИЯСИГА ОИД МУЛОҲАЗАЛАР

Маълумки, бошқа тилларда бўлганидек, ўзбек тилида ҳам касб-кор эгалари номлари ҳам кўпинча бир ўзак-негиздан иборат лексик бирликлар билан ифодаланади. Бундай терминлар структурасига кўра туб, ясама ва қўшма бўлиши мумкин. Чўпон, табиб, жарроҳ, котиб, доя, наққош, доктор, врач, оператор, монтёр кабилар морфематик қисмларга ажратилмайдиган, яъни туб касб-хунар номлари ҳисобланса, ҳайдовчи, учувчи, пайвандловчи, қўйчибон, ўрмоншунос, таксичи, бульдозерчи, киоскачи сингарилар ясама терминлар жумласига киради. Товуқбоқар, бузоқбоқар, радиоуста, моделчи шакл солувчи типдаги ясамалар эса қўшма ҳисобланади. Сўз ясалишининг ҳаммага маълум бўлган бу усуллари келтиришимизнинг боиси бор, албатта. Гап шундаки, ижтимоий-сиёсий ҳаётда, фан ва техникада содир бўлаётган туб ўзгаришлар лексиканинг бошқа қатламлари қатори касб-кор эгалари номларининг ҳам миқдор жиҳатдан кўпайиб боришига олиб келмоқда. Бу борадаги далиллик материалларни юқорида келтирган эдик. Табиий, шунчалик миқдордаги «объект» ларни бир сўз (туб, ясама, қўшма) билан ифодалаш анча мушкул. Шунга кўра, бундай терминларнинг маълум (ҳаттоки мутлақ кўп)қисмини бирикма терминлар ташкил этади, улар тилнинг муҳим номинатив воситаси сифатида бевосита ифодаланаётган тушунчанинг белгисини таъкидлаб кўрсатади. Мазкур фикрни мисол билан тушунтиришга уринамиз. Ўзбек тилида аввалдан ҳайдовчи термини бирор нарса бирор томонга қараб юришга кистовчи, мажбур қилувчи, бирор томонга йўлловчи касб-хунар маъносини ифодалаб келган. Лекин ўша вақтда ҳам, мазкур лексема якка ҳолда қўлланмаган, албатта унинг аниқланмиш объекти, яъни бирор нарса, предмет ёхуд уй ҳайвонлари номи мавжуд бўлган. Масалан: пода ҳайдовчи, жувоз ҳайдовчи, ер ҳайдовчи каби. Кейинги пайтларда эса турли-туман транспорт воситалари, қишлоқ хўжалик машиналарининг пайдо бўлиши муносабати билан уларни бошқарувчи касб-хунар номларини ифодалаш учун ҳам, айна шу ҳайдовчи терминидан фойдаланишга тўғри келади. Масалан: трамвай ҳайдовчи(си), троллейбус ҳайдовчи(си), автомобиль ҳайдовчиси, извош ҳайдовчи(си) ва бошқалар. Фикримизнинг далили учун яна битта мисол келтирамиз. Ўзбек тилига русча-байналмилал аппаратчи термини ўзлашгани маълум. Шуниси ҳам борки, касбшуносликда аппаратчиларнинг қандай иш бажаришига қараб ихтисосликлари фаркланади. Шунга кўра, она тилимизда аппаратчи термини билан ҳосил қилинган ўнлаб бирикмалар юзага келди. Масалан, биргина кимё саноатида аппаратчилар қуйидаги хилдаги иш билан машғулдир: дозалаш аппаратчиси, полимерлаш аппаратчиси, қуритиш аппаратчиси, кимёвий суюқланмалар тайёрлаш аппаратчиси, азот ўғитлар ишлаб чиқариш аппаратчиси, технологик жараёнлар аппаратчиси ва бошқалар.

Барча тиллар сингари ўзбек тилида ҳам муайян тушунчалар содда, қўшма сўзлар ҳамда бирикмалар воситасида ифодаланиши мумкин. Касб-хунар номларини англаувчи лексик бирликлар ҳақида ҳам худди шундай дейиш мумкин. Шунга кўра, бевосита мавзунини ёритишга киришишдан олдин она тилимиздаги касб-хунар номларининг миқдори ҳақида умумий тасаввур ҳосил этиш мақсадга мувофиқ деб топилди.

Ўзбек тили лексикасида касб-хунар номлари ўзига хос ўринни эгаллайди. Маълум сабабларга кўра, уларни санаб адоғига етиш қийин. Юқорида жуда кўп касб-хунар мажудлиги ҳақида маълумот берган эдик. Табиийки, уларнинг ҳар бирининг ўзига хос термини мавжуд. Шунга кўра, она тилимизда мавжуд бўлган сўз яшаш усуллари касб-хунар номларига нисбатан ҳам бемалол тарқалади.

Маълумки, ўзбек тилида сўз соф негиздан ҳамда негиз ва суффикс контаминациясидан иборат. Шуниси ҳам борки, негиз, биринчидан, морфематик қисмларга ажратилмаслиги, иккинчидан, морфематик қисмларга ажратилиши мумкин. Шунга кўра, ўзбек тилининг барча сўзлари сингари касб-хунар номлари ҳам ўзбек (лингвистик адабиётларда ноль суффиксли сўз) кўринишидаги ва ясама ҳолидаги лексемалардан иборат бўлади.

Материаллар таҳлили шундан далолат берадики, ҳозирги ўзбек тилида морфематик қисмларга ажратилмайдиган касб-хунар номлари унчалик кўп эмас. Ҳисоб-китобларга мурожаат этадиган бўлсак, масалан, «Ўзбек тилининг изоҳли луғати» да мана шундай касб-хунар номларидан 500 дан сал ортиқроғи қайд этилган. Уларнинг 100 тадан кўпроғини асли ўзбекча (умумтуркий) касб-хунар номлари ташкил этишини ҳам уқтириб ўтишни лозим деб ҳисоблаймиз.

Маълум сабаблар (булар ҳақида кўп гапирилганига кўра) ўзбек тилининг лексикасидан форс-тожикча сўзларнинг кенг ўрин олганлиги аёндыр. Ана шундай лексемаларнинг 200 га яқини касб-хунар номларидан иборатки, улар ҳозирги ўзбек тили нуктаи назаридан ўзакдан иборат сўз сифатида қаралади. Мисолларга мурожаат этайлик: деҳқон, доя, навқар ва бошқалар.

Ўзак тарзида қараладиган касб-хунар номларининг бир қисмини арабий ўзлаштирмалар ташкил этади (уларнинг сони 200 га яқин). Домла // домудла, жаллоб, жосус, коҳин, маддох кабилар шулар жумласидандир.

Ўзбек тили лексикасидан ўрин олган лектор, оператор, механизатор, ректор, режиссёр, альпинист, энтомолог, геронтолог, биолог, физиолог, эколог каби жуда кўп русча-байналмилал ўзлаштирма касб-хунар номлари ҳам морфематик қисмларга ажратилмайдиган лексемалар қаторига киради.

Ўзбек тилидаги касб-хунар номларининг бир қисмини кўшма ҳолидаги лексик бирликлар, ташкил этади. Аввало шуни қайд этиш лозимки, тадқиқот объектимизда соф кўшма ҳамда дефисли касб-хунар номлари мавжуддир.

Она тилимизда 200 дан ортиқ соф кўшма касб-хунар номи ўз вазифасини бажариб келмоқда, яъни алоқа жараёнида ишлатилмоқда (бизнинг картотекамиз асосида: аслида бундан ҳам кўпроқлигига ишончимиз комил).

Соф кўшма касб-хунар номларининг лексик-семантик гуруҳлари ҳақида гап кетар экан, аввало шуларни қайд этиш керак бўлади:

1. Соф кўшма касб-хунар номларининг бир гуруҳи «бирор мансабни эгаллаган кимса, бирор унвон эгаси» маъноларини англатиб келишини куйидаги мисоллар намунасида кўриш мумкин (уларнинг аксарият кўпи историзмлардир): мингбоши, мирзабоши, мироббоши, ясовул боши, ўнбоши, товонбоши, юзбоши кабилар.

2. Бу лексемаларнинг бир қатори «кўлга ўргатилган ҳайвонларга қаровчи, боқувчи» «маъносини ифодалаб келади: молбоқар, товукбоқар, беданабоқар, қуёнбоқар кабилар шулар жумласидандир.

3. Кам микдорда бўлса-да, соф кўшма касб-хунар номлари ичида «бирор касб эгаси» маъносини ифодаловчи лексемалар ҳам мавжуд. Масалан: кўзбойлогич // кўзбойловчи// кўзбоғчи, ишбошқарувчи //ишбоши, темирйўлчи, тошкесар ва б.

Ҳозирги босқичда бошқа халқлар тиллари лексикаси қатори ўзбек тили лексикасини ҳам рус ва бошқа Европа тилларининг таъсирсиз тасаввур этиб бўлмайди. Бундай таъсирни лексиканинг барча қатламларида яққол сезиш мумкин. Чунки мана шу қатламларнинг ҳар бирида айнан ўзлаштирилган ёхуд калькалаштирилган сўз ва терминларга дуч келинади.

Ўзбек тилига рус тилидан тузилишига кўра содда (шофёр, профессор, доцент каби), ясама (машинист сингари), кўшма (киномеханик, радиотехник каби) терминлар ўзлаштирилган (айнан ёки калькалаштирилган ҳолда). Мана шундай ўзлаштирилган (калькалар)орасида рус тилида «составные» ёхуд «сложносоставные» деб аталган сўз ва терминлар ҳам анчагина бор. Ампер-секунд, ватт-соат, мактаб-интернет, маънавий-сиёсий кабилар шулар жумласидандир. Компонентлари орасига дефис қўйиб ёзиладиган мана шундай лексик бирликлар ичида касб-хунар номларини ифодалайдиган юзлаб терминлар мавжудки, улар ўзбек тили учун тамоман янгиликдир. Мисолларга мурожаат қилайлик:учувчи-космонавт, чилангар -асбобсоз,бракчи- назоратчи, пардозловчи-плиталовчи, компьютерчи- котига, генерал-майор, чилангар-наладкачи, механик - чилангар ва б.

Бу типдаги янги сўзлар ўзбек тили (туркий тиллар) гагина хос бўлган сўзлардан фарқ қилиб турибди. Чунки асли ўзбекча жуфт сўзлар асосан «жамлик маъносини ифодалаш учун хизмат қилади[1, 267].Юқоридаги каби касб-хунар номлари эса бир йўла икки хил касб-корни эгаллаган, икки хил вазифани бажарадиган касб-хунар каби маъноларни ифодалаб келади.

Шундай қилиб, она тилимизда туб, кўшма ҳамда бирикма тарзидаги кўплаб касб-хунар номлари мавжуд экан. Шу билан бирга, материалларимизнинг кўрсатишича, ясама касб-хунар номларининг ҳам ўзига хос ўрни бор. Уларнинг барчасини бир тадқиқот доирасида ўрганиб чиқиш қийин, албатта.

Хулоса қилиб айтганда, ижтимоий – сиёсий, ҳаёт, фан ва техникадаги туб ўзгаришлар туфайли ўзбек тили лексикасининг қатламларидан бири- касб-кор эгалари номлари микдор жихатдан бениҳоя бойиб бормоқда. Улар хилма-хил семантик- мавзуй гуруҳлардан иборат бўлиб, касб-кор номларининг деривациясида ўзбек тилининг барча сўз яшаш усулларида кенг фойдаланилмоқда.

Адабиётлар:

1. Ўзбек тили грамматикаси, 1 –том. -Тошкент: Фан, 1975.

胡口靖夫(こぐち・やすお サマルカンド国立外国語大学名誉教授)

Koguchi Yasuo (SamDChTI)

発展するサマルカンドを見て

TARAQQIY ETAYOTGAN SAMARQAND

ある日本の旅行会社のチャーター便を利用したサマルカンド直航(ちょっこう)の「隊商(たいしょう)の道 サマルカンド・ブハラ・ヒワの旅

8日間」のツアーに参加しました。期間は、2018年4月6日から4月13日です。

驚いたのは、このツアーがウズベクツーリズムの後援を受けているので、東京成田空港の搭乗ゲート前で駐日ウズベキスタン大使のファジロフ氏による歓迎の挨拶があり、さらにその後全員の搭乗を見送って下さったことです。私は思わず「スパシーバ」と言って大使と固く握手しました。

今回私がツアーに参加した大きな目的は3つありました。第1は、自由行動中に久しぶりにサ外大の学長を表敬訪問(ひょうけいほうもん)し、懇談(こんだん)すること。第2は、発展するサマルカンドをこの眼で確かめること。第3は、サ外大在職中は激務のため見学できなかった世界遺産に登録された「ヒワ」の街を見学することです。日本のことわざに「日光(にっこう)を見ずして結構(けっこう)というなかれ」というものがあります。これをウズベキスタンに当てはめれば「ヒワを見ないでウズベキスタンをハラショーといっではいけない」ということになるでしょう。

第一の目的である学長の表敬訪問は、学長に急用ができて実現しませんでした。副学長のPh.D Sh.Ashurov氏と懇談ができました。詳細は省略しますが、最後に、副学長から「発展したサマルカンドを見学して、その感想を書いて通訳してくれた日本語教師のオゾダ先生にメールで送って下さい」と言われました。このエッセイはそれに答えて書いたものです。

その際、「サムオート・イスズ社の工場は、ぜひ見学してほしい」との希望が述べられました。早速同席した講座長の

D.Turayevaが、同社に電話してアポイントが取れ、見学できたことから書きたいと思います。

実は同社の工場を見学したのは今回で2度目です。はじめは2008年8月に、サマルカンドを世界に紹介するというタシケントにあるテレビ局が制作したドキュメンタリー番組に、オゾダ先生のガイドで私が出演したときでした。その際記念にいただいたDVD「私の故郷 サマルカンド」は今も大切に保管していたので、これを書くために久しぶりに見ました。またオゾダ先生の話によると、ウズベキスタン国内では10回以上放映(ほうえい)されたそうです。

さて、本題に話をもどします。訪問した4月7日は、週休2日制の土曜日だったので残念ながら工場は休みでした。しかし、案内していただいた社員が熱心に説明してくれましたので、通訳のオゾダ先生は大変だったと思います。

創業(そうぎょう)は、1999年でウズベキスタンのサムオート社とトルコのオトヨル社の合併会社でした。しかし、2007年に日本のイスズ社との合併会社となりその後とても発展しました。3工場となり以前よりも広くなりました。そして従業員は約1000人に増加しました。生産台数は日産で、トラックなど25台(車種(しゃしゆ)は、トラック・救急車(きゅうきゅうしゃ)・ゴミ収集車(しゅうしゅうしゃ)とバス10台です。救急車はアフガニスタンにも輸出されています。

材料の鋼板(こうはん)・鋼材(こうざい)は主にロシア製です。ロボット溶接機(ようせつき)が2台ありますが外国製です。車台(しゃだい)とエンジンは、日本のイスズ社製です。(私は、日本の藤沢(ふじさわ)工場製だと確認しました。)中国に陸揚げ(りくあげ)された車台とエンジンは、シルク

ロードを通過してサマルカンドまで運ばれてきます。車台はとても頑丈で、エンジンは故障(こしょう)が少ないので大好評です。製品には一台ごとに「製造票」が貼ってあり、「だれが、いつ何を作った」かが記録してあり、品質管理が徹底しています。

2年前に導入された13ある水槽(すいそう)について説明を聞きました。代表的なものは2つあります。第1は、以前塗装(とそう)は、工員(こういん)がスプレー機を使ってやっていましたが、どうしても「むら」ができます。そこで今は大きなプールのような水槽に塗料(とりょう)を入れて、そこに車体全体を沈めて塗装する方式になったので、均一(きんいつ)に塗装できるようになりました。

第2は、水漏(みづも)れ検査のための水槽です。以前よりも10倍以上正確に検査できるようになりました。

最後に彼は、「言い忘れましたが、トラックやバスは中央アジア諸国だけでなくロシアにも輸出されています」と述べて工場内を一巡(いちじゅん)する見学を終わりました。彼には「ラフマット」とお礼を述べて握手したことはいうまでもありません。

トラックやバスの主要部品である車台やエンジンに日本の「イスズ社」製が使用され、しかも大好評で、サマルカンドの発展(約1000人の雇用を生み出したことは高く評価したい)に大いに貢献していることは、私としても非常に喜ばしいことです。サ外大の副学長が同社の見学を勧めて下さった理由がよく理解できました。

つぎにサマルカンドの発展を実感した市電(トラム)が開通し、試乗できたことを述べたいと思います。それがいかに画期的(かっきてき)なことかを明らかにするためにサマルカンドの交通事情の歴史を簡単に書いておきたいと思います。

私が客員教授(Visiting Professor)として赴任した2003年4月ころ大学前の通りを時々トロリーバス(架線(かせん)からポールを通して電力の供給を受けて走る大型バス。線路を必要としない)が走っていました。しかし、乗客が少ないのでいつしか廃止され、架線をつるす電柱(でんちゅう)も撤去(てっきょ)されました。

かわりにミニバンの「ダマス」という国産(こくさん)のデウウズ社製の小型乗り合いバスが、路線と行き先を書いた用紙をフロントガラスに貼り付けてすいすい走り回っていました。運賃(うんちん)が安いことと、路線が多かったので市民に人気がありました。しかし、正確な時期は忘れてしまいましたが、あるとき政府の命令で廃止されました。サムオート・イスズ社製の大型バスに切り換えるために各地のバス停が大急ぎで建設されました。けれどもバスの台数が不足していたので、バスがなかなか来ないという不便さを市民はしばらく味わいました。これはバスが増車(ぞうしゃ)され、しだいに市民の足として定着しました。

そこへサマルカンドの新市街地の現代化を急ぐ故カリモフ大統領(サマルカンド出身)の意向(いこう)で市電が誕生したというわけです。私が市電の話をお京で聞いたのは、たしか1年位前だったと

思います。だが本当のことかと正直耳を疑いました。タシケントで不要になった市電や線路を転用(てんよう)するのではないか、あるいは開通にあたっては住宅街を壊すのではないかという疑問です。これらが無礼(ぶれい)な考えであったことは、今回の市電試乗でわかりました。

前述のサムオート・イスズ社工場見学が終わってからオゾダ先生と市電始発駅であるサマルカンド駅前に行きました。路線は2つでした。1つは、サマルカンド駅前とシャフバザールを往復する路線。もう1つは、サマルカンド駅前と住宅街のサテポ地区を結ぶ路線です。まず最初にサマルカンド最大のバザールがあるシャフバザール行きに乗り、サマルカンド駅前へ引き返してからサテポ行きにも乗りました。完成したのは、2年前の2016年と聞きました。運賃は車内に赤い字で9000スムと書いてありましたが、今は1000スムでした。小さな切符(中央にロシア語でトランバイと書かれ、番号が赤いインクで印刷されていました。)は少年らしい車掌から買いました。シャフバザールまでは約20分で着きました。シャフバザール駅で下車する時、私は運転手さんにオゾダ先生から質問してもらいました。それはタシケントを走っていた旧型の電車とは違い、とてもスマートな車体であったからです。答えは「チェコ製の新車」ということでした。若い頃チェコの首都プラハで見た市電のデザインを思い出しましたが、それよりはるかに洗練(せんれん)されたデザインに一新されていたので驚きました。

サテポ行きも終点まで20~30分で着きました。両線とも夕方の帰宅時間前に乗ったので、乗客は全員椅子に座れる程度でした。サマルカンドの市街地から離れた所に住んでいるオゾダ先生は、初めて乗ったとうれしそうでした。両線の沿線(えんせん)の様子を比較すると、シャフバザール行きの方が開発が進み道路の両側には、商店やオフィスらしい新しい建物が建設されていました。一方サテポ行きの車窓(しゃそう)から見るとまだ開発は遅れているように見受けられました。市電開通の経済効果が現れるのはこれからでしょう。

さて、心配した住宅の移転問題は皆無(かいむ)でした。というのは、両路線の道路はもともと片側4~5車線の幅の広い大通りであったからです。簡単に言えば、中央分離帯を中心にして片側1車線ずつ市電のレールを敷くために用地を削ったというわけです。ウズベキスタンの土地はすべて国有ですから日本のように私有地の多い所に新線を建設するのは大違いであったことに気がつきました。市電開通の直接的な経済的効果がさらに発揮(はっき)されて発展することは間違いないと確信(かくしん)しました。故カリモフ大統領が、故郷サマルカンド市民に贈った最後のプレゼントです。

Qisqacha izoh

Men Yaponiya va O‘zbekistonning sayyohlik kompaniyalari yordamida Samarqand shahriga yana bir bor tashrif buyurdim. Bu safar sayyoh sifatida O‘zbekistonning qadimiy shaharlari: Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarini sakkiz kun davomida, ya‘ni joriy (2018) yilning oltinchi apreldan o‘n uchinchi apreliga qadar ziyorat qilishga muvofiq bo‘ldim.

Bizni Yaponiyaning Narita aeroportida O‘zbekistonning Yaponiyadagi elchisi janob Fozilov iliq so‘zlar bilan kuzatib qo‘ydi va men u kishiga o‘zim o‘ylamagan holda ”shipashiba (rahmat)” deb yubordim.

Ushbu sayohatda ishtirok etishimdan uchta asosiy maqsad ko‘zda tutilgan edi. Birinchisi, bir necha yil davomida o‘zim faoliyat olib borgan dargoh, Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti rahbariyati bilan uchrashish bo‘lsa, ikkinchisi rivojlanayotgan Samarqand shahrinig bugungi qiyofasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rish va uchinchi maqsadim Xiva shahrini ziyorat qilish edi. Yponlarda shunday naql bor “Nikkou(joy

nomi) ni ko'rmasdan turib, boshqa joyni chiroyli dema". Ushbu naqlni O'zbekiston qiyosida aytadigan bo'lsak, "Nikkou" bu "Xiva" ga to'g'ri keladi deyish mumkin.

Bu galgi Samarqand shahriga bo'lgan tashrifim chog'ida dastlab, SamDChTI ga tashrif buyurdim va u yerda janob Sh.Ashurov bilan suhbatlashdim. U kishining taklifiga ko'ra o'sha kunning o'zida Samarqand shahridagi "SamAuto" qo'shma korxonasiga ham tashrif buyurdim. Bu yerga bo'lgan tashrifimni D.To'rayeva tashkillashtirib berdi va u yerda ham meni iliq kutib olishdi. Bu korxonaga bundan o'n yil ilgari ilk bor tashrif buyurgan edim-u, o'sha davrdagi bilan qiyoslaydigan bo'lsak, bugungi kunda korxonadagi o'zgarishlar katta ekanligiga guvoh bo'ldim.

Bundan tashqari, Samarqand shahrining bugungi qiyofasi ham sezilarli darajada rivojlanganligini ko'rdim. Ayniqsa, shahar ichida trolleybus qatnovining yo'lga qo'yiganligi hayratlanarli! Yaponiyada shaxsiy yerlar ko'pligi sababali, bunday ishlarni amalga oshirish bir muncha mushkilligi bilan O'zbekistondan farq qiladi.

Safar chog'ida, men bir vaqtlar istiqomat qilgan Samarqand shahrining bugungi go'zal qiyofasi menda yaxshi taassurot qoldirdi va O'zbekistonning kelajagi porloq ekanligiga yana bir bor ishonдим!

(Tarjimon O.F.Achilova)

Э.Н.Хошу (СамГУ)

СУФФИКСАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАНИЯ НОВЫХ СЛОВ В «ИСТОРИИ ОДНОГО ГОРОДА» М.Е.САЛТЫКОВА-ЩЕДРИНА

Язык великого русского сатирика М.Е. Салтыкова-Щедрина - важнейший элемент его острой политической сатиры, его страстного протеста против существующего строя, его идеологии, философии и морали.

Сатира Щедрина сильна как своей идейной направленностью, так и средствами художественной изобразительности, среди которых язык играет основную роль.

Щедрин именно потому относится к числу великих людей в развитии языка, что он сумел правильно понять сложившиеся условия, в которых находился русский литературный язык в середине XIX века, и нашел решение, как эти условия изменить, определив пути и способы дальнейшего пополнения и совершенствования средств литературной речи.

Основными способами морфологического словообразования у М.Е. Салтыкова-Щедрина можно считать создание новых слов с помощью производительных аффиксов.

Так например, имеются у писателя образования на *-анин*, *-енин*: «старичане», «черкашенин» /народное видоизменение слова «черкес»/.

По старославянским нормам словообразования (при помощи старославянского суффикса *-иц-е*) образованы существительные «судьбище», «сходбище».

Собственные существительные, обозначающие названия городов, сел, образованы Щедриным при помощи притяжательного суффикса *-ов /-о/*, широко употреблявшегося в русском языке для образования названий места. Суффикс этот сатирик присоединял к основам основного словарного фонда: город Глухов (от «глупый»), пригород Полоумнов (от простонародного прилагательного «полоумный»), село Недоедово (от «недоедать»).

В женском роде к суффиксу *-ов /-ев/* перед окончанием женского рода *-а* прибавлялся еще суффикс *-к*: деревня Голодаевка (от «голодать»). Суффикс *-ов /-ев/* при образовании собственных существительных Щедрин использовал для названия хронологически более старых. Для новых же названий он использует другой суффикс, более поздний *-ск*: новое название Глухова, данное Угрюм-Бурчевым: *Непреклонен* (от прилагательного *непреклонный*).

По аналогии с собственными именами в простонародной речи часто образуют существительные со значением признака или качества от прилагательных. Подобные образования в произведении писателя встречаются в речи юродивой Аксиньюшки: "Я и Егоровна, я и татраторовна! Ярило-мерзило! [3, с. 140].

Особенностью Щедрина при суффиксальном образовании прилагательных является употребление заимствованного суффикса *-ический*: *энергический*, *характеристический*.

Интересно употребление прилагательного "земский" в сочетании: «среди глубокого земского мира» [3, с.167], где оно равняется по значению прилагательному «земной».

У Щедрина имеются наречные образования на *-о* от прилагательных: «гадательно», «определятельно», «нерукотворно» от сложного слова, состоящего из существительного и адъективированного причастия «нерукотворный»/, от заимствованной основы: «галантерейно». Такого же типа просторечное наречие «облыжно» в сочетании: «... и градоначальницей облыжно

называть себя изволила». [3, с. 143]. Можно предположить, что оно образовано от корня «ложь»: в разговорном языке встречается глагол «облыгать» / «оболгать»/.

По типу народно-разговорных прилагательных на *-астый* образованы Щедриным фамилии: *Брудастый*, *Бесчастный*, в качестве фамилии использовано прилагательное - *Горластый*.

Случаи суффиксального образования глаголов у Щедрина единичны, что объясняется малопродуктивностью этого способа образования глаголов вообще.

Нужно отметить глаголы «печаловался», «трапезовать», которым суффикс *-ова-* придает просторечный характер, тогда как основы их являются общеупотребительными.

Словопроизводство Щедрина осуществлялось преимущественно в пределах существительного и прилагательного, являвшихся ведущими морфологическими категориями его сатирического языка. Поэтому, например, наречные словообразования в его произведении незначительны, а отглагольные образования явно уступают именным.

Своеобразие произведения Щедрина, заключающееся в сатирическом изображении, отразилось на характере и целенаправленности словопроизводства. Привлекая разнородный лексический материал и пользуясь общеизвестными формами словообразования, он создавал новые и действенные речевые средства сатиры.

В результате всего сказанного можно сделать вывод, что творческое освоение всего языкового наследия, а также неистощимая изобретательность в создании новых слов, смелость и оригинальность щедринских приемов словотворчества характерны для индивидуального своеобразия слога Щедрина.

Литература:

1. Бушмин А. История одного города. /Вступит.ст. В кн.: М. Е. Салтыков-Щедрин. Избранное. – М.: Художественная литература, 1970.
2. Земская Е.А. Современное русское словообразование. – М., 1973.
3. М.Е.Салтыков-Щедрин. История одного города. – М.: Детская лит.,1975.
4. Потиха З.А. Современное русское словообразование. – М., 1971.

Д.Йўлдошева (СамДУ)

-ли АФФИКСИ БИЛАН ЯСАЛГАН ОРНИТОНИМЛАР ҲАҚИДА

Ўзбек тилида орнитонимларнинг асосий қисми бирикмали ва қўшма сўз характеридадир. Шу билан бирга орнитонимлар орасида морфологик усул билан ҳосил бўлган ясама сўзлар ҳам маълум қисми ташкил этади. Кузатишлар шуни кўрсатадики, тилимизда ясама орнитоним ҳосил қилувчи фаол сўз ясовчи қўшимчалар қаторига *-ли* аффикси ҳам қиради:

Бу аффикс бир сўз (компонент)дан иборат бўлган орнитонимларга қўшилмайди. Улар бирикмали орнитонимларнинг асосан иккинчи ёки учинчи компонентига қўшилади ҳамда яхлит ҳолда аниқловчили бирикма ҳосил қилади. Бу аффикс ёрдамида ясалган қўшма орнитонимлар энг кўпчиликни ташкил этади: *жингалак+ли бир қозон, оқ бош+ли қумой, оқ дум+ли сувбургут, ингичка тумишук+ли балиқчи, узун дум+ли қарқуноқ, қора бош+ли сирчумчук, узун дум+ли пашишахўр, соқол+ли чил, соқол+ли япалоққуш, тож+ли каптар, узун дум+ли думпараст, уч бармоқ+ли қуш, узун оёқ+ли товук, малла ранг+ли қалдирғоч, малла йўл+ли қалдирғоч, икки тож+ли каптар, яшил қанот+ли товус, бақаогиз+лилар, бақаогиз+ли тентакқуш, тангача+ли черага, узун тумишук+ли черага, тиш+ли қушлар, янги танглай+ли қушлар, кенг кўкрак+ли оқ курка, елтигич дум+ли қушлар, шох тумишук+ли чумчук, попук+ли узунқанот, кул ранг елка+ли тўти, кул ранг елка+ли ўрдак, узун дум+ли сичқон қуш, ракета дум+ли колибри, буқоқ+ли лайлак, кўзойнак+ли гага, соябон+ли қушлар, тож+ли турна, тож суяк+ли қушлар, кенг огиз+лилар, кўкрак тож+лилар, оқ елка+ли албатрос, юмалоқ тумишук+ли плавунчик, узун дум+ли поморник, уч бармоқ+ли қизилиштон, ингичка тумишук+ли буревестник, кенг кўкрак+ли бронза ранг курка, кўк қанот+ли товус, оқ бош+ли деҳқончумчук, оқ манглай+ли гоз, оқ тумишук+ли тўқимачи, оқ қанот+ли тўқай чумчуги, бурама дум+ли оқчорлоқ, бўйинбоғ+ли деҳқончумчук, бўйинбоғ+ли ер чумчуги, бўйинбоғ+ли япалоққуш, думалоқ бурун+ли плавунчик, ёқут тус+ли қирғоқ чумчуги, зангори бош+ли ер каптари, зангори бош+ли осилма тўтиқуши, зангори дум+ли товус, зангори томоқ+ли тўтиқуши, зангори қанот+ли товус, зот+ли америка кондори, зот+ли пингвин, зот+ли қирғоқ чумчуги, зот+ли гриф, зот+ли қирғовул, игна дум+ли жарқалдирғоч, игна оёқ+ли япалоққуш, икки шох+ли калао, икки шох+ли каркидон қуш, ингичка тумишук+ли кайра, ингичка тумишук+ли оқчорлоқ, ингичка тумишук+ли узунбурун балчиқчи, йўлбарс тус+ли қарқуноқ, какку дум+ли худҳуд, какку қўйруқ+ли попишак, калта бармоқ+ли булбул, калта бармоқ+ли қораялоқ, калта дум+ли оқчорлоқ, калта дум+ли поморник, калта дум+ли тўтиқуши, калта дум+ли гуррак, калта тумишук+ли тўрғай, калта тумишук+ли тўтиқуши,*

канарейка+ли чумчуқ, катта тумиуқ+ли лайлак, катта тумиуқ+ли олақарга, катта қулоқ+ли япалоққуш, катта қулоқ+ли қирговул, кенг тумиуқ+ли какку, кенг тумиуқ+ли ҳашаротхўр қуш, кулранг юз+ли ўрдаксимон қуш, кўзойнак+ли бирқозон, кўзойнак+ли пингвин, кўзойнак+ли қоравой, кўк томоқ+ли тўтиқуш, кўк соқол+ли тунги кўркунак, лайлак тумиуқ+ли қиргоқ чумчуғи, малла бош+ли лочин, манзара+ли канарейка, олачипор кўкрак+ли деҳқончумчуқ, олачипор кўкрак+ли ҳашаротхўр қуш, олачипор тумиуқ+ли бўронқуш, оч зангори тус+ли лори, оқ бош+ли гриф, оқ бош+ли денгиз бургути, оқ бош+ли деҳқончумчуқ, оқ бош+ли қизилдум чумчуқ, оқ бош+ли қумой, оқ бел+ли альбатрос, оқ бел+ли жарқалдирғоч, оқ бўйин+ли денгиз гози, оқ бўйин+ли митти чумчуқ, оқ бўйин+ли соқолтой, оқ бўйин+ли чивинқуш, оқ бўйин+ли гоз, оқ дум+ли денгиз бургути, оқ дум+ли қум қуши, оқ елка+ли денгиз бургути, оқ ёноқ+ли булбул, оқ ёноқ+ли оқчорлоқ, оқ ёноқ+ли тундра гози, оқ ёноқ+ли қуш, оқ пешона+ли казарка, оқ томоқ+ли момиққуш, оқ қанот+ли оқчорлоқ, оқ қанот+ли погонии, оқ қанот+ли тўрғай, оқ қош+ли митти чумчуқ, оқ қош+ли сайроқи қораялоқ, оқ қулоқ+ли қора какаду, ракета дум+ли австралия қиргоқ чумчуғи, ракета дум+ли кўк қарга, сариқ бел+ли жиблажибон, сариқ бош+ли кичкина қушча, сариқ бош+ли митти чумчуқ, сариқ елка+ли ҳашаротхўр қуш, сариқ ёноқ+ли қўнғир, сариқ тумиуқ+ли какку, сариқ тумиуқ+ли кўтон, сариқ қулоқ+ли аратинга, семиз тумиуқ+ли тўтиқуш, семиз тумиуқ+ли читтак, семиз тумиуқ+ли чумчуқ, семиз тумиуқ+ли қамиш чумчуғи, соқол+ли болтаютар, соқол+ли каклик, соқол+ли қарчиғай, соқол+ли қуш, соқол+ли қўнғироқ қуш, тож+ли тўтиқуш, узун бурун+ли чумгалак ўрдак, узун дум+ли денгиз бургути, узун дум+ли какку, узун дум+ли оқчорлоқ, узун дум+ли читтак, узун дум+ли япалоққуш, узун дум+ли ясмиқ чумчуғи, узун дум+ли ўлаксахўр оқчорлоқ, узун тумиуқ+ли қоравой, узун қулоқ+ли қирговул, уч бармоқ+ли оқчорлоқ, фиалка тус+ли астрильд, чирой+ли турна, ясси бурун+ли плавунчик, ясси дум+ли тўтиқуш, ясси тумиуқ+ли қуш, ўткир қанот+ли қизилиштон, ўткир қанот+ли қум қуши, қалдирғоч дум+ли қарга, қалдирғочсимон оқ кўкрак+ли қорақуш, қизил бош+ли чумгалак, қизил бош+ли қарагай ўрдак, қизил бош+ли қизилиштон, қизил бурун+ли аял қарғаси, қизил бўқоқ+ли тундра гози, қизил бўқоқ+ли қуш, қизил дум+ли бразилия амазони, қизил дум+ли тўтиқуш, қизил дум+ли фаэтон, қизил дум чумчуқ+ли қора ўрдак, қизил ёқут тус+ли колибри, қизил оёқ+ли митти чумчуқ, қизил оёқ+ли погонии, қизил оёқ+ли қораялоқ, қизил тумиуқ+ли деҳқончумчуқ, қизил тумиуқ+ли ер чумчуғи, қизил тумиуқ+ли қиргоқ чумчуғи, қизил тумиуқ+ли чумгалак, қизил қанот+ли сайроқи қуш, қизил қанот+ли тинаму, қилич тумиуқ+ли чивинқуш, қилич қанот+ли колибри, қора бел+ли сайроқи олақарга, қора бел+ли альбатрос, қора бош+ли мойқут, қора бош+ли оққўз, қора бош+ли чумгалак, қора бош+ли шақилдоқ, қора бўйин+ли асалқўрсаткич, қора бўйин+ли оққуш, қора бўйин+ли қўнғир, қора бўқоқ+ли гагара, қора бўқоқ+ли денгиз гози, қора бўйин+ли гагара, қорамтир пат+ли сайроқи қушча, қора тумиуқ+ли денгиз қуши, қора тумиуқ+ли какку, қора қанот+ли лори кабилар.

Тадқиқот объектимиз юзасидан олиб борилган кузатишларимиз шундан далолат берадики, ўзбек тилида –ли сўз ясовчи аффикслар морфологик орнитонимлар ҳосил қилишда фаол иштирок этади. Бундай ясама орнитонимларнинг асосий қисми бирикмали характерга эга бўлгани учун уларни морфологик-композицион усул билан ҳосил қилинган ясама орнитонимлар дейиш мақсадга мувофиқдир.

А.С.Рахимов (СамДЧТИ)

ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИ ЛЕКСИКАСИНИНГ ЭСКИРГАН СЎЗЛАРГА МУНОСАБАТИ

Маълумки, эскирган сўзлар эски сўзлардан, шунингдек, замонавий тилнинг меъёрий лексикасидан эскилик бўёғига эгалиги билан фарқланади. Бундай сўзлар, асосан, замонавий ижодкорлар томонидан яратилган бадиий асарларда ўтмиш давр тасаввурини бериш, персонажлар нутқини замон талабига мос равишда индивидуаллаштириш эҳтиёжи туфайлигина ишлатилади. Бироқ достонлар тилида учрайдиган эскирган сўзлар бундай услубий талаблардан мустасно бўлиб, улар достонларнинг кўп асрлик ижодий шаклланиш босқичларида халқ тилининг энг фаол меъёрий лексикаси сифатида амалда бўлганлиги билан фарқланади. Бошқача айтганда: “Тарихийлик нуқтаи назаридан достонларда учрайдиган эскирган сўзлар, мазкур манбалар учун тарихий ёки эскирган сўзлар эмас. Чунки достонлар яратилиб, асрлар оша куйланиб келинганда, бу сўзлар жуда маҳсулдор бўлган ва шу сабабли улар достонларнинг бадиий тўқималарига чуқур сингиб кетади” (1, 56).

Шу нарса ҳам характерлики, достонлар тилига хос эскирган сўзларнинг каттагина қисми, эски сўзлар сингари қадимги туркий тилга оид ёзма манбалар билан кўпгина лингвистик муштаракликларга эгаки, бу муштараклик қадимги туркий оғзаки ижоднинг ёзма манбаларга таъсиридан ҳам далолат беради. Жумладан, Ҳ.Зарипов бунга алоҳида эътибор берган ҳолда “Девону луғотит турк”даги лексиканинг анчаси ўзбек фольклорига кўпинча эскирган шаклини сақлаб қолган”, - деб уқтириши

ҳам, эпик асарларда қадимги туркий тилга оид сўзларнинг салмоқли ўрин эгаллашини кўрсатади (2, 65).

Бу мулоҳазаларнинг далили сифатида дostonлар тилидаги ана шундай сўзларнинг бир қисмини қадимги туркий ёзма манбалар (ДЛТ) ва улар асосида тузилган луғатлар (ДТС) билан қиёслаган ҳолда келтириб ўтамыз. Улар қуйидаги хусусиятга эгаллиги билан ўзаро фарқланади:

1. Фонетик структураси ва лексик-семантик хусусиятларига кўра қадимги туркий тил билан муштарак бўлган сўзлар:

bo'rk (ДТС. 118); бўрк (337) – бош кийим, телпак.
do'n (ДТС. 60); дўн (385) - қайт(моқ), қайрил(моқ),
jaq'i (ДТС.224); ёғи (453) – душман, ёв.
jaq (ДТС. 337); ёқ(моқ) (299) суртмоқ.
jügrükat (ДТС. 284); югрук от (279) - чопкир от.
jügrükbilga (ДТС. 284); югрук бахши (474) – зийрак, донишманд киши.
jajla (ДТС. 226); яйла(тмоқ) (57) – ёзла(тмоқ).
körpaat (ДТС. 318); кўрпа кўзи – ёш от, ёш кўзи.
kand (ДТС.290); канд (229) - шаҳар.
kölig (ДТС. 314); кулиг (259) – юк оти, юк ташийдиган от.
köşik (ДТС. 319); кўшк (294) – айвон, шийпон.
saqkõñül (ДТС. 485); соққиз (312) – хушёр кўнгил, зийрак, хушёр қиз.
sag' (ДТС. 480); сағқиз (312) - ақл, фаросат; ақлли, хушли қиз.
söq (ДТС.508); сўқ(қи) (384) - урмоқ, кучли зарба бермоқ.
söq (ДТС. 508); сўғ(иш) (51) - суқмоқ, тикмоқ; жанг.
söq (ДТС. 506); сўқ(тир) (222) – яса(моқ), қур(моқ).
sin (ДТС. 503); син (36) – гавда.
örla (ДТС. 389); ўрла (49) – баландликка кўтарилмоқ.
terlik (ДТС. 555); терлик (20) – от абзалларидан бирининг номи.
töš (ДТС 382); тўш (373) - кўкрак, тўш.
tug' (ДТС. 584); туғ (57) - байроқ.
tut (ДТС. 591); тут (27) – занг, темир занги.
туз (ДЛТ.І. 314); туз (57) - тўғри, текис.
čat (ДТС. 141); чот (232) - урмоқ, саваламоқ.
čal (ДТС. 137); чал (392) - саваламоқ, қамчи чалмоқ
qaq (ДТС. 432); қақ (235) - кўлмақ.
qula (ДТС 464); кула (348) – заъфарон ранг.

II. Қадимги туркий тил билан лексик-семантик жиҳатдан муштарак, бироқ фонетик жиҳатдан қисман фарқланувчи сўзлар:

añdi (ДТС. 47); анғни (245) – пойлади, таъқиб қилди.
alp (ДТС. 36); алп (400) - баҳодир, паҳлавон.
bögur (ДТС. 116); бўйир (88) – буйрак.
berim (ДТС. 96); бериш (96) – маош, қарз, тўлов.
inanč (ДТС. 299); иноқ (553) – ишончли вакил, мансабдор.
kökuz (ДТС. 313); кўкай (382) - кўкрак.
buñ (ДТС. 124); мунг (381) – мунг, ғам.
tög' (ДТС. 570); тўк (450) – чанг, тўзон.
qag'an (ДТС. 405); хоқон (277) – олий давлат бошлиғи.
qan (ДТС. 417); хон (9) – хон, ҳукмдор.
kömüldürük (ДТС. 314) - ўмулдурук – от кўкрагига боғланадиган тасма.

Дostonлар тилининг тарихий асосларини белгилашда муҳим бўлган бундай сўзларнинг аксарият қисми этимологик жиҳатдан умумтуркий асосга эга бўлиб, улар туркий тиллар тарихининг миллий босқичларида ҳам фаол қўлланилиб келинган. Масалан:

Қирқин.Қадимги туркий тилда: qırqın- чўри, асира/qızqırqın– асира қиз/ /ДТС. 446/. Эски ўзбек ва бошқа туркий тилларда: қырқын-жория, чўри, асира /Рад.ІІ. 748/. Дostonда: Қирқинқизлар бўлсин сенинг қурбонинг /22/.

Син.Қадимги туркий тилда: sin – гавда, қомат /ДТС. 503/. Туркий тилларда: син-гавда, қомат /Рад. IV. 628/. Дostonда: Кўринг сини-синбатти /36/.

Кўрпа. Қадимги туркий тилда: кўгра – ёш, навнихол / кўграот – янги чикқан майса, ўт /ДТС. 318/. Туркий тилларда: кўгра - кўзи, янги туғилган кўзи /Рад.ІІ. 1464/. Дostonларда: Мўмин болам, кўрпа кўзим омон бўл /380/.

Кула. Қадимги туркий тилда: qula – заъфарон ранг, сариқ-қизил тус /ДТС. 464/. Туркий тилларда: кула-сариқ-қизил ранг /Рад. III. 967/. Достонда: Отинчопибкуладашга /348/.

Дўн. Қадимги туркий тилда: dön - айланмоқ, қайтмоқ, қайрилмоқ /ДТС.160/. Турк, озор тилларида: дөнмақ-айланмоқ, қайтмоқ, қайрилмоқ, дөнум-қайтиш /Буд. I. 576/. Достонда: дўнмоқ-от устидаги турлича ҳаракат:Алвон-алвон дўнади. Аваз ўтдай ёнади/385/.

Кўшқ. Қадимги туркий тилда: köşik – айвон /ДТС. 319/. Усмонли турк: кёшқ-айвон, боғ шийпони /Буд. II. 156./ Достонда: Кундузой кўшқи устида қизлар билан ўйнашиб ўтирибди /294/.

Чалмоқ. Қадимги туркий çal - урмоқ, саваламоқ /ДТС. 137/. Усмонли турк ва озор тилларда: чāl - урмоқ, силкитмоқ. /Рад. 1875, 1976/. Достонда: Отга қамчи чалади /392/.

Соқ. Қадимги туркий тилда: saq- диккатли, хушёр, зийрак (saqtur – хушёртур) ДТС. 486/. Уйғур: сак; олтой, қирим, қозок: сағ-хушёр, эҳтиёткор, зийрак, ақли, мушоҳадали /Рад. IV. 249/. Достонда: Оққиз ... ўзи тўлган соғ қиз уйқуси кам соқ қиз /240/.

Тут. Қадимги туркий тилда: tut – занг /ДТС. 591/. Қозок: тут, бошқа туркий тилларда: тат – занг, темир занги /Рад. III 898. 1475/. Достонда: Белида тут босган кескир ханжари /271/.

Қоқ. Қадимги туркий qaq - кўлмақ /ДТС. 422/. Туркий тилларда: қак - кўлмақ, кўл анҳор (Рад. II. 57/. Достонда: Алқарга сув берар чўлларнинг қоқи /231/. Мазкур сўз ҳозирги кунда Самарқанд вилояти, Мойбулоқ жамоа хўжалигидаги Қоққишлоғининг номи сифатида ҳам учрайди.

Тўқ. Қадимги туркий тилда: tōq – чанг, тўзон /ДТС. 570/. Туркий тилларда: тōғ-чанг /Рад. III. 1158/. М.Кошғарий тўқ сўзини “от оёқларининг тепинишидан чиққан чанг, тўзон”, деб изоҳлайди /ДЛТ. III. 140./. Достонда: Ўўртиб тулпор тўқ отди /450/.

Адабиётлар:

1. Ишаев А. Халқ достонлари лексикасига оид кузатишлар //ЎТА, 1970, № 5, 56-63 бетлар.
2. Зарифов Ҳ.Т. Ўзбек халқ достонларининг тарихий асослари бўйича текширишлар //Пўлкан шоир... - Тошкент, 1976, 65-67 бетлар.
3. Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецкого-татарских наречий, в 2-х томах. - СП(б)., 1869-1870, 816; 415 с.
4. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I-III жилдлар. – Тошкент, 1960-63.
5. Навоий асарлари луғати. (Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова) – Тошкент, 1972, 783 б.
6. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий.(в 4-х томах) СП(б)., 1893-1911.
7. Древнетюркский словарь. – Л., 1969, 676 с.
8. Эргаш Жуманбулбул ўғли. Булбул тароналари. 3-жилд. «Хушкелди», «Кундуз билан Юлдуз».– Тошкент, 1972, 473 б.

B.N.Turniyozov (SamDCHTI)

MATN SHAKLLANISHIDA SINTAKTIK BIRLIKLARNING O‘ZARO MUNOSABATI

Til tartibga solingan, bir butunlikni ifodalovchi tizim ekan, matn ana shu tizimning birligi hisoblanadi. Lekin, o‘z navbatida, matn “Til” deb atalmish makrosistema tasarrufiga kiruvchi hamda til birliklarini umumlashtiruvchi o‘ziga xos mikrosistemani tashkil etadi. Shu bois matnni nazariy jihatdan tadqiq etishda tizimli va funksional yondashuvning o‘ziga xos tomonlari shundan iboratki, unda sintaktik tizimni shakllantiruvchi har bir birlik muhim vazifaga ega bo‘ladi.

Matnning sintaktik shakllanishini tadqiq etishda ayrim tilshunoslar uning birliklari “*vazifa-ma’no-shakl*” formulasi asosida ish ko‘rishini ta’kidlashadi [1,68]. To‘g‘ri, matnni shakllantiruvchi til birliklari uch tamoyilli jarayonga bo‘ysunadi, ammo, bizningcha, ushbu tamoyil boshqacha shaklda, ya’ni “*ma’no-shakl-vazifa*” ko‘rinishida bo‘lishi kerak. Ushbu uchlikning “ma’no” qirrasining ahamiyati til birliklarining shakllanishidagi fazifasini ko‘rsatadi. Aynan ana shu tushuncha til birliklarining nutqiy jarayonda ishlatilish omilini belgilaydi. Masalan, matnning har bir muchasi o‘z vazifasiga ega bo‘lib, uni ma’lum kommunikativ jarayonda namoyon etadi. Bu kommunikativ jarayon ham, o‘z navbatida, til belgilari va birliklarining ishlatilishiga qarab turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin.

Makrosistemada matn turining funksiyasini aniqlashda shu matn tarkibiga kiruvchi til birliklarining ham funksiyasini belgilab olish muhimdir, chunki bu nutqiy jarayonning nima maqsadda sodir etilayotganligini belgilaydi, bundan tashqari, bu jarayonda qanday birliklardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Ta’kidlash kerakki, “vazifa” tushunchasi qanchalik muhim bo‘lsa, “shakl” omili ham shunchalik muhim hisoblanadi. Chunki tilda nutq shakllanishining turlicha usullari mavjud bo‘lib, ular qanday

ko‘rinishda bo‘lishidan qat’i nazar tilning asosiy vazifasi aloqa vositasi ekanligidan dalolat beradi. Kommunikativ jarayonning tarkibiy qismi sifatida kognitivlik tushunchasi ham namoyon bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, ichki, tashqi, monologik yoki dialogik nutq shakllari mavjudligidan dalolat beradi.

Tilning turli vositalari qanday bo‘lmasin ma‘lum xabar ifodasini yetkazish vazifasini bajarishadi. Til birliklarining iyererxik joylashuvdagi quyi birliklar matn shakllanishida uning qurilish materiali sifatida ishtirok etadi. Struktur pog‘onaning yuqori bosqichini tashkil etuvchi sintaktik birliklar esa qurilayotgan matnga xabar ifodasini baxsh etadi. Boshqacha aytganda, qismning vazifasi o‘laroq katta bir butunlik hosil bo‘lishiga olib keladi.

Funksiya tushunchasi sintaksisda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois barcha sintaktik vositalar, birliklar va qurilmalar uchun funkcionallikni mezon deb olmoq kerak. Bu esa har bir birlikning nutq qurilishi jarayonida “*nima – nima uchun?*” sxemasi asosida ish ko‘rishini ko‘rsatadi[2,78]. Shunday qilib, funksiya sintaktik birliklar bilan kommunikativ birliklarning o‘zaro munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Turli xil omillarning kommunikatsiya jarayonida ishtirok etishi yoki ularning shu jarayonning birliklariga nisbatan munosabati sintaktik birliklarni tasnif etishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, sintaktik birliklar kommunikativ birliklarga teng bo‘lishi ham mumkin (gap, murakkab sintaktik qurilma), yoki kommunikativ birlikning qurilish materiali vazifasini ham bajarishi mumkin (so‘z birikmasi).

Sintaktik birliklar kommunikativ jarayonga qadar kommunikativ birliklarga nisbatan quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin: ularning ayrimlari predikativlik alomatlariga ega bo‘lib, kommunikativ birliklar vazifasini bajaradi; ayrimlari esa mustaqil ravishda kommunikativ birliklar darajasida qo‘llanishga qodir bo‘lmay faqatgina muloqot qurilishining materiali bo‘lib qoladi[3].

Kommunikativ lingvistikani tadqiq etishda til va nutq birliklari, matn tuzilishi jarayonida, til tashqi muhiti sathlari (ekstralingvistik omillar) bilan ham o‘zaro aloqador ekanligi aniq bo‘ldi. Shubhasiz, matn strukturasi asosiy elementi gap yoki, boshqacha aytganda, fraza, tekstema hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, gap makromatn tarkibida o‘z-o‘zidan idrok etilmaydi, balki boshqa gaplarning sintagmatik munosabati orqali bir butunlikni tashkil eta boshlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, “matn” degan butunlikning komponenti bo‘lib xizmat qiladi. Bir gap orqali matnning faqatgina qandaydir bir qismini izohlash mumkin bo‘ladi, matnning to‘liq ma’nosi esa undagi gaplar majmuyining sintaktik derivatsiyasi orqali namoyon bo‘ladi. Makromatn tarkibidagi gaplar uni bir butunlik holida shakllantiradi va, shu bilan birgalikda, butunlikning qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu kabi gaplar majmuyi tilshunos olimlar tomonidan turlicha o‘rganilgan: fraza (A.M.Peshkovskiy); frazalar ansambli (V.A.Buxbinder); murakkab sintaktik butunlik (N.S.Pospelov); tekstemlar ittifoqi (Y.I.Shendels); murakkab sintaktik qurilma (B.N.Turniyozov). Ushbu murakkab struktur butunliklar, bitta mustaqil gapdan ko‘p bo‘lgan qurilmalar, yaxlit ma’no kasb etib, kommunikativ jarayonning qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Matn lingvistikasida ikki asosiy obyekt o‘rganiladi: 1) makromatn – tugallangan asar bo‘lib, o‘ziga xos qurilish qonuniyatiga ega (I.R.Galperin, Sh.N.Turniyozova); 2) mikromatn – o‘rganilish obyekti murakkab sintaktik qurilma hisoblanadi (O.I.Moskalskaya, G.Y.Solganik, B.N.Turniyozov). Buni nisbiy tushinmoq lozim, albatta. Chunki makromatnlar ham, o‘z navbatida, mikromatnga aloqador bo‘lishi mumkin, yoki aksincha, mikromatnlar makromatnga tegishli bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, matn qanday bo‘lishidan qat’i nazar u sintaktik struktura hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, uni til va nutqning umumiy mahsuli ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1. Валгина Н.С. Теория текста: учеб.пособие для вузов. М.:Логос, 2003. 280 с.
2. Золотова Г.А. Очерк функционального синтаксиса русского языка. М.: Наука, 1973. 352 с.
3. Золотова Г.А. Коммуникативная грамматика русского языка. М.: Изд-во МГУ, 2004. 544 с.

А.М.Туробов (СамДЧТИ)

ҚЎШМА СЎЗЛАР КОМПОНЕНТЛАРИ СИНТАКТИК МУНОСАБАТИ ХУСУСИДА

Баъзи қўшма сўзлар компонентлари синтактик муносабати муайян операторга таянади: *сўз боши, тоғутош*. Бу ўринда келтирилган мисолларнинг ҳар иккаласида ҳам деривациянинг реал операторлар воситасида вокеланаётганини кўрамиз: *сўз(нинг) бош(и), тоғ(у) тош*. Биринчи мисолда –и эгалик аффикси, иккинчи мисолда эса –у юкласи(боғловчи вазифасида) оператор функциясини бажармоқда.

Қўшма сўзларни биз шартли равишда икки операндли деривация маҳсули деб атаймиз. Чунки уларнинг компонентлари ўртасидаги синтактик алоқани, гарчи статик характерли бўлса ҳам, инкор

этиб бўлмайди. Мазкур операндларнинг синтактик муносабати, асосан, аниқловчи-аниқланиш характерида бўлади. Шу боис бундай қўшма сўзларни синтагма моқомида дейишимиз мумкин. Шундай бўлгач, операндлар семантик муносабатида иккинчи устувор аҳамият касб этади. Бундай қўшма сўзлар ҳақида мулоҳаза юритганида А.И.Смирницкий ҳам иккинчи компонент семантик мавқеига кўра биринчи ўринда туришини таъкидлаган эди: Stone wall- тош девор, speech sound –нутк товуши.

Олимнинг тўғри қайд этишига кўра, айти пайтда қўшма сўзларнинг биринчи компонентлари от туркумига мансуб бўлса-да, сифат вазифасини бажаради. Бироқ, А.И.Смирницкий берилган мисолларда stone ва speech сўзларини от туркумига киритиш лозимми ёки сифат туркумига деган масала бобида иккиланади (1.114-115).

Бизнингча, айти пайтда ҳар иккала сўз ҳам тўлақонли отлар саналади. Аммо вазифаларга кўра, сифатга тегишлидир. Бундай ҳолатни Ш.Балли функционал транспозиция деб атаган эди. Ш.Балли бу хусусда қуйидагиларни таъкидлайди: “Так, например, существительные planete “ планета” и сатрадне “деревня” не меняя своего значения, становятся (функционально) прилагательными в (systeme)planetaire “планетная (система) и (maison) de champagne “ деревенский (дом). ...Такую систему грамматических замен мы будем называть функциональной транспозицией”(2.130-131).

Ана шунга асосланган ҳолда, бундай қўшма сўзларда аниқловчи-аниқланиш муносабати борлиги ва аниқловчи вазифасидаги сўз функционал транспозиция маҳсули эканлигини қайд этамиз. Юқорида эслатиб ўтилган қўшма отларнинг деривацион хусусиятларини тилларда муштарак деб бўлмайди. Масалан: Рус тилида қўшма отларнинг шаклланиши бевосита муайян аффикслар билан боғлиқ бўлиши мумкин. Қўшма отлар ясалишида –ец, тель, чик- щик – ник uj (e) аффикслари фаол қўлланилади: орден-о-нос- ец, канат-о- ход- ец, воздух-о-плава-тель, железн – о – дорож- ник, сам- о-люб –не (3. 269-271).

Айти пайтда, албатта, аффикслар муҳим роль ўйнайди. Бундай қўшма отларнинг деривацияси лексик-синтактик аҳамият касб этади, зеро, бунда оператор вазифасида О интерфикси ҳамда аффикс келади. Оператор қўшалок бўлгани учун бундай вазиятда *дубль оператор* тушунчасидан фойдаланамиз (4.46).

О интерфикси қўшма сифатларнинг шаклланишида ҳам фаол қатнашади. Аниқроғи, бунда деривация операторлари иштирок этмайди. Деривацион вазифасида интерфиксининг ўзи фаоллик кўрсатади: *профессорск-о-преподавательский, хлеб-о-булочный, мяс-о-молочный, засух-о-устойчивый*(4.46). Демак, бундай қўшма сифатлар деривацияси дубл оператор воситасида эмас, балки, яқка оператор ёрдамида воқеланади. Кўринадикки, қўшма сўзлар ҳам бошқа ясама сўзлар каби кичик синтаксиснинг текширув объектини тақозо этади. Улар мазмуний жиҳатдан идиомаларга ўхшаса ҳам, синтактик нуқтаи назардан компонентлари ўртасидаги муносабат жонсиз эмас. Аммо бу билан қўшма сўзларда синтактик муносабат динамик характерли деб бўлмайди. Айти пайтда статик ҳолатни кўраемиз.

Шуни ҳам айтиш лозимки, барча ясама сўзларда бўлганидек, қўшма сўзларда ҳам яхлитланган иккиламчи номинативлик белгисини кузатамиз. Чунки уларнинг компонентлари муносабатидан деривацион жараёнда алоҳида-алоҳида маъно ифодаловчи операндлар эмас, балки янги маъно ифодаси шаклланади. Бошқача айтганда, бу ўринда алоҳида денотатлар муносабатидан янги денотат ва бир пайтнинг ўзида янги сигнификат вужудга келади. Ана шу асосда қўшма сўзларни ҳам иккиламчи номинатив бирлик деб биламиз.

Аксарият қўшма сўзларда сўз бирикмасининг ва гапнинг яширин белгиларини кўраемиз. Бу эса қўшма сўзларда ҳам атомар предикативлик белгиси мавжудлигидан далолат беради: *боги баланд, баландликдаги бог, бу бог баландда жойлашган*.

Берилган мисолнинг деривацион жараёнда трансформацион операциялари ҳар сафар синтактик муносабатнинг бир поғона юқорисига силжиши натижасида қўшма сўз билан синтактик структуралар ўртасидаги боғланиш мукамаллаша боришини кузатамиз.

Адабиётлар:

1. Смирницкий А. И. Лексикология английского языка. –М., 1956. –С. 114-115.
2. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М., 1955, - С.130-131.
3. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. –М.,1973. –С.269-271.
4. Гуломов А. Сўз яшаш // Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент, 1975, 46-бет.

ЛИНГВИСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИЕРАРХИК МУНОСАБАТИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ҲАҚИДА

Жаҳон тилшунослигида бугунги кунда илмий тадқиқотлар марказидаги асосий изланишлар систем-структур ва антропоцентрик ёндашувлар асосида олиб борилиши тил ва нутқни парадигматик ва ситагматик қонуниятларга таянган ҳолда ўрганиш билан бир қаторда, иерархик муносабатнинг ҳам муҳим эканлигини тақозо этмоқда. Тил ва нутқ бирликлари ва уларнинг иерархик муносабатини замонавий илмий-назарий қарашлар ва методларга асосланган ҳолда тадқиқ этиш долзарб муаммолардан биридир. Дунё тилшунослигида тил ва нутқ бирликларини, уларнинг сатҳларини ва сатҳлараро муносабатларини қатъий белгиланиши тилшуносликнинг шиддат билан ривожланиб бораётган янги соҳаларининг ривожини, шунингдек, тилшуносликнинг бошқа фанлар билан интеграциясини таъминлашнинг муҳим омилларидан саналади.

Мустақиллик йилларида республикамызда миллий маънавиятимиз, ўзлимизнинг асосий манбаларидан бўлган тилимизга, уни илмий тадқиқ этувчи тилшунослигимизга том маънода эътибор қаратилди ва бу жараён изчил давом этмоқда. Ўтган давр мобайнида ўзбек тилшунослигида фан тараққиёти динамикаси сезиларли даражада юксалди. Бунда жаҳон тилшунослиги ютуқларидан ўринли фойдаланиш, уларни амалда қўллаш ўз ижобий натижаларини берди ҳамда эришилаётган ютуқларимиз нафақат мамлакатимиз тилшунослигида, балки жаҳон тилшунослигида ҳам маълум бўлиб бормоқда. Эришилган ютуқлар билан бир қаторда қилиниши лозим бўлган зарур тадқиқотлар ҳам мавжуд бўлиб, улар сирасига тил ва нутқ бирликларининг иерархик муносабати ҳам дахлдордир. Айни пайтда Республикамыз Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг: «Ўзбекистон Республикаси келажакда ривожланишининг ҳаракат стратегияси» асосида «биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали вазиғамиз деб биламиз», – деган сўзларини келтириш ўринлидир [Мирзиёев Ш.М.:2017]. Дарҳақиқат, тилшунослик ҳам ҳар доим тараққиётдадир. Бу эса, ўз навбатида, йиллар давомида барчани қониқтириб келган баъзи назарияларни қайта кўриб чиқишни, ҳар қандай фан ёки илмий йўналишда муайян бўшлиқлар ҳам бўладики, уларни тўлдириш лозимлиги ўз-ўзидан талаб қилинади. Ҳозирги тилшунослигимизда ана шундай масалалардан бири тил ва нутқ бирликларининг иерархик муносабати илмий талқинидир.

Жаҳон тилшунослигида тил ва нутқ бирликлари, сатҳлари ва сатҳлараро муносабат масаласи кўплаб тилшуносларнинг қизиқишларига сабаб бўлган. Жумладан, тил ва нутқ бирликларини фарқлаш тамойилларини белгилаш, мазкур бирликларнинг ўзаро парадигматик, синтагматик муносабатларини ўрганиш, сатҳ тушунчасининг лингвистик тавсифи кабилар тадқиқ этилган. Айни пайтда тилшунослигимизда тил ва нутқ бирликларининг иерархик муносабатини замонавий методологик тамойилларга таянган ҳолда тавсифлаш, тил ва нутқ сатҳлари ҳамда уларни ташкил этувчи бирликларининг лингвистик мақоми, табиғатиға хос аниқ назарий хулосалар чиқариш масала моҳиятининг долзарблиги асосини ташкил этади. Айтиш жоизки, тил ва нутқ бирликларининг иерархик муносабатини жаҳон тилшунослигининг сўнгги ютуқларидан, тадқиқ этишнинг янги методларидан фойдаланган ҳолда ёритиш, тадқиқ этиш ҳамда бундан дунё илмий жамоатчилигини хабардор этиш заруратини юзага келтиради.

Тил ва нутқ бирликлари ва уларнинг иерархик муносабатини ўрганишга йўналтирилган илмий изланишлар жаҳоннинг етакчи илмий марказлари ва олий таълим муассасаларида олиб борилмоқда.

Жаҳон тилшунослигида тил ва нутқ бирликларининг парадигматик, синтагматик ва иерархик муносабатларини очиб беришга қаратилган тадқиқотлар натиғасида қатор, жумладан, куйидаги натиғалар олинган: тилнинг семиологик системаси ва унинг структурасидаги бирликлар ҳамда парадигматик ва синтагматик муносабатлар масаласи (Швецария, Соссюр), семантик муносабатлар масаласи (Франция), сатҳлар ва уларни белгилаш масаласи (Россия, АҚШ), иерархик муносабатнинг лингвистик маънода қўлланилиши (АҚШ), фонематик бирликларнинг парадигматик ва синтагматик муносабатлари тавсифи (Прага тилшунослиги, Трубецкой), морфематик сатҳ бирлиги – морфема тавсифи (Блумфилд), нутқ бирликлари тавсифи, жумладан, гап ва дискурс (З.Харрис), тил сатҳлари (Б.Головен, Данеш, Гаузенблас), нутқ сатҳлари ва иерархик муносабат (Солнцев, Гальперин, Глисон), фонематик сатҳ ва дифференциал белгилар (Халле), нутқ бирликлари тавсифи (Петерсон, Вардул).

Бугунги кунда жаҳон тилшунослигида тил бирликларининг прагматик хусусиятлари ва шу асосда вужудга келадиган иерархик муносабат талқини, мазкур бирликларнинг номинатив мақомини ўрганиш масалалари, шунингдек, лисоний бирликларнинг ўзаро иерархик муносабатининг тавсифи ҳар томонлама мукамал ёритилмоқда. XX аср тилшунослигининг улкан ютуқларидан бири нутқ лингвистикасининг илмий асосланганлиги бўлди. Бу эса, ўз навбатида, нутқ бирликларини қатъий

белгилаш масаласини тадқиқотлар кун тартибига қўймоқда. Айни пайтда шу боис ҳар бир нутқ бирлигининг пропозитив ва макропропозитив хусусиятлари, уларнинг деривацион қонуниятлари атрофлича ўрганилмоқда.

Жаҳонда XIX-XX асрлар тилшунослиги тилнинг система эканлиги, унинг структур хусусиятлари, сатҳлари, сатҳлар бирликларининг парадигматик, синтагматик ва иерархик муносабатлари муаммолари тадқиқи бобида улкан ютуқларга эришганлиги билан алоҳида аҳамият касб этади. Айниқса Ф.де Соссюр томонидан «тил ва нутқ» дихотомиясининг илмий асослаб берилиши тилшунослик фанида ўзига хос бурилиш ясади. Бироқ шуни ҳам айтиш лозимки, мазкур дихотомиянинг тилшунослик фани тараққиётининг ҳозирги давригача, асосан, биринчи компонентига тааллуқли масалалар меъёр даражасида ўрганилди.

Шундай бўлишига қарамай, тил бирликлари ва улар тегишли бўлган сатҳлар масаласини муаммолардан холи деб бўлмайти. Масалан, биргина фонематик сатҳ бирлиги фонемани олайлик. Баъзи тадқиқотларда уни тил белгиси тарзида талқин этилса, айрим ишларда буни мутлақо инкор этишади. Морфема ва сўз ҳақида ҳам шу сингари фикр билдириш мумкин: айрим тадқиқотларда ўзак морфема тушунчасидан воз кечиш лозимлиги таъкидланса, баъзи тадқиқот ишларида уни тўлақонли морфема сифатида талқин этишади. Сўз хусусида эса тилшунослар фикрлари ўртасида умуман бир хиллик кузатилмайди.

Тил бирликларининг иерархик муносабати масаласи ҳам, албатта, уларнинг лингвистик табиати, тилдаги ва нутқдаги ҳолати билан узвий боғлиқ. Шундай бўлгач, бу соҳада ҳам ҳали ечилиши лозим бўлган муаммолар мавжудлиги табиийдир.

Юқоридагилардан ташқари, нутқ бирликлари ва уларни белгилаш масаласи доирасида ҳам изоҳталаб масалалар кам эмас, зотан, нутқ лингвистикаси тилшунослик фанининг алоҳида бир соҳаси сифатида асосланмоқда.

Бу ўринда нутқ бирликларини белгилаш масаласи устувор аҳамият касб этиши шубҳасиздир. Мунозарали фикр ва мулоҳазалар ҳам айнан ана шу масала бобида вужудга келмоқда. Бундай вазият, албатта, тил ва нутқ бирликлари ва сатҳларини белгилашда ўзининг салбий таъсирини кўрсатмоқда. Айрим тадқиқотларда сўзни ҳам нутқ бирлиги тарзида кўрсатишса, (И.М.Солнцев) баъзи ишларда нутқ бирликлари сўз бирикмаси ва гапдан иборат эканлиги таъкидланмоқда. Кейинги йилларда бажарилган тадқиқотларда эса нутқ бирликлари гап ва абзац орқали белгиланмоқда (А.Г.Фридман).

Мазкур фикр ва мулоҳазаларнинг барчаси тил ҳамда нутқ бирликларининг иерархик муносабати билан узвий боғлиқ бўлиб, улар бу ўринда ҳам изоҳталабликлар туғилишига олиб келмоқда.

Шуни таъкидлаш лозимки, сатҳ тушунчасини дастлаб америкалик файласуф-материалистлар тадқиқотлар кун тартибига қўйишган эди. Кейинчалик дескриптивистлар томонидан у лингвистик маъно касб этди ва шундан сўнг мазкур тушунча таҳлил поғонаси ёки даражаси сифатида методик нуқтаи назардан қўллана бошлади. Бироқ сатҳ тушунчаси тилшунослигимизда ўтган асрнинг 70-йилларига келиб том маънода истеъмолга киритилди. Бунда америкалик структурализм вакиллари (З.Харрис, Ж.Трейгер, Ю.А.Найда, Н.Чомский ва бошқалар) сатҳ (level) тушунчасини тил бирликлари билан боғлаб, поғона тушунчасини ҳам тадқиқотлар кун тартибига киритдилар.

Прага тилшунослик мактаби вакиллари томонидан ҳам сатҳ тушунчаси анча мукамал тадқиқ этилди. Улар, америкалик структуралистлардан фарқли равишда, тил бирликлари таҳлилини уларнинг функционал салмоғи билан боғлиқ ҳолда олиб бордилар [Трубецкой Н.:1960]. А.Мартиненинг тадқиқотларида эса тилнинг морфематик ва сўз сатҳлари бирликларининг функционал жиҳатлари мукамал ёритилди [Мартине А.: 1963]. Француз тилшуноси Э.Бенвенистнинг тадқиқотларида тил сатҳлари ва уларнинг ўзаро муносабатига доир масалалар ўрганилди [Бенвенист Э.: 1974].

Тил бирликларининг ўзаро муносабатга киришуви, албатта, уларнинг дистрибутив хусусиятлари билан узвий алоқадордир. Чунки маълум бир қуршовда мумкин бўлган муносабат иккинчи қуршов доирасига сиғмаслиги ҳам мумкин. Бундай пайтда тил бирликларининг комбинатор боғланиши аҳамият касб этади. Аммо қандай бўлишидан қатъи назар, уларнинг функционал қиймат олиши бир-бири билан боғлиқ ҳолда амалга ошади. Зотан, тил бирликларининг комбинатор муносабати умумсистем аҳамиятга эгадир [Солнцев В.М.: 1971], тил бирликлари бир-биридан ажратилган ҳолда ишлатилмайди [Бушуй Т., Сафаров Ш.: 2007].

Тил унсурларининг бундай муносабатлари турли хил микро- ва макроўринишлардаги синтагматик алоқани ташкил қилади. Синтагматик муносабат фонематик сатҳдан бошқа барча сатҳларда кузатилади, зеро, тил бирликлари ўзлари тегишли бўлган сатҳда синтагматик муносабатга кириша олмайди. Сатҳлардаги синтагматик муносабат эса мазкур сатҳларга кирган кичик бирликлар ўртасида шаклланади.

Ю.С.Степанов таълимотида тил сатҳи деганда, бир хил номланувчи бирликлар жамланган тил системасининг муайян бир қисмини тушуниш лозимлигини қайд этади ва шу асосда сатҳларни

қуйидагича белгилайди: фонемалар (сатҳи), морфемалар (сатҳи), сўзлар (сатҳи), сўз бирикмалари (сатҳи), гап (сатҳи) [Степанов Ю.С.: 1975].

В.М.Солнцев тил сатҳлари деганда, ўзаро иерархик муносабатда бўлмаган, бироқ бошқа сатҳларга тегишли бирликлар билан иерархик муносабат ташкил этувчи бир турга (жинсга) кирувчи бирликлар мажмуасини тушунади. Бундай бирликлар мажмуалари фонематик, морфематик ва сўз сатҳларида кузатилади[Солнцев В.М.: 1971].

Бизнингча, юқорида эслатиб ўтилган тилшунослар фикрларининг барчаси ҳам илмий жиҳатдан асослидек кўринади. Бироқ В.М.Солнцевнинг мулоҳазаларида буни янада ёрқинроқ кузатиш мумкин. Чунки тилнинг асосий бирликлари сифатида фонема, морфема ва сўзни тушунамиз.

Таъкидлаш лозимки, тилшунослик фани тараққиётининг ҳозирги даврида тил сатҳларининг ҳар бири ўзича нисбий мустақил эканлиги, шунинг учун ҳам улар алоҳида текширув объектлари саналиши тилшуносларимиз томонидан тўлиқ тан олинган ва бу борада бирор жиддий муаммо кузатилмайди. Лекин шу билан бирга, муайян сатҳнинг лингвистик табиати талқинини бермоқ учун бошқа сатҳларга ҳам мурожаат этиш лозимлиги, фикримизча, шу соҳада тадқиқот олиб бораётган тилшуносларгагина ҳаммадан кўпроқ аёндр.

Айни пайтда тил сатҳлари, аниқроғи, сатҳлар бирликлари ўртасидаги фарқли жиҳатлар ҳақида эмас, балки уларнинг ўзаро муносабати ҳақида сўз юритаётганимиз учун асосий эътиборни шу нарсага қаратмоқдамиз. Чунки мазкур ҳодиса нафақат сатҳлар бирликлари, балки сатҳлараро муносабат хусусида ҳам маълумот олишимиз учун муҳимдир. Ф.де Соссюр таъбири билан айтганда, тилнинг маълум бир унсури ўз-ўзича ҳеч қандай қиймат касб этмаслиги фундаментал қонуниятни ташкил этади.

Адабиётлар:

1. Бенвенист Э. Общая лингвистика.-М., 1974.
2. Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси.-Тошкент, 2007, 27-бет
3. Мартине А. Основы общей лингвистики // Новое в лингвистике, вып.3. –М., 1963.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017, - Б. 22.
5. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. –М., 1971.-С.268.
6. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование.-М., 1971.-С.81.
7. Степанов Ю.С. Основы общего языкознания.-М., 1975.-С.218.
8. Трубецкой Н. Основы фонологии. –М., 1960.

Ш.Турниязова (СамДЧТИ)

АБЗАЦ ВОҚЕЛАНИШИНИНГ ДЕРИВАЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ ХУСУСИДА

Дериватология фани тараққиётининг ҳозирги даврига қадар синтактик деривация соҳасида сўз бирикмалари, содда ва қўшма гаплар материаллари асосида тадқиқот ишлари олиб борилди. Бошқача айтганда, синтактик деривация назарияси қўлланилишининг энг юқори нуқтаси ҳозирча қўшма гап бўлиб турибди. Гапдан катта нутқ бирликларининг деривацион хусусиятларини ўрганиш масаласи эса кун тартибига эндиgina қўйила бошлади.

Бу ўринда шуни алоҳида таъкидлаш керакки, матн лингвистикаси учун матннинг тузилишини, асосий категорияларини ўрганиш қанчалик муҳим аҳамиятга эга бўлса, унинг шаклланиши жараёнини, бошқача айтганда, деривацион хусусиятларини ўрганиш ҳам шунчалик аҳамиятлидир¹⁷.

Матн деривациясини ўрганиш жараёнида талай қийинчиликлар туғилиши табиийдир. Улар жумласига биринчи галда деривация операторини аниқлаш, таянч структурани белгилаш, матн синтактик шаклланиши тамойилларини ўрганиш, матн деривациясининг гап деривациясидан фарқли томонларини аниқлаш кабиларни киритиш мумкин. Мазкур масалалар барча муаммолар талқинига мустақил ҳолда ёндашишни талаб этади.

Равшанки, синтактик деривация назарияси ҳосила структураларга нисбатан қўлланилади. Ҳосила структура гап қолипида бўлганда мазкур операциянинг дастлабки босқичи таянч структурага асосланади. Бироқ ҳосила структура матнни, хусусан, макроматнни тақозо этадиган бўлса, таянч структура ва унинг белгиланиши масаласи гап деривациясининг дастлабки босқичига асос бўлувчи таянч структуранинг аниқланишидан кескин фарқ қилади. Бунинг асосий боиси қуйидагиларда кузатилади: 1. Гапнинг синтактик деривацияси асосланадиган таянч структура туб структура замирида, унинг бўш ўринларини тўлдириш жараёнида вужудга келади. 2. Матн деривацияси

¹⁷ Қаранг: Turniyozov N.,Yo'ldoshev B. – Matn tilshunosligi.- 2006, 29-30- betlar.

асосланувчи таянч структура вазифасида матн компонентларидан бири фаоллик кўрсатади. Бунда туб структура масаласи (деривацион нуқтаи назардан) устувор аҳамият касб этмайди. Чунки макроматннинг ҳар қандай кўриниши ҳам тайёр ҳолдаги ҳосила қурилма демакдир.

Юқорида билдирилган фикр ва мулоҳазалар далилини куйидаги абзац қолипида берилган матннинг деривацион хусусиятлари талқинида кўришимиз мумкин:

Хулласи, униси у деди, буниси бу деди. Тўй бўлди. Инобат жиндек пардоз билан ойдеккина келин бўлди. Айниқса тўйнинг эртасига гул-гул очилиб кетди (С.Аҳмад.Келинлар кўзғолони).

Келтирилган матн деривацияси компонентларининг биринчисига эмас, балки иккинчисига асосланмоқда. Бунда биринчи компонент матн орқали ифодаланаётган воқеа-ҳодисалар шаклланиши учун кириш вазифасини ўтамоқда.

Айтиш жоизки, гап қолипидаги синтактик структура деривацияси асосланадиган таянч структура матн деривацияси замирида ётувчи таянч структурадан тубдан фарқ қилади. Буни юқоридаги матн мисолида кўриб ўтиш мумкин:

Мустақил гап синтактик деривациясининг воқеланиши:

1. Туб структура → келин бўлди (V).

Таянч структура → Инобат келин бўлди (N + V).

2. Ҳосила структура → Инобат ойдеккина келин бўлди. (N+X+V) → деривациянинг биринчи босқичи.

3. Ҳосила структура → Инобат пардоз билан ойдеккина келин бўлди (N + X + V) → деривациянинг иккинчи босқичи.

4. Ҳосила структура → Инобат жиндек пардоз билан ойдеккина келин бўлди (N + X +V) → деривациянинг учинчи босқичи.

Матн синтактик деривациясининг воқеланиши

1. Ҳосила структура = D₁(дериват)

2. Таянч структура = (N + V).

3. Ҳосила структура = D₃ (дериват)

4. Ҳосила структура = D₄ (дериват)

5. Ҳосилалардан ҳосила (D₁ + (N + V).+ D₃ +D₄) = D (матн)

Маълумки, синтактик деривация операндлар муносабати орқали воқеланади. Операндлар вазифасида матннинг таркибий қисмларини ташкил этувчи жумлалар келади. Мазкур жумлалар аксарият ҳолларда ҳосила структуралар, баъзан таянч, камдан-кам ҳолларда эса туб структура шаклида бўлади:

1. Тонг салқин, майин, оромбахш эди, дашт гиёҳлари, барра кўкат ва райҳон ҳиди димоққа чунон уради. Ҳамма ёқ жимжит. Дарвоза негадир қулфланмаган, катта сердарахт ҳовли жимжит, ... (О.Ёқубов.Кўҳна дунё).

2. –Тунов кун шу маҳалланинг девкор этикдўзларидан Бувадат ота бутун қолипу шону сўзан, бигизларини улғуржисига икки туд жўхори унга моваза қилди. Яхши қилди. Унинг этигини киядиган ўзбек, қозоқ, қирғиз деҳқонлари қаёқда дейсиз, қолган эмас (Ғ.Ғулом.Менинг ўғригина болам).

Берилган матнларнинг олдингиси синтактик деривациясининг операндларининг биринчиси ва сўнггиси ҳосила структуралардир (тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар), уларнинг оралиғида берилаётган операнд (Ҳаммаёқ жимжит) эса таянч структура қолипида келмоқда.

Иккинчи матн деривацияси операндларининг ҳам биринчи ва учинчиси ҳосила структуралар, иккинчиси эса (Яхши қилди) туб структура саналади. Айни пайтда шуни ҳам айтиш лозимки, туб структуранинг деривация операнди вазифасида келиши, асосан, матннинг оғзаки шаклида (сўзлашувда) кўпроқ кузатилади.

Қандай шаклда келишидан қатъи назар, матн деривацияси операндларининг ҳар бири ўзича алоҳида структурани ташкил этади. Уларнинг ўзаро муносабатидан эса макроструктура - матн шаклланади ва, ўз навбатида, катта ҳажмли дериват вужудга келади. Маълумки, деривациянинг ҳар қандай тури ҳам оператор иштирокисиз рўй бермайди. Матн синтактик деривацияси ҳам ана шу умумий қоидага бўйсунди. Бироқ матн деривацияси бу жиҳатдан мустақил гап синтактик деривациясидан фарқ қилади. Буни куйидагиларда кўрамиз:

а) мустақил гап деривациясида аксарият ҳолларда оператор танлаш имконияти бўлади. Матн деривациясида эса бундай имконият йўқ. Чунки таҳлил учун ёзма матн шакли олинар экан, у ҳар доим тайёр ҳолдаги дериватни тақозо этади. Бу эса оператор танлаш имкониятига аксарият ҳолларда йўл бермайди;

б) мустақил гап деривацияси талқинида деривацион жараёнга бемалол мурожаат этиш мумкин бўлади ва бунинг натижасида, сўзловчи ва нутқ муҳитининг таъсирига кўра, шаклланиши имконияти бўлган синтактик структуралардан бирини танлаш мумкин. Матн деривацияси талқинида эса

деривацион жараёнга мурожаат этиб бўлмайди. Унга мурожаат этилган тақдирда ҳам, анча мавҳум вазиятга дуч келинади. Бунга, албатта, матн структурасининг кўп компонентли эканлиги таъсир қилади;

в) мустақил гап синтактик деривациясида оператор ҳосила жумла таркибига ташқаридан олиб кирилади. Бошқача айтганда, деривацион жараёнга қираётган тил унсурлари таркибида танланаётган оператор мавжуд бўлмайди¹⁸. Матнда эса оператор вазифасини бажараётган сўз (ёки бирикма) унинг семантик салмоғининг марказида бўлади ва у нутқ деривацияси нуқтаи назаридан белгиланади.

Мазкур фикр ва мулоҳазаларимиз учун фактик нутқ материалларига мурожаат этайлик:

Оқсоқолнинг измисиз бу рўзгорда ўчоққа ўт ёқилмасди (С. Аҳмад. Уфқ).

Келтирилган гапнинг синтактик деривацияси тўрт босқичли бўлиб, уларнинг ҳар бирида янги оператор фаоллик кўрсатаётганини кузатамиз:

1. Ёқилмасди → туб структура (V);
2. Ўт ёқилмасди → таянч структура (N + V);
3. Ўчоққа ўт ёқилмасди → синтактик деривациянинг биринчи босқичи → ҳосила структура (X + N + V);
4. Рўзгорда ўчоққа ўт ёқилмасди → синтактик деривациянинг иккинчи босқичи → ҳосиладан ясалган ҳосила структура (X₂+N+V);
5. Бу рўзгорда ўчоққа ўт ёқилмасди → синтактик деривациянинг учинчи босқичи → ҳосиладан ясалган ҳосила структура (X₃+N + V);
6. Оқсоқолнинг измисиз бу рўзгорда ўчоққа ўт ёқилмасди → синтактик деривациянинг тўртинчи босқичи → ҳосиладан ясалган ҳосила структура (X₅ + N + V);

Деривация операторлари:

1. –га (ўчоққа).
2. –да (рўзгорда).
3. –бу (кўрсат. олм.).
4. –сиз (измисиз).

Деривацион жараён ва ҳосила шаклланиши имкониятлари

1. Бу рўзгорда оқсоқолнинг изми билан ўчоққа ўт ёқиларди (оператор: билан).

2. Оқсоқолнинг измисиз бу рўзгорда ўчоққа ўт ёқилмасди (оператор: -сиз).

3. Ўчоққа ўт ёқилиши бу рўзгорда оқсоқолнинг измига боғлиқ эди (оператор: -га).

Кўринадики, матн деривацияси билан унинг компонентлари деривацияси ўртасида кескин фарқ мавжуд бўлиб, улар асосланадиган тамойиллар муштарак эмас.

Адабиётлар:

1. Turniyozov N., Yo'ldoshev B.- Matn tilshunosligi.- 2006.
2. Храковский В. С. Трансформация и деривация // Проблемы структурной лингвистики – 1972.- М., 1973.
3. Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили.- Бухоро, 2000.

П. Р.Хасанова (СамГУ)

О ПОНЯТИИ КАЧЕСТВА И СВОЕОБРАЗИИ ГРАММАТИЧЕСКИХ ФОРМ ИМЕН ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В КОНЦЕПЦИИ В.В.ВИНОГРАДОВА

В одном из своих главных трудов «Русский язык (Грамматическое учение о слове)» акад. Виноградов В. В. всесторонне осветил, наряду с другими частями речи, имя прилагательное как часть, затронув такие ключевые научные вопросы, как 1) семантические основы категории имени прилагательного в современном русском языке; 2) формальные приметы имени прилагательного; 3) основные грамматические разряды имен прилагательных; 4) степени качества и их выражение; 5) степени сравнения и др. [1, 151 – 156].

Попытаемся изложить суть некоторых из указанных вопросов в освещении акад. Виноградова В. В., а именно: 1. на семантических основах категории имени прилагательного; 2. понятии качества и своеобразии грамматических форм его выражения [2].

Академик Виноградов В. В. пишет: «... в тесной грамматической связи с именами существительными находятся имена прилагательные. Имя прилагательное – это грамматическая категория, формирующая и объединяющая слова, которые означают признак предмета (качественный,

¹⁸ Қаранг: Храковский В. С. Трансформация и деривация // Проблемы структурной лингвистики – 1972.- М., 1973.-С. 479.

относительный или указательно-определятельный) и которые **являются** определяющими имена существительные и обычно согласуемыми с ними в роде, числе и падеже частями речи» [1, 151].

Как считает ученый, семантической основой имени прилагательного является понятие качества. «Слово, подводимое под категорию имени прилагательного, представляет собою комплекс форм, которые все вместе образуют своеобразную парадигму именного склонения, отличную от парадигмы склонений существительных. Эти формы имени прилагательного – синтетические, объединяющие в своей структуре указание на род, число и падеж (так же как у имен существительных). Однако формы рода, числа и падежа имен прилагательных выражают не внутренние оттенки качественных значений, а лишь указывают на синтаксическую связь прилагательных с именами существительными в процессе речи. Эти основные формы имен прилагательных являются формами синтаксических отношений, формами грамматического согласования» [1, 151].

Большая часть прилагательных в русском языке, говорит Виноградов В. В., выражает качество или признак «не непосредственно, а опосредствованно, через отношение к предмету и действию (например: *производственный, организаторский, идейный, непримиримый, угрожающий, знающий, непревзойденный* и т. п.)» [1, 152].

«В современном русском языке, – замечает автор научного труда, – имена прилагательные – это самая многочисленная после имен существительных армия слов. При этом больше всего имен прилагательных, производных от основ существительных или глаголов. Качественность ищется в формах отношений между лицами, предметами, отвлеченными понятиями. Она выводится из отношения к предмету или действию» [1, 152].

Из громадного числа русских имен прилагательных ученый указывает на сравнительно небольшую часть, выражающую качество или свойство непосредственно, лексическим значением своей основы. Он приводит такие примеры: прилагательные, обозначающие цвет: *алый, бежевый, бледный, белый, бурый, вороной, гнедой, голубой, желтый, карий, палевый, пегий, русый, рыжий, сивый, сизый, синий, седой, серый, черный, смуглый* и т.п.; пространственные и временные качества и отношения: *прямой, правый, левый, большой, плоский, глубокий, далекий, долгий, короткий, узкий, широкий* и т.д.; воспринимаемые чувствами свойства и качества вещей: *пряный, кислый, прочный, ровный, мокрый, острый, теплый, горький, жидкий, легкий, мелкий, мягкий, редкий, сладкий, тонкий, тяжелый, густой, частый* и т.д.; внешние или физические, телесные качества людей и животных: *босой, голый, нагой, лысый, сытый, молодой, старый, дюжий, хилый, косой, глухой, слепой, тощий, полный, быстрый, толстый* и т.д.; внутренние качества, качества характера, психологического склада: *хороший, злой, живой, резвый, глупый, грубый, дикий, гордый, косный, бодрый, добрый, мудрый, хитрый, храбрый, щедрый, наглый, подлый, жестокий, кроткий* и т.п. [3, 152 – 153].

Академик отмечает немногочисленность прилагательных, выражающих качество непосредственно: «... таких слов немного по сравнению с массой прилагательных, обозначающих качество как признак относительный, т.е. выводимый из отношения к предмету, обстоятельству или действию, например: *железный, жилистый, болотистый, вертявый, пропавший, закоптелый, здешний, домашний, вчерашний* и т.п.» [3, 153].

По замечанию ученого, в течение XVIII - XIX вв. класс имен прилагательных пополнялся и расширялся значительно быстро соответственно общему темпу роста великого русского языка. Для творчества качественных определений использовались преимущественно основы имен существительных и глаголов. Из французского языка в XVIII - XIX вв. пришли к нам: *бордовый, палевый, оранжевый, розовый, лиловый, фиолетовый, кремовый, пунцовый*.

Относительно качественных оттенков цветowych названий Виноградов В. В. определяет главным образом посредством указания на сходство с цветом какого-нибудь предмета. Он пишет: «Имена прилагательные этого рода имели очень конкретное значение. Эта большая конкретность значений древнего имени прилагательного и в связи с этим меньший объем его смысловых связей с именами существительными ярко выступают в обозначениях лошадиных, отчасти собачьих мастей. Соответствующие обозначения, в значительной своей части восходящие к тюркским заимствованиям, вследствие исключительности своего применения имеют до сих пор сильный привкус предметности: *вороной, буланый, гнедой, каурый, мухортый, пегий, саврасый, соловый, чалый, чубарый* – употребляются непосредственно как клички лошадей» [1, 153] и приходит к выводу о том, что наряду с группой цветowych прилагательных, непосредственно обозначающих цвет (*белый, серый, синий, сизый, желтый, черный* и т.п.), выделяется длинный ряд прилагательных, выражающих понятие цвета через отношение к предмету» [3, 154].

Описывая качественные значения имен прилагательных, академик в основном выводит их из отношения к предмету и действию, соответственно значениям тех именных или глагольных основ,

от которых они образуются. Прилагательные в подавляющем большинстве своем имеют основу или существительного, или глагола, осложненную суффиксами (например: вузовский, обобществленный и т.п.).

Качество, грамматически обозначаемое в форме имени прилагательного системой окончаний **-ый, -ий, -ая** и т.п., автор научного труда видит в свойствах того предмета или действия, которые выражаются основой прилагательного. Качественное значение в производных прилагательных является вторичным, вытекающим из качественной оценки предметного отношения или из качественного осмысления действия.

Лексическое значение множества прилагательных академик обуславливает через предметные значения производящего имени существительного: березовый, бивачный, биржевой, бирюзовый, бисквитный, бобровый, боковой, болевой, брачный, бронзовый, бронхиальный, бузиновый, букетный, булочный, бумажный, бухгалтерский, былинный, бязевый; все производные с приставкой **без-**: бесприютный, беспроцентный и т.д.; вагонный, веревочный, вазелиновый, валерьяновый, валютный и т.д.

С точки зрения ученого, развитие качественных значений у имен прилагательных опирается на качественные оттенки значений имен существительных. «То имя существительное, которое употребительно главным образом в функции приложения или сказуемого, выражает не столько предметность, сколько качественную характеристику или состояние» [3, 155].

Академик Виноградов В. В. заключает: «Таким образом, само имя существительное, даже являющееся названием конкретного предмета, может стать (при морфологическом осмыслении или экспрессивной оценке внутренних свойств этого предмета) переносным выражением качественного состояния или отвлеченного свойства. ... Развитие качественных значений на основе взаимодействия предметов приводит к углублению семантических связей между именами существительными и прилагательными» [3, 156].

Итак, имя прилагательное, в освещении акад. Виноградова В. В., – это грамматическая категория, объединяющая все слова 1) с общей языковой семантикой качества, относительного и указательно-определяющего признака; 2) указывающие своей структурой (флексией **-ый, -ий, -ая** и т. д.) на род, число, падеж; 3) определяющие имена существительные и согласуемые с ними; 4) производные от основ существительных или глаголов. Качественное значение в производных прилагательных является вторичным, приобретенным в процессе их образования от существительных и глаголов.

Литература

1. В.В.Виноградов. Русский язык. (Грамматическое учение о слове). – М., 1986.
2. В связи с ограниченными рамками статьи мы останавливаемся на двух, на наш взгляд, основных вопросах, освещаемых академиком в своем главном научном труде.
3. В.В.Виноградов. Русский язык. (Грамматическое учение о слове). – М., 1972.

З.Курбонов (СамДУ)

ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА ҚЎШМА ГАПЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ҲОЛАТИ ХУСУСИДА

Ўзбек тилшунослигида қўшма гапларнинг ўрганилиши жараёнида асосий эътибор уларнинг ташқи ва ички хусусиятларини белгилашга, синтактик шаклланиши ва бунда турли боғловчи воситаларнинг қўлланилиши, компонентларининг лингвистик табиатини изохлашга қаратилди.

Академик Ғ.Абдурахмоновнинг қўшма гапларни тадқиқ этишда уларнинг ташқи ва ички жиҳатларига эътибор қаратганини ижобий баҳолаймиз. Олим бу ҳақда қуйидагиларни таъкидлайди: “Қўшма гап ўзининг ташқи (грамматик) ва ички (мазмун) хусусияти билан алоҳида бир бутунликни ташкил этади. Ташқи томондан қўшма гап бирдан ортиқ гапларнинг турли воситалар ёрдами билан бирикиб, яхлит бир конструкцияни ҳосил қилиши билан, ички томондан эса, яхлит бир фикрни ифодалаши билан характерланади”[1,9].

Равшанки, ҳозиргача қўшма гап, шу жумладан, гипотактик қурилмаларни ташкил этувчи синтактик структураларнинг лингвистик мақоми талқини бобида бир хиллик кузатилмайди. Баъзи тадқиқот ишларида уларни **содда гап** термини билан аташсалар, айрим ишларда, хусусан, гипотактик қурилмаларда бу ўринда **предикатив қурилма** терминини қўллайдилар. Бизнингча, бу хусусда айтилган Ғ. Абдурахмоновнинг фикрларига қўшилиш мумкин. Унга кўра, қўшма гап шаклан икки ва ундан ортиқ содда гапнинг бирикувидан тузилиши қайд этилади ва шу билан бирга, содда гапларнинг айни пайтда қуйидаги белгиларга эга бўлиши айтилади:

1) ўзининг алоҳида интонацион хусусиятини йўқотади, қўшма гапнинг биринчи қисмини ташкил этган гапларнинг интонацияси иккинчи даражали бўлакнинг интонациясига ўхшаб қолади. Қўшма гапнинг ҳар икки қисми умумий бир интонацион хусусиятга эга бўлади;

2) содда гаплар таркибидаги айрим бўлақлар туширилиши, умумлаштирилиши, алмаштирилиши ёки қайтарилиши мумкин;

3) содда гап кесимлари шакли бир-бирига мувофиқлаштирилади;

4) айрим гап бўлақларининг вазифаси ўзгаради;

5) гап бўлақларининг тартибида ҳам маълум ўзгариш рўй беради.

Ғ.Абдурахмонов қўшма гап таркибий қисмларини ташкил этувчи гапларнинг **предикатив қурилма, элемент** сингари номлар билан аталиши мақсадга мувофиқ эмаслигини таъкидлайди, зотан, улар қанчалик ўзига хос хусусиятга эга бўлмасин, гапнинг умумий белгиларини акс эттиради. Улар **гапликдан** чиқиб кетмайди ва гап мақомини сақлаб қолади[1,13].

Ғ.Абдурахмоновнинг бу мулоҳазалари илмий асослидир, чунки қўшма гапнинг ҳар қандай ҳолатда ҳам камида икки содда гапнинг ўзаро бирикувидан, муносабатга киришувидан ташкил топишини инкор этиб бўлмайди. Тўғри, гипотактик синтактик қурилмаларнинг тобе қисмларини ташкил этувчи гаплар лингвистик ва прагматик омиллар таъсирида баъзан жиддий ўзгаришларга дуч келиши мумкин. Лекин, шундай бўлса ҳам, улар гап мақомини сақлаб қолади. Ғ.Абдурахмонов таъбири билан айтганда: “Қўшма гапни ташкил этган гаплар гапнинг асосий белгиларини ўзида ифодаласагина, улар қўшма гапнинг алоҳида компонентлари ҳисобланади, агар гапнинг асосий белгиларини ўзида ифодаламаса, у оддий сўз бирикмаси бўлади ва бундай конструкция содда гап саналади”[1,11].

Қўшма гап таркибий қисмларини ташкил этувчи гапларнинг ўзаро муносабати мазмунан турлича мақсад ифодаларига мўлжалланган бўлади. Шунинг учун қўшма гап мазмуний жиҳатдан турлича турларга бўлинади. Масалан, гипотактик қурилмаларнинг аниқловчи, тўлдирувчи, сабаб, мақсад, тўсиқсизлик, пайт ва ҳақозо турлари шу тамойил асосида белгиланади. Бунда, яъни гипотактик қурилмаларнинг мазмуний турларини белгилашда асосий восита тобе гаплар ҳисобланади. Чунки тобе гап бош (ҳоким) гапни изохлаш вазифасида келадиган, изохлаш орқали бош гапга тобе бўлган қўшма гап қисми саналади[2,185].

М.Асқаровнинг тадқиқот ишларида ҳам қўшма гап назарияси мукамал берилганини кўрамиз. Олима эргаш гапли қўшма гап ҳақида сўз юритганида куйидагиларни қайд этади: “Эргаш гапларнинг деярли ҳаммаси мустақил содда гапларга хос асосий белгиларга-маълум мазмунни ифодалаш, предикативлик муносабатини билдириш пауза билан ажратиш хусусиятларига эгадир”[3,173]. М. Асқарова эргаш гап шу мақомда келиши учун мазмундаги нисбий тугаллик, эга ва кесим муносабатининг мавжуд бўлиши ҳамда гапларга хос интонация (айни пайтда тобелликни ифодаловчи интонация назарда тутилмоқда) бўлиши шартлигини тўғри таъкидлайди.

М.Асқарова эргаш гапли қўшма гаплар компонентларининг ҳар бири мазмунан нисбий мустақил эканлигини қайд этади[3,356]. Дарҳақиқат, гипотактик қурилмалар таркибидаги ҳар бир гап мазмунига кўра нисбий мустақилдир. Бироқ синтактик жиҳатдан эргаш гапларни мустақил деб бўлмайди. Тўғри, эргаш гап мазмунига кўра мустақил бўлиши, ҳатто ҳоким гапда берилаётган хабарга нисбатан салмоқлироқ хабар ифодасини бериши ҳам мумкин. Лекин синтактик позициясига кўра у ҳар қандай вазиятда ҳам бош гапга тобе бўлади. Бу хусусда Ғ. Абдурахмонов, А. Сулаймонов, Х.Холиёров ва Ж.Омонтурдиевларнинг “Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис” ўқув қўлланмасида берилган куйидаги фикр ибратлидир: “Эргаш гапдаги мустақиллик, айниқса, бош гапи **маълумки, шуни билински** типидagi конструкциялардан бўлганда яққол кўринади... Бунда эргаш гап фикрни кенгайтириш, ҳатто асосий мақсадни ифодалаш учун хизмат қилади”[4,134].

Демак, айрим эргаш гапларда бош гапга қараганда ҳам муҳимроқ воқеа, ҳодиса ҳақида хабар берилади, улар шаклан мустақил бўлади. Аммо бу турдаги эргаш гаплар бошқа бир гапни изохлаш вазифасига кўра эргаш гаплар саналади. Айнан ана шу вазифа бундай гапларни синтактик жиҳатдан бош гапга тобе қилиб қўяди. Бундай ҳолат эргаш гапларнинг барча турлари учун умумий тамойил ҳисобланади.

Р.Сайфуллаевнинг тадқиқот ишларида қўшма гаплар талқинига систем-структур нуқтаи назардан ёндашиш кузатилади. Олима анъанавий тилшунослигимизда амал қилиниб келинаётган қўшма гап назариясига танқидий муносабат билдиради. Бунинг далилини куйидагиларда кўрамиз: “Қўшма гап содда гапларнинг бирикувидан ташкил топади, деган тушунчанинг ўзи ҳам мавжуд эмас. Чунки содда гап фикран нисбий, интонацион тугалликка эга бўлади. Қўшма гапнинг қурилиш материали ҳисобланган қурилмалар (худди шунингдек, яқка бир сўз ҳам) бундай хусусиятга эга эмас. Улар шаклан, яъни ташқи томондан содда гапга ўхшайди.... Шунинг учун қўшма гап содда гаплардан

ҳосил бўлади демасдан, қўшма гап ё номуствакил содда гаплардан, ё предикатив бирликлардан ҳосил бўлади дейиш маъқул”[5,33].

Р.Сайфуллаеванинг мазкур фикри билан умумий режага кўра қўшилиш мумкин. Бироқ бунда баъзи эътирозли мулоҳазалар ҳам мавжуд кўринади. Биринчидан, анъанавий тадқиқот ишларимизнинг қарийб барчасида қўшма гапнинг таркибий қисмини ташкил этувчи содда гаплар ҳақида фикр билдирилганда, бунинг нисбий тушунча эканлиги, аслида эса мазкур қурилмалар муствакил содда гаплардан фарқ қилиши эслатиб ўтилади. Иккинчидан, қўшма гап компонентлари саналувчи синтактик қурилмалар, тўлиқ муствакил бўлмаса-да, гап мақомини йўқотмайди.

Бироқ Р.Сайфуллаеванинг қуйидаги фикри билан тўлиқ қўшилаемиз: “Қўшма гап ички турларига баҳо беришда ҳам эътирозли томонлар бор. Жумладан, эргаш гапли қўшма гапнинг мазмун турлари боғланган ва боғловчисиз қўшма гапларга асосиз равишда кўчирилади”[5,56].

Дарҳақиқат, гипотактик қурилмаларнинг пайт муносабатини, сабаб муносабатини англатувчи деб аталган турлари паратактик қурилмаларга нисбатан ҳам қўлланиши ҳолатларини кузатаемиз. Бунинг натижасида эса гипотактик ва паратактик қурилмаларнинг мазмуний турлари қарийб қориштириб юборилмоқда.

Н.Маҳмудовнинг тўғри таъкидлашича, ўзбек тилшунослигида, умуман, туркийшуносликда, ҳатто бошқа тилшуносликларда ҳам, айниқса, эргаш гапли қўшма гаплар атрофида баҳслар мавжуд эди ва ҳозир ҳам шундайлигича қолмоқда. Шунинг учун ҳам эргаш гапли қўшма гапларни баҳолашда жиддий муаммолар анчагина[5,157]. Олимнинг фикрига кўра, ўзбек тилшунослигида қўшма гапларни тадқиқ этиш борасида кўп йиллардан буён олиб борилаётган ишлар, асосан, формал синтаксис талабларига жавоб беради, мазмуний синтаксис йўналиши бўйича эса ҳозирги даврга қадар салмоқли ишлар амалга оширилганича йўқ¹⁹. Бундан ташқари, Н. Маҳмудов эргаш гапли қўшма гаплар ўз табиатига кўра боғланган қўшма гаплардан фарқ қилишини алоҳида таъкидлайди ва бу ҳақида қуйидагиларни ёзади: “...эргаш гапли қўшма гаплар боғланган қўшма гапларга қараганда узвлари ўртасидаги мазмуний-таркибий муносабатлар табиатига, бу муносабатларни юзага келтирувчи мазмуний, мантиқий ва синтактик механизмларнинг анча мураккаблигига кўра фарқ қилади [6,157].

Н.Маҳмудовнинг мазкур мулоҳазаларига қўшилган ҳолда шуни қайд этмоқчимизки, эргаш гапли қўшма гапларнинг нафақат мазмуний-мантиқий жиҳатларини, балки, кўп йиллар давомида ўрганилиб келишига қарамай, уларнинг формал-синтактик жиҳатларини ҳам ҳали мукамал тадқиқ этилган деб бўлмайди.

Ўзбек тилшунослигида эргаш гапли қўшма гапларнинг формал-синтактик хусусиятлари, аниқроғи, уларнинг семантик-сигнификатив парадигматикаси ва компонентлари ўртасидаги синтагматик муносабат масаласи А.Бердиалиев томонидан мукамал ишланди. Бу масалалар тадқиқи А.Бердиалиевнинг докторлик диссертацияси мавзусининг асосини ташкил этади [7]. Бундан ташқари, унинг “Ўзбек тилида омоним моделли эргаш гапли қўшма гаплар” деб аталувчи монографияси ҳамда “Ўзбек тили синтактик парадигматикаси асослари” мавзусидаги ихтисос курси матни ҳам ўзбек тилшунослигида эргаш гапли қўшма гапларнинг формал-синтактик нуқтаи назардан шаклланиши ҳамда тил бирликларининг парадигматик муносабатининг юқори босқичи бўлмиш синтактик парадигматика муаммоларининг ўзбек тилшунослигида ўрганилишига муносиб улуш қўшганини алоҳида таъкидламоқ даркор. Мазкур ишларида муаллиф боғловчили қурилмалар ва уларнинг омонимия ҳодисасига муносабати, шунингдек, тил бирликларининг парадигматик ва синтагматик муносабатлари, синтактик парадигматика, шу жумладан, қўшма гапларда синтактик парадигматика ҳодисасининг илмий талқини мукамал берилганини кўраемиз[8].

Гипотактик қурилмаларнинг систем-структур тадқиқига бағишланган монографик тадқиқотлардан бирини Н.Турниёзовнинг “Ҳозирги ўзбек тилида гипотактик қурилмаларнинг синтактик деривацияси” мавзусида ёзилган докторлик ишида кўраемиз. Мазкур тадқиқотда эргаш гапли қўшма гапларнинг гипотактик қурилмалар синтактик деривацияси тамойиллари атрофлича ёритиб берилди. Тадқиқот соф формал-синтактик йўналишда бўлиб, унда эргаш гапли қўшма гапнинг ҳар бир тури деривация маҳсули - ҳосила қурилма тарзида ўрганилади ва бу жараёнда трансформацион метод *дериват* ҳосил қилувчи асосий омиллардан бири сифатида талқин этилади. Н.Турниёзов гипотактик қурилмалар таркибий қисмларининг ҳар бирини алоҳида *операндлар* тарзида белгилайди ва уларнинг ўзаро муносабати *деривациянинг* мутлақ ҳоким унсури *оператор* воситасида шаклланишини мукамал ёритиб беради [9]. Бундан ташқари, мазкур ишда гипотактик қурилмаларнинг синтактик парадигмаси масаласига ҳам эътибор қаратилади. Бизнингча, бу жуда муҳим аҳамият касб этади, зотан, нутқ жараёнида сўзловчи прагматик омиллар қуршовида бўлгани боис, нутқ материални тўғри танлашга маъсулдир.

Бу ўринда шуни алоҳида қайд этиш лозимки, Н.Турниёзовнинг мазкур тадқиқоти ўзбек дериватология мактабининг шаклланишида дастлабки қадам бўлди. Фикр далилини ўзбек тилшунослигида дериватология муаммоларига бағишлаб ёзилган ўнга яқин номзодлик диссертацияларида кўрамиз.

Н.Турниёзов ва К.Турниёзовларнинг ҳаммуаллифликда ёзишган “Функционал синтаксисга кириш” монографиясида кўшма гапларнинг, шу жумладан, эргаш гапли кўшма гапларнинг ҳам функционал таҳлили муаммоси тадқиқи кун тартибига кўйилади. Мазкур ишда эргаш гапли кўшма гаплар, боғланган ёки боғловчисиз кўшма гаплардан фарқли равишда, ягона туб структура асосида шаклланиши алоҳида таъкидланади ва эргаш гапли кўшма гаплар шаклланишида суперфункционал **монемалар** муҳим роль ўйнаши ишонarli тарзда ёритилади[10,98-103]. Бунда монема деганда, муайян вазифа бажарувчи ва функционал кимматга эга бўлган нутқнинг энг кичик бирлиги тушунилади. Монемаларнинг **автоном, функционал, ярим функционал, қарам** ҳамда **суперфункционал** деб номланувчи беш тури хусусида маълумот берилади. Ана шу монемалардан кўшма гап синтактик шаклининг деривацион хусусиятлари билан боғлиқ суперфункционал монемалар алоҳида аҳамият касб этиши атрофлича ёритиб берилади. Буни қуйидагиларда кўрамиз:

а) функционал монема ёхуд ярим функционал монема нутқнинг шаклланиши жараёнида фақат унинг бир элементига функционал фаоллик беради ва бу элементнинг тилдан нутққа кўчирилишини таъминлайди;

б) суперфункционал монема нутқий жараён шаклланишида муайян бир сўзга эмас, балки бутун бир гапга функционал фаоллик беради. Бундан ташқари, унинг воситасида бир пайтнинг ўзида кўшма гап компонентларининг ҳар иккиси ҳамда кўшма гапнинг ўзи яхлитлигича функционал фаолликка эришади (мазкур вазифада кўшма гапни шакллантирувчи боғловчи ва боғловчи функциясини бажарувчи бошқа морфологик воситалар келади)[10,103].

Таъкидлаш лозимки, гипотактик қурилмалар доирасида қўлланувчи боғловчи воситаларнинг суперфункционал монема мақомида ўрганилиши кўшма гап компонентларининг функционал таҳлили жараёнида муҳим аҳамият касб этади. Бошқача айтганда, бу орқали анъанавий тилшуносликда тадқиқотлар кун тартибиде бўлмаган бир қатор масалалар ўз изоҳини топади. Масалан, гипотактик қурилма компонентларининг синтактик фаоллашуви, ҳар бир компонент структурасини ташкил этувчи элементларнинг (тил белгиларининг) нутққа кўчирилиши масаласи билан боғлиқ муаммолар, гипотактик қурилма синтактик шакли занжирининг шаклланиши тамойиллари ва ҳоказолар ана шундай масалалар жумласига киради.

Адабиётлар:

1. Абдурахмонов Ғ.А. Қўшма гап синтаксиси. -Тошкент, 1961.
2. Абдурахмонов Ғ.А. Ўзбек тили грамматикаси.- Тошкент, 1986.
3. Асқарова М. Қўшма гап // Ҳозирги ўзбек адабий тили.-Тошкент, 1987.
4. Абдурахмонов.Ғ. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили.- Тошкент,1979.
5. Сайфуллаева Р.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўшма гапларнинг формал-функционал талқини. - Тошкент, 1994.
6. Маҳмудов Н. Эргаш гапли кўшма гапларда шакл ва мазмун // Ўзбек тилининг назарий грамматикаси.-Тошкент, 1995.
7. Бердиалиев А.Семантико-сигнификативная парадигматика и синтаксические отношения в конструкциях сложноподчиненного предложения узбекского литературного языка. Автореф. докт. дис.- Ташкент,1980.
8. Бердиалиев А. Ўзбек тилида омоним модели эргаш гапли кўшма гаплар.- Тошкент,1990
9. Турниёзов Н.К.Синтаксическая деривация гипотаксиса в современном узбекском языке. Автореф. докт. дис. -М.,1985.
10. Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш. –Тошкент, 2003.

B.Ahmedova (SamDAQI), I.Malikova (SamDCHTI)

SO‘Z SINTAKSISI TUSHUNCHASI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

So‘z sintaksisi tushunchasining ilmiy asoslanishi, asosan, yasama so‘zlar materialida o‘z ifodasini topadi. Yasama so‘zlar leksik derivatsiya mahsuli bo‘lib, bunda ularning ichki strukturasi muhim omil sifatida xizmat qiladi. Sodaroq qilib aytganda, yasama so‘zning ichki strukturasi uning morfologik jihatdan tuzilishini taqozo etadi. Morfologik nuqtayi nazardan yondashilganda yasovchi formant bilan so‘z yasalishi asosi muhim ahamiyat kasb etadi. Yasalish asosi yasama so‘zning mazmuniy jihatdan nimaga asoslanayotganini, yasovchi formant esa yangi ma‘no ifodasining shakllanishi uchun vositabo‘lgan omilni ko‘rsatib turadi. Bu jarayonda, albatta, so‘z yasalishi asosi muhim mavqega ega bo‘ladi. Bunda u yangi so‘z

yasalishi tayanadigan asos vazifasini bajaradi. Biroq masala mohiyatiga derivatsion nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, yasovchi formant ustuvor ahamiyat kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, derivatsion jarayon ana shu vositaga asoslanadi va shu bois mazkur vosita derivatsiyaning mutlaq hokim unsuri, ya'ni operator vazifasini bajaradi.

Masalaga an'anaviy nuqtayi nazardan yondashilganda ham, so'z yasalishi jarayonida til birliklarining sintagmatik munosabat tashkil etishini kuzatamiz. Masalan, so'z yasalishi asosi bilan yasovchi formant o'rtasidagi yoki derivatsiya operandi bilan operator o'rtasidagi munosabatlarning har biri sintagmatik bog'lanish doirasida shakllanishi fikrimiz dalili bo'la oladi. Biroq bu bilan an'anaviy so'z yasalishi va leksik derivatsiya hodisalari mushtarak xarakterli ekan, degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Ular o'rtasida ba'zi holatlarga o'xshash bo'lishi mumkin, ammo ularning operatsion salohiyatlari bir – biridan farqlanadi. Bunda leksik derivatsiya imkoniyatlari kengroq ekanini ko'ramiz. Chunki derivatsion operatsiyalar vositasida yasama so'zning ichki strukturasi chuqurroq kirib bora olamiz va muayyan bir yasama so'z sathida sintaktik munosabat mavjudligini ko'rsatib berish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Masalan, yalovbardor so'zining ichki strukturasi sintaktik munosabatga nazar tashlaylik. Ayni paytda, berilgan yasama so'z komponentlari o'rtasida quyidagi tarzda sintaktik munosabat shakllanganini ko'ramiz: yalov – obyekt, bardor – ijrochi.

Lekin ish harakati mavjud emas ekan obyekt bilan ijrochi bunday imkoniyatga ega bo'la olmaydi. Demak, bu o'rinda ko'tarib bormoq, olib bormoq ma'nolarini anglatuvchi ish harakati obyekt bilan ijrochi munosabati o'rtasida yashirin holda kelmoqda. Shunday ekan bu o'rinda obyekt – harakat – ijrochi ko'rinishidagi sintaktik munosabat mavjudligini isbotlay olamiz.

Yasama so'zning ichki strukturasi nazar soladigan bo'lsak, aksariyat hollarda unda atomar predikat tushunchasi o'z ifodasini topayotganini kuzatish qiyin emas. Bu esa, o'z navbatida, yasama so'z sathidagi kichik sintaktik munosabatlarni katta sintaktik munosabatga ancha yaqinlashtiradi: yalovbardor – u oldinda boruvchi kishi (yoki bayroq ko'tarib yuruvchi kishi).

E.S.Kubryakovaning ta'kidlashiga ko'ra, har bir yasama so'z gap bilan so'z o'rtasidagi oraliq vaziyatda turadi. U inson tajribasi va ko'nikmasida muayyan bir tushunchani anglatgani uchun so'z maqomida bo'lsa, ichki strukturasi yashirin holda hukm ifodasini taqozo etgani uchun gapga ham nisbat qilinadi.

N.I.Kondakovning mulohazasiga ko'ra, bunday holatda inson tajribasi va ko'nikmasida so'z birlamchi sanaladimi yoki bunday imkoniyat gapga tegishlimi, degan savol tug'ilishi ham mumkin. Albatta, til sistemasining asosiy birligi sanaluvchi so'z birlamchi xususiyatga ega deb o'ylaymiz. Ammo yasama so'zlarning lingvistik tabiati, ayniqsa, ularning muayyan hukm ifodasi anglatuvchi xususiyatini hisobga oladigan bo'lsak, u holda gapning birlamchi ekanligini dalillovchi fikrga kelishimiz ham mumkin.

Shuni alohida qayd etish lozimki, yasama so'zning mazmuniy salmog'ini hukm ifodasi bilan qiyoslar ekanmiz, bunday hosila muayyan gapning transformatsion jarayonda ixcham holga keltirilgan nominativ shakli ekanligini ko'ramiz. Chunki ayni paytda nominativ ma'no ifodalashiga ko'ra gap bilan yasama so'z maksimal darajada bir – biriga yaqinlashadi.

Hatto gap orqali ifodalanadigan situatiyani atash ma'nosi ham yasama so'zga (u muayyan hukm ifodasi bilan bog'liq bo'lgani uchun) qayd etilishi mumkin. Bizningcha, mazkur holatlarning barchasi yasama so'zning ichki strukturasi bilan bevosita bog'lanadi. Boshqacha aytganda, so'z yasalishi jarayonida vujudga keluvchi ichki struktura so'z sathida sintaktik munosabatnigina shakllantirib qolmay, bir vaqtning o'zida muayyan hukm ifodasini ham vujudga keltiradi.

Yasama so'zning ichki strukturasi bilan bog'liq muammolarni o'rganish kichik sintaksisning asosiy vazifalaridan birini taqozo etishini ko'ramiz, Aslida, ichki struktura zamirida so'z sintaksisi bilan bevosita aloqador bo'lgan atomar predikat, sintaktik munosabat hamda gapning lingvistik tabiatiga taalluqli bo'lgan barcha masalalar kompleksi o'zini namoyon etadi.

Til taraqqiyoti jarayonida, uning barcha sohalarida va hodisalarida bo'lgani kabi, so'zning semantik strukturasi ham o'zgarishlar bo'ladi. Bular semantik strukturaning leksik ma'no qismiga ham, qo'shimcha ottenkalar qismiga ham taalluqlidir, lekin leksik ma'no nuqtayi nazaridan bo'ladigan o'zgarish asosiy holat hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Миртожиев М.М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-жилд. ЎЗМУ. Т.: 2004. 285 б.
2. Нейматов Ҳ., Расулов И. Ўзбек тили систем лексикологияси.–Тошкент, 1995.214 б.
3. Кубрякова Е. Теория номинации и словообразование// Языковая номинация.-М.,1977.С.159.
4. Кондаков Н.И. Логический словарь-справочник.-М.,1975.-С.135.
5. Туробов А. Сўз синтаксиси.- Самарқанд, 2014. 96 б.
6. Турниёзов Н., Хайруллаев Х. Синтактик муносабат ва синтактик структуралар // Структур синтактик асослари.- Тошкент, 2009.165 б.

МОТИВАЦИОННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ОСОБЕННОСТИ ПРЕФИКСАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕКОТОРЫХ ГЛАГОЛОВ СОСТОЯНИЯ

Мотивационный потенциал глаголов состояния мы рассматриваем в двух аспектах – количественном и качественном. Глаголы состояния мотивируют большое количество производных и образуют максимально большие словообразовательные парадигмы.

Так, глагол *верить* имеет словообразовательную парадигму, насчитывающую 8 слов, глагол *надеяться* - 9 слов, глагол *любить* - 16 слов. Следует отметить, что большинство глаголов русского языка образуют словообразовательные парадигмы, состоящие из двух – семи лексем [7, с.71-72].

Что касается способности многозначных глаголов состояния мотивировать словообразовательные гнезда, то здесь следует отметить, что гнезда глаголов состояния принадлежат к полному структурному типу словообразовательных гнезд (по типологии А.И.Моисеева). Это, как правило, трех, четырех, пятиступенчатые словообразовательные гнезда. Наполнение ступеней этих гнезд неравномерно, особенно в пятиступенчатых гнездах, где последняя ступень крайне незначительна по объему: она содержит от одного до трех слов.

Первая ступень – по сравнению с остальными ступенями словообразовательных гнезд глаголов состояния – оказывается количественно самой большой. Например, у глагола *любить* производные распределяются по ступеням следующим образом: 1 ступень – 26 слов, 2- 12, 3- 5, 4- 1.

Своеобразие глагола как части речи, играющей центральную роль в построении предложения, обнаруживается и в структуре словообразовательных парадигм, имеющих глагол в качестве базового слова [4, с.23]. Словообразовательные парадигмы глаголов зависят от семантики, и их структура определяется валентностями глаголов [4, с.24].

В словообразовании каждая лексико-семантическая группа слов мотивирует свои, закономерно ей присущие производные [4, с.18]. Глаголы состояния, в свою очередь, обладают рядом особенностей, суть которых изложена ниже.

По принадлежности к той или иной части речи, содержащихся в них производных, словообразовательные парадигмы подразделяются на гомогенные, то есть состоящие из дериватов только одной части речи, и гетерогенные, содержащие производные разных частей речи [7, с. 73].

Парадигмы рассматриваемых глаголов состояния являются гетерогенными.

Образование слов глагольного класса является одним из звеньев словообразовательной системы русского языка. По отношению к последней оно представляет собой частную подсистему и, в свою очередь, состоит из микросистем. Важнейшей из них следует признать префиксальное глагольное образование [1, с. 4].

Приставки выполняют двоякую функцию, которая наиболее ярко проявляется в пределах категории глагола: 1) грамматическую (средство образования совершенного вида: *любить* – *полюбить*); 2) лексическую (средство образования новых слов: *верить* – *веритель*, *уверить* и т.д.).

Префиксы, занимая в слове препозитивное положение по отношению к основе, носят автономный характер и являются относительно самостоятельными значимыми частями слова. Последнее позволяет приставкам присоединяться к целым словам.

Если присоединение происходит, то начинается процесс взаимодействия значения префикса и значений других словообразовательных элементов. В результате этого процесса в слове, по мнению А.И.Коновой, могут возникнуть «новые представления» [5, с.80]. Исследователь также указывает на роль контекста в формировании значения приставочного глагола. Ср.: *залюбить* (*почувствовать расположение, симпатию*) и *залюбить* (*причинить вред любовью*). Вне контекста определение значений данных глаголов практически невозможно.

Разные приставки могут участвовать в выражении близких, синонимичных, а порой и тождественных значений [3, с.3] (Ср.: *полюбить её* и *возлюбить её*). Функции приставок наиболее ярко проявляются в пределах категории глагола. Подсчитано, что префиксальные глаголы составляют приблизительно 90% всей глагольной лексики [3, с.3].

Глагольные приставки - мощное деривационное средство, связывающее разряд глаголов с классом производных слов [1, с.161].

Еще В.В.Виноградов писал о том, что емкость и гибкость семантической структуры глагола в большой степени обусловлены «разнообразием живых значений приставок, сложным взаимодействием их со значениями слов», именно поэтому «в глаголе префиксы играют большую роль, чем суффиксы» [2, с. 339-340].

Префиксальное образование в глагольном словообразовательном классе является продуктивным способом производства новых слов.

Наиболее продуктивно приставочное образование в группе глаголов состояния, которые реализуют до 25 значений приставок – временных, результативных и видовых, но эти образования до настоящего времени не были классифицированы и изучены с надлежащей полнотой.

Литература:

1. Варакин Л.А. Семантический аспект русской глагольной префиксации. Екатеринбург, 1996. 179с.
2. Виноградов В.В. Русский язык /Грамматическое учение о слове /. М., 1986. 639с.
3. Волохина Е.А., Попова З.Д. Русские глагольные приставки: семантическое устройство, системные отношения. Воронеж, 1993. 196с.
4. Земская Е.А. Словообразование как деятельность. М., 1992. 221с.
5. Конова А.И. К вопросу о значении глагольных приставок в русском литературном языке. //Вопросы современного русского языка и методики преподавания его в школе. Свердловск, 1961. С50-57
6. Павленко П.И. Приставки в толковых словарях в русском языке. // Советская лексикография. М., 1988. С.137-149
7. Попова Т.В. Русские производные глаголы: морфемная структура и деривационные особенности. Екатеринбург, 1996. 119с

H.Ochilova (SamDCHTI)

VALENTLIK HODISASI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR (O'zbek va xitoy tillari materiali asosida)

Har bir so'z (leksema) o'ziga xos bog'lashuvga ega bo'lib, o'zining ichki ma'noviy belgilari asosida u yoki bu turdagi so'zlar va grammatik shakllar bilan kengaytirilishni yohud izohlanishni, aniqlanishni talab etadi. Til birliklarining sintagmatik munosabati ularning ichki ma'nosi bilan bog'liq. So'z leksik ma'nosi qanday yoki qanaqa mantiqiy semaga ega bo'lsa, shu semasiga mutanosib holda valentlikka ega bo'ladi. Ya'ni, "So'zning sintaktik xususiyati va semantik komponentlari o'rtasida doimiy mutanosiblik mavjud bo'lib, bunday mutanosiblikni yuzaga chiqaruvchi vosita valentlikdir" (E.B.Guliga, E.I.Shendels. 1976:299). Valentlik nazariyasi tilshunoslikga, dastlab, S.D.Kastnelson tomonidan kiritilgan. U valentlikni so'zning o'ziga xos xususiyati ekanligini e'tirof etadi va shunday yozadi: "Valentlik so'zning ma'nosi asosida boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatida namoyon bo'ladi" (Kastnelson S.D. S.132). Keyinchalik, bu nazariya L.Tenyerning verbatsentrik nazariyasi asosida yanada rivojlandi. Uning 1953-yilda nashr ettirgan «Struktural sintaksis asoslari» nomli kitobida bu atamaning tildagi xususiyatlari asoslanib, har bir so'z ikkinchi bir so'z bilan bog'lanuvchi aniq bir xususiyatga ega ekanligi va bu strukturalardan, gaplardan iboratligi ta'kidlanadi (Tenyer L.1953:4).

L.Tenyer konsepsiyasining o'ziga xosligini fe'llning rolini izohlash spetsifikasi belgilaydi. L.Tenyer «Sintaksisni qanday qurish kerak» nomli maqolasida, sintaktik nazariyalar sof sintaktik belgilarga tayanishi lozimligini ta'kidlaydi va ikki asosiy qismni: 1) statik sintaksis, yani grammatik kategoriyalarni, tartibni hamda ularning tildagi uyushishi tamoyillarini o'rganuvchi kategorial sintaksis 2) funksional yoki dinamik sistaksis, yani «jonli» fraza strukturasini, uning aloqalarining real mexanizmlarini tadqiq etuvchi sintaksisni ajratadi. Nutqiy dinamika asosida namoyon bo'luvchi funksional sintaksis statik holatda talqin etiladigan kategorial sintaksisga qarama-qarshi qo'yiladi. Kategorial sintaksisda tilning grammatik kategoriyalari o'rtasida munosabat, ularning til sestemasida tutgan o'rni masalasiga e'tibor qaratilsa, funksional sintaksisda esa gap bo'laklari va ularning o'zaro munosabati, mazkur munosabatni yuzaga chiqaruvchi mexanizmlar tavsifiga asosiy e'tibor qaratiladi (Tenyer L.1939)

Dastlab «valentlik» atamasi faqat fe'llarning birikuvchanlik imkoniyatlariga nisbatan qo'llanildi. Keyinchalik ushbu terminning vazifasi kengayib, valentlik xususiyatlari keng doiradagi morfologik birliklarga xos ekanligi tilshunoslar tomonidan e'tirof etila boshlandi.

Bunday qarashlarni G.Brinkman ishlarida kuzatish mumkun. U ot, sifat hamda fe'llarning valentlik xususiyatlarini kuzatar ekan, fe'llarning o'ziga xos valentlik tabiatiga ega ekanligini aniqlaydi. Ot hamda sifatlar faqat bittadan kelishik formalari uchun vakant pozitsiyalarga ega bo'lsa, fe'llar egadan tashqari yana bir qancha vakant pozitsiyalarga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Ma'noviy bog'lashuvda so'z o'zining lug'aviy ma'nosi imkoniyatlarini ko'rsatish uchun so'z shakllarini o'ziga biriktira olish qobiliyatlarini namoyon etadi. Ikki va undan ortiq so'z grammatik va ma'no jihatidan bog'lanib so'z birikmasini hosil qiladi. So'z birikmasi komponentlari sifatida barcha turkumlar ishtirok etishi mumkun. Bu xususiyatni avvalo fe'l bo'lmagan *ishchi*, *yaxshi*, *ikkinchi* kabi so'zlar misolida aniqlashtirmoqchi bo'lsak, ularning quyidagi tur so'zlar bilan kengayish imkoniyatlarini kuzatishimiz mumkin:

1. Sifat yoki sifatlovchi so'zlar bilan: *yaxshi shifokor*, *qobiliyatli shifokor*, *katta shifokor*, *mohir shifokor*.

2. Miqdoriy soʻzlar bilan: *ikki shifokor, uchtadan shifokor, toʻrtala shifokor.*
3. Tur, oʻrin-joy, vaqt belgisi maʼnolarini bildiruvchi soʻzlar bilan: *tish shifokori, qishloq shifokori.*

Hozirgi zamon shifokori...

4. Shu kasbdagi shaxsga aloqador boʻlgan narsa-buyum, belgi-xususiyatni ifodalovchi soʻzlar bilan: *shifokor kiyimi, shifokor qabuli, shuningdek, shifokor madadkor, shifokor yozdi, shifokor tekshirdi* kabi. Bu kabi shifokor soʻzidan oldin va keyin kela oladigan soʻzlar bilan birika olish *shifokor* soʻzining maʼnoviy bogʻlashuvi (semantik valentligi)dir.

Yaxshi soʻzi oʻzidan keyin kelgan ot va feʼllar bilan birika oladi: *yaxshi bola, yaxshi kitob, yaxshi koʻrdim, yaxshi eshitdim.* Qiyoslash maʼnosini yuzaga chiqarganda bu soʻz oʻzidan oldin chiqish kelishigidagi ot yoki olmosh bilan kengayishi mumkin: *olmadan yaxshi, bundan yaxshi* kabi.

Ikkinchi soʻzi ham yuqoridagi soʻzlar kabi turkumlararo sintaktik munosabatga kirisha oladi: *ikkinchi oʻrin, bolalarning ikkinchisi, ikkinchi kelish* kabi.

Xitoy tilida ham turli turkumlarni assotsiativ birikuvi xuddi oʻzbek tilidagi kabi maʼlum semantik va sintaktik aloqa yetakchiligida amalga ohsa ham, grammatik bogʻliqlikni yaqqol koʻrsatib beruvchi vositalar sanoqlidir. Shuning uchun xitoy tilida valentlik hodisasi koʻproq semantik nuqtayi nazardan talqin etiladi. Ushbu holatni oddiy gaplar misolida yaqqol koʻrishimiz mumkin: 我(men) 看(oʻqimoq)书(kitob), 他(u)看(oʻqimoq)报纸(gazeta) - Men kitob oʻqi(dim)yapman, u gazeta oʻqi(di)yapti; 她(u)去(bormoq, ketmoq)商店(dukon)买(sotib olmoq)东西(narsa) - U dukonga narsa olgani ket(yapti)di. Koʻrinib turganidek, gapda feʼlni kesim qilib shakllantiradigan, gapning boshqa boʻlaklari bilan bogʻlaydigan kesimlik shakllari zamon, mayl va shaxs-son ifodalanmagan, ammo soʻzlarning semantik qamrovi sabab bogʻlanish hosil boʻladi va gap maʼnosi kontekstdan maʼlum boʻladi.

Xitoy tilida yana shunday feʼllar borki ularning qoʻllanilishi ham semantik qamrovga tayanadi. Bular toʻldiruvchining boshqa harakatga nisbatan ega vazifasida qoʻllanilishini belgilovchi kauzativ, yaʼni ketma-ket bogʻlangan feʼllardir: 叫, 请, 使, 让。

M: 他叫我来; 我请他进来。 Ushbu gaplar tarkibidagi kauzativ feʼllarni aynan tarjima qiladigan boʻlsak, maʼnodan ogʻish holatiga yoʻl qoʻygan bolamiz, ularni konteks talabidan kelib chiqib tarjima qilgan maqsadga muvofiq: *U meni kelishimni chaqirdi* emas, *u mening kelishimni aytdi; men uni ichkariga kirishini iltimos qildim* emas, *men uni ichkariga kiritdim.*

L.Tenyerdan farqli ravishda G.Brinkman «valentlik» va «pozitsiya» tushunchalari oʻrtasidagi chegarani belgilaydi. G.Brinkman fikricha, valentlik har doim feʼlning birikma hosil qilish boʻyicha potensial imkoniyati, (obrazli aytganda) unga xos layoqatdir. Imkoniyatning reallashuvi esa pozitsiyani hosil qiladi (Филичева Н.И, 1967:121). Demak, valentlik va pozitsiya tushunchalari oʻrtasida til va nutq hodisasining imkoniyat va voqelik dialektikasi kuzatiladi. Feʼllarning imkoniyat tarzidagi valentliklarining nutq jarayonida real birliklar bilan toʻldirilishi, voqelanishi pozitsiyani hosil qiladi. Agar til-nutq dixotomiyasini, til va nutq birliklari oʻrtasidagi dialektik bogʻliqlik mavjudligini, ular oʻzaro bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar ekanligini inobatga olsak, u holda cheksiz birikish imkoniyatlariga ega boʻlgan lisoniy birliklar muayyan vaziyatda, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun nutqiy realizatsiyasidan tashkil topadi. Shuning uchun [valentlik] atamasini ham til birliklarining birikuvchanlik imkoniyatlarini, ham ularning nutqiy realizatsiyasini belgilash uchun qoʻllash maqsadga muvofiqdir. Zero, feʼllarning valentlik modeli, uning konkret birliklar bilan toʻldirilishi nutqda sodir boʻladi. Soʻzlarning sintaktik valentligi esa soʻz birikmalarida gavdalanadi.

Quyidagi birikmalar mustaqil soʻz birikmalari sanaladi: *bugun bormoq, bozorga bormoq, ukam bilan bormoq, meva-sabzavot sotib olishga bormoq.* Hozirgi oʻzbek tilshunosligining talqiniga koʻra yuqoridagi soʻz birikmasini oʻz ichiga olgan gap quyidagicha nutqiy birikmalarga ajratiladi: *bugun + bormoq, bozorga + bormoq, ukam bilan + bormoq, meva-sabzavot sotib olishga + bormoq.* Nutqiy iqtisod qonuni asosida bu birikmalarning barchasida kesimga bogʻlanish mavjudligini inobatga olib, "bormoq" ni qavsdan tashqariga chiqarsak, shunday holatga duch kelamiz: *(bugun + bozorga + ukam bilan + meva-sabzavot sotib olishga) boramiz.* Haqiqatan, tafakkur jarayonida yuqoridagi chizma bugun, bozorga, ukam bilan, meva-sabzavot sotib olishga kabi soʻz shakllarni oʻzaro bir-biriga qoʻshilgan tarzdami? Aslida, ushbu gapning tafakkur jarayoni (gapning shakllanish asosi)ni quyidagicha tasavvur etishimiz mumkin:

BORAMIZ

Biz boramiz.

Biz bugun boramiz.

Biz bugun bozorga boramiz.

Biz bugun bozorga ukam bilan boramiz.

Biz bugun bozorga ukam bilan meva-sabzavot sotib olishga boramiz

Chizmadan koʻrinib turibdiki, gapning kengayishi birikmalarni yuzaga keltirish emas, balki "bormoq" soʻziga bogʻlangan soʻzlarning birin-ketin nutqqa kiritilishi asosida sodir boʻladi.

Xitoy tilidagi soʻzning qanday grammatik maʼnoga egaligini aniqlashda morfologik koʻrsatkichlarga tayanib boʻlmasligini, oʻz navbatida, bu tilda sintaktik qurshov va ushbu qurshovdagi barqaror mantiqiy munosabat muhim ahamiyat kasb etishini yuqorida taʼkidladik. Masalan, 北京冬天太冷, 春天风很大 - jumlasidagi soʻzlarning ketma-ketligini saqlagan holda, oʻzbek tiliga oʻgiriladigan boʻlsa, undagi soʻzlarning quyidagi mantiqiy bogʻlanish asosida fikriy yaxlitlik ifodalangani maʼlum boʻladi: **Shimol + qish + haddan + sovuq, bahor + shamol + juda + katta**. Yaʼni: *Shimolda qish haddan sovuq, bahorda shamol juda kuchli boʻladi*.

Endi quyidagi gapga eʼtibor beraylik, *qishda oʻrik oppoq boʻlib gulladi. Yaylovda mushuklar oʻtlab yuribdi*. Grammatik jihatdan gaplar tarkibidagi soʻzlarning birikishida hech qanday xatolik yoʻq. Ammo maʼnosi notoʻgʻri, chunki hech qachon qishda oʻrik gullamaydi, yaylovda mushuklar emas chorva mollari oʻtlashadi. Demak, til birliklarining nutq jarayonida birikib kelishida shunday nuqtalar borki, ular til strukturasi nogrammatik faktorlari asosida yuzaga keladi. Bu faktorlar asosida maʼlum lugʻaviy birlikning nutqda boshqa lugʻaviy birlik bilan birlashishi yuz beradi. Binobarin, har ikki tildan maʼlum boʻladiki, valentlik hodisasi sof sintaktik hodisa emas, balki semantik-grammatik hodisadir.

Adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). – T., 1995.
2. Mirtojdiyev M. Feʼl valentligi. - T., 2007.
3. Qoʻchqortoyev I. Soʻz maʼnosi va uning valentligi. – T., 1977.
4. Rahimov. A.S Umumiy tilshunoslik kursi. – Samarqand, 2015.
5. Филичева Н.И. Понятие синтаксической валентности в работах зарубежных языковедов. – ВЯ., 1967.

O.Z.Tilovov (SamDCHTI)

XITOIY TILIDA SOʻZ YASALISHINING KOMPOZITSIYA USULI

Soʻz yasashda ikki yoki undan ortiq asos morfemalardan tuzilgan usul kompozitsiya usuli deyiladi. Qoʻshma soʻzlarni tashkil qiluvchi ikki morfema orasidagi munosabat besh turga boʻlinadi. Lekin V.I. Gorelovning “Leksikologiya kitayskogo yazika” kitobida qoʻshma soʻzlarning yasaliş usullari ancha murakkabroq berilib, bir koʻrishda ilgʻab olish qiyin. Chunki kitobda qoʻshma soʻzlar bir necha turlarga boʻlinib, ularning yasaliş yoʻllari ham bir necha turlarga boʻlinib, ularning yasaliş yoʻllari bir necha tiplarga ajratilgan. Lekin Pekin tillar universiteti tomonidan 房玉清 muharrirligi ostida chiqarilgan kitobda “实用汉语语法” kitobida yasama soʻzlar tuzilishini 6 turga boʻlgan. Bular: 联合试 liánhéshì – teng qoʻshilish, 偏正式 piānzhèngshì – atributiv tip, 述宾式 shùbīnshì – umumiy obyekt shaklli tip, 述补式 shùbǔshì – natijaviy tip, 主谓式 zhǔwèishì – predikativ tip, 附加式 fùjiāshì – affiksali yoki alohida tip. Bularning ichida eng koʻp tarqalgani atributiv, teng qoʻshilishli, affiksali tiplardir.

Teng qoʻshilishli tipdagi yasama soʻzlar- 联合试合成词.

Bu tipdagi soʻzlarni ikkiga boʻlamiz: A va B punktlarga boʻlamiz, A punkt dagi soʻzlar maʼno jihatidan yaqin, yaʼni sinonim boʻlgan morfemalardan tuzilgan. V.I. Gorelov bunday tuzilishni sinonimik tip deb izohlagan. Bu morfema maʼno jihatidan yaqin boʻlib, bir- birini toʻldirib keladi .

A1 名素 +名素 (ot+ot) 人民, 道路, 语言, 图画; A2 动素 +动素 (Feʼl+Feʼl) 帮助, 斗争, 停止, 制造; A3 形素 +形素 (sifat+ sifat) 伟大, 勇猛, 劳苦,

B punkt dagi soʻzlar maʼnosi bir biriga zid boʻlgan soʻzlar, qarama-qarshi maʼnoli morfemalardan tuzilgan. Bu morfemalar birlashib, umuman boshqa maʼnoli soʻzni keltirib chiqarishi mumkin.

B1 名素 +名素 (ot+ot) 东西 (sharq-gʻarb – narsa), 窗户 (oyna-eshik – deraza)

B2 动素 +动素 (Feʼl+Feʼl) 开关 (ochmoq-yopmoq – vikluchatel), 买卖 (olmoq-sotmoq – savdo-sotiq)

B3 形素 +形素 (sifat+sifat) 大小 (katta-kichik – oʻlcham), 远近 (uzoq-yaqin – masofa)

Soʻz maʼnosidan kelib chiqib, shuni koʻrish mumkinki A punkt dagi ikki morfema qoʻshilganda hosil boʻlgan soʻz asl maʼnosini saqlagan. B turdagi soʻzlarning ikki morfemasida ham oʻzgarishlar mavjud, baʼzilari yangi maʼno yasaydi, baʼzilari esa bir qismining maʼnosini beradi.

Eslatma: yana teng qoʻshilishli tipdagi yasama soʻzlarning shunday turi borki, ular A2 punkt dagi yasama soʻzlarga ham B2 punkt dagi yasama soʻzlar qatoriga ham kirmaydi. Masalan; 听写 – eshitmoq-yozmoq = diktant, 纺织 – toʻqimoq-tikmoq = tekstil, 往返 – bormoq-qaytmoq = borib qaytish.

Bu tipdagi soʻzlarning ikki feʼl morfemasi ham oʻz asl maʼnosini saqlab qolgan, lekin ular bir harakatni bildirmaydi, balki yonma – yon, oldinma-keyin keladigan farqli ish-harakatni bildiradi. Shuning uchun ular baholangan feʼlli yasama soʻzlar (连动的合成词) deb ataladi .

Atributiv tipdagi yasama soʻzlar- 偏正式合成词

Bu tipdagi yasama soʻzlarda ikkinchi morfema asl maʼnoni beradi. Oldindagi yaʼni birinchi morfema ikkinchisini aniqlab keladi. Bunda 偏正 termini ishlatiladi. Bu termin aniqlovchi-aniqlanmish munosabatlarini bildiradi. Aniqlanayotgan morfema (正) uch turga boʻlinadi.

1. Narsa predmet nomlarini bildiradi. Masalan, 布 mato; 院 hovli
2. Harakatni bildiradi. Masalan, 用 ishlatmoq, foydalanmoq; 卖 sotmoq.
3. Narsa-predmetning sifat harakatini bildiradi. Masalan, 热 issiq; 白 oq.

A ot morfema+ot morfema 名素 +名素: A1 鸡蛋 tovuq+tuxum=tuxum; A2 布鞋 mato+poyafzal=shippak, 粉笔 kukun+qalam=mel, boʻr. (Bu tipdagi ot1 morfema ot2 aniqlovchisi-belgilovchisi); A3 海马 dengiz+ot=dengiz oti (Bu tipdagi ot1 morfema ot2 ning asosi); A4 书本 kitob, 人口 aholi, 船只 flot (Bu tipdagi ot1 morfema asos morfema boʻlib, ot2 klassifikatordir).

形素+名素(sifat+ot) 红旗 qizil bayroq; 形素+动素(sifat+feʼl) 单干 yakka xoʻjalik; 动素+名素(Feʼl+ot) 抹布 latta; 名素+形素 (ot+ sifat) 冰凉 muzdek

Predikativ tipdagi yasama soʻzlar- 主谓式合成词

Predikativ uslubda bogʻlanish. Yasama soʻzning orqa morfemasi old morfemani izohlab keladi. Old morfema predmetni, orqa morfema esa harakat, belgi, hususiyatni bildiradi. Bu tipdagi soʻzlar ega kesim sistemasi boʻyicha yasalgan leksikalizatsiya natijasida kelib chiqqan. .孙常叙 Sun Chang Xuning taʼkidlashicha bu tipdagi yasalishlar zamonaviy xitoy tilida soʻz hisoblansa, qadimgi xitoy tilida gap hisoblangan. Ular bu leksik birliklarni “Qisqa gap strukturali soʻzlar 短句结构” deb nomlagan. Yasalishi:

A 名素 ot +动素 Feʼl: A1 地震 yer+qimirlamoq=zilzila, 肝硬化 jigar+ qotmot= jigar sirrozi; A2 自卫 oʻz+himoya qilmoq= oʻz oʻzini himoya qilmoq; A3 人造 odam+yaratmoq= sunʼiy

B 名素ot + 形素 sifat: B1 年轻 yil+yengil= yoshlik ; 性急 karakter+shoshilmoq= shoshqaloq; B2 眼红 koʻz+qizil= hasad qilmoq.

Natijaviy tipdagi yasama soʻzlar- 述补式合成词

Bu tipdagi yasama soʻzlarning tarkibidagi birinchi morfema harakatni, ikkinchisi natijani bildiradi. Masalan,

动素 Feʼl+动素 Feʼl: 打倒 urmoq+yi qilmoq=yi qilmoq, 打死 urmoq+oʻlmoq= oldirmoq, 敲破 urmoq+buzmoq=sindirmoq.

уларни бошқарилувчан белгиларини ҳам аниқлайди. Муаллиф “бошқарилувчан” ҳолатларда субъектнинг вазифаси устунлигини айтиб, замон муносабати хусусиятларига қараб кичик гуруҳларга бўлади. У бошқариладиган ҳодисаларни “ҳаракат” бошқариладиган процессларни “фаолият” деб атайдиган [3, 21]. Процесслар динамик белги сифатида субъект билан боғлиқ. Шу ўринда шуни таъкидлаб ўтиш керакки, тилшуносликда феъл ҳаракатни ифодалаш ва ҳолатни ифодалашига қараб динамик ҳамда статик гуруҳларига бўлинади. Феъл предикатларининг динамиклиги “процессуаллик” маъноси билан боғлиқ бўлиб, статиклик “процессуал бўлмаган” ҳолат ифодаловчи маънолар билан боғлиқлик сифатида қарама қарши қўйилади.

Замонавий инглиз тили аналитик хусусиятга эга эганлиги билан характерланади. Шундай бўлсада, инглиз тили морфологик, синтактик ва лексик тизимида қўшимчаларнинг ўз ўрни бор. Жумладан инглиз тили феъл системасида олд қўшимчалар (префикслар) ва суффиксларни учратишимиз мумкин. Мазкур қўшимчалар инглиз тили лексик ва грамматик шакл, маъноларни англатишида, ҳосил қилишида ўзига хос функцияларни бажариб келади.

Инглиз тилидаги феъл қўшимчаларининг лексик ва грамматик маъно белгиларига қараб қуйидаги гуруҳларга ажратишимиз мумкин:

1. феъл ясовчи қўшимчалар: -en (sweeten), -ate (cultivate), -fy (clarify), -ize (nominalize) ва бошқалар. Ушбу суффикслар одатда сифат ёки отга қўшилиши орқали феъл ҳосил қилишади. Шунингдек ушбу гуруҳга қўшма феълларни ҳам киритишимиз мумкин: to whitewash, to broadcast ва ҳақозолар:

2. Феълларнинг лексик маъносини ўзгартирувчи ёки лексик маъно ҳосил қилувчи қўшимчалар: be- (bemoan, behead), en- (engulf), em- (embed), under- (undergo), out- (outlast), over- (overestimate), re- (rewrite), sub- (submerge), mis- (misunderstand), un-(undo) ва бошқалар тегишли:

3. феълларга қўшилиши орқали турли морфологик шакл ҳосил қиладиган қўшимчалар бўлиб, улар кўпчиликни ташкил этишмайди: -d, -ed, -ing.

Иккинчи гуруҳга тегишли бўлган under-, out-, over-, re-, mis- префикслари феълларга қўшилиш орқали феълларнинг лексик-семантик хусусиятларини ўзгартириш ёки қўшимча маъно ифодалаш учун хизмат қилади. Хусусан, мазкур ҳар бир қўшимча ўзига хос лексик маъно ифодалаш билан муҳим ўрин тутаяди. Жумладан, out-, over- префикслари феъл англатган ҳаракатнинг ошиғи билан бажарилганлиги, яъни орттирма маъно англатиши билан характерланади. Масалан: to outlast, to outgrow, to overact, to overcharge, to overrun, to overflow, to oversleep ва ҳақозолар. Her aim was to shock or outrage, but Mrs. McKennet rather seemed amused (Ch. Frazier, 181).

Хусусан, over- олд қўшимчаси англатадиган маънолар туб феълнинг лексик маъносига боғлиқ ҳолда ўзгариб боради. Натижада, ушбу олд қўшимча қўшилиши таъсирида феълларда вақти ўтганлик, бирор ҳолатдан бошқа ҳолатга ўтганлик, қутулмаган воқеа-ҳодисанинг юзага келиши, кўринишга эга бўлмоқ каби маъноларни ҳосил қилади, ҳамда статив ва динамик процессларни англатади. Қуйидаги мисолларга эътибор қаратамиз.

1) The threat of war *overshadowed* the nation; 2) We *overlooked* the sea (кўринишга эга бўлмоқ); 3) Don't *overload* the electrical system by using too many machines; 4) I have heard *overheard* some cruel remarks about my husband; 5) The car is *overdue* for a service; 6) She has *overcome* the fear at last (Ch. Frazier, 190). Келтирилган 1), 2), 3), 4) мисоллар процесс семантикасини ифодалаган бўлса, 5), 6) мисолларда статив маъно юзага келган.

Ўзига хос феъл қўшимчалардан бири бўлган re-, ҳаракатнинг қайта шаклланиши, такрор бажарилиши каби маъноларни англатиш учун қўлланилади ва ўз навбатида итератив маънони билдиради. Бир қарралик итератив ҳаракатлар субъектнинг ёки глагол-адвербал бирикмаларда аниқловчининг итератив ҳаракатлари ифодаланиши кўзга ташланади. Бир қарралик итеративликнинг ушбу морфологик кўрсаткичларидан ташқари феъл лексемасинининг ўзида ҳам мавжуд. Бу каби феълларга to repeat, to return, to recall, regain ва бошқаларни киритиш мумкин. Т.Н.Астофурова ҳаракат феъллари ифодалайдиган итеративлик хусусида ҳам тўхталиб, бу гуруҳ феъллари билдирадиган итератив вазиятлар «мунтазам бўлмаган итеративлик» сифатида замон ва отнинг миқдорини ўзаро боғланганлиги натижасида морфологик хусусиятга эга бўлишини айтиб ўтади [2, 24]. Қуйидаги мисолларга эътибор қаратамиз:

7) If she was not so inclined right then, she in turn *reprimanded* Belinda for “being so bossy” (J. Oke, 37); 8) “Divine”, repeated Melissa (J. Oke, 48); 9) Marty *recalled* all the fun she and Clark had shared with Melissa's brothers (J. Oke, 61); 10) By the time she *returned*, others had gathered to meet the stage well (J. Oke, 68). Берилган мисолларда re- олд қўшимчаси ҳаракатнинг қайта бажарилиши маъносидан ташқари янги маъно ифодалаганлигини кузатишимиз мумкин. Таҳлил жараёнида мазкур олд қўшимчаси фақатгина процесс семантикали феъллар билан бириккан ҳоллар учради.

Инглиз тилидаги un- префикси феъл, сифат, сифатдош ва камдан кам ҳолларда отларга қўшилади:

1. un- суффикси сифат ёки сифатдошга қўшилганда уларга инкор маъно беради: **unpleasant** ёқимсиз, **unlucky** омадсиз, **unpublished** нашр этилмаган;

2. феъл ўзагига қўшилганда un- префикси феъл ўзаги томонидан ифодаланган ҳаракатга қарама-қарши ҳаракат маъносини билдиради: **unmake** бузмоқ, бажарилган, иш ёки ҳаракатни бузмоқ.

Шунингдек инглиз тилидаги инкор маънони англатадиган префиксларга un- дан ташқари *dis-*, *in-*, *non-*, *il-*, *im-*, *ir-* префиксларини ҳам киритишимиз мумкин. Улар турли сўз туркумларига қўшилиши орқали мазкур сўзларга инкор маънони беради. Масалан: *regular* – **irregular**, *polite* – **impolite**, *literate* – **illiterate**, *approve* – **disapprove**, *dispose* – **indispose**, *entity* – **non-entity**

Инглиз тилида шундай сўзлар борки, улар ўз лексик маъноларини баъзан сақлаган ҳолда, баъзан эса йўқотган ҳолда грамматикализациялашади. Улар юқорида кўриб чиқилган боғловчи феъллар ҳисобланади. Мазкур феъллар гапда синтактик вазифада қўлланилади. Феълларнинг лексик-семантик маънолари бошқа туркум сўзларига нисбатан бойроқ ва эгилувчан ҳисобланади. Эгилувчан деганимизда, бир хил вазиятда бир шаклга эга компонентнинг лексик маъносига қараб ҳам феъл семантикаси ўзгариши мумкин. Кўпгина ҳолатларда феъл лексемалари бошқа туркумлар билан бирикиб комплекс, ёки комплекс маънолар ҳосил қилиши мумкин. Бу маънолар турли тилларда турлича, турли бирикмаларда намаён бўлиши мумкин. Пайдо бўладиган маънолар синтактик бирликларнинг вазифасидаги компонентларнинг ҳаракат, ҳолат ва бошқа белгиларнинг мазмуни хусусан субъект билан боғлиқ бўлган вазиятларга боғлиқ бўлади деб изохлашимиз мумкин. Инглиз тилидаги феъл лексемалари ўзига хос бўлган хусусиятлари билан ажралиб туради. Инглиз тили феълларининг маъно мазмуни турли ҳолатларда, турли бирикмаларда турлича намаён бўлади. Куйида инглиз тилидаги феълларнинг фактгина ҳаракат, ҳолат билан боғлиқ маъноларига тўхталамиз.

Феълларни тадқиқ қилиш ўз ичига феълларнинг лексик-семантик ва грамматик жиҳатларини ёритиш асосан феълнинг синтагматик хусусиятларини ўрганиш билан уйғунликда олиб борилади. Тилшуносликда тилнинг функционал томони унинг тузилиши ва ривожига таъсир кўрсатиши кўпгина томондан тан олинган, зеро тил нутқда яшайди ва ривожланади [4, 6]. Демак тилнинг ривожланиши унинг функционал томони билан ҳам боғлиқ. Тил функционаллигида муҳим ўрин тутган феъл бошқа сўз туркумларига нисбатан полисемиялиги, шакл яшашдаги турлилиги, бойлиги, бирикмалар ҳосил қилиши ва улардаги маъноларни фарқлаши ҳамда маъно ўзгартира олиш хусусиятлари билан фарқ қилади. Феълларнинг маънолар мажмуаси, лексик-семантик маъноларини аниқлаш учун уларни таснифлаш муҳим ўрин тутди.

Инглиз тилида морфологик кўрсатгачли муҳим ҳисобланган бир карралик итеративлик мавжуд. Бу бир карралик итератив ҳолат *re-* префикси ёрдами билан ҳосил бўлади. Шундай қилиб *re-* префикси қўшилиши орқали ҳосил бўладиган феъл итеративларини ҳам ўз навбатида уч гуруҳга бўлишимиз мумкин:

1) Микдорий ўзгаришга олиб келадиган феъллар. Бу гуруҳга кирувчи феъллар *re-* префикси таъсирида чекланмайди, яъни ҳар қандай категориал (субъектли, объектли) субкатегориал (статик, процессуал, динамик ва резултатив, резултатив бўлмаган) белгилар ва ҳар қандай лексик-семантик гуруҳга тегишлиликни сақлаб қолади.

2) Объектнинг сифатий ўзгаришига қаратилган такрор ҳаракатни билдирувчи феъллар (*reline*, *restructure*, *reshape*, *retool* etc.).

3) Ҳам сифатий ҳам микдорий хусусиятни қамраб оладиган феъллар (*remake*, *rewrite*)

Келтирилган изоҳларни куйидаги мисолларда кўриб чиқамиз: 11) *Belinda smiled, then a dark frown replaced the happiness on her face* (J. Oke, 29); 12) *Valensky, still holding Francesca to him, bent down from his saddle, picked the hat up by its ribbons and carefully replaced it on her head* (J. Krantz, 13); 13) *They recrossed the field, got into the Dases wagon and rode up to the Lion Gate* (I. Stone, 366); 14) *He wouldn't remove it even when the chores were all done* (J. Oke, 21); 15) *When the leg had been carefully rebandaged, Luke assisted Sam* (J. Oke, 44); 16) *The whole household was in a frenzy. Marty had checked and rechecked the supper preparations* (J. Oke, 63); 17) *True to Inman's signal, the door soon reopened* (Ch. Frazier, 257).

Кўпгина ҳолатларда феъл лексемалари бошқа туркумлар билан бирикиб комплекс, маънолар ҳосил қилиши мумкин. Бу маънолар турли позицияларда турлича, турли бирикмаларда бошқа-бошқа лексик-семантик маънолар билан намаён бўлиши мумкин. Пайдо бўладиган маънолар синтактик бирликларнинг вазифасидаги компонентларнинг ҳаракат, ҳолат ва бошқа белгиларнинг мазмуни хусусан субъект билан боғлиқ бўлган вазиятларга боғлиқ бўлади деб изохлашимиз мумкин. Инглиз тилидаги феъл лексемалари ва уларга қўшиладиган қўшимчалар лексик-грамматик хусусиятларга ажратилишида ўзига хос маълум тизимга эгалиги билан ажралиб туради.

Адабиётлар

1. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. / Н.Д. Арутюнова –М.: «Наука», 1988. –341 с.
2. Астофурова Т.Н. Категория итеративности в современном английском языке: Автореф. Дис. ... канд. фил.наук. М., 1981 -27с.
3. Булыгина Т. В. семантические типы предикатов М. 1982. –С 21.
4. Селиверстова О.Н. Семантические типы предикатов. М. 1982. - 116 с

А.Бегбоев (ДДС)

КОРБАСТИ АНТОНИМҲО ДАР ОСОРИ “ОҲАНГИ ХАЁЛ”-И МЕҲМОН БАХТИ

Маротибаи аввал дар бораи осори “Оҳанги хаёл”-и Меҳмон Бахтитаваккуфкардани бошем, фаҳмост, ки ин осор фарогири намунаҳоест, ки онҳоро адиби сохибистеъдод дар солҳои гуногуни ҳаёту фаъолият ба таҳрир оварда ба ҳар кадоме як баҳши зиндагири мавриди барраси қарор дода аст. Дар онҳо зиндаги бо паҳлӯҳои мухталифаш мавриди арзёби қарор гирифта, нуқтаҳои бинишу офариниши муаллиф ҳақбинона ба мутолиаи мо пешниҳод мегарданд ва мо аз нуқтаи назари забоншиноси тадқиқу таҳлил намудани қабатҳои лексикӣ –семантикӣ осори “Оҳанги хаёл” бо умедҳои зиёд даст задем. Як фасли хурдтарини он “Қорбасти антонимҳо” дар осори “Оҳанги хаёл”-и Меҳмон Бахти мебошад.

Маълум аст, ки антонимҳо яке аз категорияи муҳими луғавӣ буда, вазифаҳои гуногуни луғавӣ ва услубиро адо менамоянд. Азбаски қори тадқиқотии мо ба ҳамин категорияи баҳшида шудааст, бевосита дарёфт кардани мисолҳо аз таркиби ашъори ӯва таснифоти он аз рӯи ин мавзӯ таваккуф кардани ҳастем.

Калимаҳои гуногуншакли ифодагари мафҳум ва маъниҳои ба ҳамзид антоним ном дорад.

Аз таҳлилу тадқиқи осори Меҳмон Бахти “Оҳанги хаёл”-и ҳаминро муайян карда тавонистем, ки Калимаҳои дорои мафҳумитсифати дошта ва ё ба аломате ишорашуда метавонанд антоним шаванд. Масалан, “зимистон” ва “баҳор” ёки “баҳор” ба “тирамоҳ” аз он сабаб антоним мешавад, ки онҳо аломатҳои сифатии баҳор гуласт, аломати тирамоҳ ҳазон аст, аз онҳо зимистон сарди аст.

Ҳаҷри мо айни **зимистон** буд, рафт.

Васли мо фасли **баҳорон** буд, рафт (с 18)

Аз осори “Оҳанги хаёл” чунин калимаҳоро дарёфт кардем, ки хусусияти антоними доранд, ки онҳо воҳидҳои луғавии ҳамреша буда, тавассути пасванду пешвандҳои гуногун сохта шудаанд: боирода, беирода, тавоно-нотавон, доно-нодон, боадаб-беадаб ва ғайра.

Масалан, Шарифҷон, албатта, меояд, оча Баъзеҳоя барвақт, баъзеҳоя бевақтар ҷавоб медиханд (с.35.) Одами шуму ҷонқоҳ набошӣ, **кампири** бихиштиа дӯзахӣ мекунӣ? -ба ханда гуфт Иброҳимҷон.

Аз рӯи маводи гирифтамон нисбати фанни “Лексикаи забони адабии ҳозираи тоҷик” антонимҳоро ба се қисми ҷудо мекунанд: антонимҳои лексикӣ-луғавӣ; антонимҳои маъноӣ (семантикӣ) ва антонимҳои услубӣ.

Аз мутолиаи осори “Оҳанги хаёл” бисёр антонимҳои луғавиро дучор омадем, ки чунин аст:

Талх-ширин, паст-баланд, пир-ҷавон, кам-бисёр, хурд-калон, ҷанг-ғубор, дасту рӯй, курта-пойчома.

Мисолҳо:

Хубон ҷангу хоки **куртаю-пойчома**ашро саҳт-саҳт афшонда, дар об дасту рӯй шуст. (с.30).

Тоба имрӯз хурду калони деҳа ӯро дилбардорию мададгори карданд. (с.35.).

Дуюм антонимҳои маъноӣ низ аз осор дарёфтшуда .

Яъне антонимҳои маъноӣ антоним ҳоянд, ки дар онҳо айни як калима маъниҳои ба ҳам зидро ифода мекунанд.

Бебаҳо-қиммат, бебаҳо-беарзиш (қиммате надорад ёки сазо сазовор, сазо-ҷазо, берӯз, тоқу ҷуфт, субҳу шом;)

Нест аз ёди висолаш шомӣ ҳичрон ба суруд,

Нест аз фикри фироқаш субҳи айшам бе ҳалал.

Сеюм антонимҳои услубӣ

Антонимҳои услубиро аз нуқтаи назари ифодаи мафҳумҳои сифатӣ ва ё аломатҳои сифатӣ чунбин гурӯҳбандӣ кардан мумкин аст:

А) **антонимҳое, ки мафҳуми ҳодисаҳои табириро ифода мекунанд:** гарм-хунук, рӯшноӣ-торикӣ, шуқуфта-пажмурда шудан, тар-хушк.

Мисолҳо:

Ту варо кун, к-аз вафоӣ ту шавад,

Сардиҳои зиндагӣ гармтар (с 18)

Б) **антонимҳое, ки ҳолат ва фаъолияти инсонро ифода мекунанд:** пиру-чавон, зинда-мурда, пурзӯр-заиф, хушбахтӣ-бадбахтӣ, поку нопок ва дигарҳо.

Мисолҳо:

Ожанги рӯи об чинҳои рӯи **пир**,

Ошӯби мавчи об шӯри дили **чавон** (с 16)

Дар чехраи Хубон, ки ин дам осори **хашму андӯх** пайдо буд охиста-охиста дар чашмонаш шарораҳои **хурсандӣ** дурахшиданд (с 99)

Фаҳмидам, ки гапи ҳавой, тўҳмат ба мағз-мағзи устухонам кора кардасту ба ҳар роҳ вичдонама домани **покама ғуборолуд** мекунӣ (с 87)

-Ҳамин **чолу кампир**, ки осуда шаванд, дигар **бахудаю беҳуда** ба мо атака намекунанд (с 86)

В) **антонимҳое, ки ифодагари мафҳумҳои замони ва маконӣ.**

Шаб-рӯз, барвақт-бевақт, тобистон-зимистон, пагоҳӣ-бепоҳӣ, рӯзона-шабона

Мисолҳо:

Онҳо **шабро** дар масҷиди серодами Ҳоит **рӯз** карданду пагоҳии барвақт баъди нонушта ба ҷониби бозор шитофтанд (с 33)

Не рости гап **динаю** парерӯз дида **имрӯз** хашаракиҳо зиёдтар омаданд (с 60)

Ниҳоят, соҳиб телпакашро гирифта, **даруну берунашро** дид (с 83)

Г) **антонимҳое, ки сифат ва хислатҳои гуногуни предметҳоро мефаҳмонанд:**

Калон-хурд, сафд-сиёҳ, нағз-бад, ширин-талх, рост-дурӯғ арзон киммат, сер-гурусна, далер-тарсончак.

Ки ҳар **хурду калон** захр донад,

Ки таслими ман аст имрӯз ҳокон (с 42)

Соҳибу хубон др даҳони **хурду калон** овоза шуд (с 60)

Хайр ин гап киरो **сурху сафед** шудани мо намекунад (с 60)

Ғ) **антонимҳои ифодакунандаи мафҳумҳои хиссиёт, кайфият вобаста:** дӯст-душман, муҳаббат-нафрат, эҳтиром-танаффур, зиндадили-маъюсий, хурсандӣ-ғамгинӣ, бадӣ-некӣ.

Аҷаб **хушбахт** буд шодмона,

Миёни мардуми **берӯзу бадбахт** (с41)

Ба гапи ҳавоии мардум боар мекунию ба гапи зани ҳалоли худат бовар намекуни (с 16)

-Ман, оча –овози базӯр шунавою ларзон гуфт Соҳиб -Кист меғӯям?-ин дафъа кампир бурротаровоз баровард(с81)

Д) **антонимҳои ифодакунандаи мафҳумҳои гуногун:** дур-наздик, ғафс-борик, васеъ-танг, шимол-ҷануб, шарқ-ғарб, боло-поён, пеш-оқиб, баландӣ-пастӣ, қаду бар

Шуд **баланд** аз бомҳои **пасташон**,

Байрақи озодибарши инқилоб (с 4)

Садои кӯшнаю сурнай Маҳмадраҳиму Шайх аз долони баланди ҷойхонаи Шолон ба **дуру наздик** ҷунон форуму дилҷасп паҳн мешуд (с 62)

Дар байни ду сутуни айвони дарозӣ ҷойхона маҳмали сурхи ба **қаду бар** васеи рангпаридаю ҷо-ҷо даридаеро ба ҷои пешпарда кашида буданд (с 64)

1) **Антонимҳои содда:** гарм-хунук, тез-суфт, нек-бад, тар-хушк, шаб-рӯз, сафед-сиёҳ, зан-мард

Мисолҳо: Аз гузарҳои наздик **зану мард** даста-даста ба сӯи ҷойхона мерафтанд (с 62)

Вақте, ки Хубон навакак аз пешаш мегузашт, муддате чанд **дасту по** хӯрд.(с 63)

2) антонимҳои сохта босавод-бесавод, хубахт-бадбахт, пагоҳӣ-бепоҳӣ, пурдард-бедард.

Мисолҳо:

Рӯзи ӯ **пурдард** буду рӯзи **беҳин** хоҳамаш (с 12)

Саҳти олам ҳама бишуд осон (с 19)

3) **антонимҳои мураккаб:** хушбахт-бадбахт, шердил-буздил, серҳосил-камҳосил, зиндадил-мурдадил.

Мисолҳо:

Аҷаб **хушбахт** буду шодмонӣ,

Миёни мардуми берӯзу **бадбахт**.

Не бар **тани ту** қарор, небартани **ман**,

Ғам дар дили ту мондаву дар дидаи ман(с 70)

Ҳамин тавр, антонимҳо ду ва ё ҳолатзиеда калимаҳои мебошанд, ки дар онҳо маъно, ҳолат, хислат, сифати предмет ва амалиёти он ба тарзи муқобилгузори ифода карда мешаванд.

Адабиёт:

1. Зехнӣ Т. Аз таърихи лексикаи забони тоҷикӣ, Душанбе, “Дониш”, 1987, сах. 24-25.

2. Камолиддинов Б.Хусни баён, Душанбе, “Ирфон”, 1989, сах.69.
- Кабилов М Воҳидов А Забони адабии ҳозираи тоҷик (Лексикология ва лексикография), Самарқанд, 2010, сах 48.
3. Малик Кабилов, Амон Воҳидов
4. Муҳаммадиев М.Очеркҳо оид ба лексикаи забони адабии тоҷик.Д, 1968
5. Тоҳирова Қ. Лексикаи забони адабии ҳозираи тоҷик. Душанбе, 1967
6. Абдуқодиров А. Забон ва услуби М.Турсунзода. Душанбе, “Ирфон”, 1988
7. Ғаффоров Р. Забон ва услуби Раҳим Чалил.
8. Мӯминов А. Полисемия ва фразеология. “Мачмӯаи филологӣ”, УДТ, Душанбе, -1981
9. Саломов М. Ифодаҳои маҷоз дар ғазалиёти Ҳофизӣ Шерозӣ, Душанбе, 2001.
10. М.А.Ҳамроев. Ўзбек тилидан маърузалар мажмӯаси. Тошкент-2007

Р.Д.Журакулов (СамГИИЯ)

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ СОМАТИЧЕСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ РУССКИХ ПЕРЕВОДОВ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК

Если обратиться к особенностям компонентного наполнения фразеологических единиц (ФЕ) общенародного пласта фразеологии(1) русских переводов узбекских народных сказок, то здесь наибольшей активностью выделяются соматические ФЕ, т.е. это «такие выражения, среди компонентов которых имеются слова - название частей тела человека: рука, нога, голова и т.п.» (2). Эти ФЕ общенародного пласта фразеологии русских переводов узбекских народных сказок (См. «Список использованных источников») строятся на базе следующих соматизмов: голова (76, 389) /в скобках сообщается количество ФЕ – первая цифра, и число фразеопотреблений – вторая цифра/, башка (1, 1), глаз (70, 251), око – (7, 35), рука (65, 210), сердце (47, 82), нога (34, 90), лицо (16, 25), рот (14, 39), уста (3, 4), ухо (13, 45), язык (13, 23), нос (10, 24), зуб (8, 8), палец (7, 12), горло (6, 11), шея (6, 11), колено (5, 21), кость (5, 22), лоб (5, 15), грудь (4, 28), пята/пятка (4, 7), бок (3, 9), кожа (3, 4), ладонь/ладоши (2, 5), плечо (2, 3), губы (2, 2), спина (2, 2), затылок (1, 3), макушка (1, 2), ноготь (1, 2), кулак (1, 1). Всего в составе ФЕ исследуемых сказок встречаются 32 соматизма, которые реализуются в 438 ФЕ. Общее число их фразеопотреблений – 1386.

Фразеообразовательная активность этих соматизмов, как видно, неодинакова. Это зависит, как нам представляется, от семантики соматизмов, их сочетаемостных возможностей и стилистических характеристик.

Наблюдения над семантикой соматических ФЕ позволяют установить типы, в которых ФЕ с одним и тем же соматизмом соотносится между собой по общности смысловой доминанты, какого-либо образно-семантического признака. В данной статье мы обратимся к фразеогнезду с соматизмом *голова*, подразделяемым на такие семантические типы:

1) тип ФЕ, выражающих тему смерти, казни гибели человека (в таких случаях слово *голова* символизирует жизнь): а) ФЕ с семантикой `казнить, убить кого-либо`: «отрубить голову», «снять голову», «отсечь голову», «оторвать голову», «отрезать голову», «сорвать голову», «отделить голову от тела», «свалить голову», «свернуть голову», «голова с плеч долой»; б) ФЕ с семантикой `умереть, погибнуть`: «сложить голову», «лишиться головы», «потерять (терять) голову», «поплатиться головой», «отдать голову», «не сносить головы» и др.;

2) тип ФЕ, передающих значения умственных способностей человека или различных мыслительных процессов: «приходить в голову», «ломать голову», «не выходит из головы», «не укладывается в голове», «забывать голову», «вылететь (выскочить) из головы», «выбросить (выкинуть) из головы». Часть ФЕ этого типа представляет собой различные характеристики человека, например, это устойчивые обращения к кому-либо: «мудрая голова», «умная голова», «милая головушка», но: «голова садовая», «пустая голова».

3) тип ФЕ со значением различных психических и физических состояния человека: «опустить голову», «голова закружилась», «голова пошла кругом», «поникнуть головой», «понурилась голова» и др.;

4) тип ФЕ с таким значением, которые характеризует выпавшие на долю человека испытание чем-либо (горе, несчастье и др.): «обрушиться на голову», «свалиться на голову», «посыпать голову пеплом» (в отчаянии), «пропала голова» (чья?);

5) тип ФЕ, значение которых передается с участием жестов, мимики или каких-либо символических действий: «качать (покачать) головой», «схватиться за голову», «кивать головой», «взяться за голову» др.

Небольшое число соматических ФЕ русских текстов узбекских сказок характеризуется семантико-образной индивидуальностью, отдельностью, не составляя развернутых фразеорядов. Это ФЕ «сам себе голова» в значении `совершенно независимый, самостоятельный человек, который волен поступать так, как ему хочется`; ФЕ «с головы до ног», «с ног до головы», «от головы до пяток» передают общее описание фигуры человека и т.п.

Большинство соматических ФЕ со словом *голова* – глагольно-именные (их 58 ФЕ, т.е. 76 процентов). Причем обращает на себя внимание тот факт, что в составе соматических ФЕ глагольный компонент зачастую имеет производный характер. Так, префиксальная форма глагола отмечается в 37 ФЕ. При этом используются следующие приставки: по- (12), вы- (5), от- (5), с- (5), за- (4), при- (2), у- (2), на- (1), про- (1).

Реже фразеформа включает деепричастный компонент: «склонив голову», «сломя голову». И наконец, отмечается активно употребляемая предложно-именная ФЕ «на голову» (кого, чью).

Итак, соматизм *голова* отличается высокой фразеобразовательной активностью. Это проявляется даже в развитии многозначности, ср. употребление ФЕ «потерять (терять) голову» в трех различных значениях: 1) `погибнуть`: «... Сколько людей **потеряли** из-за твоего (принцессы) каприза свои **голова**!» /II, с. 193/ (Римскими цифрами обозначается порядковый номер цитируемого сборника сказок. См. «Список использованных источников»); «(Старик юноше) И если будешь спрашивать, **голова** **потеряешь**» /VI, с.199/; 2) `сильно полюбить, влюбиться`: «Наслышавшись про нее (Мохистару), многие шахи, царевичи, баи, байвачи от любви **голова** **теряли**» /VII, с.386/; «И Салман-царевич, увидав девушку, совсем **потерял голову**» /VI, с.43/; 3) `быть в смятении`, `не знать, что делать` (от волнения): «Оставшись одна, бедная женщина совсем **потеряла голову**, кружилась весь день, не зная, куда идти и что делать, словно овца, потерявшая своего ягненка» /VII, с.567/.

Таким образом, соматическая фразеология русских переводов узбекских народных сказок (в основном волшебных) отличается многообразием семантико-структурных типов ФЕ. ФЕ с соматизмами передают сложнейшие гаммы эмоционального и психологического состояния человека (волнение, сомнение, тревога, удивление, недоумение, растерянность и многие др.). Тем самым они вносят в контекст сказочного повествования живость, яркость красок, убедительность, динамизм действия, быстротечность событий, а также выражают ум и культуру узбекского народа.

Литература:

1. Ройзензон Л.И. Лекции по общей и русской фразеологии. – Самарканд: СамГУ, 1973. – С.171-180.
2. Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие и источники. – Л.: Наука, 1970, С.50.
3. Бушуй А.М. Сущность языка как проблема общей лингвистики. – Самарканд: СамГИИЯ, 2004. – 90 с.

Список использованных источников:

- I. Волшебный рубин. Узбекские народные сказки. – Т., 1967. – 348 с.
- II. Караван чудес. Узбекские народные сказки. – Т., 1981. – 256 с.
- III. День падающих с неба блинов. Узбекские народные сказки. – Т., 1968. – 504 с.
- IV. Попугай в золотом кувшине. Узбекские народные сказки. – Т., 1973. – 32 с.
- V. Бирюзовый ларец. Узбекские народные сказки. – Т., 1967. – 344 с.;
- VI. Жемчужное ожерелье. Узбекские народные сказки. – Т., 1986. – 336 с.
- VII. Узбекские народные сказки. В 2-х томах. Том 1. – Т., 1972. – 584 с.; и др. (Всего 20 источников).

О.С.Юсупова (СамДУ)

ҲИС-ҲАЯЖОН ГАПЛАРНИНГ АЙРИМ УСЛУБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Ҳис-ҳаяжон (ундов) гаплар бадий матнларда фаол қўлланиладиган бирликлардандир. Бу тип гаплар кесимнинг олдинга ўтиши, ундов сўзларнинг қўлланилиши, *қандай, шундай, шунча, шунақа, ана, мана* каби олмошлар, *нақадар, наҳот, наҳотки ажабо, афсус, эсиз* каби модал сўзлар иштирокида ёки баъзан кучли оҳанг, айрим ҳолларда паст, шивирлаш оҳанги ёрдамида ҳосил қилинади. Ҳис-ҳаяжон гаплар бадий матнларнинг барча турида, хусусан насрий матнларда қаҳрамонлар характери, руҳий ҳолатини ёритишда муҳим ўрин эгаллайди.

Масалан, Ш.Холмирзаевнинг «Шудринг тушган бедазор» ҳикоясида ҳис-ҳаяжон гаплар кенг қўлланилган бўлиб, икки инжиқ эр-хотин – Турсуной ва Икромжоннинг ички дунёсини, ўй-хаёлларини ёритилишида ижодкорга кўмак берган. Уларнинг ички кечинмалари ва ўйларидан бир-бирини яхши кўриши маълум бўлиб турса-да, бир-бирига айтадиган гаплари бунга мос келмайди. Низо-жанжаллар билан бир-бирларига азоб беришади. Икромжон ичкиликка берилиб кетиб, хотинини уриш, Турсуной эса унинг устидан милицияга шикоят қилиш даражасига бориб етади. Мана Икромжоннинг оилавий зиддиятларга бардоши етмаган пайтдаги ўй-хаёллари: *Байрам! Май! Бугун ҳамма нарса кечирарли!..*

Ўйна, кул! Шу бугун хомуш бўлма! Ғамни йиғиштир! Ўйлама ҳеч нарсани... Оламнинг ишлари қачон битиб эдики!.. Ёзувчи персонажга тавсиф бермаса ҳам унинг тилидан озгина урғу бериб айтилаётган байрам, май сўзлари, бугун ҳамма нарса кечирарли деб ўзини овунтиришга уринишлари ва ундан кейинги Ўйна, кул! Шу бугун хомуш бўлма! Ғамни йиғиштир! Ўйлама ҳеч нарсани тарзидаги даъватлари уни ўқувчига иродасиз ва ожиз бир кимса, айти пайтда, оилавий можаролардан узоқлашишнинг бирдан-бир йўли ичкилик деб тушуниб қолган одам сифатида тақдим этади.

Аммо у шу ҳолича қолиб кетмайди. Унинг руҳиятида бўлаётган ижобий ўзгаришларнинг берилишида ҳам ундов гаплар ёрдамга келади: *«Э, Икром, одам бўлмадинг-бўлмадинг-да!.. Сенга иш ҳам ҳайф, хотин ҳам! Болаларинг... Ана, болам бор демайсан!»*ёки *Бўлди. Тур, Икром! Қилғиликни қилдингми, буёғига ҳам туриб бер энди! Икромжон кийиниб, ташқарига чиқди.*

Э.Аъзамовнинг «Жавоб», «Отыйнинг туғилган йили» қиссаларида ҳам содда гапларнинг ушбу тури зиммасига муайян поэтик вазифалар юклатилгани кузатилади. Қиссалар қаҳрамонлари ҳаётга, одамларга, жамиятда юз бераётган воқеаларга, ҳатто ўзларига танқидий, талабчан назар билан қарайдиган инсонлар. Уларнинг қалбида доимо қандайдир нотинчлик, ҳаловатсизлик, исёнкорлик ва ҳаяжон ҳукмрон бўлади.

Шу боис қиссалар воқеалари ҳам одатий тарзда баён қилинмаган. Ёзувчи қаҳрамонларининг характери ва ҳаракатларини таҳлил қилишни китобхон зиммасига ташламайди, балки уларнинг ўз нутқи орқали ёритиб боради. Масалан, «Жавоб» қиссасида асар қаҳрамони Элчиевнинг ҳаёти, воқеалар ривожига тасвири кучли эҳтирос, ҳаяжон билан тўла. Мана унинг ҳаёлидан кечаётган ўйлар: *Дўстинг...Ҳайдар Самадович! У келмайди, сеникига келмоқдан нима фойда унга? У сени шунчаки лақиллатди –бир умр лақиллатиб келган. Ҳув ўшанда ҳам доғда қолдирмаганмиди сени? Хотининг-чи, Мастура-чи?.. Нега? Негаки сен кичкина одамсан, кичкина! Хўп, ана, бугун бўлим бошлиғи бўлиб кўтарилибсан! Лекин – нима учун, қайси хизматларинг учун, ниманинг эвазига?! Уят, уят! Алам, алам! Шармандалик, шармандалик! Бўлди, тур! Энди кеч! Энди ягона чораси шу! Тур!*

Мана шу руҳий сиқилишлардан қаҳрамон ўзини-ўзи ўлдирмоқчи бўлади. Унинг ҳолатини тасвирлаш учун адиб ундов гапларни кетма-кет келтираверади: *Кимдир унинг бўйундан маҳкам чангаллаб ваннахонага олиб кирди, чап қўлини ваннанинг қиррасига қўйиб... Қани, бўл, бўл! Тезроқ! Имиллама! Яна, яна, яна!..Ҳа, балли! Ана энди бўлди! Ана энди қутулдинг! Ҳаммасидан қутулдинг!..*

Ўз жонига қасд қилиб, шифохонада ҳушига келган Элчиев ҳеч кимнинг саволига жавоб бермайди, ҳаммадан уялади, ўзидан нафратланади, «йўқ бўлиб кетгиси» келади: *Нега қолди у? Кетмоқчи эди ахир, кетмоқчи! Кетиши керак эди, кетиши! Бутунлай! Тўйиб бўлган эди! Баридан! Уни нима, ким олиб қолди ким? Нега?! Кучли изтироб ва ҳаяжонлар билан йўғрилган ундов гаплар асар қаҳрамонининг «ҳолидан хабар бериб туради».*

Э.Аъзамовнинг «Отыйнинг туғилган йили» қиссасида ҳам ҳаяжон, пафос кучли. Асар қаҳрамони (Асқар Шодибеков) ёш, ҳар жихатдан «Жавоб» қиссаси қаҳрамонидан фарқ қилади. Бироқ бу қаҳрамонлар бир масалада яқдилдирлар, яъни улар жамиятдаги иллатларга бефарқ эмас. Фақат бири (Элчиев) ўз қарашларини бировга айтмайди, руҳан эзилади; иккинчи қаҳрамон (Асқар Шодибеков) иллатларга очикдан-очик исён кўтаради, нафрат билдиради, ҳақиқатни рўй-рост айтади. Ёзувчи бу қаҳрамон характерини ёритишда ва асослашда ҳам риторик сўроқ ҳамда ундов гап имкониятларидан фойдаланган. *Маширабнинг оти нега Машираб? Ким билади? Энг олдинда, домланинг оғзидан кўз узмай, иложи бўлса унинг томоқ қирганини ҳам ҳафсала билан ёзиб олишга шайланиб ўтирадиган Бўстон билади!*

Бадий ижод жараёнида қўлланиши мумкин бўлган баён усуллари кўп, албатта. Аммо уларнинг бири сифатида юқоридаги асарларда ички монологдан фойдаланиш ва унда ҳис-ҳаяжон ва ундов гаплардан фойдаланиш уларни мазкур ўринларда муҳим лингвопоэтик восита вазифасини бажарганлигидан далолат беради.

Ундов гаплар нечоғлик бадий нафосатга эга эканлигининг ёрқин намунасини О.Ёкубовнинг «Улуғбек хазиnasi» романидаги бир эпизодда кўраимиз. Мирзо Улуғбек йиғилишга яқун ясар экан: - *Бас! Фармони ҳумоюн амри вожибдур! Амир Султоншоҳ барлос! Сиз отлиқ ҳировул билан дарҳол йўлга чиққайсиз!.. Амир Султон Жондор тархон! Сиз баронгор суворийлар билан ҳировул қўшинларнинг ортидан юргайсиз. Насиб бўлса доводнда учрашурмиз. Маслаҳатлар учун ташаккур. Машиварат тамом!* дейди. Аслида бу матнда ҳукмдор тилидан ижро этилаётган гап буйруқ – фармон мазмунида: *Амир Султоншоҳ барлос! Сиз отлиқ ҳировул билан дарҳол йўлга чиқинг!Амир Султон Жондор тархон! Сиз баронгор суворийлар билан ҳировул қўшинларнинг ортидан юринг!* каби. Аммо буйруқ мазмунидаги гапнинг ундов гап шаклида берилиши, назаримизда, ифодани ғоятда кучли поэтик руҳ билан тўйинтирган. Бу билан ифода салтанат аҳлига хос улуғворлик касб этган. Чунки подшоҳлар мақсадини буйруқ шаклида ифодалашига зарурат йўқ. Уларнинг истаги, даъвати, нимагадир ундаши ҳам фармон ўрнида юриши ва сўзсиз бажарилиши шарт. Бунинг устига, Мирзо

Улуғбек олим ва маърифатпавар инсон ва унинг нутқи юксак маънавият ва одоб билан суғорилгани ҳам табиий бир ҳолдир. Мана шу маънода кесими феълнинг истак майли – *чиққайсиз, юргайсиз* шакллари билан ифодаланган ундов гаплар юқори услубга хос ифоданинг, айна ҳолатда, юксак бадиий ифоданинг юзага келишига сабаб бўлганлиги билан поэтик аҳамиятга эгадир. Ундов гаплар буйруқ гапларга айлантирилиши билан ифода бу нафосатдан маҳрум бўлади ва Мирзо Улуғбек кўз ўнгимизда қаҳрли ва ғазабли ҳукмдор сифатида намоён бўлади ва бу ифода бутун асар давомида унинг образини безаб келган фазилатларга уйғун бўлмай қолади.

Англашиладики, содда гап доирасида ўрганилаётган ундов гапларнинг бадиий-эстетик моҳият касб этиши улар қўлланилаётган нутқий вазиятга боғлиқ бўлади ва ижодкор учун муҳим стилистик-поэтик қурол вазифасини ўтайди.

Адабиётлар:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 88 б.
2. Аҳмедов А. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. – Тошкент: Фан, 1979.
3. Каримов С. Эмоционал ундовларнинг стилистик хусусиятлари ҳақида / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: ТДПУ нашри, 2011. –Б. 26-29.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 228 б.
5. Солихўжаева С. Субъектив баҳо ифодаловчи эмоционал гаплар// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. –№3. –Б.66-68.
6. Солихўжаева С. Эмоционал гапларнинг ҳосил бўлишида инверсиянинг аҳамияти / Ўзбек тили ва адабиёти. -1984.-№1.-Б.49.

О.А.Ахмедова (ФарДУ)

АРЕАЛ ЛИНГВИСТИКАНИНГ ДИАЛЕКТОЛОГИЯДАГИ ЎРНИ

Ер юзида инсоният пайдо бўлибдики улар бир-бирларига бўлган мурожаат ва мулоқотни тил орқали амалга оширган. Дастлаб тилнинг қачон ва қаерда неча хили пайдо бўлгани ҳақида ҳозирча ҳеч бир тилшунос ёки профессор олимда ҳам аниқ бир фикр йўқ. Фақатгина умумий фикр ва фаразлар мавжуд ҳолос. Демак, тил – ижтимоий ҳодиса сифатида тан олинади. Тил фикрни шакллантирувчи ва ифодаловчи воситадир. Демак, тилшунослик тилнинг тафаккур билан алоқасини ўрганар экан, тафаккур қонунларини ўрганувчи мантиқ ва психология фанлари билан туташ нуқталарга эга бўлади. Тил маълум жамиятнинг алоқа воситаси сифатида шу халқнинг тарихи, этнографияси билан ҳам бевосита боғлиқ бўлади. Ана шу алоқа тилшуносликнинг тарих, этнография билан боғлиқ эканлигини кўрсатади. Халқ маданий оламнинг шундай тармоғи борки, улар учун тил, ҳуди рассом учун ранг-бўёқ, хайкалтарош учун лой ёки тош сингари, моддий восита бўлиб хизмат қилади. Бу тармоқ адабиётдир. Шунинг учун адабиёт сўз санъати ҳисобланади. Сўз бир вақтнинг ўзида ҳам тилшуносликнинг, ҳам адабиётшуносликнинг ўрганиш объекти саналади. Уларнинг фарқи фақат сўзга қандай нуқтаи назардан ёндашишга боғлиқ.

Кейинги юз йилликларда айниқса XVI-XVIII асрлар давомида турли-туман тилларни ўрганиш натижасида тўпланган маълумотлар уларни бир-бири билан қиёслаб ўрганишга омил яратди ва аста-секин тилларнинг бир-бири билан яқинлик, қариндошлик муносабати борлиги ҳақида фикрлар пайдо бўла бошлади.

Француз олими Гвилельм Поселлуснинг (1510-1581) “Тилларнинг қариндошлиги ҳақида”, голланд олими Иосиф Скалигернинг (1540-1609) “Европаликларнинг тиллари ҳақида мулоҳазалар” асарлари юзага келди. 1786 йилда инглиз шарқшунос олими Вильем Джоунз (1746-1794) Калькуттада қилган илмий докладыда санскрит тилининг грек, латин, кекельт, гот ва қадимги форс тиллари билан қариндошлигини кўрсатиб берди. Шу тарзда тилшуносликка қиёсий-тарихий методнинг яратилишига илмий замин пайдо бўлди.[1-15]

Умуман олганда тилшунослик, яъни лингвистика жуда ҳам катта соҳа ҳисобланади. Келинлар шу соҳанинг бир бўлаги бўлган ареал лингвистикаси ҳақида бир оз тўхталиб ўтсак:

Ареал – лотинча “arealis” сўзидан олинган бўлиб, майдон, бўшлиқ маъноларини билдиради. Мос ҳодисалар айрим бўлақларининг лингвистик картада тарқалиш зонасини, яъни тилнинг диалектал фарқлинишини англатади.

Иррадиация — ҳодисанинг тарқалиш тушунчаси бўлиб, ареалнинг характерли белгиларидан бири. Масалан, ўрин-пайт келишиги кўшимчаси “-да” Самарқанд, Бухоро, Қашқадарё шаҳар тип шеваларига адабий тил таъсирида тўсиқларга учрамасдан кириб бориш йўли билан тарқалган. Лекин

қаратқич келишиги қўшимчаси “-нинг” нинг кириб бориши айтарли натижа бермаяпти. Чунки адабий тилга асос бўлган шаҳар шевалари талаффузида “-нинг” қўшимчаси мавжуд эмас [2-9].

Тил ҳодисалари, диалектал ҳодисаларни тадқиқ қилишда кўпинча ёндош тиллар ва уларнинг шевалари материаллари билан солиштирамиз. Бу тўғри усул бўлиб, қўшни тиллар ва шевалардаги лингвистик ҳодисалар бир-бирига доимо ўтиб туради. Ўтиш ҳодисаси тараққиётнинг кейинги даври ва масофанинг яқинлиги билан характерланади. Бироқ тил ва диалектлар тараққиётининг қадимий даври учун характерли бўлган айрим ҳодисаларни изоҳлашда ёндош тиллар ва шевалар ҳар доим ҳам бир-бирига ўтавермайди. Масалан, Наманган гуруҳ шевалари учун характерли бўлган “р” ундоши ўзидан кейин келган ҳамма тил олди ундошларга сингиб кетиши Фарғона водийсидаги бошқа шеваларда учрайди: туссун - турсун, боддъ - бордъ, оттоқ-ортоғ, чошшэмми- чоршэмми. Шунингдек, турк — барлос шеваларидаги ово (амаки) ҳам ёндош шеваларнинг бирортасида учрамайди. Айнан шу каби ҳодиса Қашқадарё вилоятидаги шаҳар ва шаҳар тип шевада мавжуд. Бу ҳодисанинг инновация маркази қайси эканлиги ва унинг иррадиацияси илдизи қайси томондан қайси томонга йўналганлиги номаълум. Ўзбек шевалари атласи яратилганда мана шунга ўхшаш кўпгина муаммолар ечилган бўлар эди.

Ўзбек шевалари тадқиқотида асосан, тасвирий, қисман экспериментал ва киёсий-тарихий усуллар қўлланилиб келинган. Айрим гуруҳ шевалар атласи устида текшириш ишлари олиб борилади. Тилшунос олимлар Е.Д.Поливанов, Р.Олим, К.К.Юдахин, А.К.Боровков, В.В.Решетов, Ш.Шоабдурахмонов, А.Ғуломов, С.Иброҳимов, Р.Абдуллаев, М.Мирзаев, А.Алиев, А.Шерматов, Х.Дониёров, Н.Ражабов ва уларнинг шогирдлари ўзбек шевалари бўйича олиб борган бир қатор илмий изланишларда шеваларни лингвогеографик ва ареал тадқиқоти учун манба яратади.

Ўзбек диалектологиясида бу соҳа ҳали ёш соҳалардан бири бўлиб, тугалланган бой материаллар асосида диалектологияга доир назарий масалаларни ишлаш, сўнг лингвистик география масалаларни режалаштириш босқичига ўтди.

Ўзбек халқ шевалари атласи ҳозирги замон ўзбек тили шеваларининг ранг-баранг хусусиятларини карталарда ифодалайди. Лингвистик карталарда кўрсатилган диалектал хусусиятлар ва уларнинг тарқалиши, тилшуносларга айрим тил ҳодисаларининг тарихий тараққиёти ва ўзбек миллий тилининг келиб чиқиши каби масалаларни янада чуқурроқ, ўрганиш имконини беради. Шунингдек, атлас материаллари тарихчилар, этнографлар учун ҳам фойдалидир.

Ўзбек тили диалектологик атласи қуйидаги вазифа-мақсадларни кўзда тутди:

1. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили маълум шеваларга таянади. У ўзининг имло ва талаффуз нормаларини, шунингдек, фонетик системаси, грамматик тузилиши, лексик таркибини нормалаштиришда, асосан, Тошкент — Фарғона тип шеваларга асосланса ҳам, айрим ҳолларда бу шевалар материали адабий тил нормаларига мос келмайди. Диалектологик атласнинг объектив натижалари (хулосалари) бу масалага тўлиқ, аниқлик киритади. Ҳақиқатан ҳам, шеваларга хос диалектал хусусиятларнинг бутун ўзбек тили территориясида тарқалиши ва унинг чегараларини фақат диалектологик атлас заминидагина муваффақиятли ҳал қилиш мумкин.

2. Диалектологик атлас материаллари ўзбек шеваларининг мавжуд таснифларини тўлдириш, мукамаллаштиришга, уларга аниқлик киритишга ёрдам беради. Шунингдек, ўзбек шеваларининг пайдо булишида қатнашган туркий ва туркий бўлмаган этник гуруҳларнинг ўзаро алоқалари натижасида рўй берган жуда мураккаб этнолингвистик тараққиёт процессини ҳам белгилаб берди.

3. Адабий тил ва таянч шаҳар шеваларининг кундалиқ таъсири ўзбек халқ шеваларида тил асосларининг аралашуви ва текисланиб бориш жараёнини тезлаштиради. Чунки ўзбек халқининг экономикаси ва маданияти мислсиз даражада юксалиши билан ўзбек адабий тилининг қулланиш доираси кенгайди. Адабий тилнинг барча ўзбек шевалар аро нормаллаша бориши аста-секин диалектал нутқни қисиб, оғзаки сўзлашув нутқ доирасига ҳам кириб борди.[3-31]

Ер юзида инсоният мавжуд экан шунга мос равишда турли ҳил тиллар, лаҳжалар, шевалар ва диалектлар албатта бўлади. Зеро буларнинг барчасини авайлаб асраш ва узоқ умр кўриши фақат биз инсонларга боғлиқ. Халқи зиёли ва кучли давлатда, соғлом ҳамда дунёга машхур тиллар яшайди.

Адабиётлар:

1. М.Ирисқулов. Тилшуносликка кириш –Тошкент. “Ўқитувчи” 1992 й.
2. Б.Тўйчибоев, Б.Ҳасанов. Ўзбек диалектологияси -Тошкент “Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти”. 2004 й.
3. “Тил ва адабиёт таълими” Ўзбекистон Республикаси халқ таълими вазирлигининг илмий методик журнали, -Тошкент 2016 й, 6-сон.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ZOONIMLAR ASOSIDA NOMLANGAN KISHI ISMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Barchamizga ma’lumki, ismlar to’g’risidagi tilshunoslik bo’limi onomastika deb yuritiladi. Tilshunoslikning bu sohasida izlanishlarni olib borgan tilshunoslar ko’pchilikni tashkil qiladi. Biz bu maqolada zoonimlar asosida kishi ismlarining nomlanishiga, zoonimlardan foydalanishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarga to’xtalmoqchimiz. Zero, zoonimlar asosida kishi ismlarining nomlanishi barcha tillarning onomastikasidagi asosiy manbalardan hisoblanadi. Quyida shu mavzuga taalluqli bo’lgan o’zbek va ingliz tilidagi kishilar ismlari o’rtasidagi o’xshash va farqli jihatlar, ularning o’ziga xosligi, leksik va etimologik xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug’ullanuvchi tilshunoslik bo’limiga onomastika (lot. onum nom so’zidan olingan) deyiladi. Tilshunoslikning onomastika bo’limida o’zbek tilshunosi Ernest Begmatovning o’rni muhim ahamiyatga egadir. U “Kishi nomlari”, “O’zbek ismlari imlosi” va “O’zbek ismlari” singari asarlari kishi ismlarining leksik-semantik hamda etimologi jihatdan tahlil qiladi [223.2013].

Onomastikani ham o’z navbatida bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Jumladan, insonlarga qo’yilgan ismlar antroponimlar, hayvonlarga qo’yilgan nomlar zoonimlar, o’rin-joy nomlari toponimlar, suv havzalariga qo’yilgan nomlar esa gidronimlar deb nomlanadi [219.2013]. Bir guruh tilshunoslar ism tanlash haqida gapirib, ismning tanlash maqsadi, motivini emas, balki tanlangan ism asosida qanday so’z (leksema) yoki so’z birikmasining yotganini qayd qilish bilan cheklanishadi. Bularga turkiy tillar antroponomiyasi mutaxassisleri T.J.Kusimova, M.N. Cho’bonov, O.T.Sayimbetov, F.H.Sattorov, S.Rahimov va tojik tilshunosi Sh.Shamatovlarni kiritish mumkin [3]. Biz bir nechta ilmiy maqolalarda insonlarga tegishli ismlarni hayvonlarga nom sifatida qo’yilishiga guvoh bo’lganmiz. Xususan, Shoira Meliyeva o’zining “Ingliz va o’zbek tillarida zoonimlarning ishlatilishiga doir” maqolasida inson ismlari asosidagi hayvon nomlariga to’xtalgan edi: “Diana (a dog), Justysia (a cat), Kuba (a parrot), Lili (a parrot), Lucek (a canary), Majka (a dog), Maks (a dog).” “N.V. Podalskaya lug’atiga muvofiq, ya’ni:

Kinonimlar- itlarga qo’yilgan nomlar.

Hipponimlar- otlarga qo’yilgan nomlar.

Ornitonimlar- qushlarga qo’yilgan nomlar.

Bizontonimlar- yovvoyi buqalarga qo’yilgan nomlar.

Insektionimlar- hasharotlarga qo’yilgan nomlar [6.13/25].

Zoonimlar metaforaning ajralmas bir qismi hissoylanligi sababli avvalo, metafora asosidagi ismlarga qisqacha to’xtalib o’tamiz. Xalqimizda **Sori, Qoraxon, O’roq, Tesha, Kumush, Umid, Qobul, Sheroz, Sumbula, Bahor, Shirin, Go’zal** va **Bahor** va boshqalar: “**Qoraxon** insof qilib qarasa, no’g’ay yurtining qizi tugul, yer yuzining barnolari bir tola mo’yniga arzimaydi”[23.2016]. “Ana **Qobul** shapka hech qayerda o’qimagan, lekin tayog’ini bir silkitsa, hovlisiga somoniyam, xashagiyam tushib turibdi.”[6], “Qaysi kuni ertalab aylanib yursam, qo’shnimizning yetti yashar qizchasi **Nilufar** chiqib qoldi.”[223.2017], “Olim odamning otasiga bunday ishlar yarashmaydi bu ishingiz,- dedi **O’roq** chol boshini chayqab,- Og’ir bo’ling.”[245.2017] “Mana bu boshqa gap, - dedi **Qoravoy**, - endi manovi xatni oling”[260.2017]. Shuningdek, Murod Muhammad Do’stning “Dasht-u dalalarda” asaridagi **Polvon** va **Chaman** obrazi, “Farhod va Shirin” dostonidagi **Shirin**, Said Ahmadning “Qoplun” hikoyasidagi **Tillayev** singari obrazlarni keltirish mumkin.

Ingliz tiliga keladigan bo’lsak, ulardagi “**Jack, Sparrow, Blue, Hope, Bear, Hero, Booker, Brighton, Chine, Violet, Crow, Easter**” singari ismlar metaforaga misol bo’lishi mumkin. Masalan, “**Gray** Beaver g’azab bilan pichoqni qinidan chiqardi.”[378.1982], “**Violet** kichgina urg’ochi qush bilan do’stlashganida, unga yordam qo’lini cho’zishni xohladi”[178.1999], “Amerikalik aktiyor Dilan **Baker** Nyu-Yorkning Sirakuza shahrida tug’ilgan, ammo Virjiniyaning Linchburg shahrida ulg’ayadi”[13].

Kundalik turmushda yoki birorta badiiy asar o’qiganimizda **Sherqo’zi, Qo’chqor, Bo’rixon, Qo’ziboy, Arslon, Qo’ychi, Lochin, Qaldirg’och, To’ti, Samandar, Ukkibola, Xo’roz, So’fi, Qaqnus** hamda **Humoyun** singari ismlarni ko’p uchratamiz: “**Bo’rixon** ukalarini ham, singillarini ham tanimadi, ular ham buni tanishmadi”[443.2017], “**Qo’ziboy** chol choyxonaga kirdi, kimsasiz, zax xonaga o’tib, bitta ko’k choy buyurdi.”[571.2017], “O’ladi xudo xohlasa o’ladi- fikridan o’ta boshladi **Arslonqulning**- yaratkanga ming shukur”[283.2011], “**Qo’chqor**: Ey bitta teradigan mashinani ellik yil o’yladimi! Goh rulini o’zgartirasan, goh kabinasini, goh o’tirg’ichini- bo’ldi”, “**Qumri**: voy sho’rim!..voy, o’lib qo’ya qolay!..haliyam bog’liq turibsizmi?- dadasi”[227.2012], “**Humoyun** va ul yuzdin kelganlar, hech kimkargni ko’rgan emas erdi”.[223.1964] “Bu so’zni eshitib, **Suqsur** kanizga qarab bir so’z deb turgan ekan”, “Besh qo’lining o’rni dog’ bo’lib, besh panjasining o’rni bilinib qoldi. Qizining ismini **Qaldirg’ochoyim** qo’ydi”[18.2016]. Qo’shimcha qilib, “**Lochin** Soliyev, “Andijon” hujumchisi xonadonida yangi farzand dunyoga kelganini

xabar qilgan edik”[14]. Shuningdek, “**Qoraboy** Qodirov Farg‘ona vodiysi xonandachiligiga hissa qo‘shgan san‘atkordir”[15].

Garchi bir xil bo‘lmasada, o‘zbek tilidagi singari ingliz tilida ham bu mazmumdagi ismlarni ko‘p kuzatishimiz mumkin. **Deer, Jeackal, Rabbit, Bear, Fox, Wolf, Crow, Sparrow, Owl, Cock, Birdie, Dove** kabi ismlar ular orasida mashhurdir. Masalan: “Keling, keling Mr **Ferret**,- dedim men- hazillariyiz yaxshi ammo bu ahmoqgarchiliklarni tugatish vaqti keldi”[21], “Mr **Sheepman** “Clone High”dagi narxlar uyi sinfining o‘qituvchilaridan”[16], “Amerikalik huquqshunos Abraham Henry **Foxman** 1946-yil 1-mayda dunyoga kelgan”[17], “Robert Westman Smith **Wolfman** Jack nomi bilan tanilgan, u o‘zining past dag‘al ovozi bilan mashhur”[18], “Jabua **Bearmanning** maqolalari film va televizor programmalari uchun tanlab olingan”[19], “Mrs **Duckman**, Duckmanning onasi bo‘lib, bolaning otasi vafot etgandan so‘ng g‘aroyib ziyofatxonalarga kamda-kam vaqt ajratar edi”[20]. Shuningdek, “Jasoratning qizil belbog‘i” asarining muallifi “**Stephen Crane**”, “Learner English” kitobining muallifi hissoqlangan “**Swan**” zoonimlar asosida qo‘yilgan ismlarga misol bo‘la oladi.

Biz quyida keltirgan zoonimlarning ismlardagi ifodasiga qarindoshlik otlarini (aka, uka, opa, xola amma va boshq.), yoki shaxsni bildiruvchi “janob (Mr, -man), xonim (Miss, Mrs), -bek, -boy, -jon, qul” kabi qo‘shimchalarni qo‘shib qo‘llamasak, gapdagi ismlarga ko‘chgan zoonimlarimiz umuman boshqa ma‘no beradi. Masalan: “**Qo‘chqor** aka qassobxonaga go‘shiga ketdi” ushbu gapda Qo‘chqor ismli shaxsning go‘shiga olish uchun qassobxonaga ketganligini tushinish mumkin. Lekin ushbu gapimizda qarindoshlik otini tushirib qoldirsak, masalan: “Qo‘chqor qassobxonaga go‘shiga ketdi” ma‘no butunlay o‘zgaradi. Biz ushbu gapda qo‘chqor, ya‘ni qo‘yning erkagi qassobxonaga so‘yilish uchun ketdi, yoki olib ketildi degan ma‘noni tushunishimiz mumkin.

Xuddi shunday misolni ingliz tilida ham olib qaraydigan bo‘lsak, “Mr **Sparrow** flew to London yesterday”. Ushbu gapda Janob Sparrow (Chumchuq) kecha Londonga uchib ketdi degan ma‘noni anglashimiz mumkin. Lekin shaxsni ifodalovchi “Mr” so‘zini tushirib qoldirsak ya‘ni “Sparrow flew to London yesterday”, tarjimada butunlay nomutanosiblik yuzaga keladi. Tarjimasi “Kecha chumchuq Londonga uchib ketdi” degan ma‘no beradi. Har ikkala tildan ham foydalanuvchilar uchun turli qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tmoqchimizki, har ikkala tildagi ismlarga ko‘chgan zoonimlarning ismlar yoki shaxsni ifodalashda qo‘llashimiz uchun, zoonimlar bilan birga shaxsni ifodalovchi yoki shaxs yasovchi qo‘shimchalarning o‘rni katta. Har bir tilda qo‘shimchalar, shaxs-sonni ifodalovchi so‘zlar, sifat va holatni ifodalovchi so‘z va qo‘shimchalardan to‘g‘ri foydalanilsa tilning ravonligi, aniqligi va tushunarli bo‘lishiga va boshqa, til vakili bo‘lmagan til o‘rganuvchilarning ham tez va oson o‘rganishlariga imkon yaratgan bo‘lamiz.

Adabiyotlar:

1. Alpomish dostoni. 9- sinf maktab darsligi. 2015.
2. Boqijon To‘qiyev. Adabiyot litsey darsligi 3- kitob. 2017.
3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili 2-qisim litsey darsligi 2013.
4. Jek London. Olov yaratuvchilari. Amerika kutubxonasi. 1982.
5. Kuntug‘mish dostoni. 8- sinf adabiyoti maktab darsligi. 2016.
6. Meliyeva Shoir. Ingliz va o‘zbek tillarida zoonimlarning ishlatilishiga doir. Maqola.
7. Sabohat Kenjayeva. Antroponimlar tasnifiga doir. Maqola. O‘zbek tili va adabiyoti.3/2018
8. Samuyel Varren. Baristerning sarguzashtlari.- London. 1999.
9. Sarah Davis. Anna Branford. Frankfurt. 2014.
10. Sharof Boshbekov. Temir xotin.-Toshkent. 2012.
11. Xudoyberdi To‘xtaboyev. Qasoskorning oltin boshi. -Toshkent. 2011.
12. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. G‘afur G‘uom nomidagi san‘at va adabiyot nashryoti.1964.
13. [Htt://en.wikipedia.org/wiki/Dilan_Baker](https://en.wikipedia.org/wiki/Dilan_Baker) (5- aprelda ko‘rilgan)
14. [https:// championat.asia/...](https://championat.asia/...)(3-aprelda ko‘rilgan)

G.Ahmedova (SamDAQI), I.Malikova (SamDCHTI)

HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA BIR BO‘G‘INLI SO‘ZLARNING KO‘MAKCHI FE‘LGA AYLANISH JARAYONI TAHLILI

Hozirgi o‘zbek tilida bir bo‘g‘inli so‘zlarning butunlay ko‘makchi fe‘lga aylangan, ya‘ni mustaqil ma‘nosini yo‘qotib, faqat ko‘makchi fe‘l sifatida qo‘llanadigan birorta ham fe‘l deyarli uchramaydi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, ayrim mustaqil fe‘llar ko‘makchi fe‘l vazifasida ham qo‘llanadi va turli-tuman ma‘nolarni ifodalash uchun xizmat qila oladi. Bir bo‘g‘inli so‘zlar quyidagilar: yot, tur, yur, o‘tir, bo‘l, bit (bitir), ol, ber, qo‘y, chiq, bor, kel, ket, sol, tush, o‘l, o‘t, et, ko‘r, boq, yoz. Bu ko‘makchi fe‘llarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘libgina qolmay, balki umumiy bo‘lgan xususiyatlari ham mavjud.

Ko'makchi fe'llar asosiy (yetakchi) fe'lga nisbatan ko'pincha -(i)b va -a,-y ravishdosh yasovchilari orqali birikadi: yozib oldi, yoza boshladi, ishlab tur kabi. Ba'zi ko'makchi fe'llar ravishdoshning har ikki turiga birika olsa, ayrimlari faqat -(i)b yoki -a,-y affiksli ravishdoshga birikadi. Masalan, ol, ber, tur ko'makchi fe'llari ravishdoshning har ikki turiga, boshla, yoz ko'makchi fe'llari esa -a, -y affiksli ravishdoshga, bo'l, tashla ko'makchi fe'llari -(i)b affiksli ravishdoshga birikadi: yozib ber, yoza ber, yozib ol, yoza ol, yozib tur, yoza tur, yoza boshladi, ishlay boshladi, yiqila yozdi. Ravishdoshning faqat -a,-y affiksli turiga birikadigan ko'makchi fe'llar uchta: yoza boshla, yoza tur, bita yozdi.

Машғулотда қўлланиладиган воситалар: А-3, А-4 форматли қоғозларнинг (мавзунини ажратилган кичик мавзучалар сонига мос) чап томонига кичик мавзу номи ёзилган тарқатма материаллар, фломастер (ёки рангли қалам)лар. Бу ўринда ҳар бир жумланинг маъносини ифодаловчи рангли, манзарали расмлардан ҳам фойдаланиш мумкин.

Машғулотни ўтказиш тартиби:

–ўқитувчи ўқувчиларни (ёки ўқувчи) мавзулар сонига қараб 3-5 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;

-ўқувчилар (ёки ўқувчи) машғулотнинг мақсади ва унинг ўтказилиш тартиби билан таништирилади. Ҳар бир гуруҳга коғознинг чап қисмида кичик мавзу номи ёзилган варақлар тарқатилади;

-ўқитувчи гуруҳлар аъзоларини тарқатма материалда ёзилган кичик мавзулар билан таништирилади ва шу мавзу асосида ҳамкорликда ишлаб ўз фикрларини коғоздаги бўш жойига ёзиб чиқиш вазифасини беради ва вақт белгилайди;

-гуруҳ аъзолари ҳамкорликда ишлаб топшириқда берилган кичик мавзунини ёзма ифода этадилар. Бунда гуруҳ аъзолари кичик мавзу бўйича имкон борича тўлароқ маълумот беришлари керак бўлади;

-тарқатма материаллар тўлдирилгач, гуруҳ аъзоларидан бири тақдимот қилади. Тақдимот вақтида гуруҳлар томонидан тайёрланган ёзма ахборот аудитория (синф) доскасига мантиқан кетма-кетликда (зина шаклида) илинади ва тақдимот қилган ўқувчи бошқа гуруҳ аъзолари томонидан берилган саволларга жавоб беради, шу тариқа ахборот мавзуси янада тўлдирилади ва мантиқий мазмунга эга бўлади;

-ўқитувчи гуруҳлар томонидан тайёрланган ахборотларга изоҳ бериб, уларни баҳолайди ва машғулотни якунлайди.

Машғулотнинг ташкил қилиниши гуруҳ бўлиб лойиҳа устида ишлаш технологиясига ўхшаш, аммо бу ўринда мақсад ўқувчиларнинг мавзу бўйича эгалланган билимларини ёзма ифодалашга, фикрини ёзма баён қилишга ўргатишдир. Масалан «Йил фасллари» мавзуси бўйича ташкил қилинадиган бундай машғулотда биринчи гуруҳга «Баҳор», иккинчи гуруҳга «Ёз», учинчи гуруҳга «Куз», тўртинчи гуруҳга «Қиш» фасллари асосий белгиларини, хусусиятларини баён қилиш топширилиши мумкин. Бундай машғулот «Мен ёқтирган касб», «Саёҳат», «Бизнинг республика», «Бизнинг мактаб» ва ҳоказа мулоқот мавзулари бўйича уюштирилиши мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги кунда чет тилларни ўқитишда ўқитувчи асосий эътиборни ўқувчиларнинг чет тилида мулоқот қила олишига ва бунда турли методларни қўллаши лозим.

Адабиётлар:

1.Абдуллаев Ю.Н., Бушуй А.М. Коммуникативная методика обучения иностранным языкам и зарубежный педагогический опыт Уч. пособие. -Самарканд, 2001.

2.Абдуллаева М.А. Коммуникативная методика обучения иноязычной грамматике на начальном этапе языкового факультета (на материале Presentcontinuous, presentperfect английского глагола.) Дисс. на соиск. уч.ст. канд.пед наук. -Худжанд,2004 .

3.Абдуллаева Ш.А. Развитие эмоционально-образной русской речи учащихся школ с узбекским языком обучения (на материале произведений русской литературы. Автореферт на соиск. Уч. Ст. к.п.н. Т.,1998.

4.Аверина М.Н.Обучение использованию эмоционально экспрессивных лексических средств речевой коммуникации (английский язык, лингвистический вуз): Дис.... канд. пед. наук.

5.Авлиёқулов Н.Х «Замонавий ўқитиш технологиялари» -Т. 2001.

6.Ананьева М.М. Использование невербальных средств общения на уроках французского языка.

\\ Иностранные языки в школе. -М.,1999.№5.

О.Ачилова (СамДЧТИ)

ИМПЕРАТИВ НУТҚИЙ АКТЛАР

(Япон ва ўзбек тиллари қиёсида)

Императив нутқ одатда, сўзловчи тамонидан тингловчига нисбатан маълум бир ҳаракатни амалга оширилиши талаб қилинган жараёни ифодаласа-да, у фақат буйруқнигина эмас балки, нутқ вазиятидан келиб чиққан ҳолда, асл маъносидан ташқари, илтимос, хоҳиш-истак, тилак, огоҳлантириш каби мазмунда ифодаланган жумлаларда ҳам намоён бўлади.

Ушбу фикрни қуйидаги жумлалар мисолида таҳлил қилиш мумкин.

1 . 頑張れ、あと100メートルだ (Gambare, ato hyaku me-toruda)

....ғайрат қил, яна 100 метр қолди

2 . ボールを投げろ (Bo-ru nagero)

....коптовки улоқтир

3 . 虫歯が抜けろ (Mushibaga nukero)

....чириган тишлар тезроқ тушсин....

4 . 明日天気になーれ (Ashita tennkini na-re)

Эртага об-ҳаво яхши бўлсин

5. (テレビに向かって) いい加減なことを言うな

((Terebi ni mukatte) iikagenna koto o iuna)

(телевизор кўраётган сўзловчининг нутқи)

Бекорчи гапни бас қил.

Биринчи ва иккинчи мисолларда келтирилган жумлалар сўзловчининг тингловчига бўлган тўғридан-тўғри буйруғини ифодаласа, учинчи мисолда эса, сўзловчи кайфиятига ёмон таъсир кўрсатаётган ва унга оғриқ бераётган тана аъзосидан тезроқ қутулиш хоҳиш-истагини акс эттирган жумлани кўришимиз мумкин. Лекин, бешинчи мисолда таъкидланганидек, сўзловчининг шикоятчи ва унинг нолиши каби руҳиятига боғлиқ ходисаларни ифодалаш имкони ҳам мавжуд экан. Бундай вазиятда одатда, сўзловчи тамонидан баён этилган фикрга нисбатан тингловчи буйрукни бажариши шарт бўлган шахс сифатида нутқ жараёнида иштирок этмайди.

Юқорида келтирилган 1,2,3,4,5 мисолларда келтирилган жумлалар япон тилига хос бўлган “命令形” (меирейкей) яъни, буйруқ гап ясовчи шакл қондаси асосида яратилган бир хилликка эга бўлса-да, улардан англашиладиган маъноларнинг турфалиги билан ўзбек тилига хос бўлган императив нутқ жараёнидан фарқ қилади.

Ўзбек тилига хос буйруқ гапларнинг кесими, одатда, буйруқ майлидаги феъллардан ташкил топиб, у сўзловчи-тингловчини маълум бир ҳаракатни амалга оширишни ёки аксинча, бажармасликни буюришини ва шунга ундашини ифодалайди. Масалан,

Аввал ўйла, кейин сўйла. (халқ мақолидан).

Шунингдек, ўзбек тилига хос буйруқ гапларда буйруқ майлидаги феъллардан ҳосил бўлган кесим баъзан тушиб қолиши ҳам мумкин, аммо унинг маъноси нутқ вазиятидан маълум бўлиб туради. Масалан,

Ҳамма рақсга (Бадий филмдан).

Шу ўринда, япон тилига хос бўлган буйруқ гапларга қиёс қилиб кўрадиган бўлсак, гапнинг кесими вазифасини бажарувчи “命令形” (meireikei) шаклидаги феълларнинг иштирокисиз нутқ мазмунини англаш жараёни тингловчи учун бирмунча мураккаб кечади.

Япониялик баъзи тилшуносларнинг фикрича, “命令形” (meireikei) англатадиган маънони ва унинг вазифасини иккита катта қисмга бўлиш мумкин:

1. 命令 (meireikei - буйруқ)
2. 願望 (gannbou – хоҳиш-истак)

“命令” (meireikei) яъни, “буйруқ” маъносини англатувчи бу сўз, юқорида маълумот бериб ўтилганидек, сўзловчи ўз талабига мос ҳолдаги фаолиятни тингловчи тамонидан амалга оширишга ундашини англагач, 願望 (gannbou–хоҳиш-истак) эса, фақатгина сўзловчининг хоҳиш-истагига мос келувчи ҳаракат ижросини ифодалайди.

Шунингдек, япон тилида “共存” (kyouzon) тушунчаси ҳам мавжуд бўлиб, у сўзловчи ва тингловчининг юзма-юз мулоқотда бўлишини, яъни суҳбат жараёнида ҳар иккала тарафнинг иштирок этиши лозим эканлигини ифодалайди ва бу “コミュニケーションのプロトタイプ”, яъни коммуникация прототиби ҳисобланади.

Бундай ҳолатда сўзловчининг нутқида баён этилган талаб ёки буйруқ ижросини бажарувчи шахс сифатида иштирок этадиган тингловчидан конкретлик яъни, суҳбат жараёнида мавжуд бўлиш ва сўзловчи билан жонли мулоқотда бўлиши талаб этилади. Аммо, бунинг акси бўлган ҳолатларда яъни, тингловчи сўзловчи тамонидан ижро этилган нутқ жараёнида мавҳум шахс сифатида иштирок етса бундай ҳолат “非共存”(хикёузон) деб номланади. Бундай ҳолатда сўзловчи нутқидан англашилган гап кесими буйруқ майлидаги феъллардан ташкил топган бўлсада у命令 (меирей - буйруқ) эмас, балки 願望 (ганбоу – хоҳиш-истак) маъносини ифодаловчи нутқ ҳисобланади. Бундай жараён одатда, буйрукни бажарувчи шахс яъни, тингловчининг иштирокисиз содир бўлади. Масалан,

1. (テレビに向かって)

(телевизордаги шарҳловчига юзланган сўзловчининг нутқи)

いい加減なことを言うな

Бекорчи гапни гапирма (бас қил)

Япон тилида ижро этиладиган императив нутқий акт қоидаларидан бўлмиш “共存” (кёузон) ва “非共存”(хикёузон) ҳолати фақатгина шу тилга хос бўлиб қолмай, балки, қиёсланаётган ҳар

иккала тилда учрайдиган жараён дейишимиз мумкин. Ўзбек тилида “共存” (кёузон) тушунчасини сўзловчи ва тингловчининг юзма-юз кечадиган “конкрет мулоқот”и десак, “非共存”(хикёузон) тушунчасини эса, уларнинг “мавҳум мулоқат”и деб таърифлашимиз мумкин.

Бундай ҳолатларда сўзловчи ва тингловчининг нутқий акт самарадорлигини таъминлаш мақсадида мулоқотнинг қуйидаги икки туридан фойдаланилади:

1. Нутққа доир усул.
2. Нутққа доир бўлмаган усул.

Нутққа доир усулда нутқ аниқ жумлалар орқали ифодаланади ва уни ижро этувчи шахс руҳиятига боғлиқ ҳолда маълум бир оҳангда тингловчига етказилади. Шунингдек, аксинча, нутққа доир бўлмаган усулда эса, сўзловчи тингловчига ўз фикрини нутқий акт орқали эмас, балки юз кўриниши ҳолати, маълум бир тана аъзосидан фойдаланган ҳолдаги имо-ишора ва имлаш каби усуллар орқали ифодалайди.

Адабиётлар:

1. ”みんなの日本語” - 1998yil, -Yaponiya
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent 1981
3. プログレッシブ和英中辞典—2002
4. 大村礼子「試験に出る文法と表現」

E.G.Boymanov (NavDPI)

TURIZMNING IJTIMOIIY HAYOTDAGI O'RNI

Turizm insoniy madaniyatning o'ziga xos vositalaridan biri bo'lib, u yoshlarni mehnatsevar va vatanparvar, rostgo'ylik, sadoqat, o'zaro ishonch, tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga katta yordam beradi. Shuningdek, turistik sayohatlar jarayonida kishilarda mardlik, jasurlik, chidamlilik, kuchlilik, keskin vaziyatlarda zarur qarorga kelish kabi ruhiy va jismoniy sifatlarni ham tarbiyalash imkoniyati juda keng. “Turizm” terminiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar beriladi: “Ma'lum marshrut bo'yicha ham tomosha qilish va dam olish, ham sport, ham umumiy ma'lumotni oshirish maqsadida uyushtirilgan sayohat va shunday sayohatlar bilan shug'ullanish. Fransuzcha *tourismetoursayr* demakdir”⁴¹.”Turizm fransuzcha *tourismetour* – aylanish, sayr qilish” M., *Turizmning tobora rivojlanayotganini e'tiborga olib, turistik poyezdlar marshrutlari yanada ko'paytirildi.*⁴² Avestoda “Har kim o'zi yashayotgan joyni dunyoning eng go'zal joyi deb bilmog'i kerak”, – deb yozilgan. Shunday ekan, dunyoning eng go'zal joylaridan bo'lgan O'zbekistonning tabiati va hayvonot dunyosi takrorlanmasdir. Respublikamizda hali yaxshi o'rganilmagan, inson oyog'i yetmagan joylar juda ko'p. Turistik sayohatlar va ularni tashkil qilish, o'tkazish bo'yicha respublikamizda katta tajriba to'plangan. Bugungi kunda bu tajribalarni yanada rivojlantirish, uni zamonaviy darajaga ko'tarish zaruriyati tug'ildi. Turizm mazmun jihatdan keng qamrovli ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Insonlarning amaliy faoliyatlari, ijtimoiy-turmush sharoitlari, tabiat manzaralariga qiziqishlari va boshqalar juda ko'p sohalarini e'tiborga olgan holda turizm ko'p tarmoqli soha ekanligini bilamiz. Ularning eng asosiy turlari quyidagilardan iboratdir:

1. Piyoda yurish turizmi.
2. Tog'larda yurish turizmi.
3. Qoyalarni zabt etish turizmi.
4. Chamalab topish (ориентирование) turizmi.
5. Tezoqar daryolarda eshkak eshish turizmi.
6. Ulovlarda (avto, moto, velosiped va hokazo) yurish turizmi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan “Harakatlar strategiyasi”da ham turizmni rivojlantirish haqida ko'plab fikrlarga duch kelamiz:” O'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasini, shuningdek, 2017-2021-yillarda Konsepsiyani amalga oshirishga doir aniq chora-tadbirlar Dasturini ishlab chiqish”⁴³ Ko'rinadiki, turizm sohasini rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik masalalardan biri sifatida qaraladi.

E'tirof etish lozimki, sayr-sayohatlar (ekskursiya) xalqaro miqyosdagi eng ommaviy-madaniy tadbirlardan biridir. Tarixiy-madaniy obidalarni tomosha qilish, ularning tarixi bilan tanishish, zamonaviy qurilishlar, hashamatli uylar, chiroyli bog'-rog'lar, millatlarning urf-odatlarini o'rganish kabi sohalar turistlarning diqqat-e'tiboridan keng joy oladi. Bunda ulovlardan (transport) foydalanish, moliyaviy xarajatlar,

⁴¹O.Usmon.,R.Doniyorov. Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati.-T., 1965.B-465.

⁴² O'zbek tilining izohli lug'ati. -T., 2008.4-tom, B-195.

⁴³Harakatlar strategiyasi.-Toshkent., 2017-yil, 138-band.

yashash joylari hamda oziq-ovqatlar bilan ta'minlash, madaniy xizmatlar ancha ustuvor tashkiliy faoliyat hisoblanadi. Ommaviy piyoda yurish sayohatlari asosan tog'li manzaralar, daryo, ko'l, suv omborlari sohillari kabi xushmanzarali joylarga tashkil qilinadi. Bunda tabiat bilan tanishish, so'lim, go'zal manzarali joylarda tunash, ovqatlanish, jismoniy mashqlar, turli amaliy harakatlarni bajarish bilan jismonan chiniqish asosiy maqsad hisoblanadi. Bu sohaning ham o'ziga xos tashkiliy muammolari mavjuddir. O'zbekiston geografik joylashuvi va tabiiy muhiti hamda tarixiy obidalarga boy bo'lgan shaharlari sayr-sayohatlar (piyoda yurish) uchun juda qulay hisoblanadi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar. Toshkent, Navoiy, Guliston kabi zamonaviy shaharlarning ko'rki va yangi jamoli faqat mamlakatimiz aholisinigina emas, balki xorijiy mamlakatlarning ham diqqatini o'ziga jalb etadi. Farg'ona vodiysidagi yam-yashil tog'li manzaralar, Chotqol, Nurota, Turkiston, Zarafshon tizma tog'lari, Surxon vohasidagi go'zal manzaralarda sog'lomlashtirish oromgohlari, sport maskanlari (lagerlar) o'quvchi yoshlar va talabalar hamda havaskor sayohatchilar uchun eng qulay manzillar bo'lib xizmat qilmoqda.

Turizmning vujudga kelish omillari va davrlari ijtimoiy turmush, madaniy hayot va mehnat jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Eng qadimgi insonlar yashash uchun ov va mehnat qurollarini yaratishga harakat qilganlar. Shu tarzda tog'lar, daryo va ko'llarning sohillarida yashab, yovvoyi hayvonlarni ov qilganlar, ularni qo'lga o'rgatib o'z mehnatlarida foydalanganlar. Ov manzillari va dam olishga qulay bo'lgan joylarda ma'lum bir belgilarni (tur) qo'yishgan va zarur bo'lgan paytlarda ana shu joylarga kelib hordiq chiqarishgan, turli o'yinlar tashkil qilib musobaqalashishgan. Ishlab chiqarish va mehnat jarayonlarining takomillashuvi, ov va jang qurollarini yaratishning yangi usullari odamlarning uzoq joylarga borib ov va mehnat qilishi, shu asosda eng qulay va yaxshi joylarni tanlab dam olish, hatto o'troqlashib qolishlariga olib kelgan. Shu tariqa daryolar, ko'llar, dengizlarda ov qilish, sayr o'tkazish, izlanish uchun kemalar yasab, ulardan maqsadli foydalanganlar. Bu sohada Xristofor Kolumbning Amerika qit'asiga borib qolishi (kashfiyot), turli sayohatchilarning Hindiston, Afrika, Avstraliya va boshqa qit'alar, mamlakatlarga borganligi tarixdan ma'lum. XIX asrning ikkinchi yarmida bir qator rus sayyohlari, mutaxassis olimlari (asosan harbiylar) Markaziy Osiyoning iqlimi, tabiiy boyliklari, aholining madaniyati va boshqa jihatlarni o'rganish uchun tashrif buyurishgan. Ular orasida P.P.Semyonov, Tyanshanskiy, Prejevalskiy kabilar tog' sharoitlarini chuqur o'rganib, maxsus xaritalar tayyorlaganlar. O'zbekistonda turizmning dastlabki rivojlanish davri asosan o'tgan asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. 1925–1930 yillarda Markaziy Kasaba uyushmalari kengashi qoshida maxsus turistik jamiyat, ya'ni ishchi-dehqonlar turizm tashkilotini ta'sis etgan. Bu jamiyat asosan mehnatkashlarning turli shaharlarga sayohatini (ekskursiya) uyushtirish, o'quvchi-yoshlarni tarixiy obidalar bilan tanishtirish, o'lkani o'rganish kabi tadbirlar bilan shug'ullangan. Shuningdek, dam olish kunlari ommaviy ravishda shahar atroflariga piyoda chiqish, chang'ida yurish, velosipedda sayr qilish kabi amaliy faoliyatlarni tashkil qilgan. Ularning asosiy maqsadi jismonan chiniqish, mehnat faoliyatini oshirish va mudofaa ishlariga tayyorgarlik ko'rishdan iborat edi. Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941–1945-yillar) harbiy tayyorgarlik jarayonlarida o'quvchi-yoshlar va mehnatkashlarning topografik bilimlarini oshirishga alohida e'tibor berildi. Urushdan keyingi yillarda (1950–1960-yillar) Markaziy Kasaba uyushmalarining tashabbusi bilan barcha viloyatlarda va ularning quyi tarmoqlarida turistik klublar tashkil etildi. Klublar turizm bo'yicha (piyoda yurish, tog' turizmi, velosiped turizm va hokazolarni uyushtirish) seksiyalar, to'garaklar, jamoalar tashkil etib, musobaqalar tashkil etishga kirishdi. Keyingi 30–40 yil davomida (1955–1990-yillar) Respublikalar, hududlar (Markaziy osiyo, Kavkaz, Boltiq bo'yi, O'rol, Sibir va hokazo) miqyosida slyotlar (musobaqalar) tashkil etildi. Ularning dastur mazmunida kategoriyali piyoda yurish, tog' so'qmoqlari va dovonlaridan oshish, daryolardan kechib o'tish, arqonlarga osilib daryo, jarlarning ustidan o'tish hamda belgilangan joylarni kompas orqali va chamalab topish, gulxan yoqish, chodirlarni tez (vaqtga) o'rnatish, jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, jamoaning ish faoliyatlarini ifoda etuvchi albomlarni namoyish etish, qo'shiq-raqs bo'yicha ko'rik-tanlov o'tkazish kabi ko'p qirrali ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlar o'rin egallagan edi. Bunday nufuzli turistik tadbirlar boshlang'ich jamoalarda (ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va hokazoga) ham u yoki bu darajada o'tkazilishi odatga aylandi. Ommaviy piyoda yurish, shahar va tarixiy yodgorliklarni tomosha qilish sayr-sayohatlari asosan quyi jamoalarda yaxshi yo'lga qo'yildi. Markaziy shaharlar, viloyatlarda tashkil qilingan seksiyalardagi terma jamoalar tog' turizmi, velosiped turizmi kabilar bilan shug'ullanib, ularda chamalab topish (ориентирование) bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil qilindi. Shu asosda yuqorida zikr etilgan turlar maxsus sportga aylandi.

Xullas, turizm sayohat demakdir. Uning mazmunida dam olish, hordiq chiqarish, jismonan chiniqish, o'lkani o'rganish, ijtimoiy-foydali mehnat qilish, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy muvozanatni saqlash, (ekologiya), ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi keng qamrovli ijtimoiy-tarbiyaviy hamda madaniy jarayonlar mujassamlashgan. Ularni amalga oshirishda tashkiliy va boshqaruv faoliyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, turizmning bu yo'nalishidagi vositalaridan jahondagi ko'p mamlakatlarda maqsadli foydalanib kelinmoqda. Shu sababdan turizmning o'ziga xos tarixiy rivojlanishi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy faoliyatlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Turizm shaklan sayr (ekskursiya),

sarguzashtlar (путешествие, экспедиция) va piyoda yurish (пешеход) kabi turlarni o'z ichiga olib, mazmunan esa insonlarning bilim doirasini kengaytirish, aql-idroki (tafakkur) rivojlantirish hamda jismoniy barkamollikni tarbiyalash kabi eng muhim vazifalarni hal qilishni o'zida qamrab oladi.

Umuman olganda, kishilarning sihat-salomatligini yaxshilash, ularning jismoniy barkamolligini oshirishda jismoniy tarbiyaning muhim vositasi sifatida turizm o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Shu sababdan barcha aholi turizmning u yoki bu turi bilan shug'ullanishlari maqsadga muvofiqdir.

Н.С.Рахмонов (НавДПИ)

НАВОИЙ ВИЛОЯТИ ШЕВАЛАРИДА УЧРАЙДИГАН МОРФОЛОГИК УСУЛДА ЯСАЛГАН БАЪЗИ СЎЗЛАР ҲАҚИДА

Ўзбек халқ шевалари ўзаро фонетик ва морфологик кўрсаткичлари билангина эмас, туб ва ясама сўзларнинг қўлланилиши, бирида бор, иккинчисидан йўқлиги, ясаши хусусиятлар билан ҳам ўзбек адабий тили ҳамда шевалараро фарқларга эга. Шева сўзларининг морфологик тузилишига эътибор берсак, уларнинг кўпроқ морфологик, синтактик усулда ясалганлигининг гувоҳи бўламиз.

“Ясама сўзнинг ҳар бири ўзига хос моҳиятга эга бўлган икки қисмдан – сўз ясашиш асоси ва сўз ясовчидан таркиб топади”⁴⁴. Ясама сўзнинг маъноси шу сўз тузилишидаги ясовчи асос ва ясовчи қўшимчаларнинг маъноси асосида келиб чиқади. Ўзбек адабий тилидаги ясама сўзлар билан шевалардаги ясама сўзлар ўхшаш, бир хил бўлса-да, шеваларда яна ўзига хос хусусиятлар асосида янги-янги сўзлар ясалган бўлиб, ўзбек адабий тилидан фарқланади. Бу ҳолат Навоий вилояти ўзбек шевалари сўз ясашишида ҳам кўринади. Шевалардаги ясама отларнинг таркибидаги қўшимчалар ўзбек адабий тили билан ўхшаш томони бор бўлса-да, ўзига хос хусусиятлари ҳам мавжуд. Ҳатто бу қўшимчаларнинг шевалараро ҳам фарқли ва ўхшаш томонлари бор. Тадқиқ этилаётган ҳудуд шеваларида турли касб-хунар эгаларига тааллуқли бўлган шахс отлари [-чи] қўшимчаси орқали ясалади: сувчи, шувҳчи (сувоқчи), йузувчи (сувда сузувчи), пудрэтчи (пудратчи), тэйэрмәнчи (тегирмончи), пахсачи, тәннурчи (тандир ясайдиган киши), бешикчи, нәмәтчи, қандолатчи, нәшолләчи (нишолдаци), сумәләйчи ва бошқа бир қанча шахс отларини билдирувчи сўзлар учрайди. Бу, ўз навбатида, мазкур ҳудудда қадимдан темирчилик, дурадгорлик, кулолчилик, аравасозлик, бешикчилик, чармчилик, наMATчилик, қандолатчилик, мисгарлик, тош йўниш ва унга ишлов бериш каби соҳалар ривож топганини ҳам тасдиқлайди.

Ўзбек адабий тилидаги от ясовчи -бон қўшимчаси ўзбек шеваларининг барчасида мавжуд бўлиб, турли хил фонетик вариантларда учрайди. -бон қўшимчаси нарса-предметга қаровчи, уни сакловчи маъносидаги шахс отлари ясайди. Навоий вилоят шеваларида -бон қўшимчасининг -вэн || -эн || -бэн вариантлари қўлланилади: дәрвэзэвэн, тәрзизэн (тарозибон); кипчоқ шеваларида

-бан || -бэн: бағбан, сэрәйбэн каби.

Ўзбек халқ шеваларининг кўпчилигида учровчи -бэз (тож. бозидан – “ўйнамоқ”) қўшимчаси ўзбек адабий тилидагидек, асосдан англашилган иш-ҳаракат билан кўп шуғулланувчи шахс оти ясайди. Шунингдек, нарса-предметларни билдирувчи сўзларга қўшилганда шу нарсалар билан шуғулланувчи шахсни билдирадиган от ясайди. Бу қўшимча шевалараро турли фонетик вариантларда учрайди. Навоий вилоят шеваларида: мэйлисбэз, кәптәрвэз || кипч. мәжлисбэз, кәптәрбэз. Қиёс: Бухоро: [-бэз] -кәптәрбэз; Андижон: [-вэз]; кәптәрвэз; Хоразм: [-вэз] кәптәрвэз каби.

Шахс оти ясовчи [-дўз] қўшимчаси Навоий вилоят шеваларида қуйидаги касб эгаларининг номларини билдирувчи отлар ясайди: йθрмәдθз, кәштәдθз, гиләмдθз, зәрдθз, кәнәдθз (ямоқчи), этикдθз, жәмәдθз (чопондўз), кθнәдθз (эски пойабзалларни таъмирловчи).

Ўзбек адабий тилидаги от ясовчи [-манд] (тожикча аффикс) аффикси ўзбек шеваларида турли хил фонетик вариантларда учрайди. Навоий вилоят шеваларида бу қўшимча [-вэн || -бан] тарзида қўлланилади: хунәрвэн, || хунәрвэн каби. Қиёс: Андижон:-мән || -мәл: әйәлмән || әйәлмәл; Тошкент: -вэн: әйәлвэн; Хоразм:

-бант: хунәрвәнт.

Навоий вилоятининг Чўя, Деҳибаланд, Дўрман шеваларида нонни чакичлаш учун ишлатиладиган асбоб *холзанақ*, *нахсанак* номлари билан қўлланилади. Бу сўзларнинг таркибидаги [-ак] қўшимчаси предметларнинг номини билдирадиган от ясаган. Бундан ташқари -ак қўшимчаси *кунжәк*, *бәндәк* (бурчак, тўғнағич) сўзларининг ясашишида ҳам иштирок этган. Бу сўзлар Бухоро шеваларида ҳам учрайди: кунжәк, бәндәк (бурчак, тўғнағич) каби (М.Мирзаев).

⁴⁴ Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашишининг назарий масалалари. –Т.: Фан, 2010. 177-бет.

Навоий вилоятининг Конимех туманида *сочиқ* ўрнида *сулчи* сўзи қўлланилади. Хатирчи туманининг Симитан, Бўғирдоқ, Зартепа; Навбахор туманининг Ижанд, Қирқариқ, Қоражон шеваларида *супурғи* ўрнида *шуутки* сўзи қўлланилади. *Сулчи, шуутки* сўзлари таркибидаги [-ги, -ки] қўшимчалари от ясаган.

Навоий вилоят шеваларида *томизғи* сўзи билан биргаликда *ачитқи, уютқи* сўзлари ҳам қўлланилади. Бу сўзлардан томизғи, ачитқи сўзлари адабий тилда қўлланиладиган сўзлардир. Уютқи сўзи эса Навоий вилоят шеваларида кенг қўлланилади. Бу сўз *ивитмоқ* феълининг фонетик ўзгарган варианты *уютмоқ* феълидан ясалган: катиқ тайёрлашда, яъни ивитишда керак бўладиган оз миқдордаги катиқ ёки сузмани ифодалайди. Томизғи сўзи ҳам шу маънода қўлланади. Бу сўз шевалараро ҳам турли кўринишларга эга. Хоразм: *ақлиқ, дамизлиқ*; Қашқадарё: *дамиздириқ* номлари билан қўлланилади. Келтирилган мисоллардан *уютқи, томизғи* сўзларининг таркибидаги [-ки, -ғи] қўшимчалари ҳам от ясаган.

Навоий вилоят шеваларида [-уч] қўшимчаси мавжуд бўлиб, феълдан от ясайди: тирнэуч (паншоха), тўғнэуч (тўғнағич) каби.

Ўзбек шеваларида, жумладан, Навоий вилоят шеваларида -хона қўшимчаси жой маъносини билдирувчи от ясайди: сэйсхона (моллар боғланадиган жой), сэмэнхонэ, хашакхона, емхона (ўт, хашак, ем кабилар сақланадиган махсус жой) каби.

Тадқиқотимиз объекти бўлган Навоий вилоят шеваларида туб сифатлар шевалар луғатининг анчагина қисмини ташкил этади. Масалан: арқайин (бемалол), дэвэнг (қўпол), ушэкчи (чақимчи), этракчи (ёлғончи), пэч (тузи кам), pistaки (яшил), эвур (оғир).

Маълумки, ўзбек шеваларидаги сифат ясовчи аффикслар ўзбек адабий тилидагидек бўлса-да, маълум даражада фарқланишга ҳам эга. Ўзбек адабий тилидаги [-ли] сифат ясовчи қўшимчаси Навоий вилояти шеваларида турли формалари билан қўлланилади. Маълумки, -ли аффикси -лиқ / -лик // -лиғ / -лиг аффиксидан ривожланган⁴⁵. Навоий вилоят шеваларида фақатгина [-ли] аффиксигина эмас, [-лик] ва унинг барча кўринишлари ҳам сифат ясашда иштирок этади. Масалан, -ли || -лий, -лик: мевэли дарахт || мевэлий дарахт, мевэлик дарахт [-лиғ]: мэнилиғ эдэм (бамаъни одам); [-лик]: уйутқилиқ (томизғилиқ), этлиқ одам каби.

Навоий вилоятининг қипчоқ шеваларида -дек аффиксининг фонетик вариантлари билан равиш ясаши учрайди: гэрттэй, гэрттэк (озгина); аслида гарддай, гард каби (гард форс-тожикча “чанг, ғубор”). Бирок бу сўз шеваларда бир бутун маъно касб этганлиги учун уларнинг ўзакларини мустақил маъноларга ажратиш қийинроқ бўлади. Навоий вилоятининг Қизилтепа туман Моҳоки қишлоқ шеваларида “ростгўй киши” сўз бирикмаси ўрнида “хаққил киши” сўз бирикмаси қўлланилади. “Хаққил” сўзининг таркибидаги [-қил] қўшимчаси ўзакдан англашилган предметга нисбатан хусусиятни билдирадиган сифат ясаган.

Навоий вилоятининг қипчоқ гуруҳ шеваларида ачкамоқ (оч қолмоқ) феъли ҳам кенг тарқалган бўлиб, -қа қўшимчасининг сўз ясаши адабий тилда учрамайди.

Хуллас, шевалардаги сўз ясовчи қўшимчаларни ўрганиш адабий тил билан шевалар ўртасидаги деривацион муносабатларни қиёслаш ҳамда тартибга солиш учун ҳам муҳим. Тўпланган материаллар тил тарихи, халқнинг турмуш тарзига доир қимматли маълумотлар бера олади.

F.Sh.Namazova (SamQXI)

TILNING OCHIQ TIZIM EKANLIGI INGLIZ TILIGA O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR MISOLIDA

Yer yuzida birorta til yo‘q-ki, boshqa tillardan so‘z olmagan bo‘lsin. Barcha tillar tinimsiz ravishda bir – biridan so‘z o‘zlashtiradi va o‘z navbatida boshqa tillarga so‘z beradi. Bu esa tillarning ochiq tizim ekanligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, so‘z tilning eng o‘zgaruvchan tomoni bo‘lgan va bo‘lib qolmoqda. Tilning boyish jarayoni turli usullarda bo‘lishi mumkin: boshqa tillardan yangi so‘zlarning kirib kelishi, yo tildagi mavjud so‘zlarning shaklan (qo‘shimchalar olishi, o‘zgarishi) yo ma’no jihatlardan o‘zgarishlarini keltirishimiz mumkin. Bu maqolada men ingliz tiliga o‘zlashgan so‘zlarni so‘z yasashining eng asosiy yo‘li sifatida qarab o‘taman:

1. Ingliz tilida so‘z o‘zlashishining eng asosiy manbalari va yo‘llari.
2. O‘zlashgan so‘zlarning ingliz lug‘at boyligidagi ahamiyati va o‘rni.
3. So‘z o‘zlashishini etimologik jihatdan tatqiq etish.

⁴⁵ F. Абдурахмонов, Ш. Шукуров, Қ. Махмудов. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: 2008. 119-бет.

Soʻzlar oʻzlashishi (borrowings, loan-words) turli tillarda bir xil emas va bu har bir til shakllanishining aniq tarixiy shart-sharoitlaridan kelib chiqadi. Ingliz tilida oʻzlashgan soʻzlar foizi boshqa tillarga qaraganda anchagina balanddir. Yaʼni boshqacha qilib aytganda ingliz tilining 70% soʻzlari oʻzlashma soʻzlardir. Ingliz tilining bor-yoʻgʻi 30 % gina soʻzi sof inglizcha soʻzlardan iboratligi ham fikrimiz dalilidir.

Ingliz tili boshqa tillarga qaraganda soʻzlarning oʻzlashishiga koʻproq tarixiy imkoniyati boʻlgan: bularga oʻrta asrlar boshida Britaniya orollarining bosib olinishi va keyinchalik inglizlarning oʻzlarining savdo-sotiq va mustamlakachilik faoliyatining kuchayishini misol qilib koʻrsatishimiz mumkin. Hisob-kitoblarga koʻra, ingliz tilidagi tub soʻzlar uning lugʻat boyligining faqatgina 25-30 foizinigina tashkil etadi. Lekin shunga qaramasdan, eng faol predloglar, bogʻlovchilar, oʻrin va payt ravishlari, barcha koʻmakchi va modal feʼllar, deyarli barcha kuchli feʼllar va olmoshlar, supletiv yoʻl bilan qiyosiy shakllari yasaladigan sifatlar, hamma sonlar (second, million, billion lardan tashqari) va kundalik hayotimizda ishlatiladigan koʻplab otlar (child, water, come, good, bad)ning bari – bu ingliz tilining tub soʻzlari hisoblanadi.

Oʻzlashgan soʻzlar, nafaqat qaysi tildan va nima uchun oʻzlashganligi emas, balkim shu soʻzlarning tilda qanday joylashib olgani, tilning grammatik va fonetik qonun-qoidalariga qanday boʻysunganligi va uni qabul qilgan til lugʻat boyligiga shu soʻzlarning taʼsiri ham katta ahamiyatga ega.

Oʻzlashtirilgan soʻzlarga boʻlgan bu munosabat anchadan beri olimlar diqqat markazida boʻlib kelmoqda. Misol uchun XIX asr rus lingvisti A.A.Potebnya fikricha “Soʻzning qaysi tildan kirib kelgan emas, balkim uning shu tilga nima bera olgani yo soʻzning oʻzi bilan olingan tilning qanday xususiyat va grammatik qoidalarini olib kelganligi muhimroqdir”. Lekin oʻz vaqtida bu fikrga hech qanday eʼtibor qaratilmadi va hozirgi kunga kelib shu fikr tarafdorlari juda koʻpchilikni tashkil qiladi.

Ingliz tiliga boshqa tillardan keng ravishda soʻzlarning kirib kelishi bir necha bosqichlarga boʻlinadi:

Kelt tilidan oʻzlashish bosqichi.

Lotin tilidan oʻzlashishning 1-bosqichi. (milodiy I asrlar)

Lotin tilidan oʻzlashishning 2-bosqichi. (VI-VII asrlar)

Skandinav tillaridan oʻzlashish bosqichi.

Fransuz tilidan oʻzlashish bosqichi.

1066- yilda Angliya Normandlar tomonidan bosib olinadi. Normandiya Fransiya gersogligi boʻlib, Normandlar bu unvonni 912- yilda Fransiya qiroli Oddiy Karl vikinglarni boshqara olmay, ularga bu hududni shartnoma asosida tortiq etganda olishgan. 1066- yilga kelib esa vikinglar allaqachon fransuz tilini qabul qilib, mahalliy aholi bilan aralshib ketgan edi. Angliyaga esa ular fransuz tili (normand shevasi), madaniyati va urf-odatlarini sohiblari kabi kirib kelishgan. Normandlar bosqinidan soʻng davlat boshqaruvi toʻliqligicha ular qoʻliga oʻtdi. Vilgelm Bosqinchi hatto ingliz ruhoniylari oʻrniga ham Normandlardan qoʻygan. Tub aholi ingliz tilida gapirishda davom etgan va keyinchalik fransuz-ingliz tillari birlashib, yangi bir paydo boʻlganki, u Angliyada XIV asrga qadar davlat tili maqomida boʻlgan. Shu vaqt ichida ingliz tili juda koʻp fransuz soʻzlarini oʻzlashtirib olishga ulgurgan. Ingliz tilidagi eng koʻp ishlatiladigan 80 000 soʻzdan 22500 ga yaqini fransuz tilidan oʻzlashgan soʻzlarni tashkil qiladi. (Barcha fransuz bosqichlari uchun)

Bir tilning ikkinchi tilga taʼsiri doim albatta tarixiy voqea - hodisalarga borib taqaladi: urushlar, bosib olish yo olinishlar, sayohatlar, savdo-sotiqva boshqalar turli tillarning aloqaga kirishiga sabab boʻladi. Soʻzlar oʻzlashishining aktivligi turli davrlarda turlichadir. Aniq tarixiy shart-sharoitlar tufayli u koʻtarilishi yo tushishi mumkin. Bir tilning ikkinchi tilga taʼsiri sezilarli darajada til faktoriga, yaʼni ularning yaqinligiga – bir oilaga tegishli yo tegishli boʻlmasligiga ham bogʻliq.

Normand hukmronligi taʼsiri natijasida ayniqsa davlatni yuritish, harbiy soha, cherkov xizmati va shahar hayoti sohalariga fransuz soʻzlarining kirib kelishi kuchli boʻlgan.

Davlatni yuritish: court-saroy, servant-xizmatkor, guard-qoʻriqchi, prince-shaxzoda, vassal –vassal, government-hukumat, village-qishloq;

harbiy soha: army-armiya, battle-jang, banner- tugʻ , victory-gʻalaba

shahar hayoti: religion-din, chapel-ibodatxona, prayer- ibodat qilish, to confess-tavba qilmoq, city-shahar, merchant- savdogar va boshq.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilining lugʻat boyligida oʻzlashgan soʻzlar foizi boshqa tillar bilan solishtirganda ancha yuqori. Lekin shunga qaramasdan, u oʻziga xosligini saqlab qolishga muvaffaq boʻlgan. Oʻzlashish jarayoni doim bir xil kechmagan. Ular turli davrlarga boʻlingan. Yuqorida koʻrib chiqqanimizdek, soʻzlar oʻzlashishining har bir davri oʻziga xos tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan va har bir davrda oʻzlashgan soʻzlar ingliz tilining maʼlum bir qatlami, yo sinfi, yo sohasini boyitishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar:

1. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.,-1956. – 260 с.
2. Гальперин И.Р., Черкасская Е.Б.Лексикология английского языка, М.,-1956
3. Березин Ф.М. История лингвистических учений – М.,-1975.
4. Витюховская Яна “Займствования в английском языке” Пермь,-2000

5. Грузинская И.А. Грамматика английского языка.— М.: Просвещение, 2003.—256 с.
6. Голицинский.Ю.Грамматика английского языка.—М: Высшая Школа, 2004.—350 с.

Davurov H.Sh (SamDCHTI)

PICHOQSOZLIK SA'NATINING RIVOJI VA ATAMALARINING TAHLILI (Ispaniya va O'zbekiston davlatlari misolida)

Hozirgi vaqtda pichoq yasash san'ati xalq amaliy san'ati qatorida e'zozlanib kelinmoqda. Nodir pichoqlar yasashda nafaqat o'zbek pichoqsoz ustalarning balki ispan pichoqsozligining ham oldiga tushadigan ustalar kam topiladi. Pichoq yasash boshlang'ich paleolit davridayoq ma'lum bo'lgan. Temir davrida hunarmandchilik paydo bo'lgan va rivojlangan. Mis va bronzadan pichoq yasash bronza davriga kelib avj olgan. Temirning kashf yetilishi pichoqchilik san'ati taraqqiyotida katta burilish bo'ldi. Gesiodning «Mehnat va kunlar», Gomerning «Iliada» asarlarida pichoqning xo'jalikdagi roli haqida batafsil bayon yetilgan. Ispaniyadagi Altamir g'orida esa birinchi pichoq suratlari aks ettirilgan⁴⁶. Osiyoda pichoqchilikning keng rivojlangan joyi arab mamlakatlari bo'lgan, Ispaniya va Italiyada esa tez o'sib rivojlanib ketgan. XVI asrda Germaniya, Angliya, Avstriya, Fransiyalarda pichoqchilikni kasb sifatida ta'qiqib, pichoqni oshxonalarda ishlatishgan. XVII asr boshlarida pichoqning ochib yopiladigan, pakki, ustara va boshqa cho'ntakda saqlanadigan pakkilar yuzaga keldi. Arxeologik topilmalardan ma'lumki, Ispaniyadan so'ng O'rta Osiyo hududidan miloddan avval 2 ming yillikka oid pichoq namunalari topilgan. Bolaliktepa, Afrosiyob, Varaxsha devorlariga ishlangan rasmlardan ma'lum bo'ldiki, pichoq uy-ro'zg'ordan tashqari harbiy qurol sifatida ishlatilgan. Ispaniyada VI—XII asrlarda pichoq yasash rivojlanib, uni bezash texnologiyalari o'zgargan. XV—XVII asrlarda yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xillari paydo bo'ldi. Xuddi shunday vaziyatda O'rta Osiyoda ham qinli qilich va oybolta (Xiva, XIX asr) kabilar ishlab chiqarilgan. Buni Navoiy, Bobur asarlarida ishlangan miniatyuralardan ko'rish mumkin. Keyinchalik O'zbekistonda pichoqchilikning o'ziga xos maktablari paydo bo'ldi. Farg'ona vodiysi, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo qadimdan pichoqchilik markazlari bo'lib, ular o'zining ishlash texnologiyasi, shakli, katta-kichikligi va bezaklari bilan farq qilgan. O'rta Osiyoda qadimdan metallni qayta ishlash, ya'ni hunarmandchilik qurollari ishlab chiqarish uchun sharoit mavjud edi. Misning tabiiy zahiralari, kumush, qo'rg'oshin, alyuminiy kabi materiallar juda ko'p edi.

Hunarmandlar qadimdan bir-biri bilan birikib bir mahallada yashaganlar, shuning uchun mahallalarining nomi ko'pchilik qaysi hunar bilan shug'ullansa shu nom bilan yurgizilgan. Masalan, zargarlik bilan shug'ullansa zargarlik (zargaron), misgarlik bilan shug'ullansa misgarlik (misgaron) va hokazo mahallalar deb yuritilgan. Buxoroda «So'fikordgar» qishlog'ining nomi hali ham saqlanib qolgan. U yerda hozir ham pichoqsozlar avlodi yashaydi. O'rta Osiyo hududidagi viloyatlarda bunday mahallalar ko'p bo'lgan. Pichoqdan kesuvchi asbob tariqasida kunda foydalanilsa, qadimda O'rta Osiyoda erkaklarning yeng zarur ish quroli, bezagi tariqasida foydalanilgan⁴⁷.

Pichoqlarga badiiy bezak bezash ham katta rol o'ynagan. Shuning uchun ham Sharq ma'daniyatining eng yaxshi an'analarini qayta tiklash va o'zlashtirish natijasida O'zbekistondagi pichoqsozlar milliy pichoqni san'at darajasiga ko'targanlar. Mashhur venger sayyohi A. Vamberi o'zining ajoyib «O'rta Osiyo bo'ylab sayohat» asarida Qashqadaryoning pichoqchiligi haqida bunday deydi: "...bir xillari sifat jihatidan hisorliklarnikidan ustun bo'lmasa ham, ammo, butunlay O'rta Osiyoga tarqalgan bo'lib, xo'jalar tomonidan hatto Eron, Arabiston, Hindistonga olib borilar va o'z mahalliy joyidan ko'ra, chet ellarda pichoqlar 3—4 baravar qimmat sotilar edi"⁴⁸.

Hunarmandchilikni rivojlantirish borasida bir qancha qarorlar qabul qilindi. Shular qatori pichoqchilikni yanada rivojlantirish uchun O'zbekistonning turli viloyatlarida artellar va hunarmandlar tayyorlaydigan o'quv yurtlari ochildi. 1932- yilda Chustda sobiq «Qizil kuch» nomli artel tuzildi. Bu yerda pichoqlar ishlab chiqarila boshlandi. 1949- yildan boshlab Artel rayon maishiy xizmat ko'rsatish kombinati deb yuritildi. 1970- yilda sobiq O'zSSJ Ministrlar Sovetining qaroriga binoan Chust shahrida pichoq ishlab chiqarish zavodi qurildi. Chust pichoqlarining dovrug'i butun mamlakatga taraldi. Chust pichoqlari Butunittifoq ko'rgazmalaridagina emas, balki, Hindiston, Suriya, Polsha, Turkiya, Bolgariya, Vengriya, Belgiya, Shvesiya va boshqa chet mamlakatlardagi ko'rgazmalarda munosib o'rinlarni egalladi. 1980- yili Nyu-Delida ochilgan III Xalqaro Osiyo yarmarkasiga 10 xil Chust pichog'i yuborildi. Ulardan to'rttasi Hindistondagi sobiq SSJI elchixonasining doimiy ekspozitsiyasiga aylanib qoldi. 1978- yilda Chust shahrida umumiy ta'lim-tarbiya maktablarida yuqori sinf o'quvchilari uchun ishlab chiqarish kombinati tashkil yetildi.

⁴⁶ Don Enrique de Aragón, San Lorenzo del Escorial "Arte cisoria o tratado del arte cortar del cuchillo", Madrid.1766.

⁴⁷ Sharipov Sh.S.Ixtirochilik masalalarining quyilishi va ularni yechish uslubi.// "Xalq ta'limi" jurnali, 1998 yil №5 .117-119 b.

⁴⁸ Davlatov K. Mehnat va kasb ta'lim-tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar. - T.: O'qituvchi, 1995. 267 b.

Bularning barchasi adabiyotda pichoqsozlik atamalarining keng tarqalishiga olib keldi. Ayniqsa tarixiy barcha asarlarda qilich bilan bogʻliq lavhalarda aynan mana shu saʼnatni koʻramiz. Ispaniyada paydo boʻlgan ritserlik urushlari tarixi haqida hikoya qiluvchi Migel de Servantesning “Don Kixot” asarida ham pichoqsozlikdan soʻng paydo boʻlgan ritserlik anjomlari batafsil hikoya etiladi. Pichoqsozlik shunday omillar bois adabiyot bilan bevosita aloqadordir.

Adabiyotlar:

1. Don Enrique de Aragón, San Lorenzo del Escorial "Arte cisoria o tratado del arte cortar del cuchillo", Madrid.1766.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb taʼlim-tarbiyasidan amaliy mashgʻulotlar. - T.: Oʻqituvchi, 1995. 267 b.
3. Sharipov Sh.S Ixtirochilik masalalarining quyilishi va ularni yechish uslubi.// "Xalq taʼlimi" jurnali, 1998- yil №5 .117-119 6.

А.Ф.Шамахмудова (СамДЧТИ)

НУТҚИЙ АКТЛАР НАЗАРИЯСИНING ТАРАҚҚИЁТИ БИЛАН БОҒЛАНГАН УМИДЛАР

Прагмалингвистиканинг XX асрнинг иккинчи ярмидаги ривожини нутқий акт назариясининг тўлиқ кўринишдаги лингвофалсафий таълимот сифатида шаклланиши билан боғлиқдир. Нутқий акт тушунчаси олдинги даврларда ҳам В. Хумбольт, Ш. Балли, К. Бюллер, Э. Бенвенист, М. Бахтин каби олимларнинг таълимотларида мавжуд бўлган, ammo нутқий акт тўлиқ бир таълимот сифатида инглиз мантиқшуноси Ж. Остин, америкалик психолог Ж.Сёрль ва бошқаларнинг ишларида шаклланди. Оксфорд ва Кембридж университетларида фаолият кўрсатган файласуфлар лисоний фаолиятнинг кўп вазилавийлигига ва унинг инсоннинг ҳаёт кечириш шаклидан айри эмаслигига эътибор қаратишди[2].

Нутқий актлар назарияси доирасида қабул қилинган вазиятлардан бири шундан иборатки, нутқий мулоқотнинг энг кичик бирлиги сифатида лисоний бирлик ёки нутқий тузилма эмас, балки ҳукм, тасдиқ, буйруқ, тасвирлаш, таъкид, кечирим сўраш, ташаккур, таклиф ва табриклаш каби маълум нутқий ҳаракатлардан бири воқеланган нутқий акт тан олинган [3]. Дарҳақиқат, нутқий акт мулоқотнинг энг кичик бирлиги эканлигини барча прагмалингвист олимлар тан олишган. Ушбу кўрсатма замонавий тилшуносликда мавжуд бўлган лисоний таҳлил доирасини кенгайтирган ҳолда, лисоний бирликлар чегарасини кесиб ўтувчи нуктаи назарлар билар ҳамоҳанг тарзда янграган. Тадқиқот дунёқарашининг бу тарзда кенгайтирилиши бирдан бир мақсад эмас, балки лисоний бирлик ва матннинг умуммулоқот тартибининг айрим таркибий қисмларидан воз кечган ҳолда, унинг семантик тавирини қисман энгиллаштириш воситаси ҳамдир [1].

Тилшунос олимлар нутқий актлар назария тараққиётига катта умидлар боғлаб уларни кўйидагилар билан боғлашади:

1) соф лингвистик методлар билан ишлов берувчи маълумотлар чегарасини кесиб ўтиш, лекин шу билан биргаликда етарлича асосланган далиллар мажмуини ишлаб чиқиш [7];

3) Г.Фрегенинг “композицион тамойилларини” нутқий ҳамкорлик соҳасида тарғиб қилиш; яъни нутқий мулоқотни ташкил этувчи қисмларининг шарҳланишидан келиб чиққан ҳолда, уларни тубдан ўзгартиришга имкон берувчи тизим ва қоидаларни аниқлаш, “композицион йўл” билан бутунни интерпретация қилиш [5];

4) зоҳиран бир-бирига тобе бўлмаган нутқий тузилмалар қандай қилиб равон нутқий мулоқот туза олиш имкониятига эга бўла олишини тушунтириш ва шарҳлаш [4];

5) нутқий тузилманинг аниқлиги ва таъсир кучининг самарадорлиги орасидаги боғлиқликни тушунтириб бериш, риториканинг бу тушунчалари иллокутив мақсад ва перлокутив натижа мужассамлигининг “гиниқлигини” таъминлайди; нутқий актлар назарияси риторик мақсадларга эришишнинг “панд бермайдиган” тавсияларни бера олган бўлар эди [8];

6) лексикографик тасвирлаш мақсадида нутқий воситалар ва метатиллар таксономиясини қўлга киритиш; масалан, нутқ феълларини тасвирлашда нутқий актлар назариясининг тушунчага оид аппаратини қўллаш [10];

7) тингловчи мулоқот жараёнида юзма-юз келадиган мулоқот мақсади, психологик ва ахлоқий муносабатларни ҳам назарий прагматика соҳасига киритиш; мулоқот актларининг ижтимоий натижаларини ижтимоий тобелик ёки эквивалентлик муносабатлари атамалари орқали тадқиқ этиш.

8) маъно жиҳатдан яқин лисоний бирликларнинг фақатгина мантиқий муносабатларига таяниб қолмасдан, балки шу каби лисоний калималарнинг коммуникатив жиҳатларини ҳам инобатга олган ҳолда перифраза назариясига чуқурроқ ёндашиш [9];

9) бир томондан, аниқ бир тилдаги нутқий актлар репертуарлари, иккинчи томондан универсал табиатдаги иллокутив актлар орасидаги муносабатни йўлга қўйиш [6];

10) нутқий тузилма бажараётган вазифа - ахборот денотатаси эканлигини ҳисобга олган ҳолда лисоний калимадан каттароқ бўлган бирликларни ҳаққонийлик семантикаси бўйнига юклаш; бу вазифанинг моҳияти, ўз навбатида вазият элементлари ва нутқий тузилма шакллари аниқлаб беради [10].

Умумтилшунослик ёндашув доирасида нутқий актлар назариясини икки бўлимга ажратиш мумкин: нутқий актлар назариясининг тўғридан-тўғри ўзи (нутқий актларни нутқий воситаларга қиёсламаган ҳолда уларнинг ўзаро алоқадорлигини аниқлаш, таснифлаш ва таҳлил этиш) ва “нутқий актлар таҳлили”, ёки нутқнинг лисоний таҳлили (нутқий бирликлар ва нутқий актлар орасидаги мувофиқликни аниқлаш). Биринчи бўлим доирасида аниқ бир мулоқотда мақсад ва ниятларнинг қай даражада воқеланишини аниқлашнинг иложи бўлмайди. Иккинчи бўлимда эса лисоний материал бошланғич нукта ҳисобланади; айнан шу ўринда тилшунослик ўзининг тадқиқот соҳаси билан юзмаюз келади.

Адабиётлар:

1. Падучева Е.В. Проблема коммуникативной неудачи в сказках Льюиса Кэрролла // Т. Dobrzyńska, E. Janus eds. *Tekst i zdanie: Zbiór studiów*. – Wrocław etc.: Ossolineum, 1983. 139-160.
2. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика / Ш.С.Сафаров – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
3. Серль Дж. Р. Классификация иллокутивных актов / Дж.Р. Серль // Новое в зарубежной лингвистике: Вып. 17. Теория речевых актов. - М.: Прогресс, 1986. - С. 182.
4. Brown G., Yule G. *Discourse analysis*. – Cambr. etc.: Cambr. UP, 1983.
5. Harnish R.M. A projection problem for pragmatics // F. Heny, H.S. Schnelle eds. *Selections from the Third Groningen Round Table*. – N.Y. etc.: Acad. Press, 1979. 315-342.
6. Hindelang G. *Einführung in die Sprechakttheorie*. – Tübingen: Niemeyer, 1983.
7. Schecker M. *Strategien alltäglichen Sprechhandelns* // E.W. Hess-Lüttich ed. *Textproduktion und Textrezeption*. – Tübingen: Narr, 1983. 81-89.
8. Steinmann M.J. *Speech-act theory and writing* // M. Nystrand ed. *What writers know: The language, process, and structure of written discourse*. – N.Y. etc.: Acad. Press, 1982. 291-323.
9. Tasmowski-De_Ryck L. *Pragmatique linguistique: III. Essai d'application: Impératif et actes de langage* // H. Parret ed. *Le langage en contexte: Études philosophiques et linguistiques de pragmatique*. – A.: Benjamins, 1980. 577-630.
10. Zillig W. *Bewerten: Sprechakttypen der bewertenden Rede*. – Tübingen: Niemeyer, 1982.

Л.Э.Холмурадова (СамГИИЯ)

АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ «МЕНТАЛИТЕТ»

Каждый язык отражает культуру и традиции того или иного народа. Каждое слово имеет свое историческое развитие и свою историю возникновения. Анализ понятия «менталитет» способствует более расширенному пониманию культурных традиций и ценностей народов.

Менталитет, ментальность (от лат. *mentalis* -умственный – образ мыслей, совокупность умственных навыков, духовных установок и культурных традиций, присущих отдельному человеку или человеческой общности. Менталитет – это специфический тип мышления, отражающий уровень индивидуального и коллективного сознания.

Как справедливо отмечает М.К. Голованивская «история формирования менталитета для нас в чем-то синонимична истории становления общенационального языка. И в том смысле, что менталитет – это сумма представлений и объяснительных моделей (то есть принятого в культуре способа установления причинно-следственных связей между явлениями), и в том смысле, что понятийная система этноса неотделима от понятийной системы того языка, на котором этот этнос говорит и пишет» [Голованивская М.К.: 2009 С- 55]. Автор также отмечает, что «...всегда понятийная система языка отражала менталитет народа, сканы прошлого стояния языка, его история является сканом соответствующего этапа развития менталитета, фиксацией истории этого процесса [Голованивская М.К.: 2009 С- 56].

Мы согласны с мнением Голованивской М.К. и также считаем, что изучение мировоззренческих понятий французского и английского языков невозможно без изучения исторических фактов и социокультурных смыслов, при этом социокультурный смысл, повлиявший на развитие менталитета – это стечение обстоятельств, изменившее или развившее взгляды и представления этноса, это аргументы, причины, позволившие отныне и впредь устанавливать логику событий, объяснять те или

иные мотивы для поступков. Следовательно, социокультурным смыслом может стать и идея гуманистического характера.

Таким образом, постигая через лексические и грамматические особенности языка менталитет и культуру другого народа, билингвы обретают дар смотреть на мир глазами другого народа, что не может не сказаться на их менталитете и социокультурных идеалах. Языковая культура претерпевает значительные изменения: билингвы используют более широкую палитру языковых средств для выражения своих мыслей, стараются избегать категоричности в оценках и утверждениях.

Литература, язык, искусство, национальная культура в целом являются воспроизводителем, распространителем ментальных ценностей, предпочтений народа, выработанных вековыми усилиями духа.

В данной статье менталитет рассматривается как своеобразное социально-психологическое ядро самосознания любой общности, позволяющее единообразно воспринимать социальную действительность, оценивать ее и действовать в ней в соответствии с определенными нормами и образцами поведения, адекватно воспринимая при этом друг друга. В этом смысле менталитет можно назвать организующим началом, способствующим культурно-исторической преемственности, а язык – единственным средством, способным помочь нам проникнуть в скрытую от нас сферу ментальности, ибо он определяет способ членения мира в той или иной культуре.

Как отмечает Т.Б. Радбиль, «...на уровне обыденного сознания то, что принято называть менталитетом, издревле ощущается как безусловная реальность нашего экзистенциального опыта. В этом нас убеждают данные фольклора, в частности, анекдотов на национальную тему, языковой материал фразеологизмов, пословиц и поговорок, а также почтенная философская, культурная и литературная традиция» [Т.Б. Радбиль, 2010:47].

Именно поэтому изучение менталитета через призму фразеологии и является одной из основных задач данного исследования. Под ментальностью обычно понимают народное мировосприятие людей. Т.Б. Радбиль изучает языковой менталитет с синхронической точки зрения вслед, его интересует то, «каким образом язык начала третьего тысячелетия, в эпоху культурного глобализма и экспансии всемирной компьютерной сети, сохраняет в себе самобытные рефлексии народного миропонимания и мироощущения, сформированные еще в древние периоды его существования, у истоков нынешней человеческой цивилизации» [Т.Б. Радбиль, 2010:47].

Ученый рассматривает проблему языкового менталитета с точки зрения современных процессов глобализации человеческого общества. Именно адаптация к условиям внешней среды и является одной из уникальных особенностей национального языка. Данное определение ментальности выдержано в контексте понимания языка как формы культуры. Национальная культура и язык являются распространителями ментальных ценностей, таким образом, менталитет мы можем рассматривать как своеобразное социально-психологическое ядро миропонимания любого народа и нации. Менталитет можно назвать организующим началом, способствующим культурно-исторической преемственности, а язык – единственным средством, позволяющим проникнуть в скрытую сферу ментальности, ибо он определяет способ членения мира в той или иной культуре.

Литература:

1. Головановская М.К. Ментальность в зеркале языка. Некоторые базовые концепты в представлении французов и русских. – М.: Языки славянской культуры, 2009. – 376 с. – (Язык. Семиотика. Культура)

2. Радбиль Т.Б. Основы изучения языкового менталитета: учебн. пособие – М.: Флинта: Наука, 2010. – 328 с.

Ч.Казакова (СамДЧТИ)

ГЕНДЕР ТАДҚИҚОТИ АТАМАЛАРИ МАСАЛАСИГА ДОИР: ИНГЛИЗ АЁЛЛАР АДАБИЁТШУНОСЛИГИ ҲАҚИДА

Аёллар адабиётига хос хусусиятлар адибаларнинг насрий ва назмий асарларида намоён бўладиган қонуниятларда ўз ифодасини топади. Америка адабиётида, олимларнинг фикрига кўра (1), XIX асрда адибаларига ўз ҳуқуқларини талаб қилишлари учун имконият берувчи шарт-шароитлар вужудга келиб бўлган эди: улар такводор ва ўз даврига хос викторианча турмуш кечиришарди: аёл ва эркак учун пешонасига ахлоқ кодекси битилган, худди шундай ҳаётий вазифалари белгиланган. Бу теологик ғоя-назария асарлар саҳифасига кўчиб, қахрамонга айлантирилган аёллар турли ҳаётий синовлардан ўтиб, ғурур билан ўзларига юкланган илоҳий вазифаларни ўташади.

АҚШда аёллар адабиётшунослигининг пайдо бўлишида муҳим роль ўйнаган яна бир омил мумтоз қонуниятдир: бундай асарлар фақат ва фақат аёллар-адибалар томонидан яратилмоғи лозим,

улар ўз асарларини аёллар учун бағишлашади. Бу асарлар аёл тақдирини ўзгартириш учун муҳим қўлланма бўлиб хизмат қилади.

Аёл адаблар яратган асарларни изчил ўрганиш охир-оқибатда аёллар адабиётшунослиги атамасининг пайдо бўлишига олиб келди. Бу фан XXI асрга келиб шакллана бошлади. Инглиз адабиётшунослигида аёллар адабиётшунослигининг фан сифатида пайдо бўлишида Виржиния Вулф муҳим роль ўйнайди (2). Бу ёзувчининг асарларида модернизм услубининг барча қирралари, хоссалари энг юксак бадиий чўққига кўтарилади, Иккинчи жаҳон урушига қадар Ғарбий Европада энг машҳур ижодкорнинг асарлари урушдан сўнг оммавийлигини бир оз йўқотади, аммо ўтган асрнинг 70-йилларида феминистик ҳаракатлар таъсирида В.Вулф яна энг кўп ўқиладиган сўз санъаткорлари сафига қайтади ва том маънода умумбашарий ижодкорга айланади. Бунинг асосий сабаби, назаримизда, жадал бошланган глобаллашув жараёнида дунёнинг аксар оммаси учун илғор кўринган ва кўпчилик интилган Ғарб маданияти, тафаккурини англашга ва тушунишга бўлган интилиш эди. Бошқа маданият вакиллари учун тушуниш мураккаброк, идрок этиш ундан-да оғир бўлган ғарбона турмуш тарзи ва маданияти айнан Вулф каби буюк сўз санъаткорлари асарларида ўз аксини топади. В.Вулф етакчиларидан бўлган модернизм, унинг ҳосиласи сифатида пайдо бўлган постмодернизм адабиёти ва маданияти ҳали ҳамон ўз долзарблигини йўқотмаган. Бунда унинг аёллар адабиётини ёрқин вакиласи эканлигини ҳам инобатга олсак, масаланинг илмий ўрганиш қанчалик долзарб эканлиги янада аён бўлади.

Америка маданиятида феминистик танқидчилик ва адабиётшунослик алоҳида ўрин эгаллайди (Қаранг: Donoghue D. A criticism of one's own // New Republic. – Wash., 1986. – Mar. 10. – Vol. 194, № 10. – P. 30 – 34). Сўнгги чорак асрда бу соҳада мукамал бўлмаса-да муайён ишлар амалга оширилди. Илмий тажрибалар шуни кўрсатадики, “аёллар адабиётшунослиги” концепциясини олимлар бир ижодкор ижоди мисолида ҳам яратишлари мумкин, масалан, Ю. Кристева ижоди мисолида яратилган концепцияга гувоҳ бўлишимиз мумкин. (Қаранг: Herrmann A. Feminist theory // Contemporary lit. – Madison, 1987. – Vol. 28, № 2. –P. 271 - 277).

XX аср иккинчи ярмидан аёллар адабиётшунослиги қуйидаги малалаларга алоҳида эътибор қаратади:

- умум адабиёт тарихида фаннинг бу турига хос доминант хоссаларнинг намоён бўлаётганлигига;

- адабиётга “эркакча назар” ва ўзига хос тарзда адабий давр, бадиий ижод ва матн таҳлилига “аёлларча” ёндашув ўртасидаги методологик чегаралар ўтказилишига.

Аёллар адабиётшунослигига оид яна бир муҳим илмий асар сифатида Эллен Кронен Роузнинг (АҚШ) XX аср романнавис адабаси Маргарэт Дрэйл ижодига бағишланган тадқиқотини кўрсатиш жоиз (3). Э. Роуз М. Дрэйл эстетикасида аёллар адабиётига хос қуйидаги аломатларни таъкидлайди:

а) ижодкор аёл ахлоқшунос бўлиши керак;

б) аёл қахрамонлар қисматини яқунда ижобийлаштирмоқ зарур, чунки бу аёллар чидаш мумкин бўлмаган шароитда ҳам ифлос вазиятларга дош беришади;

в) “майда” оилавий-маиший мавзуларни “каттасига” айлантириш керак, бу уй, хонадон, кундалик турмуш, ҳаёт, бола туғилиши, ўлим;

г) тасодифлар ҳукмронлигига қарши жиддий курашмоқ шарт.

Аёллар адабиётшунослиги назаримизда, бир қатор йирик тадқиқотлар, ютуқларга қарамасдан, шаклланиш босқичини бошдан кечирмоқда. Ҳали ҳамон аёллар адабиётшунослиги, аёллар адабиётидан ортда қолиб, методологик жихатдан аниқ бир тўхтама келолгани йўқ. Шу сабабли бу борада амалга ошириладиган тадқиқотлар ўз ижрочиларини кутиб турибди.

Адабиётлар:

1. Михайличенко Б.С. Проблемы литературоведения: Теория литературы.- Самарканд, СамГУ, 2009. 179 с.

2. Rigney В.Н. A wreath upon the grave? The influence of Virginia Woolf on feminist critical theory // Criticism and critical theory. – L.: Arnold, 1984. – P. 73 - 82).

3. Rose E.C. Critical essays on Margaret Drabble. – Boston: Hall, 1985. – 205p

К.Амонуллаева (СамДЧТИ)

ЗАМОНАВИЙ КОГНИТИВ ТИЛШУНОСЛИКДА ХАРУКИ МУРАКАМИНИНГ БАДИИЙ КОНЦЕПТЛАРИНИНГ РОЛИ

Замонавий когнитив тилшуносликнинг «семантик-когнитивли» методологияси ва адабиётшуносликнинг комплексли ёндашувига асосланган ҳолда Харуки Муракаманиннг индивидуал-муаллифона концептосферасини юқорида келтириб ўтилган концептларнинг катта миқдори

мавжудлиги ёки уларнинг номинатив зичлиги (В.Карасик термини (истилоҳи))ни таҳлил қилиш мумкин. Маълумки, миллий концептосферада миллий менталитет, миллат маданияти ҳамда илму фани яхлит ҳолда ўз аксини топади. Лисон ҳам маданият концептосфераси таркибида бўлиб, ундан ажралмасдир. Япониянинг концептосфераси шу қадар бетакрор ва ўзига хоски, эстетикаси ҳамда маданий анъаналари ҳозиргача ҳатто Харуки Муракамидек «олам одами»нинг бадиий асарларида ҳам яққол кўзга ташланиб туради. Шунга қарамай, унинг индивидуал-муаллифона олам манзараси икки сатҳда шаклланади: концептуал ҳамда индивидуал-нутқий.

Лисоний иждокор шахс ўзининг бетакрор тасаввурлари ва майлларига эга бўлади. 「孤独」 «Ёлғизлик», 「空白」 «бўшлик», 「心」 «қокоро-юрақ, қалб», концептлари Харуки Мураками романларида энг кўп қўлланилувчи ва муҳим индивидуал муаллифона концептлар ҳисобланади. Бир томондан, улар япон маданиятининг универсал концептлари бўлса-да, лекин, бошқа томондан, уларнинг индивидуал-муаллифона трансформацияси ҳамдир. 「孤独」 «Ёлғизлик» концепти кўрсатилган даврдаги Харуки Мураками романлари структураси ва тематикасини, бош қаҳрамон изланишлари ва ҳоказоларни белгилаб беради. Д.Коваленинга берган интервьюсида Харуки Мураками 「ノルウェイの森」 «Норвег ўрмони»[1] романи ва мавзу танловини аниқлаб олганини эътироф этади: «...шу китобдан кейин пул ҳамда ахборотнинг ушбу улкан ва мураккаб жамиятида ёлғизлиги чексиз бўлган қаҳрамонни яратишни истадим»[2]. Ишнинг мавзуси бўйича танқидий адабиётлар шарҳи келтирилади.

「孤独」 «Ёлғизлик» концепти Харуки Мураками ижодининг иккинчи давридаги (танқидчилар буни “Норвег ўрмони” романининг нашр этилиши билан бошлаб ҳисоблашади – К.А.) романлари структураси ва мавзу доирасини, бош қаҳрамон изланишларини белгилаб беради ва ҳ. д. Коваленин билан суҳбатида Харуки Мураками айнан ўшанда қаҳрамон ва мавзу доирасини аниқ белгилаб олганлигига иқдор бўлганди: “...ўша китобдан кейин пуллар ва ахборотнинг ушбу улкан ва мураккаб жамиятида бениҳоя ёлғиз бўлган қаҳрамонни яратишни истаб қолдим. Шундай қилиб, “Қўй ови” ва “Дэнс” пайдо бўлди”[3,132]. Боз устига, ўзининг китобхонлик қизиқишлари борасида сўз юритаркан, шундай дейди: “детективга оид “хардбойлд” услуги мени шуниси билан ўзига мафтун этдики, бундай воқеалар қаҳрамонлари ҳар доим узлатдаги кимсалардир. Шунақа “ёлғиз-бўрилар” Мен – ёзувчиман, Мен – ёлғизман ва мен якка яшашни севаман”[3,129]. Шу сабабли Харуки Мураками ижодида “ёлғизлик” концепти тасодифий эмас, балки ҳақли эканлиги ҳамда ижобий модалликка эгаллиги хусусида ёзиш тўғри бўлади.

Н.С.Поздееванинг “Ёлғизлик” концептининг коммуникатив-дискурсив хусусиятлари” номли диссертациясининг учинчи боби бизнинг тадқиқот руҳида номланган-“Бадиий нутқда “ёлғизлик” концептининг объектланиши”. Олима қўйган масалалар концепт ва нутқ (Харуки Мураками романларида) каби категорияларнинг ўзаро муносабатлари муаммоларига мувожаат билан, ушбу концептнинг муаллиф лисоний онгидаги ўрнини англаш ва имкони борича, япон миллий концептосферасини тушуниш билан боғлаш мумкин. Бизнингча, Н.С.Поздееванинг “концепт билан нутқ бир-бирини тақозо қиладиган категориялар” ва “ёлғизлик” концепти инсоннинг зоҳирий ва ботиний оламларини англашнинг кўп асрли тажрибасини ҳамда кундалик концептуал онгга асосланувчи номезонли, регулятив, мавҳум, эмоционал концептлиги тўғрисидаги хулосалари самаралидир” [4]. Кўпчилик тадқиқотчилар уларнинг илмий қизиқишлари нуктаи назаридан муаммога урғу бериб, шу билан “ёлғизлик” концептининг яна бир семантик қиррасини аниқлаштирадидилар.

Адабиётлар:

- 1.村上春樹。ノルウェイの森。Харуки Мураками. Норвежский лес. - М.:ЭКСМО,2004.С,10.
- 2.«Я не хочу ничему принадлежать» Харуки Мураками. 20 августа 2002 г., офис Х. Мураками, Аояма, Токио <http://interview3.html>
3. Коваленин Д. «Сусинуар. Занимательное Муракамиоедение». М.2011.
- 4.Поздеева Н.С.Коммуникативно – дискурсивные признаки концепта «одинокость». Электронный ресурс: www.cheloveknauka.com/kommunikativno-diskursivnye-kontsepta

Ю. Ю. Файзиева (СамГАСИ)

КОММУНИКАТИВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Общение между членами общества может осуществляться различными средствами. Основным средством общения, благодаря его универсальности, выступает язык. Существенно отличаясь от прочных средств особенностями, языковые общение сохраняет все существенные компоненты коммуникационного процесса. Рассмотрение этих компонентов и соответствующих свойств позволит лучше понять особенности речевых процессов и сформулировать соответствующие методические выводы.

В теории коммуникации отличают следующие компоненты, взаимодействующие в процессе общения – обмена информацией.

В основе обучения иностранному языку, лежат дидактические принципы исходные положения, призванные определять стратегию и тактику обучения в каждой «точке» учебного процесса, поскольку они связаны с целями, содержанием, методами, приемами, организацией обучения и проявляются во взаимосвязи и взаимозависимости.

Принципы обучения можно рассматривать в двух планах: в теоретическом, т.е. исследовательском, что помогает проникать в суть каждого из них, и в практическом – для использования их в качестве правил, требований, рекомендаций при осуществлении обучения. В обучении любому предмету, исходя из специфики реализуется дидактические принципы, что позволяет авторам работ по методике обучения иностранным языкам выделять общие дидактические, общеметодические, специфические, специальные и другие принципы. Мы становимся на те из них, которые являются, по нашему мнению, основополагающими для обучения иностранным языкам, и будем их называть методическими принципами коль скоро они отражают специфику предмета, а также попытаемся сформулировать рекомендации для преподавателя. Они как мы думаем помогут реализовать ему каждый из указанных принципов в учебно воспитательном процессе.

В настоящее время главная задача в вузе - воспитание всесторонне развитой, активной личности.

Одним из важных дидактических принципов является принцип воспитывающего обучения. По-видимому, речь может идти не столько о переориентации целей обучения, сколько раскрытии самого понятия обучения, каким оно должно быть, что развивать, воспитывать. Нам представляется весьма плодотворным подход к раскрытию этого понятия, изложенный Л.М. Фридманом. Автор видит решение главной задачи обучения, во - первых, в развитии самостоятельности студентов в учебном процессе «... учебную деятельность можно и должно организовать в форме учебной деятельности», чтобы доминирующими мотивами учебной деятельности студентов были мотивы познания окружающего мира, овладения действиями и способами такого познания, мотивы самоосуществления себя как личности, собственного совершенствования, развития как гармонической, всесторонне развитой и социально зрелой личности. Во-вторых, в обучении студентов собственной деятельности по овладению учебным предметом. Преподаватель должен помогать, студентам осваивать предмет.

Развития самостоятельности и самоорганизации студентов в учебном процессе предполагает такую организацию, при которой студенты чувствовали бы себя полноправными субъектами этого процесса, умели бы организовать свою деятельность по изучению иностранного языка и овладению им. Из сказанного можно сформулировать для преподавателя следующие рекомендации:

1. Рассматриваем себя, прежде всего как организатора учебно-воспитательной деятельности студентов. Помогайте им усваивать предмет.
2. Вооружение студентов приемами рационального учебного материала по овладению изучением иностранного языка.
3. Используем каждую возможность для воспитания у студентов любви к Родине.

Принимая во внимание практическую цель обучения иностранному языку – учить его как средству общения, ведущим методическим принципом следует назвать принцип коммуникативной направленности. Это означает, что обучение должно строиться таким образом, что вовлекать учащихся в устную (аудирование, говорение) и письменную (чтение, письмо) коммуникацию, т.е. обращение на изученном языке на протяжении всего курса. Этот принцип в той или иной мере нашел отражение во всех современных работах по методике, учебниках и учебных пособиях по иностранным языкам. «Без коммуникативности...нет современной методики» (В.Г.Костомарова, О.Д.Митрофановой). Принцип коммуникативной направленности определяет все составляющее учебно-воспитательного процесса, и не случайно говорит о коммуникативно ориентированном обучении.

Принцип коммуникативной направленности определяет отбор и организацию учебного материала: тематику, сферы общения, ситуации общения, возможные в заданных условиях тема регулирует и минимизирует речевое поведение собеседников. Она обеспечивает им взаимодействие в содержательном плане (о чем можно говорить, читать, писать), иначе невозможно осуществить минимизацию объема языкового материала и в тоже время сохранить коммуникативный характер обучения и его направленность на достижение практически значимых целей. Сфера общения позволяет установить, где, когда, между кем происходит общение, в какие коммуникативные роли вступает, человек В.Л.Скалкин выделяет восемь сфер общения, характерных для любого современного языкового коллектива. Во всех случаях возникает ситуация общения, включающая в себя тех, кто

говорит, кому говорит, отражающая взаимоотношения говорящих, обстановку, в которой происходит речевой акт, тему. Иными словами, ситуация – это совокупность обстоятельств, побуждающих к речи в целях воздействия человека на других людей. При обучении иностранному языку в вузе создаются учебные ситуации.

Принцип коммуникативной направленности определяет средства обучения, с помощью которых можно обеспечить овладение коммуникативной функцией изучаемого языка на основе аутентичного звукового и печатного материала, нужного для общения, стимулирующего его.

Принцип коммуникативной направленности ставит перед необходимостью соответствующей организации самого учебно-воспитательного процесса, деятельности студентов в нем, использования различных организационных форм для включения каждого в общение при помощи разнообразных игр, в том числе и ролевых.

Реализация этого принципа требует соблюдения условий благоприятствующих общению. Принцип коммуникативной направленности призван обеспечить результаты обучения этому предмету в вузе, удовлетворяющие законным требованиям нашего общества. Владение иностранным языком каждым студентам очень важен.

Принцип коммуникативной направленности в обучении должен пронизывать весь учебный процесс. Опора на него должна иметь место при презентации языкового материала, чтобы учащиеся видели его коммуникативную функцию, т.е. знали, что можно с помощью данной языковой единицы сообщить, о чем узнать, что выразить при тренировке в усвоении материала при применении в решении коммуникативных задач.

Чтобы реализовать принцип коммуникативной направленности, позволим себе рекомендовать преподавателю следующее.

1. Вводя слово, словосочетание, грамматическое явление, подберите ситуацию, которая бы показала студентам действие единицы в общении: что с помощью можно сообщить, узнать, назвать, выразить.
2. Поскольку усвоение материала можно при многократном повторении, обеспечьте студентам «повторение без повторения», что достигается привнесением чего-то незначительно нового в высказывание по ситуации, исходя из реальных условий обучения в конкретной группе.
3. Известно, что устное общение есть активное взаимодействие говорящего и слушающего. Сделайте так, чтобы в ходе овладения материалом вы могли обеспечить активное участие самих студентов, каждого из них в этом процессе.
4. Организуя общение на основе усваиваемого материала, создавайте благоприятные условия, располагающие к общению, чтобы студентам доставляло удовольствие слушать, говорить, читать и писать на изучаемом языке.
5. При чтении главное внимание студентов обращайтесь на содержательно – смысловую сторону читаемого, а для этого надо шире использовать задания коммуникативного характера: о чем узнал, что прочитал, как к этому относишься. Шире пользуйтесь при чтении общественно-политических, публицистических, научно – популярных текстов заданиями по реферированию, аннотированию, как наиболее отвечающими потребностям студентов такого рода деятельности при работе с книгой, газетой.

Таким образом, принцип коммуникативной направленности определяет содержание обучения, какие коммуникативные умения необходимо формировать, чтобы студент мог осуществлять общение в устной и в письменной формах. При этом ученые убедительно доказывают необходимость в параллельном и взаимосвязанном овладении системой языка и системой речи для выполнения коммуникативных задач, как понять текст на уровне значения и на уровне смысла; какую выбрать стратегию в чтении, исходя из цели, которую ставит читающий;

Литература:

1. Берман И.М. Методика обучения английскому языку в неязыковых вузах. М.: «Высшая школа» 1990.
2. Рогова Г.В., Рабинович Ф.М. Методика обучения иностранным языкам М.: Просвещение, 1999
3. Фридман Л.М. Педагогический опыт глазами психолога. – М., 1997- с.20.
4. Скалкин В.Л. Коммуникативные упражнения на английском языке. М.: 1993

Y.Xasanova SamDCHTI “EYE / KO‘Z” KOMPONENTLI SOMATIK FRAZEMALARNING N.ESHONQUL VA W.S.MAUGHAM ASARLARIDAGI KOGNITIV MODEL

Hozirgi tilshunoslikning predmeti, maqsadi, izlanish metodlari va ularning yo‘nalishlarini anglatuvchi asosiy koordinatlari kesishadigan markaz – insondir. Bunda har qanday lisoniy xarakterdagi tadqiqot “inson

omili” tamoyili asosida amalga oshiriladi. Dunyoni bilishni inson o‘zidan boshlaydi, boshqacha aytganda, tadqiqot antroponimik yo‘nalishda amalga oshadi. Bunda asosiy rolni “somatizm”lar – inson tana a‘zolarining nomlari, somatik tarkibli frazemalar faol tashkil etadilar.

Sezgi organlari ichida “ko‘z” eng muhim vazifa – ko‘rish vazifasini bajaradi. U insonga atrof-muhitni ko‘rish, tashqi olamni tuyish hamda unda o‘z o‘rnini topib yurish imkonini beradi. Bundan tashqari, ko‘z jismoniy obyekt, ya‘ni o‘z shakliga, soniga (juft) va o‘z harakatlanish xususiyatiga ega bo‘lgan inson tanasining tashqi a‘zosi sifatida tasavvur hosil qiladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida “ko‘z” leksemasiga lug‘atlarda quyidagicha ta‘rif beriladi:

“eye – an organ of sight in human or other animals” (insonlarga va hayvonlarga berilgan ko‘rish organi) [4:506].

The organ of sight; in vertebrate, one of a pair of spherical bodies contained in an orbit of the skull, along with its associated structures” (umurtqali jonivorlardagi ko‘rish organi – maxsus komponentlari bilan birga bosh suyagidagi maxsus uyalarga joylashtirilgan soqqa shaklidagi juft a‘zo) [6:238].

“Eye/ko‘z” somatik komponentli frazemalar borliqning quyidagi turli tomonlariga urg‘u berishi mumkin: moddiy tushuncha sifatida (*ko‘z dori*); insonlarning shaxsiy xarakter-xususiyati (*ko‘zi tor*) va jamiyatda tutgan o‘rni/ahvoli (*ko‘zga ko‘ringan*); abstrakt (mavhum) tushuncha sifatida (*dunyodan ko‘z yummoq*); mental tushuncha (*aqli ko‘zida*) va h.k.lar.

Somatik frazemalarning bu kabi xususiyatlari bilish jarayonida komponentlarning butunlay obrazlanishi bilan bog‘liq. Obrazli o‘xshatishning tasavvur bilan bevosita aloqasi ancha oldin, ya‘ni 1725 – yilda Jambattista Viko tomonidan isbotlanganligi fanda ma‘lum [2, b. 15].

SFBlarning kognitiv modeli tadqiqot-predmeti va tadqiqot-maqсадini o‘z ichiga olgan geshtalt strukturasi asosida taqdim etiladi. Tadqiqot-predmeti ma‘lum bir somatik komponent to‘g‘risidagi bilimlarni o‘z ichiga olsa, maqsad ko‘lami esa turli- xil freymlarda, ya‘ni insonning shaxsiy xarakter-xususiyati, biror vaziyatni nomlash, borliqqa bo‘lgan munosabat, insonning jamiyatda tutgan o‘rni yoki holati va h.k.lar bilan bog‘liq.

“Eye/ko‘z” konseptining kognitiv strukturada bir nech xil ko‘chma, shu bilan birga obrazlashmagan alomatlarini ham aniqlashimiz mumkin. Hozir ikki til uchun ham umumiy bo‘lgan frazeologik dunyo manzarasidagi “eye/ko‘z” konseptiga tegishli bo‘lgan obrazlashgan modellarni ko‘rib chiqamiz:

– KO‘Z – QADRLILIK TUSHUNCHASI, ya‘ni ushbu etalonning qadr-qimmat konsepti bilan bog‘liqligi uning inson tanasidagi boshqa a‘zolarga nisbatan eng muhimi hisoblanishidir, shu boisdan kishilar hayotidagi eng qadrlil, yakka-yu yagona insonlariga yohud narsalarga nisbatan quyidagi frazemalarini ishlatadi: *The apple of smb’s eye, I would give my eye; ko‘zi(m)ning oqu qorasi, ko‘zi(m)ning qorachig‘i, ko‘z ochib ko‘rgan, ko‘zga surtmoq, ko‘zga dori, ko‘zi qiymaslik: Niyatim shuki, do‘stim, ko‘zingning oqu qorasi bo‘lgan qizingning baxti ochilsin. (N.Eshonqul, ‘Shamolni tutib bo‘lmaydi’)*

– KO‘Z – MAXSUS INSTRUMENT, bunday vaziyatlarda ko‘z ko‘rish organi sifatidagina emas, balki insonga tashqi olamni to‘laqonli tarzda bilib olishi, tuyishida o‘ziga xos instrument (vosita) vazifasini bajaradi, shu boisdan ushbu geshtalt struktura quyidagi bir nechta freymlardan iborat bo‘ladi:

- **Diqqatni shakllantirish** tushunchasi ko‘zlarning istalgan nuqtaga uzoq vaqt qaray olish va harakat yo‘nalishini tezda o‘zgartira olish qobiliyatidan kelib chiqadi. *Catch sb’s eye, keep your eye on the ball, be all eyes: He was all eyes as the train sped through the country... (W.S. Maugham, ‘Of Human Bondage’, ch.38)*

- **Vaqt tushunchasida: ko‘z ochib yumguncha, “bir zumda”;** (in the blink of an eye, in the twinkling of an eye);

- **Lokativ atama vositasida: ko‘z ilg‘amas, ko‘zdan yiroq: Nihoyat,** balandlikdan oshib, etagi ko‘z ilg‘amas uzoqlarga tutashgan va quyoshda ko‘m-ko‘k yongan maydonga tushdi yigit. (N.Eshonqul, “Yalpiz hidi”); *(as far as the eye could see, bird’s eye view, an eagle eye).*

- **Yashirin ishora: ko‘zi bilan imo qilmoq, ko‘z qiri bilan, ko‘z ostidan, ko‘z qismoq; with frank eyes, behind one’s eyes.** Sen o‘zingga qarab kelayotgan ikki yo‘lovchi bilan vodaprovod oldida uchrashding; ular nimadir to‘g‘risida bahslashib kelar, senga deyarli e‘tibor berishmasdi vas en ham ularni odatdagi yo‘lovchilar deb o‘ylaganing uchun aqalli ko‘z qiringni ham tashlamading... (N.Eshonqul, ‘Maymun yetaklagan odam’).

– KO‘Z – INSON kognitiv modelini ham ifodalashi mumkin, masalan, “A hundred eyes turned, then, and started at him: a hundred eyes, unblinking and unfriendly” (W.S. Maugham, ‘Of Human Bondage’, ch.28). Ushbu geshtalt struktura ham quyidagi bir nechta freymlardan tashkil topgan:

Inson xarakterini belgilovchi marker sifatida yuzaga chiqadi: *ko‘zga ilmaslik, ko‘zini yog‘ bosmoq, ko‘zi tor (baxil, ziqna), ko‘zi och; cunning eyes, honest eyes, greedy eyes.*

Inson shaxsiyatidagi uddaburonlik, tadbirkorlik kabi xususiyatlarni ham ifodalaydi: **ishning ko'zini bilmoq, ko'z bo'yamoq, ko'zini shamg'alat qilib; (have an eye for the main chance):** Gerald. *She's a very nice woman but she has rather a keen eye for the main chance.* (W.S. Maugham, 'Mrs. Dol' act I)

Inson aqliy qobiliyatini ko'rsatuvchi indikator vazifasini ham bajaradi: **aqli ko'zida, ko'zi moshdek ochildi, mad/stupid eyes, intelligent eyes.**

Insonning jismoniy holatini ifodalaydi: **boss-eyed, tear-reddened eyes; ko'zi tinmoq, ko'zi tiyrak.** *Yigitning ko'zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo'yniga solingan kishan tarang tortilgan edi.* (N.Eshonqul, 'Maymun yetaklagan odam')

Insonning ruhiy holatini akslantiradi: **dunyo ko'ziga qorong'i, ko'zi quvnamoq; (There wasn't a dry eye in the house, feast one's eyes).** *Philip feasted his eyes on the richness of the green leaves.* (W.S. Maugham, 'Of Human Bondage', ch.118)

– KO'ZLANGAN MAQSAD kognitiv modeli insonning istalgan bir ishni qilishdan avval o'sha joy yoki narsaning turgan o'rniga qarab "ko'z" yordamida yo'nalishni to'g'ri olishidan hosil bo'lgan, hamda bu tushuncha aniqlikdan mavhumlikka qarab ko'chgan, va shu boisdan obrazli tasavvur hosil qilingan: **ko'z ostiga olmoq, ko'zda tutmoq, ko'zi yetmoq; have your eye on sth, have eyes only for:** *In Amsterdam, I had eyes only for the Rembrandts.* (W.S. Maugham, 'Of Human Bondage', ch. 54)

– KO'Z – EZGULIK/ YOVUZLIK RAMZI, bundan tashqari ingliz tilida "ko'z –yorig'lik manbai" konsepti ham keng qo'llaniladi. Azaldan yorig'lik inson tafakkurida borliqning barcha ezgulik va ijobiy tomonlarini akslantirsa, qorong'ilik esa aksincha salbiy tuyg'u va xurofiy tushunchalarni ifodalaydi. Insonga ma'naviy yoki jismoniy zarar yetkazish ma'nosida ko'z komponenti somatizmlar tarkibida ishlatiladi: **ko'zlanibdi, ko'z tegibdi, yomon ko'z, yomon ko'zdan saqlasin; (to give sb the evil eye, have a roving eye):** *he took it into his head that the Armenian had cast an evil eye on him, and he took his gun, waited for his opportunity, and shot the Armenian dead.* (W.S. Maugham, *Caesar's Wife*, act 2)

Yuqorida zikr etilgan mulohazalarga tayangan holda ta'kidlash mumkinki, ko'z nafaqat inson tanasidagi ko'rish organi, balki, u o'z rangi, tovlanishi, shakli, hajmi hamda o'z o'rniga ega bo'lgan jismoniy obyekt bo'lib, u kishining jismoniy holati va his-tuyg'ularini ifodalovchi muhim SFBlardan biri sifatida lisoniy-kognitiv tadqiqot uchun ko'p qirrali konsept vazifasida kela oladi.

Adabiyotlar:

1. Кунин А.В. Основные понятия фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря: автореф. дис. д-ра филол. наук – М., 1964.
2. Skitina N.A. *Linguo-cognitive analysis of phraseological units - diss...candidate of Philological Sciences, M., MGOU, 2007. P.15*
3. Zhukov A.V., Zhukova M.E. *Contemporary phraseological dictionary of the Russian language: about 1600 of Ph.U, M., AST: Astrel', 2009. 444 p.*
4. *Cambridge international dictionary of idioms: around 7000 idioms, New York, Cambridge University Press, 1999. 506 p.*

T.Elmuurodova (SamDChTI)

INGLIZ O'ZBEK, RUS TILLARI SHAXS NOMLARINING MA'NO JIHATDAN TASNIFI

Bir til yoki ikki va undan ortiq tillar bo'yicha izlanishlar olib borish ularning o'zaro aloqalarini taqqoslash yo'li orqali o'rganish shuningdek, turli tuzilmalarga boy tillarni qiyosiy va tipologik talqin etish hamda tillardagi yangi til faktorlarini yanada rivojlantirish uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Hozirgi kunda tillarni til birliklari tizimi sifatida talqin etish antroponimika sohasida ham katta o'zgarish hamda ba'zi bir muammolarning yechimi topilishi uchun asos bo'lmoqda.

Antroponimik birlik sifatida til lug'at boyligida muhim o'rin egallagan shaxs otlariga doir ko'plab ta'riflar mavjud bo'lib, ularning ichidan leksik ensiklopedik lug'atda keltirilgan ta'rifni eng maqbuli deya olamiz. Ya'ni, "shaxs otlari bu - bir qator mos keladigan obyektlar ichidan tanlab olingan ta'kidlash uchun xizmat qiluvchi barcha so'z va iboralar guruhidir". Zero, shaxs otlari kishi ismi bilan birgalikda kelar ekan, o'sha shaxsning so'zlovchiga bo'lgan biror bir aloqasini yoki bo'lmasam qandaydir bir guruh (mansab) ga daxldor ekanligini anglatib turadi.

Shaxs otlarining ma'no va mazmun jihatdan guruhlarga bo'linishi bo'yicha E. Fikarova shaxs otlarini ikki katta guruhga ajratadi. Ular:

1. Haqiqiy shaxslar, odamlar;
2. Diniy, afsonaviy, hayoliy hamda ertak qahramonlar.

Birinchi guruhga ijtimoiy hayotda mavjud, ma'lum bir soha yoki jabhada faoliyat yurituvchi, o'zining individual xarakterlariga ega "jonli" insonlar kiradi: *fuqaro, kosib, o'qituvchi, o'quvchi, muhandis, buxgalter,*

mayor, ziqna, uddaburon, zukko, dada, tog'a, amma, xola, amaki, bobo, nevara, chaqaloq, katta aka, amakivachcha, ishbilarmon kabilar.

Ikkinchi, diniy, afsonaviy, hayoliy hamda ertak qahramonlariga afsungar, sehrgar, yalmog'iz kampir, o'lmas Kashshiy, alvasti, jodugar, ruhoni, farishta, jin, pari, suv parisi, oppoqoy kabi ushbu haqiqiy hayotda emas, insonlarning o'y- hayollari, fantaziyalari ijod mahsuli hisoblangan shaxs otlari kiradi.

Uch til asosida izlanishlar shuni ko'rsatadiki, har qanday tildagi shaxs otlari klassifikatsiyasi bo'yicha shaxs nomlarining quyidagi guruhlarini sanab o'tishimiz mumkin: shaxs nomlarining qarindoshlik munosabatlari, kasb-hunar, jinsiy belgilar, yosh, tashqi ko'rinish, oilaviy munosabat, xarakter xususiyatlar, aqliy imkoniyatlar, jismoniy imkoniyatlar, shaxsiy munosabatlar, ijtimoiy holati, diniy qarashlari hamda hududiy- etnik mansublik bo'yicha guruhlar.

Qavm-qarindoshlik ma'nosidagi shaxs otlari an'anaviy jihatdan ikki kichik guruhlariga bo'linadi. Bular, birinchidan, o'zida bir oila, shajara a'zolarini qamrab oluvchi qon-qarindoshlik: oyi / mother / мать; dada / father / папа; opa-singil / sister / сестра ; aka-uka / brother / брат ;

Ikkinchisi nikoh, oila qurish yo'li bilan qarindoshlik rishtalarini qurish ma'nosini anglatuvchi shaxs otlari: er / husband / муж; hotin / wife / жена mikrogruhidir. Bu guruh qarindoshlik jihatidan teng bir tushuncha sifatida qarindoshlik rishtalarini bog'lash yoki uni buzish munosabatlarini anglatuvchi atamalarni o'z ichiga oladi.

Qavm-qarindoshlik otlari atamasi hamda qavm-qarindoshlik atamalarini tizimi u yoki bu tilning tilshunoslik hamda etnografiya sohalarining tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Tilshunoslar hamda etnograflar o'zlarining oldiga butunlay yangi hamda turli xil tadqiqot maqsadlarini qo'ygan holda izlanishlar olib borishsada, olinadigan natijalarning ko'pchiligi ushbu ikki maydonni tadqiq etishda metodlarning uyg'unlashuvini hosil qilishi mumkin. Ya'ni, ushbu guruhga mansub shaxs otlarini ham tilshunoslik ham etnografik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ikki tomonlama tadqiqotlar bir xil natija berishi mumkin.

Shu o'rinda yana bir jihatga to'xtalib o'tish kerakki, shaxs otlarining qavm-qarindoshlik bo'yicha shaxs otlari guruhini shaxslarning avlod-ajdodlari (shajarasi)ga oid so'zlar ham tashkil etib, ularni tilshunos olimlar giperonimlar atamasi bilan ataganlar. **Giperonimlar** shaxslarning uzoq o'tmishiga borib taqaladigan qarindosh- urug'lari haqida ma'lumot beruvchi so'z yoki so'z birikmalaridir. Giperonimlar giponimlar (qabila a'zolariga tegishli iboralar va maxsus qadriyatlar bilan bog'liq muayyan tushunchalarni ifoda etuvchi so'z yoki frazeologik birliklar) dan tashkil topadi: zurriyot/offspring/отпрыск, avlod/ descendant/ потомок, bobo/forefather /праотец, ajdodlar/father/предоудитель, qadimda o'tgan ota-bobolar/ primogenitor/прауцур, ota-bobo/ancestor/предок;

Shaxs otlarining qavm-qarindoshlik ma'nosi jihatidan guruhidagi shaxs otlarida giperonimlar bilan bog'liq quyidagi qo'shimcha otlarni ham misol keltirib o'tish lozim: buvi/grandmother/бабушка, ota/dad/бамя, nabira (nevara) /grandson/ внук, bobo/grandfather/дед, qiz farzand/daughter/дочь, o'g'il farzand/a son/сын, ona/mother/мамя, agreat-grandfather – прадед – katta bobo, great-grandmother – прабабушка – katta tomo, godfather – восприемник – cho'qintirgan ota, godson – крестник, cho'qintirilgan o'g'il, goddaughter – крестница – cho'qintirilgan qiz, godfather- bolani cho'qintirgan kishi, , godmother – кума – bolani cho'qintirgan ona;

Bundan tashqari shaxsning shaxsiy xususiyatlari yoshi (o'smir, qari, yosh, tengdosh), tashqi ko'rinishi (pakana, novcha), aqliy (dono, bilimdon) hamda jismoniy imkoniyatlari (epchil, chaqqon, yalqov), jinsiy (ayol, qiz, buvi, kampir, chol, tog'a, o'g'il) holatini ifodalovchi guruhlar ham mavjud.

Shaxs otlarining tasnifi bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili shaxs otlarining quyidagi semantik guruhlar mavjud: kasb-hunarga oid shaxs otlari (chilangar, muhbir, hamda uchuvchi, oshpaz, haykaltarosh, naqqosh, sartarosh, muhandis), ijtimoiy maqom holatni ifodalovchi shaxs otlari (o'zbek, tojik, qarluq, qipchoq, qoraqalpoq, mang'it, nayman, arab, ingliz), ijtimoiy mansabi hamda majburiyatlarini ifodalovchi shaxs otlari (shox, vazir, chopar, rais, mingboshi, bek, hokim), qarindoshlik ma'nosini ifodalovchi shaxs otlari (xola, oyi, dada, bobo, tog'a, amma, nabira, evara) va hokazo.

Adabiyotlar:

1. Аракин В.Д. Тюркские лексические элементы в русских повестях и сказаниях XIII-XV вв. // Советская тюркология. – Баку, 1973.– № 3.
2. Джафаров Г.Г. Термины родства в семантической системе и грамматической структуре языка // Советская тюркология. – Баку, 1974. – №5.
3. Исmoilov И.И. Туркий тилларда кавм-кариндошлик терминлари: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент,

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И ПЕРЕВОД ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

Теория художественного перевода пока не имеет точного научного обоснования. Над этой темой до сих пор ведутся горячие споры, которых можем увидеть во многих статьях. Но книги, написанные К.И. Чуковским, А.В.Фёдоровой, Е.Р. Гачечиладзе, С.П. Ковганюком свидетельствуют о том, что создать точную научную теорию художественного перевода не только возможно, но и обязателен для совершенствования переводного искусства. Многие положения вышеупомянутых авторов, конечно же, будут фундаментом создающийся науки о переводе.

Любой живописец, поэт, композитор старается брать материал для своего искусства из реальной жизни, детально изучая общество и природу. Помимо этого они живут одной жизнью предметов своего творчества, с природой, созданной человеком, и состоят на высоте всех её достижений. В этом случае творчество получится похожим на других, в примитивное, обычное эпигонство.

Переводчик, в поисках материала для своего творчества обращается к самой культуре. Культура же в итоге становится той средой, где переводчик будет жить, питаться и т.д. Но её тоны разгадать сможет лишь тот, кто представится перед ней с наличием собственного художественного опыта, тот кто воспринимает внешний мир(природу, общество) истинно поэтически и подходит к ней творческой остротой. Переводчик, который не может воспринимать внешний мир поэтически, будет вынужден в каждой дыхании “поверять алгебре гармонии”, выхолащивая живую душу культуры, подменяя творчество искусственной совокупностью приёмов.

Переводчик переходит от поэтического произведения к действительности, закреплённой в нём. В процессе он находит общие черты в своём художественном опыте и художественном опыте автора. Для переводчика поэтическое произведение это нечто исключительный необходимый момент в жизни культуры, это уникальное в своём роде олицетворение “второй природы”.

С помощью творческого восприятия истинных событий и мировой культуры переводчик устанавливает и закрепляет в своей работе за поэтическое произведение его место во всемирной культуре, раскрывая читателю динамику культурно-исторического бытия. Момент, когда специфические формы художественного опыта соответствует к переводу, можно использовать термин Эрнеста Хемингуэя “момент истины” в переводе. Именно в этот момент мы можем увидеть присутствие или отсутствие поэтического таланта. Именно без “момента истины” перевод оказался бы обычным философским исследованием.

Исходя, из этого всего выходит, что переводить художественный текст может человек незаурядным поэтическим талантом, который осмысливает культуру в её объективной динамичной целостности, который чувствует, как бьётся во все века неутомимый пульс творчества.

Переводчик должен знать, что процесс перевода- это вовсе не репродукция и не имитация процесса создания оригинала. Его специфику А.Курелла описывает так: “...каков характер переводческого процесса? Это процесс одновременно аналитический и синтетический, научный и художественный, причём в процессе перевода аналитическое, сочетаясь с научным, а синтетическое, сочетаясь с художественным, соответствуют различным фазам”.

Каждое художественное произведение можно описать как окружность вписанным в неё и описанным вокруг неё многоугольниками. Внутренний многоугольник составляет всю сложность взаимодействия различных элементов текста на разных его уровнях таких как звуковом, лексическом, синтаксическом элементов, при взаимодействии которых создаётся визуальная система произведения. Внешний многоугольник - это богатство связей произведения с реальностью, которая её окружает. Здесь есть и широкий контекст истории, культуры, быта, в котором оно возникло.

Для достижения успешного перевода очень важно изучить внешние связи оригинала. Даже если переводчик глубоко проникнет в структуру текста, ему ничего не поможет, если автор оригинала на исторические события или общественные условия, или та, где подлинник содержит скрытые или изменённые с точки зрения стилистики цитаты из других произведений.

Все эти случаи свидетельствуют о том, что переводчик обязан быть не только мастером поэтической речи, но и настоящим знатоком тех предметов, которые так или иначе касаются произведение- предмет его творчества.

Этапы творческой работы переводчика доказывают нам, что они являются одновременно и основой для критики суровых взглядов на деятельность переводчика то как на исключительно научную, то как на только художественную деятельность.

Передавать своеобразный приём чужого автора можно и нужно, потому что русский язык в силах “перевыразить” любое своеобразие. Здесь мы можем вспомнить про приёмы “замены”, “перестановки” и создании “художественных эквивалентов” средств эквивалентности.

К сожалению в наше время мы редко видим это всё в переводах так называемых “литератур Востока”.

Однако переводчик, должен проникнуть в оригинал с максимальной активностью для того чтобы охватить каждый изобразительный приём автора во всей его глубине и во всём диапазоне его ассоциативных связей.

“Ритм” с греческого означает “соразмерность” “стройность”, “такт”. В наши дни он определяется как закономерное повторение соизмеримых единиц. Реализация перевода поэтического мотива всегда заканчивается более или менее сложным структурным изменением. Могут происходить перемещения, перестановки, переоценки ценностей. Очертания контекста чётко вырисовываются, выбирая подходящий фон.

Переводимость и непереводимость происходят не только из-за технических трудностей. Так же и играет роль и несоответствии двух языковых систем. Их определяют и уровень развития национальной поэзии и готовность принять (или даже не принять) определённую поэтическую идею. Так же важен тот факт, как язык понимается переводчиком как форма и как функция.

Иногда чрезмерное преувеличение роли языка как носителя «национального опыта» может привести к проблеме непереводимости. Бесспорно, что язык отражает духовный и практический опыт человека и человечества.

С другой стороны, чисто “лингвистический” переход к слову как носителю информации чисто приводит к недооценке настоящих ассоциативных связей, которые всячески могут дать окраску поэтическому контексту. Переводимость может быть не только эквивалентность в родном языке но и в сохранении той нити, которая связывает своеобразие звукового состава. Ведь звуковая сторона стихи проявление музыкального строя поэзии, а разве музыкой можно привести на язык конкретных понятий и конкретных чувств?

Звуковой состав стиха требует у переводчика обязательного внимания. Однако звукозапись, являясь для переводчика серьёзным указанием на стиль художника на его особую задачу эвфонического порядка, которая помогает выявить формы, не может и не должна участвовать в раскрытии каких то реальных соответствий содержанию. Но а если такое произошло переводчику нужно избежать от двусмысленности.

Иной раз поступает, так как ему кажется удобнее, делая себе оправданием ту же самую “непереводимость”.

Литература:

1. К.И. Чуковский “Принципы художественного перевода ” 1919
2. А.В. Фёдоров К.И. Чуковский Искусство перевода 1930
3. А. Курелла “Сборник сочинений” 1932
4. С.П. Ковганюк “Теория перевода” 1935

M.R.Soleyeva (SamDCHTI)

YAPON TILIDA CHET TILIDAN KIRIB KELGAN SO‘ZLARNING SEMANTIK MA‘NOLARI HAQIDA

“Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘- e‘tibori avvalambor farzandlarimizning, unib o‘‘sib ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmashimiz kerak” – deya ta‘kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov. Bugun u kishining ishlarini davom ettirayotgan muhtaram prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ham tom ma‘noda yoshlar uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratib bermoqdalar. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning sifat bosqichida turar ekanmiz, har tomonlama yetuk va bilimli yoshlarga ehtiyoj tobora ortmoqda. Ayniqsa chet-tilini o‘rganish uchun yetarlicha sharoitlar mavjud. Tobora qiziqish bilan o‘rganilayotgan yapon tilida chet –tilidan kirib kelgan so‘zlarning barachasi katakana alifbosida yoziladi. Bu o‘z navbatida chet tilidan kirib kelgan so‘z, ya‘ni 外来語—gairago deyiladi. Mazkur mavzu aynan yapon tilida chet tilidan kirib kelgan so‘zlar borasida.

Ma‘lumki, dunyoda birorta ham sof til bo‘lmaydi. Tillarning lug‘at jamg‘armasi muntazam o‘zgarishda takomilda bo‘ladi. Eskirgan, ishlatilmay qolgan, talabdan chetga surilgan leksik birliklar o‘rnini iste‘molchilarning ehtiyojini qondira oladigan yangi leksik birliklar egallaydi. Til, ayniqsa uning lug‘ati doim o‘shish-o‘zgarishda. Bunday o‘shish-o‘zgarish tez va uzil-kesil sodir bo‘lmaydi. Shu sababli zamonaviylik jihatidan har xil birliklar yonma-yon yashab turadi. Lug‘at boyligida zamoniylik jihatidan ikki asosiy qatlam mavjud: zamonaviy qatlam va zamondosh qatlam. Zamonaviy qatlamga bugungi til amaliyotida odatdagi, rasmona deb qaraluvchi leksemalar kiritiladi. Bu qatlamdagi leksemalar na yangilik va na eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lmaydi. Leksemalarning ko‘pchiligi – xuddi shunday. Zamonaviy qatlamga mansub deb belgilashda

leksemaning yakka shaxslar nutqidagi mavqei emas, balki umumtildagi mavqei asosga olinadi. Leksemani zamonaviy qatlamga kiritishda ularning nutqda ishlatilish miqdori ham asosga olinmaydi. Nutqda ko'p ishlatiladigan leksema odatda zamonaviy qatlamga mansub bo'ladi. Zamonaviy qatlamga kiritiluvchi leksema shu til egalarining barcha a'zolariga tanish bo'lishi ham, barchaning nutqida ishlatilishi ham shart emas. Zamonaviy qatlamga kiritiladigan leksema bir asosiy talabga javob berishi kerak: na yangilik va na eskilik bo'yog'i bo'lmasligi lozim. Ko'rinadiki, leksemalarning zamoniyligini aktiv-passiv qatlamlar deb nomlash va tavsiflash to'g'ri bo'lmaydi. Aktiv-passivlik lug'at boyligiga boshqa jihatdan – miqdoriy jihatdan yondashish bo'lib, lug'at boyligini bunday o'rganish ham, albatta, muhim amaliy va nazariy xulosalarga olib keladi. Yangilik yoki eskilik bo'yog'i bor leksemalar lug'at boyligining zamondosh qatlamini tashkil qiladi. Bunday qatlam tilning har bir taraqqiyot bosqichida mavjud bo'ladi, chunki lug'at boyligi doim o'sib-o'zgarib turadi. Shu sababli lug'at boyligida zamondosh qatlam ham yashaydi. Yangilik bo'yog'i mavjud bo'lgan leksemalarga neologizmlar yoki yangi paydo bo'lgan so'zlar deyiladi.⁴⁹ Mazkur tushuncha o'zbek tilida neologizm deyilsa yuqorida keltirganimizdek, yapon tilida 外来語—gairaigo, ya'ni chet tilidan o'zlashgan so'zlar sifatida tushuniladi. Yapon tilida chet tillaridan olingan o'zlashma so'zlar ko'p hisoblanadi. O'zlashma so'zlarning ko'pchiligi ingliz tili bilan bog'liq sanaladi. Biroq fransuz, nemis, portugal, tillaridan o'zlashgan so'zlar ham uchraydi. Shu boisdan yaponlar chet tili so'zlarini, ya'ni 外来語—gairaigoni katakana alifbosida yozadilar. Katakana yoziladigan so'zlarning kelib chiqishi chet tilidan o'zlashgan so'zlar bilan bog'liq. Shuningdek, yaponlar chet tili so'zlari asosida ham o'z so'zlarini tuzadilar. Chet rilidan kirib kelgan so'zlar turli jihatlariga ko'ra tasniflanadi. Buni quyidagicha tartibda tasniflash mumkin: 食べ物—Tabemono (ovqat va ichimliklar) : ハム-vetchina , チーズcheese- pishloq , ミルク—milk-sut, ドリング—drink-ichimlik, ワイン—vine- vino(ichimlik turi), アイスクリーム—Ice cream—muzqaymoq, ホットドッグ—hot dog –xot dog;(xotdog), ジュース—juice- sharbat (sok), ハンバガ- hamburger-gamburger kabilar. 衣服—ifuku –kiyimlar: スーツ-suit –kostyum, スカフ—scarf-sharf, シャツ—shirt-ko'ylak, 病気—byouki-kassaliklar , インフルエンザ—influenza-gripp, ストレス-stress- stress(kuchli asab buzilishi), Va boshqa so'zlar : スケジュール—schedule- vaqt tartibi, kun tartibi, デバット-debate-munozara, muhokama, ゲーム—game-o'yin, ビデオ—video-vidio, レストラン—restaurant-restoran, アイデア—idea- g'oya, リュックサック—rucksack- ryukzak, アナウンス—announce –xabar bermoq, e'lon qilmoq, ニュース-news- xabarlar, yangiliklar,⁵⁰

Keltirib o'tilgan bu kabi o'zlashma so'zlar bugungi yapon tilida faol leksemalar tarkibiga kiradi. Ularning kundalik turmushlarida har kuni qo'llaniladi. Yaponlarni o'zlari ta'kidlaganlaridek ular chet tili so'zlarini tez o'rganuvchilar hisoblanishadi. Bir tomondan so'z boyligi ko'payishi va faol leksemaga aylanuvchi gairaigolar tez-tez nutqda ishlatiladi. Biroq ba'zi so'zlar borki bu yapon tilida mavjud so'z sanalsada , chet-tilidan kirib kelgan so'zlarni ishlatishadi. Masalan : 喫茶店—kissaten bu qahvaxona degan ma'noni bildiruvchi so'z hisoblanadi. Garchi shunday bo'lsa-da bugunda mazkur so'z o'rniga ingliz tilidan kirgan カップ—café- qahvaxona so'zi ommalashmoqda. Bunday so'zlar anchani tashkil qiladi. (会議—kaigi-コンGRESS—congress- majlis, ...)

Mavzu doirasida yana bir fikrni keltirish mumkin. Bu yapon tilida chet tilidan kelgan so'zlarning qisqartirib aytilishi. O'zbek tilida ham bunday holat mavjud. Yapon tili leksemasida o'zlashgan gairaigolar semantik ma'nolarini yo'qotmay qisqartirib aytilishi holatlari bor. Jumladan, ingliz tilidagi Personal Computer- パーソナル コンピュータ ya'ni, shaxsiy kompyuter- notebook ma'nosidagi so'z bugungu kunda yapon tilida パソコン pasokon (per com) saklida yuritiladi. Yana misol sifatida building –inshoot , bino so'zini olishimiz mumkin. Yapon yilida avval ビルディング—shaklida ishlatilgan bo'lsa hozir qisqartirilib ビル— deb aytiladi. Bunday qisqartirib ishlatilish nafaqat chet tilidan o'zlashgan so'zlarda , balki asl yapon tili so'zlarida qisqartirib aytilish shakllari bor.

Bunday qisqartirishlar bir tomondan qulay hamda tushunarlik bo'lsa yana bir jihatdan yozma nutqda osonlik hisoblanadi. Yapon tilida so'zlarni qisqartirish 省略します—shyouryakushimasu deb aytiladi. (qisqartma so'zlar degani). Shuningdek ba'zi ingliz tili yoki o'zlashma so'zlarni ot+fe'l shaklida qilib ishlatish usuli ham bor. Bunda ot so'z turkumidagi so'z neologizm –gairaigo bo'lib , fe'l so'z turkumi esa yapon tilidagi bajarmoq, qilmoq, amalga oshirmoq, shug'ullanmoq ma'nolaridagi fe'llar bilan birga ishlatiladigan so'zlar bor. M-n : スポーツ (sport) (を) します— (o) shimasu – ya'ni sport bilan shug'ullanmoq, テニスします—tennisu o shimasu- tennis o'ynamoq, ピアノを弾きます (弾く) –piano

⁴⁹Sh.Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o'zbek tili”. -Toshkent “Universitet “ 2006. 88-89 b.

Sh.Mahmadiyev “Hozirgi o'zbek adabiy tili”.-Samarqand 2010.

⁵⁰みんなのほんごII-Minnano nihongo II. Tarjima va grammatik tahlil . O'zbekiston –Yaponiya markazi.130b

o hikimasu(hiku)-pianino chalmoq, イメージをします—imeji o shimasu-tasavvur qilmoq. Mavzu doirasidan xulosa qilib aytish mumkinki, yapon tilida o‘zlashma leksemalar ko‘p va ular aktiv. Bu so‘zlarning semantic ma’nolari o‘z ma’nosini deyarli yo‘qotmaydi, ba’zan yo‘qotishi hollari bor. Lekin bu to‘la ma’noni yo‘qotish bo‘lmaydi. Chet tili o‘zlashma so‘zlar hisobiga yapon tili ham boy leksemasini tashkil etmoqda. Shu boisdab ingliz tilini sal bo‘lsada tushunadigan odam uchun yapon tilini o‘rganish oson bo‘ladi. Bu o‘z navbatida mavzuga oid bo‘lgan neologizmlar yoki gairaiqolar natijasi hisoblanadi. Aksariyat gaplarda gairaiqolardan foydalanishadi. Bular kashfiyot ,yangi texnika terminlari singari so‘zlar ham sanaladi. Shuning uchun maxsus katakana yapon tili alfaviti bor. Va bu o‘zlashma so‘zlarni yozishda ishlatiladi. Aynan shu jihat yapon tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” .Toshkent . Ma’naviyat. 2008.
2. Sh. Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o‘zbek tili”. Toshkent “Universitet “ 2006.
3. みんなのこほんごII-Minnano nihongo II. Tarjima va grammatik tahlil . O‘zbekiston –Yaponiya markazi 2001, 130-b.
4. ニューアプローチ中級, Kobun Kenkyusya Oyanagi Noboru 2002-2009, Japan. P241.
5. ニューアプローチ中上級, Kobun Kenkyusya Oyanagi Noboru 2009, Japan. P 269.

Z. Ergasheva (SamDChTI)

PRAGMATIC FEATURES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO B1 LEVEL STUDENTS

Ғазалнинг биринчи байти, яъни матлаъда матн мазмуни, сюжети нима ҳақида эканлиги баён этилган: яъни ошиқ бечора (чорасиз) аҳволда. Сюжет ривожланиб боришида байтма-байт ошиқнинг дардли ноласи кучайиб боради. Шоир ўз туйғусини, яъни ғам, алам, чорасизлик ҳолатини тасвирлашда салбий маънодаги сўз ва сўз бирикмалардан фойдаланган: *бечора, овора, ёғар тош, урар хорога бошин, пора-пора, бало тоғи, бемор, хору хора, қаро қилди, қора бўлмиш...* ушбу концептуал сўзлар ва сўз бирикмаларида урғу асосан “хира” “о” товушига тушмоқда, урғули “о” ундошидан кейин эса асосан “р” (агрессив) жарангли титроқ товуши ишлатилган. Ушбу “о” + “р” ҳарф бирикмасининг кенг қўлланилиши ёрдамида муаллиф ўз дардини такроран, кучайтириб беришга муваффақ бўлган.

Навоий услубига хос – сўзларнинг мисраларда такрорланиб келишини билвосита товушга тақлид усули деб аталса муболаға бўлмайди: *“ёғар тош устида тош”, “танида ёра узра ёра”, “урарда дам-бадам”, “сўнгалар анда пора-пора”, “хору хора”*нинг берилиши асар қаҳрамони (шоирнинг ўзи)нинг нечоғлик қалби махзун (қора) бўлганлигини, юрагидаги оғир дард қайта-қайта жонланаётганини такроран ўқувчи, тингловчига баён этиб, уни ҳам ғамгин ҳолатига нисбатан салбий ҳис-туйғуга, ачиниш ҳиссига келтиришга муваффақ бўлади.

А.Навоийнинг *“Бизнинг шайдо кўнгул бечора бўлмиш...”* ғазалидаги товуш ифода воситаларининг чизмада қуйидагича изоҳлаш мумкин:

1 Чизма.

Алишер Навоийнинг *“Бизнинг шайдо кўнгул бечора бўлмиш...”* ғазали



Ушбу ғазалда салбий ҳис-туйғуни ифодалашда қуйидаги омиллар асос бўлган:

- 1) Салбий маънони ифодаловчи сўзлар ва уларда жарангли портловчи ундошларнинг кўп қўлланилиши;
- 2) Салбий маънодаги такрорларнинг қўлланилиши ва уларнинг товушга тақлид вазифасида келиши;
- 3) Аллитерация ва ассонанснинг қўлланилиши;
- 4) Какофонияни ҳосил қиладиган товуш бирикмаларининг қўлланилиши;

Ушбу асар салбий эмоцияни ярата олар экан, шуни таъкидлаш мумкинки, ундаги прагматик потенциални беришда фоник тизимнинг аҳамияти катта ва маълум шаклда қўлланилган товуш инструментадкаси ўқувчига салбий ҳис-туйғуни уйғотишга қодир.

Бирок шуни таъкидлаш жоизки, қабул қилувчининг матнга бўлган муносабати унинг шахсияти, фон билими, тажрибаси, психологик ҳолати, тафаккур қобилияти ва бошқа хусусиятларига ҳам боғлиқдир. Воқеликдаги предмет-ҳодисаларнинг идроки бир хилда кечмайди. Турли шахслар ягона бир воқеликка турлича, ўз нуктаи назарларидан қарайдилар, уни идрок этишда шахсий мотивларига эга бўладилар. Ҳар бир шахснинг воқеликни баҳолаш меъёри (ўлчови) мавжуд ва бу “шахсий ўлчов” тўғридан-тўғри нутқий фаолиятда ўз аксини топади (Сафаров 2008:182).

Адабиётлар:

1. Паршин А. Теория и практика перевода [Электрон манба] / А.Паршин // <http://teneta.ru/rus/prevd/parshin-and-teoria-i-praktika-perevoda/htm>
2. Горбачевский А.А. Оригинал и его отражение в тексте перевода: Монография [Текст] / А.А. Горбачевский. - Челябинск, 2001. - 202 с.
3. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Ф.ф.д. автореферати // С. Каримов. –Т.; 1993. -190б.
4. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат миллий нашриёти, 2008. 300 бет.

Ш.Жўраев(ДДС)

ИСТИФОДАИ КАЛИМАҲОИ ЎЗБЕКӢ ДАР ШЕВАИ ТОЧИКНИ ВИЛОЯТИ САМАРҚАНД

Аз манбаъҳои таърихӣ маълум аст, ки мардуми тоҷик ва ўзбек аз давраҳои қадим дар як сарзамин зиндагӣ карда омада истодаанд. Онҳо то дараҷае омехта шудаанд, ки кадоме аз онҳо тоҷик ё ўзбек буданашонро фарқ намудан мушқил аст. Робитаҳои маданӣ, фарҳангии онҳо таърихӣ тулонӣ дорад.

Имрӯзҳо мардуми тоҷику ўзбек дар биёр мавзёҳои мамлакатамон, хусусан дар ноҳияҳои водии Фарғона, Зарафшон, Тошкент, Қашқадарё ва Сурхондарё якҷоя умр басар мебаранд. Вақилони ин ду забоназ сабабимулоқоти доимиашон, таркиби луғавии забонашон бой ва ғани мегардад. Дар масъалаи тадқиқини ду забон ва таъсири байниҳамдигарии онҳо тадқиқотҳои А.К.Боровков, В.С.Расторгуева, Ҳ.Ғуломов, М.Мирзаев, Н.Шаропов, К.Юсупов, Э.Шодиев, Д.Ишондадаев барин олимони мисол овардан мувофиқи мақсад аст. Аммо робитаи ин ду забон то ҳол пурра тадқиқнағаштааст. Хусусан, шеваҳои вилоти Самарқанд ба таври қисмӣ омӯхта нашудааст.

Ҳаминро бояд гуфт, ки ҳар як забони адабӣ, аз шеваҳои маншаъ мегирад ва аз сабаби дохил шудани калимаҳои вомӣ ғани мегардад. Дар ин хусус олимони забоншинос, Р.Л.Неменова ва Ғ.Ҷўраев, чунин зикр намудаанд: “Калимаҳои туркие, ки қариб дар ҳамаи шеваҳои тоҷикӣ дучор меояд, яъне умумҳалқанд. Онҳо ҳатто дар байни шеваҳои ҷанубӣ ҳамумумӣ ҳисоб меёбанд: ойлик, оқсақол, чаток, қавик (қавок), қош, қъдък (қудук), қътан (қўтан), қърут (қурут)...” [2, 284].

Ба забони ўзбекӣ дохилшудани калима ва ибораҳои форс-тоҷикӣ (*сартароихона*, *сарбон*, *саросима*, *рӯёб ҳамсоя*, *дарди сар ва ғ.*) ва ё дар забони тоҷикӣ истифода бурдани калима ва истилоҳоти ўзбекӣ, (*қизик*, *қалин*, *совчи*, *ва ғ.*) барои ғани шудани таркиби луғавии ҳар ду забон хизмат мекунад.

Мо дар ин мақолаи худ, асосан дар нутқи гуфтугӯии мардуми тоҷикзабонивилоти Самарқандто кадом андоза истифода бурдашудани калимаҳои ўзбекиро таҳлил намудем.

Албатта, дар шеваҳои тоҷиконивилоти Самарқандтаъсири забони ўзбекӣ як хел нест. Дар гуруҳи шеваи шимолӣ, калима ва истилоҳоти ўзбекӣ бисёртар истифода бурда мешавад. Мо лексикаи ҳудуди мазкурро ба чунин гуруҳҳо ҷудо намуда омӯхташро мувофиқ донистем:

1. Калимаҳо оид ба номи шахс: *Ортиқ*, (*Писари тоғома номи Ортиқ аст*), *Улмас* (*Худораҳмати онем Улмасҷон ғўсфанд пой мегуфтанд*), *Ҳайитбой* (*Пагоҳ Ҳайитбой ҳақ метияд*), *Ойгул* (*Ойгул ойти кай хонимо мебид*), *Ойдин* (*Духтаир талбонба Ойдин апая гуфтим?*), *Улуғбек* (*Улуғбекҷон бачем гапи бобота нагардон*), *Отабек* (*Номи аки калоним Отабек*) ва ғ.

3. Калимаҳо оид ба ҷисми инсон: *билак* (*Билакаш гавс будас*), *юрак* (*Ин бача-я юракаш набудас*), *кўкрак/курак* (*Куракашба зада манам ҳаминча ҳастам гуфт*), *ўпка* (*Ҳой бача ўпкита зер кун*), *қош* (*Қошаш сие будас*), *турк* (*Туркаш хунук будас*) ва ғ.

4. Калимаҳои хоси хулқу атвори инсон: *бетутуруқ* (*Ин баччи бетутуруқ будас*), *даюс* (*Даяос, вай одам ҳамин хел кор кард-ми?*), *эзма* (*Инқадар эзма нашав*), *бузмакор* (*Ҷўрем бузмакорибаяқумчо*), *анқайи* (*Мудом анқайи карда меистад*), *тўполончи* (*Духтарчимо ганда тўполончи буд*), *қўрқоқ* (*Ҳамун бача ганда қўрқоқ-дия*) ва ғ.

5. Калимаҳо оиди бемориҳо: *қорасон* (*Молойи қорасон шудаги-я кушта месўзондему хокистараша ғўр мекадем*), *иситма* (*Диловар оби хунук хўрда иситма кадас*), *туғма* (*Касалии ин туғма*)

а зойидашудаги хаминхел), сариккасал (А тарса Алишер сариккасал шуда буд), оққон (Худо нишон натияду касалии оққонба даво нест) ва ғ.

6. Калимаҳои ғибақундаи ҳаракат ва ҳолат: ўсидан (Мул пейхизе кардаги одам намеўсад), қоти (Одам як қобақотикарда намеистад), сўли (Гулба об нарезисўли мукунад), осили (Ҳозира духтароба эҳтиёт шудан даркор, набошад гарданатба осиликарда мегирад), черти (Ҳозир хоҳед агар зўраша черти карда мегиред), келиши (А чанғол фойда нест, келишикардан даркор), хайрлаши (Ваё пешаз рафтаниш хайрлаши карда рафт), шоши (Корои калонба шошикардан даркор не) ва ғ.

Хуллас, асрҳо боз ба як манзил зистани вакилони тоҷику ўзбек, то кунун хешигарӣ, ҳамсоғарӣ ва дўстигарӣ барин муносибатҳоро даво додани онҳо яке аз сабаби асосӣ ба шумор меравад. Дар забони вакилони тоҷикзабонони вилояти Самарқанд лексикаи ўзбекӣ асосан исм (*кетмон, теша, қошиқ, қаймоқ, қайроқ, келин*), сифат (*суоқ, бузуқ, силлиқ, егри, ҳуркак, шилқим*), шумора (*бир, икки, уч, юз*) феъл (*суя қадан, танла қадан, чўнати қадан, хайрлаши қадан*), хамин тавраз чиҳати морфологӣ ҳам аҳамиятнок аст. Лексикаи ўзбекӣ дар ҳар мавзёи ҳудуд ҳар хел истифода бурда мешавад. Хусусан дар шеваҳои тоҷикони вилояти Самарқанд нисбати дигар шеваҳои тоҷикон, лексикаи хешу табор (*надарус, модарус, додарус, хоҳарус ва ғ.*) ба тавре адабӣ истифода бурда мешавад.

Хулоса карда гўем, мардуми тоҷик ва ўзбекду шоҳи як дарахт ба ҳисоб меравад. Аз хамин сабаб вакилони ҳар ду ин забон дар рафти сўхбат, калимаи якдигарро ба тавре омехта истифода мебаранд. Аз хамин сабаб лексикаи киёсии ин ду забонро омўхтан яке аз масалаи муҳими илми забоншиносии аст.

Адабиётҳо:

1. Воҳидов А. Фарҳангшиносии тоҷику форс. – Самарқанд, 2006.с
2. Неменова Р.Л., Чўраев Ғ. Шеваи чанубии забони тоҷикӣ. (Ҷилди 1), Нашриёти “Дониш”, – Душанбе, 1980.с
3. Гулямов Х. Узбекско-таджикский языковые связи. «Фан», – Тошкент, 1983.г
4. Маводи чамъовардашуда (дар асоси шеваҳои вилояти Самарқанд), 2010-2015.с

Н.М.Усманова (СамГАСИ)

ЗНАЧЕНИЕ РУССКОГО ЯЗЫКА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ НА УРОВНЕ В НЕЯЗЫКОВЫХ ВУЗАХ

Принятие Закона о государственном языке Узбекистана, в котором говорится об обеспечении в вузах республики обучения на государственном языке, в значительной степени повлияло на процесс обучения студентов другим языкам, в том числе и русскому.

С переходом на чтение лекций по специальности на узбекском языке интерес к русскому языку как к языку специальности резко снизился. Это не может не вызвать тревогу по поводу дальнейших перспектив развития науки в республике, ибо как свидетельствует статистика, около 80% мировой научной информации можно получить в основном на русском языке.

Анализ создавшегося положения показал необходимость изменения стратегии, тактики и методики обучения языкам, опоры на мотивационные аспекты обучения. Студенты и преподаватели осознают роль русского языка как языка науки, как средства приобщения к мировой культуре, как средства установления экономических связей с другими суверенными государствами. Признаётся большая роль русского языка для освоения будущей специальности. Высокая мотивация к его изучению объясняется выходом Узбекистана на международную арену, установлением прямых культурных и экономических связей со многими странами. Наряду с этим отмечалось некоторое снижение интереса к изучению немецкого, французского и русского языков в вузе, что должно стать причиной принятия действенных мер по улучшению изучения этих языков. Необходимо принять меры по развитию устойчивого интереса студентов неязыковых вузов к изучению русского языка, а для этого – усилению работы над текстами по специальности. Необходимо усилить внимание обучению студентов официально-деловой речи, обучению их как устному деловому общению, так и делопроизводству: ведению основам маркетинга и менеджмента.

В настоящее время выдвинуто требование гуманитаризации образования, признано, что даже для будущих представителей технических специальностей необходимы знания по общечеловеческой культуре, этике, литературе и искусству. Преподавателем языков следует разработать концепцию гуманитаризации образования применительно к условиям нашей республики.

Надо отметить, что добиться успеха можно лишь в том случае, если будут созданы учебники и учебные пособия нового поколения, которые должны быть рассчитаны по разное количество часов, в зависимости от цели обучения, и на формирование конкретных речевых навыков на тематически актуальном материале. Наряду с обновлением материала обучения следует изменить и методику

обучения, шире использовать игровые задания, практиковать разучивание популярных песен, проведение конкурсов и т.п.

Имея общей целью гуманитаризацию образования, поднятие качества обучения до мирового уровня, особое внимание необходимо уделить и профессионализму преподавателей, методической обеспеченности занятий. При выполнении этих условий, каждый язык займёт в учебном процессе подобающее ему место. Один из методов обучения-обучение на уровне. Это выдвигает развитие речевых умений, то есть способствует практической направленности обучения.

Так, как наши студенты приезжают из разных уголков нашей страны, я изучаю слабые и сильные стороны своих студентов и делю группу на три микро группы.

- 1) студенты, готовые выполнить самостоятельную работу без помощи учителя.
- 2) студенты, частично нуждающиеся в помощи учителя.
- 3) студенты, требующие детальной помощи учителя.

Помощь со стороны учителя в таких случаях может быть различной:

- 1) сокращение объёма заданий
- 2) упрощение задания
- 3) изменение приёма объяснения, способа выполнения заданий
- 4) индивидуализация заданий для каждого студента.

Специальные тренировочные упражнения задания готовятся с учетом умственных способностей и уровня знаний студентов каждой из микро групп.

Студенту даётся разработанный учителем комплекс заданий (чтение небольших текстов, постановка вопросов к предложениям текста, составление предложений с данными словами и словосочетаниями и т.п.), который поможет выявить уровень его знаний, умений и навыков.

Подобные задания готовятся для самостоятельной работы студентов. С каждым уроком они усложняются, что помогает приблизить уровень речевой подготовки слабых к средним, средних к сильным. Соответственно учитель ведёт учёт развития речевых и умственных навыков каждого студента и отмечает каждый их успех. Такие задания используются и на уроках контроля знаний студентов. Проверка знаний по специально подготовленным для каждой группы контрольным упражнениям даёт возможность сделать выводы о темпе развития речи студентов.

Например, после изучения темы “СПП с обстоятельственными придаточными” предлагаются следующие задания.

Для 1-й группы:

Закончите предложения. Переведите на узбекский язык.

1. Я так крепко спал, ...
2. Дежурный так плотно прикрыл окно, ...
3. Меня так увлекла эта книга, ...
4. Пишите так, ...
5. Он так странно вёл себя...
6. Работай так...
7. Солнце светило так ярко, ...
8. Я стремился говорить так, ...

Для 2-й группы:

Вместо точек вставьте слова из скобок.

Задайте вопросы к выделенным словам.

Для 3-й группы:

Ответьте на вопросы, используя слова и словосочетания для справок.

1. Кто такой Юрий Гагарин?
2. Кто такая Валентина Терешкова?
3. Что такое Земля?
4. Что такое квадрат?
5. Что такое гербарий?
6. Кто такой Александр Степанович Попов?
7. Кто такой Улугбек?
8. Что строится в Узбекистане?
9. Что защищает поверхность Земли от охлаждения и ударов метеоритов?

Слова для справок: атмосфера, первый космонавт, изобретатель радио, водохранилище и искусственный моря, первая женщина-космонавт, планета, геометрическая фигура, коллекция из растений, великий ученый. Обучение на уровне даёт возможность учителю целенаправленно развивать знания, умения и навыки студентов.

Литература:

1. Пособие по развитию русской речи (Э.И.Николаева А.М.Невзорова С.М.Ляшук). Ташкент, “Укутувчи”, 1992 г.
2. Павлова Л.Г. Русский язык. Учебное пособие для вузов Ростов н/Д. 2004 г.

М.Кўчибоев(СамДАҚИ)

ГРАММАТИК МАТЕРИАЛНИ МУСТАҲКАМЛАШДА КОММУНИКАТИВ ТОПШИРИҚЛАР

Ҳозирги замон чет тиллар ўқитиш методикасида тил аспекти бўйича ташкил қилинадиган барча машғулотларда тил материални коммуникатив топшириқлар асосида мулоқот даражасида ўзлаштириш асосий мақсад қилиб белгиланган. Коммуникатив топшириқ бу ўрганилган лексик материал асосида ташкил қилинадиган, талабаларнинг гапириш эҳтиёжларига ва коммуникатив вазиятларга мос келадиган савол ва жавобдан иборат кичик микродиалогдир. Микродиалог, одатда грамматик материални ўз ичига олган нутқ мавзуси асосида бир машғулот учун таълим босқичларига кўра 6 тадан 10 тагача А(савол берувчи талаба) ва Б (жавоб берувчи талаба) карточкаларга ёзиб тузилади (Кўчибоев А. 2014:38)

Ушбу мақоламизда грамматик материал бўйича тузиладиган коммуникатив топшириқлар, уларни бажариш усуллари ҳақида ўз фикрларимизни билдирмоқчимиз.

Коммуникатив топшириқларни бажартириш грамматик коидани тушунтирмасдан олдин ёки тушунтиргандан сўнг амалга оширилади. Ҳар иккала ҳолда ҳам бажариладиган коммуникатив топшириқларнинг оғзаки бажарилишига, кўп марталик такрор асосида ўзлаштириб олинишига асосий эътибор берилди. Ўқитувчи ҳар бир коммуникатив топшириқни жуфт бўлиб ишлашга топшириқдан олдин топшириқдаги кўрсатмаларни қандай бажариш йўллари, жумла талаффузини батафсил тушунтиради ва шундан сўнг талабаларга А, Б карточкаларини тарқатиб, ундаги топшириқни камида 30 марта такрорлаб ўзлаштириш учун муайян вақт белгилайди(масалан, уч дақиқа). Масалан, амалий грамматика машғулотида феълларнинг келаси замонда тусланиши мавзуси кўзда тутилган бўлса, коммуникатив топшириқлар масалан, «Менинг дам олиш куним» нутқ мавзуси бўйича қуйидаги тартибда тузилади:

1.Аввал ўрганилган лексик материални эслаб, саволга жавоб беришга асосланган биринчи коммуникатив топшириқ.

А талабанинг карточкаси: Топшириқни ўқи, ва тўғри жавобга қараб шеригингни текшир:

-Sobir,wie mochtest du deinen Ruhetag verbringen?

Тўғри жавоб: -Ich werde am Ruhetag nach Dorf fahren.

Б ўқувчининг карточкаси: Топшириқни диққат билан тинглаб, гап тузилишини бузмасдан дам олиш кунини қишлоққа бормоқчилигингни айт.

2.Ташлаб кетилган сўзлар ўрнига берилган сўзлардан бирини қуйиб жавоб беришга асосланган иккинчи коммуникатив топшириқ .

А.талабанинг карточкаси. Саволни ўқи ва тўғри жавобга қараб ўртоғингни текшир.

Mit wem wirst du nach Dorf fahren?

Тўғри жавоб: Dahin wir werden mit meinen Eltern fahren.

Б талабанинг карточкаси: Саволни диққат билан эшит ва берилган сўзлардан бирини танлаб, саволга жавоб бер.

A- der Fluss, B-das Haus, C-das Auto, D-die Eltern.

3. Саволга инкор формада жавоб беришга асосланган учинчи коммуникатив топшириқ.

А. талабанинг карточкаси:

Саволни ўқи ва тўғри жавобга қараб ўртоғингни текшир:

Wie viel Tage werdet ihr im Dorf bleiben?

Тўғри жавоб: Am Sonntag werden wir zuruckkommen.Weiss du nicht, dass wir am Montag das Studium haben?

Б. талабанинг карточкаси:

Саволни диққат билан эшит ва қишлоқдан яқшанба кунини кучқурин қайтмоқчи эканликларингни ва душанба ўқишга бориш кераклигини билмайсанми, деб сўра.

4.Гап структурасини кенгайтиришга асосланиб жавоб беришга йўналтирилган тўртинчи коммуникатив топшириқ.

А. талабанинг карточкаси: Саволни ўқи ва тўғри жавобга қараб ўртоғингни текшир.

Wie mochtest du im Dorf deinen Ruhetag verbringen?

Тўғри жавоб:-Ich werde mit meinen Freunden im Fluss schwimmen und fischen.Und am Nachmittag helfe ich meinem Grossvater im Garten.Ich werde alles fotografieren was ich sehe,dann werde ich dir zeigen.

Б талабанинг қарточкаси: Саволни диққат билан эшитиб қуйидаги сўзларни тартиб билан қўллаб, жавоб бер:Im Fluss schwimmen,fischen,angeln, am Nachmittag,der Garten,helfen,fotografieren,zeigen.

5.От ўрнини олмош билан алмаштириб жавоб беришга асосланган бешинчи коммуникатив топширик:

А талабанинг қарточкаси:

Саволни ўқи ва тўғри жавобга қараб ўртоғингни текшир:

Wer sind deine Freunde?

Тўғри жавоб: Sie heissen Akmal,Tohir.

Б талабанинг қарточкаси. Setze statt des Wortes «die Freunde»das richtige Pronomen ein und antworte.

6.Гап структураси қисқартириб жавоб беришга асосланган олтинчи коммуникатив топширик:

А талабанинг қарточкаси: Саволни ўқи ва тўғри жавобга қараб ўртоғинг жавобини текшир.

Gibt es in deinem Dorf die Weintraube,der Apfel,der Apfelgranat, die Birne, die Aprikose.

Тўғри жавоб:Dort gibt es alle Arten des Obstes. Ich esse sie gern und das macht mir Spass.

Б.ўқувчининг қарточкаси: Саволни диққат билан эшит ва қишлоқ сўзи ўрнига у ерда, узум,олма, анор, нок, ўрик сўзлари ўрнига мева сўзини ишлатиб, гапни қисқартириб жавоб бер.

Ҳар бир қарточкадаги микродиалог талабалар уларни қарточкага қарамай гапиришни ўрганганларича кўп марталик такрорланади. Ўқитувчи бу пайт жуфтликлараро юриб талаффузда, гапиришда йўл қуйилаётган камчиликларни тўғрилайди ва лозим топса ўқувчиларнинг вазифаларини алмаштириб ишни давом эттиришни уюштиради.

Машғулот якунида талабалар қуйидаги матнни ҳеч нарсага қарамасдан диалог қилиб гапиришни ўрганиб оладилар:

-Sobir,Wie mochtest du deinen Wochenende verbringen?

-Am Ruhetag ich werde nach Dorf fahren.

-Mit wem wirst du nach Dorf fahren?

-Dahin wir werden mit meinen Eltern fahren.

-Wie viel Tage werdet ihr dort bleiben?

-Am Sonntag wir werden zuruckkommen. Weiss du nicht dass wir am Montag das Studium haben?

-Sobir,wie mochtest du deinen Ruhetag verbringen?

-Ich werde mit meinen Freunden im Fluss schwimmen und fischen.Und am Nachmittag helfe ich meinem Grossvater im Garten.Ich werde alles fotografieren was ich sehe,dann werde ich dir zeigen.

-Wer sind deine Freunde?

-Sie heissen Akmal,Tohir.

-Gibt es in deinem Dorf die Weintraube,der Apfel,der Apfelgranat,die Birne,die Aprikose.?

-Dort gibt es alle Arten des Obstes. Ich esse sie gern und das macht mir Spass.

Адабиётлар:

1.Абдуллаева М.А.Коммуникативная методика обучения иноязычной грамматике на начальном этапе языкового факультета. Дисс.на соиск. Уч.ст. к.п.н.-Хужанд, 2004, 189 с.

2.Брайгина М.Е. Вайсбурд М.Л. Использование учебных ситуаций при обучении устной речи. Журнал: «Иностранные языки в школе», 2002, №1.

3.Кучибоев А. Олий ўқув юртларида хорижий тил аспектилари бўйича ўқув машғулотларини технологиялаштириш. Самарканд, 2014,103 б.

С.Э.Эргашева (ТерДУ)

ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВ ҲИКОЯЛАРИНИНГ БАДИИЯТИ

Ш.Холмирзаев адабий жараёнга 60-йилларда кириб келди. Илк асарлари билан А.Қаҳҳор назарига тушди. “Шукур кулса, тишини оқини кўрсатмай кулади, йиғласа кўз ёш тўкмай йиғлайди. Прозачи учун бу ноёб фазилат”, – деб ёзган эди адиб у ҳақда.

Ёзувчи ижод йўли давомида прозанинг турли жанрларида ўнлаб намуналар яратган бўлса–да, ҳикоячиликда эришган ютуқлари алоҳида тадқиқотлар талаб этади.

Жаҳон адабиётидан яхшигина хабардор бўлган ёзувчи А.Қаҳҳордан сўнг бу жанрнинг имкониятларини янади кенгайтирди. Уни жаҳон ҳикоячилиги билан бўйлашадиган даражага олиб чиқди. Адиб ҳикояларини ўқир эканмиз унда сиз ва биз билан елкама–елка яшаётган замондошларни

кўрамыз. Биз уларнинг қалбида яширинган дардлар, сиру синоатларни билиб–билмасдан безътибор ўтиб кетамиз. Ёзувчи синчковлик билан ана шу одамлар қалбидаги буюк дардни топа олган.

Ш. Холмирзаев “Бодом қишда гуллади” китобида қаҳрамонларни тўрт қисмга ажратади. 1. Шаҳар, 2. Қишлоқ, 3. Тоғ, 4. Дашт одамлари.

“Нимадир йўқ бўлди” ҳикосидаги Қисматулла ва Ҳикматой, “Олам тортилиш қонуни” даги Хусан ака, “Кимсасиз ҳовли” даги Умар ака образларида шаҳар одамларининг ўзига хос хусусиятлари ўз ифодасини топган. Айниқса, “Устоз” ҳикояси китобхонни бефарқ қолдирмайди. Ҳикоя қаҳрамони “заманабоп адабий маҳсулот етиштириб берадиган, шу боис ҳаммиша пичоғи мос устида ўйнайдиган адабий касиб.” (Қ.Йўлдошев. Ёниқ сўз. Т. Янги аср авлоди. 2006. 351–бет.) Ёзувчининг маҳорати шундаги, устоз характери унинг хатти – ҳаракатлари, нутқи орқали очади. Устозда одам учун керакли ҳамма нарсалар бор: машина, дача, китоблари чиқиб турибди. Ҳамма унвонларни олиб бўлган. Бироқ ундаги ҳар бир нарсага шубҳа билан қараш туйғуси, ҳадиксираш, мутелик психологияси – талантли шогирдни бу оламдан эрта кетишига сабаб бўлади. Шогирдига ёрдам берган киши бўлиб, аслида унинг илдизига болта уради. Шогирднинг ўлимидан сўнг қайғурган киши бўлиб айбни одамларга тўнкайди. Аслида эса бу билан танқидчи ўринли писанда қилганидай йўқ виждонига таскин бермоқчи бўлади.

Ш.Холмирзаев қишлоқ одамлари ҳаётини яхши билар эди. “Ҳаёт абадий”даги Нодир Рўзикулов, “Оғир тош кўча” даги Эсонбой, “От эгаси”даги Инод, “Қадимда бўлган экан”даги Ўсар образларида қишлоқ одамлари характеридаги мардлик, тангилик, ориятлилик каби фазилатлар улуғланади. “Хумор” ҳикоясининг қаҳрамони “... дори менинг таржимаи ҳолимга сингиб кетган ахир! Тушунасизми? Менинг бутун қувончларим, завқларим, ҳаётимнинг маъноси, Ватан олдидаги бурч, илк муҳаббатим ҳам... ўша билан боғлиқ. Усиз ўтмишим йўқ...”. Ўсмирлигидан бутифос ҳидига хумор бўлган йигит бутун умр тузалмайдиган дардга йўлиқади. Энг муҳими, у ўз фожиасини англамайди. Ўзи бадбашара киёфага эга бўлса–да, бепуштлиқ хасталигига дучор бўлади. Ёзувчи қаҳрамонини муқаррар ўлимга бораётганини билади. Аммо бу ҳаёт абсурддан иборат эканлигини англаш даражасида бўлмаган ҳикоя қаҳрамони ўзини фожага олиб бораётган йўлни тўғри йўл деб тушунади. Ҳикоя 1987 йилда ёзилган. Давр нуқтаи назаридан таҳлил қилинадиган бўлсак ёзувчи ниҳоятда катта жасорат билан тоталитар тузум вужудга келтирган носоғлом муҳитни танқид остига олган.

Ҳикояда куз тасвирига алоҳида урғу берилган. Қаҳрамон ҳам кузни яхши кўради, кузда пахта терими бошланади, дорилар сероб. Хоҳлаганча хумордан чиқиш мумкин. Бундан ташқари адиб куз тасвирида миллатни муқаррар ҳалокатга олиб борадиган иллатларга ишора қилган.

“Қадимда бўлган экан”, – ҳикоясида ёзувчи қадимги ривоятдан фойдаланган. Хотинига аччиқ қилиб бир умр хизматида бўлган момосини қаригандан сўнг адаштириб келмоқчи бўлган Ўсар момоси айтган қадимги ривоятни эслайди. Ўз ишидан қаттиқ пушаймон бўлади. Ҳикояда китобхонни ҳаётини ҳақиқатлар билан таништирадиган жуда кўп тасвирлар бор, зийрак ўқувчи буни дарҳол англайди. Момонинг изтиробли ҳаёт йўли, Ўсарнинг ҳаёт қийинчиликлари дош беролмасдан аламини хотинидан олиши, Ҳожарнинг эр калтагидан касалманд бўлиб қолганлиги китобхонда миллат тарихининг маълум бир саҳифаларини англатади. Умуман олганда, ҳикояда инсон кадр–қиммати, ўзбекона ғурур, андиша туйғулари юксак мақомга эга эканлиги тасвирлаб берилган.

Шукур Холмирзаев Сурхон фарзанди эди. Мунаққид У. Норматов эътироф этганидек у “... туғилиб ўсган она юртини ниҳоятда яхши кўрар, у билан фахрланар, нукул ўша томонга талпинар, бугина эмас устозларига, қаламқаш дўстларига уни кўрсатгиси, кўз–кўз қилгиси келар эди”. Адибнинг тоғлиқлар ҳаётидан олиб ёзилган “Олис юлдузлар остида”, “Бойчечак очилди”, “Жарга учган одам”, “Зов остида адашув”, “Омон овчининг ўлими”, “Банди бургут” ҳикояларида жўмард тоғлиқлар ҳаёти ифода этилган.

“Бойчечак очилди” ҳикоясида Кўнғирот домла шаҳар ҳаётидан кўнгли сиқилиб тоғ қишлоғига боради. Қишнинг нафаси қайтиб, баҳор нишонлари–бойчечаклар очилаётган пайт. Кўнғирот домла табиатдан баҳра олиб, куч олиб яна сеvimли машғулоты–ижодига қайтади.

Ш. Холмирзаев бутун ижод йўли давомида инсон ва табиат орасидан уйғунлик излади.

Табиатга хиёнат қилиб бўлмаслигини, табиат хиёнатни кечирмаслигини “Жарга учган одам”, “Омон овчининг ўлими” ҳикояларида ифодалаб берган.

“Жарга учган одам” ҳикоясида она айқни отган режиссёрни ўзи билмаган ҳолда жардан кулатиб юборган Исломга китобхон қандай ҳукм чиқаради. Режиссёрга–чи?

“Омон овчининг ўлими” ҳикоясида бундан–да фожиали манзара тасвирланган. Ёзувчи ҳикоя бошида Омон овчига муносабатини билдиради. У ўзи ҳам ўлиши мумкинлигини ўйлабмасди. “У ўлдиришни ... хайвонларни, паррандаларни, хуллас, Олатовда ов қилишга арзирли ўлжа борки, у қўлига милтиқни олиши билан ўзи англамаган ҳолда улардан ниманидир отиш–ўлдиришни ўйларди...”.

Ёзувчи қаҳрамон ҳаётини шунчаки ҳикоя қилмайди, балки уни улғайтирган ижтимоий муҳитни, шароитни ҳам маҳорат билан тасвирлайди. Ёшлигиданок жониворларга шафқатсизлик руҳида тарбия топган Омон қилмишига яраша жазо топди. Ҳа, табиатга нисбатан қилинган ҳар бир ёвузлик жазосиз қолмаслиги Омон овчи тимсолида ҳаққоний тасвир этилган.

Кўпчилик ижодкорларда ижод ва шахсият уйғун келмаслиги мумкин. Аммо Шукур Холмирзаев шахсияти бутун ижодкор эди. Тўғри, унинг кундалик турмуши бир маромда силлик кечмаган бўлиши мумкин. Аммо у турмушнинг майда икир-чикирларидан баландда турадиган ижодкор эди. Ёзувчининг “Танҳолик” ҳикояси бежиз ёзилмаган. У ЛевТолстойни яхши кўрарди. Ўзи ҳам Толстойга ўхшаб кўпроқ ёлғизликни ёқтирарди. Шу жиҳатдан, мен уни “Ўзбекнинг Толстойи” дегим келади.

Ш. Холмирзаев ўзбек адабиётида эссе жанрининг тараққиётига салмоқли ҳисса қўшди. Она тарихимиз ҳақида “Қадимги Бактрия тупроғида” Шукур Бурхонов ҳақида “Тақдир башорати”, тенгдош ижодкорлари тўғрисида “Йиллар айро тушди, аммо”, “Бинафша ҳидланг амаки”, устозлари ҳақида “Абдулла Қаҳҳорни эслаб”, “Ай, Шухрат акам-а”, “Одил ака ҳақида ўйласам”, “Бу кишим устоз-мен-шогирд” эсселарини яратиб, бу жанрнинг имкониятларини кенгайтди. Шу билан бирга адабий ҳаётимизнинг ярим асрлик панорамасини ёритиб берди.

Шукур Холмирзаев адабиётимизда кам учрайдиган алоҳида феномен. Унинг ижодини қанчалик ўргансак адабиётшунослик шунча катта фойда кўради деб ўйлайман.

Адабиётлар:

1. Шукур Холмирзаев. Сайланма. 2-жилд. Тошкент-2010.
2. Шукур Холмирзаев. Сайланма. 3-жилд. Тошкент-2010.
3. Қ. Йўлдошев. Ёниқ сўз. Т. Янги аср авлоди. 2006. 351-бет.

F.Xamrakulova (SamDChTI)

THE DEFINITIONS OF “PROVERB” IN DIFFERENT COUNTRIES

It is difficult to give one definition to the word “proverb”. A seminal proverb scholar Archer Taylor quotes that: “The definition of a proverb is too difficult to repay the undertaking... An incommunicable quality tells us this sentence is proverbial and that one is not. Hence no definition will enable us to identify positively a sentence as proverbial”⁶². Another common definition is from Lord John Russell (c. 1850) “A proverb is the wit of one, and the wisdom of many”.

More constructively, German professor Miederhas proposed the following definition, “A proverb is a short, generally known sentence of the folk which contains wisdom, truth, morals, and traditional views in a metaphorical, fixed, and memorable form and which is handed down from generation to generation”⁶³.

Norrick⁶⁴ created a table of distinctive features to distinguish proverbs from idioms, clichés, etc. Prahlad distinguishes proverbs from some other, closely related types of sayings, “True proverbs must further be distinguished from other types of proverbial speech, e.g. proverbial phrases, Wellerisms, maxims, quotations, and proverbial comparisons”⁶⁵.

Based on Persian proverbs, Zolfaghari and Ameri propose the following definition: “A proverb is a short sentence, which is well-known and at times rhythmic, including advice, sage themes and ethnic experiences, comprising simile, metaphor or irony which is well-known among people for its fluent wording, clarity of expression, simplicity, expansiveness and generality and is used either with or without change”⁶⁶.

The Uzbek proverb scholar T.Mirzayev proposes that, “A proverb which is appeared as a peculiar event of linguistics, philosophy and creative works, but is a wide expressively genre. Each of them with an astonishing power, show the smoothness of our language, the refinement of the speech, perceptivity and the logic of our thoughts. And this drop of creature is as the picture of our nation’s long years living experiments and the mode of life”⁶⁷.

In other languages and cultures, the definition of “proverb” also differs from English. In the Chumburung language of Ghana, “*anjase* are literal proverb and *akpare* are metaphoric ones”.

⁶²Archer Taylor. 1931. The Proverb. Cambridge, MA: Harvard University Press.

⁶³Wolfgang Mieder. 1993. General thoughts on the nature of the proverb. Oxford University Press.

⁶⁴Neil Norrick. 1985. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. Amsterdam. Mouton.

⁶⁵Sw. AnandPrahlad. 1996. African-American Proverbs in Context. Jackson: University Press of Missisipi.

⁶⁶Hassan Zolfaghari and Hayat Ameri. «Persian Proverbs. Definitions and Characteristics”. Journal of Islamic and Human Advanced Research. 2(2012) 93-108.

⁶⁷T.Mirzayev. O‘zbekxalqmaqollari. T., “Sharq” nashriyoti. 2005.

Among the Bini of Nigeria, there are three words that are used to translate "proverb": *ere*, *ivbe*, and *itan*. The first relates to historical events, the second relates to current events, and the third was "linguistic ornamentation in formal discourse".

Among the Balochi of Pakistan and Afghanistan, there is a word *batal* for ordinary proverbs and *bassittuks* for "proverbs with background stories".

There are many sayings in English that are commonly referred to as "proverbs", such as weather sayings. Alan Dundes, however, rejects including such sayings among truly proverbs: "Are weather proverbs proverbs? I would say emphatically 'No!'"⁶⁸ The definition of "proverb" has also changed over the years. For example, the following was labeled "A Yorkshire proverb" in 1883, but would not be categorized as a proverb by most today, "as throng as Throp's wife when she hanged herself with a dish-cloth"⁶⁹. The changing of the definition of "proverb" is also noted in Turkish⁷⁰.

All of this makes it difficult to come up with a definition of "proverb" that is universally applicable, which brings us back to Taylor's observation, "An incommunicable quality tells us this sentence is proverbial and that one is not."

Adabiyotlar:

1. Archer Taylor. 1931. *The Proverb*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
2. Wolfgang Mieder. 1993. *General thoughts on the nature of the proverb*. Oxford University Press.
3. Neil Norrick. 1985. *How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs*. Amsterdam. Mouton.
4. Sw. AnandPrahla. 1996. *African-American Proverbs in Context*. Jackson: University Press of Missisipi.
5. HassanZolfaghari and Hayat Ameri. «Persian Proverbs. Definitions and Characteristics». *Journal of Islamic and Human Advanced Research*. 2(2012) 93-108.
6. T. Mirzayev. O'zbekxalqmaqollari. T., "Sharq" nashriyoti. 2005.
7. Alan Dundes. 1984. *Proverbium*. Knoxville: University of Tennessee Press.
8. A Yorkshire proverb. 1883. *The Academy*. July 14. No. 584. P.30
9. EzgiUlusoyAranyosi. 2010. *MilliFolklor. International and Quarterly Journal of Cultural Studies*.

М.А.Кўчибоев (СамДАҚИ)

ЎЗМА НУТҚҚА ЎРГАТИШНИНГ КОМПЬЮТЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Хорижий тиллар ўқитишда ёзишга, фикрни ёзма баён қилишга ўргатиш ўрганилган нутқ мавзуси бўйича мулоқотни ўргатишнинг охирги босқичи бўлиб талабаларда талаффуз, лексик, грамматик, гапириш, тинглаб ва ўқиб тушуниш кўникмалари шакллантирилгандан кейин алоҳида машғулот сифатида ташкил қилинади. Шу нуктаи назардан анъанавий ўқитиш методикасида амал қилинаётган дарсликда берилган ёзма машқлар бажариш амалиёти мулоқотни ўргатиш нуктаи назардан ўзини оқламаётганлигини таъкидлаш жоиз. Натижада мулоқотни ўргатишга йўналтирилмаган ҳар қандай машғулотда талабалар мавзуни нафақат оғзаки нутқ даражасида, балки ёзма нутқ даражасида ҳам ўзлаштира олмайдилар. Бинобарин, алоҳида ташкил қилинадиган фикрни ёзма баён қилишга ўргатиш машғулотларининг асосий мақсади талабаларда ўрганилган нутқ мавзуси бўйича ёзма нутқ кўникма ва малакаларини шакллантириш эканлигини унутмаслигимиз керак. Компьютер ёрдамида ташкил қилинадиган бундай машғулотда олдинги машғулотлар жараёнида шакллантирилган барча кўникма ва малакалар янада мустақамланади ва фикрни ёзма баён қилишга ўргатиш оғзаки нутқ даражасида ўзлаштирилади.

Қуйида ўрганилган мавзу бўйича фикрни ёзма баён қилишга ўргатишнинг компьютер технологиялари ҳақида фикр юритамиз. Бунинг учун ўқитувчи қуйидаги методик ишларни бажариши лозим:

Дастлаб компьютерга ўзлаштирилган нутқ мавзуси бўйича тузилган жумлани эшитилишини ва муайян муддатдан кейин ўчирилишини, эшитилган жумлани ёзиш учун муайян вақтни белгилайдиган паузани, жумла тўғри ёки нотўғри ёзилганлигини дисплейда кўрсатишни (жумла ёзувида хатоларга йўл қўйилган бўлса, уларни қизил ранг билан белгилашни, бундай машқ иш бир неча бор бажарилиши таъминлашни, жумла тўғри ёзилса, навбатдаги жумла эшиттирилишини таъминлайдиган дастур ишлаб чиқилади. Компьютердан эшиттириладиган мавзу бўйича тузилган жумлалар миқдори бир машғулот

⁶⁸Alan Dundes. 1984. *Proverbium*. Knoxville: University of Tennessee Press.

⁶⁹A Yorkshire proverb. 1883. *The Academy*. July 14. No. 584. P.30

⁷⁰EzgiUlusoyAranyosi. 2010. *MilliFolklor. International and Quarterly Journal of Cultural Studies*.

учун 6-10 гапдан иборат бўлиши мумкин. Экрандан кўринган ҳар бир жумла бўйича талаба куйидаги ишларни амалга оширади:

1. Компьютер динамикасидан эшитилган жумлани дисплейда тўғри ёзиш машини. Жумла эшитилгач, муайян вақт жараёнида талаба уни дисплейда ёзишга уринади. Ёзиб бўлгач, белгиланган клавиатурани босади ва ёзувда йўл қўйилган хатолар қизил рангли ёзувда пайдо бўлади, бу ишни қайтадан бошлашликни билдиради ва бу жараён талаба жумлани хатосиз ёзишга ўргангунча давом эттирилади. Агар талаба жумлани хатосиз ёзишга эришса, динамикдан янги жумла эшитилади ва иш юқоридагидек тартибда давом эттирилади. Мақсад, ўрганилган материал бўйича эшитилган жумлаларни хатосиз ёзишга ўргатишдир. Бундай машқларни барча талабалар иштирокида ўқув машғулотида ёки мустақил иш сифатида дарсдан ташқари пайтларда лингофон хонасида индивидуал уюштириш мумкин.

2. Слайдларга қараб мавзунини ёзма баён қилиш машини. Компьютерга мавзу бўйича тузилган слайдлар муайян вақт жараёнида намоёни қилинадиган қилиб дастурланади. Бунда талабалар ҳар бир слайдни кўриб, унинг мазмунини слайд остидаги бўш жойга ёзишлари кўзда тутилади. Масалан, «Йил фасллари», «Менинг оилам», «Менинг иш куним», «Менинг дам олиш куним» ва ҳоказо нутқ мавзулари бўйича олинган фотосуратларни компьютерга киргазиб, ёзма нутққа ўргатишнинг кўргазмалари вариантлари яратиш мумкин. Хатоларни тузатиш юқоридаги тартибда дастурланади ва бундай машқни хатосиз ёзишгача эришгунча бир неча бора такрорлаб бажариш мумкин. Бундай машғулотларни ҳам дарс жараёнида ёки дарсдан ташқари вақтларда компьютер синифида амалга ошириш мумкин. Эришилган дастлабки натижалар, улардаги хато ва камчиликлар коллектив равишда «Чархпалак» усулида барча талабалар иштирокида текширилиши мумкин. Бунда ҳар бир талаба бошқа талабанинг ишини текшириши, ёки гуруҳ бўлиб бажарилган ишни бошқа гуруҳлар томонидан текширилишини уюштириш мумкин. Бундай ишнинг моҳияти шундаки талабалар бошқа гуруҳлар иши билан танишиш жараёнида ўзлари йўл қўйган хато ва камчиликларни ҳам англаб етадилар. Бунинг учун талабалар бир неча (талабалар сони нечта бўлса, шунча) тўрт кишилик гуруҳларга бўлинган ҳолда ўзаро жой алмашиб текширилади. Текшириш жараёнида талабаларга китоблардан, луғатлардан фойдаланиш имконияти берилди. Бунда экрандан кўринган хатолар тўғрилинадиган, балки остига чизиб қўйилиши, ёки қизил ранга ўтказилиши таъкидланади. Ҳар бир талаба «Чархпалак» усулида ўз жойига қайтиб ўтиргач, ўзи йўл қўйган лексик, грамматик хатоларини кўради ва уларни тўғрилашга киришади.

3. Нутқ мавзуси бўйича тузилган саволларга компьютер дисплейда жавоб ёзиш машини. Бундай машқ барча талабалар бир хил саволларга жавоб ёзиши, ёки вариантли саволларга жавоб ёзиши орқали ташкил қилиниши мумкин. Жавоблар яна «Чархпалак» усулида гуруҳлар аро текширилади ва белгиланган хатолар устида ишлаш ташкил қилинади.

4. Компьютер дисплейда матндаги нуқталар ўрнини қолдириб кетилган сўзлар(отларни, сифатларни, феълларни, предлогларни) ўрнини тўлдириб ёзиш машини. Бунда ҳар бир жумладаги нуқталардан кейин бир ёки бир неча вариантдаги сўзларни ёзилиб, талабалар гап мазмунига кўра улардан бирини танлаб, қолдириб кетилган сўз ўрнини тўлдирилишини ташкил қилиш мумкин. Хатолар «Чархпалак» усулида текширилади ва тўғриланади.

5. Ўрни, мантиқий тартиби алмаштирилиб қўйилган матндаги жумлаларни мантиқий тартибда жойлаштириш машини. Бунда тўғрилиниши лозим бўлган умумий матн бир неча бўлақларга(абзацларга) бўлинган ҳолда жумлаларнинг мантиқий тартиби ўзгартирилиб компьютерга киритилади ва уни мантиқий тартибда жойлаштириш гуруҳ бўлиб ишлаш орқали бажарилади. Масалан, «Йил фасллари» мавзуси тўрт фасл асосида тўрта қисмга бўлинади ва тўртта гуруҳга биттадан берилди. Ўринлари алмаштирилиб қўйилган жумлалар матнини гуруҳ аъзолари ўзаро маслаҳатлашиб тўғрилайдилар. Бунда матндаги жумлаларни рақамлаш орқали тўғри тартибини белгилаш тушунтирилади. Натижалар «Чархпалак» усулида текширилади ва тўғриланади.

Юқоридаги усуллар янада такомиллаштирилиши ва кўпайтирилиши мумкин. Аммо асосий мақсад ўзлаштирилган лексик-грамматик материални ёзма нутқда тўғри қўллашни ўргатиш эканлигини унутмаслигимиз керак. Машғулотларнинг ижодий ва ўйин характерда эканлиги эришилган натижаларни узоқ вақт хотирада қолишини, нутқ мавзуси бўйича фикрни ёзма баён қилиш куникма ва малакаларини янада мустаҳкамлайди.

Адабиётлар:

1. Голиш Л.В. Фаол ўқитиш усуллари: мазмун, танлаш ва амалга ошириш. Экспресс қўлланма. –Т.: ТАСИС, 2001, 68 б.
2. Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. –М.: Русский язык, 1989, 273 с.

3. Кўчибоев А.Олий ўқув юртларида хорижий тил аспектлари бўйича ўқув машғулотларини технологиялаштириш. – Самарқанд:СамДЧТИ, 2014,103 б.

X.I.Fayzullayev,Sh.Q.Xolmanova (SamDCHTI) CHET TILLARI KADRLARINI TAYYORLASHNING JAMIYAT RIVOJIDAGI AHAMIYATI

Bugungi kun mutaxassislarini chet tillari bilimlarisiz tasavvur qilish qiyin hamda yuqori kasbiy malakaning asosiy talablaridan biri ham chet tillarini mukammal bilish bo'lib qoldi. Har doim ham xorijiy tillarida erkin so'zlasha oladigan kadrlar boshqalardan ustun bo'lgan.

Har qanday ixtisoslik asosida yotuvchi ko'nikma va malakalar doimo yangilanib va rivojlanib borish tendensiyasiga ega. Bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1875-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 610-sonli Qarorlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha sohalari uchun yetuk kadrlar tayyorlashda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, yurtimizda ko'plab sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan muhim o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chet tillarini o'rganish tizimining samaradorligini oshirish va ushbu tizimga ilg'or texnologiyalarni, xorijiy tajribani joriy etishga alohida e'tibor qaratilishi shular jumlasidandir. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarini o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga yo'naltirilgan tizim yaratildi.

Ta'lim tizimida joriy etilayotgan islohotlarning bosh maqsadi mamlakatimizning porloq kelajagini barpo eta oladigan yetuk kadrlarni tarbiyalashga qaratilganligi yurtimizda bunday kadrlarga ehtiyoj yuqori ekanligini anglatadi. Ayniqsa, bu kabi islohotlar chet tili ta'limini rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos yetuk mutaxassis etib tayyorlash kabi ezgu maqsadlarga yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Islohotlarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy manbalar bilan ta'minlashni yanada takomillashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning chet tillarga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish va o'z navbatida, chet tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda jahon axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish ko'zda tutilgan. Bu kabi islohotlarning davomi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HAKKATLAR STRATEGIYASIDA ham o'z ifodasini topgan bo'lib, "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan 4-yo'nalishida maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlari aniq belgilab berilgan.^[1]

Jumladan Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning Respublikamiz Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ham quyidagi jumalarning ta'kidlanishida kelajak avlodning ta'lim olishida kelgusida qilinadigan ishlarining bosh maqsadi keltirilganligini ko'rishimiz mumkin.

"Biz bundan buyon ham ingliz tili va boshqa xorijiy tillarni chuqur o'qitish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratamiz. Shu bilan birga biz uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha talim olish va kadrlar malakasini oshirish ishlarini keng ko'lamda yo'lga qo'yamiz"^[2]. Darhaqiqat mamlakatimizda chet tillarini o'rgatish hamda o'rganish uchun bunday islohotlarning amalga oshirilishi chet tillarini mukammal biluvchi mutaxassislarni tayyorlashning bugungi kundagi ahamiyati naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

Aytish mumkinki, yuqorida aytib o'tilgan islohotlar faqatgina xorijiy tillarni biladigan filologlar emas, ular qatori shunday iqtidorga ega boshqa soha mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan. Chunki bugungi globallashtirish davrda bilim olish, ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanishda bir tillilik yetarli bo'lmay qolayotgani barchaga ma'lum. Butun dunyoda mavjud axborotlarning 80-90% i ham ingliz va boshqa xorijiy tillarda ekanligi bu sohaning qanchalar ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, 2018-yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash"yili deb e'lon qilinganligi yoshlarning xorijda amalga oshayotgan muhim o'zgarishlardan boxabar bo'lib turish kerakligini taqozo etadi, bu esa ulardan chet tillarini mukammal bilishlikni talab qiladi. Ko'rinib turibdiki davlat miqyosida chet tillarga bo'lgan e'tibor juda yuqori, shu bilan birga zamon bilan mutonosibdir.

Hozirgi kunda O'zbekiston faol tashqi siyosat yuritib, chet davlatlar bilan iqtisodiy-siyosiy sohalarda keng aloqalarni yo'lga qo'yayotgan ekan, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan yosh, bilimli iqtisodchi, siyosatchi va boshqa shu kabi kadrlarga muhtoj bo'lmoqda. Shuning uchun chet tillarini mukammal biluvchi

kadrlarni tayyorlashning ahamiyati ayniqsa bugungi kunda oshib bormoqda. Uning mamalakat, jamiyat rivojidadagi o'rnini ham kun sayin muhimlik kasb etmoqda. Shu o'rinda aytish mumkinki, jamiyatning barcha sohalarida xorijiy tillarni biluvchi kadrlar muhim o'rin tutib, ular jahon tajribalarini mukammal darajada o'rganib, tahlil qilib, o'z faoliyatlari davomida to'g'ridan-to'g'ri foydalana olsa, mamlakatimiz o'zining buyuk kelajagi bilan dunyoning rivojlangan davlatiga aylanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xorijiy tillarni mukammal biladigan yosh kadrlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini to'g'ri anglab yetish yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Bir so'z bilan aytganda, bunday yoshlar O'zbekistonning kelajagidir.

Adabiyotlar:

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASINI "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola.-T., "Ma'naviyat", 2017, 190-b.

2. Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasi. 22-dekabr.2017.

3. www.lex.uz

4. www.uz.wikipedia.org

З.Б.Кабилова(СамГИИЯ)

ДЕФИНИТИВНЫЕ АФОРИЗМЫ

Дефинитивные афоризмы представляют собой повествовательные гномические предложения, в которых обобщенное значение выражается в английском языке при помощи глагола-связки *to be* в настоящем времени индикатива. Они представляют собой предложения с составным именным сказуемым. Основным грамматическим средством выражения подлежащего и предикатива в подобных фразах является существительное и субстантивное словосочетание. Прежде всего, следует отметить, что дефинитивный афоризм - разновидность афоризма, который имеет вполне конкретную конструкцию: 1) понятие и 2) суждение об этом понятии, которое его определяет с какой-то особой стороны. Или, проще, - слово и определение этого слова. В основе определения лежит некий авторский разворот выбранной темы, заданной определяемым словом или выражением.

Жанр афоризма-определения встречается в литературе с древних времён. Любопытно, что само слово «афоризм» означает по-гречески «определение». Так что выражение «афоризм-определение» несколько тавтологично. Хотя афоризмы-определения известны издавна, выделение их в качестве особого литературного жанра началось не так давно. Может быть, одной из первых книг, где собраны авторские афоризмы-определения и использован словарный принцип их упорядочивания, оказался «Словарь Сатаны» американского писателя Амброза Бирса, выпущенный в 1911 г. В России первой книгой, посвящённой этому жанру, стал сборник «Словарь парадоксальных определений» [1995 г.].

После этого стали появляться индивидуальные словари и циклы афоризмов-определений: «Первые приближения» Александра Круглова, «Камешки преткновения» Геннадия Малкина, «Афоризмы-определения от А до Я» Александра Локтева и др. Началось осознание и освоение жанра.

Прежде чем приступить к рассмотрению дефинитивных моделей следует заметить, что данная группа афоризмов, так же подразделяется на:

1) Устойчивые дефинитивные афоризмы

2) Индивидуально- авторские дефинитивные афоризмы

Следует подчеркнуть, что этот «мета-этап» творческой лаборатории, обусловленный ее изначальной двуплановостью (план текста и план метатекста), напрямую связан со степенью творческой интенсивности влияния текста на читателя и восприятия текста читателем. «Незаполненные позиции» или «элементарные матрицы» которые творчески осваивает читатель (взаимодействие текста и читателя) созданы автором и процесс этот закономерен по отношению к общему развитию творческой лаборатории. И здесь действуют те же самые законы, в частности приоритет «открытой среды» (теория дискурса).

В. Изер говорит о «динамизации» текстовой структуры, когда она приобретает «открытость», что связано с существованием в тексте «напряжения между сказанным и недосказанным, несформулированным» («негация» - значимое умолчание, вызывающее активную работу воображения читателей). [Зинченко В.Г., Зусман В.Г., Кирнозе З.И. Указ соч. - С. 193, 195.] Также как и писатель в процессе создания текста испытывает влияние традиции и реальности, когда в свободной среде дискурса текст проходит через многочисленные контекстуальные поля, формируя под их воздействием свою неповторимую матрицу, так и читатель в процессе создания текста, обладая своим «горизонтом ожидания» и действуя на основе «референциальной рамки» сталкивается не только с «местами неопределенности», которые требуют конкретизации - уровень текста (когда читатель реагирует на сигналы автора), но и с «незаполненными позициями», «пробелами» (когда читатель воспринимает «значимые умолчания» как сигнал) - уровень подтекста.

В этой ситуации «смысловой алеаторики» также актуальны и контекстуальные влияния. Именно этим моментом смыслового перерождения (досотворения) произведения обусловлен переход автора на новый концептуальный уровень. Это и есть уровень, сориентированный на выход в будущее. Восприятие автора в форме созданной им метаконцепции, метатемы, метатекста. Любой метасигнал исходящий от творца есть творческое послание для будущего восприятия, для последующего восприятия. Автор «уходит» в будущее, к последующим поколениям в неизменном статусе творца, но

с измененной творческой позицией (на мета-уровне акценты переставлены с художественного на теоретический).

Так через проблему функционирования творческой лаборатории мы выходим на проблему развития литературного процесса и закономерности его развития. Творческая лаборатория писателя представляет собой образец творческой активности писателя в синтезе художественного и теоретического планов. Сам образ автора в этой ситуации может продолжать восприниматься как персоналия (каким и был ранее) или быть частью общего литературного (культурного, гуманитарного) сознания, частью общего опыта (мета-идея, мета-тема, мета-опыт как результат творческой деятельности). Важным является и то, что решая проблему специфики метаэлементов в структуре творческой лаборатории, мы получаем возможность выхода и на ряд проблем литературного процесса.

Литература:

1. Хализев В. Е. Теория литературы. - М., 1999.
2. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. - М., 1989.
3. Зинченко В. Г., Зусман В. Г., Кирнозе З. И. Литература и методы ее изучения. Системно-синергетический подход. - М., 2011.

Н.А.Хайдарова (АнДГУ)

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ПРОСТРАНСТВО» В МИКРОПРОЗЕ В.Г.ЯНА

На примере малой прозы В.Г.Яна (рассказы «Тач-Гюль», «Ватан», «В песках Каракума», «Видение дурмана» и др.) мы попытаемся реконструировать фрагмент концепта «пространство» в индивидуально-авторском преломлении и видении. Основной «фон» текстов малой прозы, т.е. «пространство» малой прозы – это природа Средней Азии: ландшафт, архитектура и сооружения, характерные восточной картине мира, а автор предстает в образе кочевника (и его инварианта «дервиша-факиха»). Весь природный ландшафт для кочевника представляет самостоятельную ценность, все пространство является сферой человеческой деятельности. А постройки и архитектура, встречающаяся на страницах произведений автора напрямую связана с национальными особенностями зодчества Средней Азии. Как известно, в каждой культуре модель мира (его Космос) приравнивают к храму. Основной же храмовой постройкой мусульман является мечеть (от арабского «место для совершения земных поклонов»). Здесь, мир оказывается символом бога, а мечеть – моделью и символом мира, как бога. В основном, наружные стены этого здания украшены искусно, выложенной мозаикой, образующей неповторимые геометрические узоры. Во внутреннем убранстве преобладает растительный орнамент и сочетание синего и золотого цвета.

Также внутри мечети в одной из стен располагался михраб, т.е. ниша, обозначающая направление в сторону Мекки. Лицо молящегося должно быть обращено именно в эту сторону. А с конца VIII века рядом с мечетью стали возводить минареты (от арабского «маяк») - башни, с верхней площадки которых священник (муэдзин), пять раз в день созывал верующих на молитву. Именно эту часть постройки (т.е. башню-маяк), наряду и с другой Среднеазиатской архитектурой, мы можем неоднократно встретить в рассказах писателя: *«На изгибе Узбоя мы неожиданно наткнулись на ряд могил по краю оврага; возле могил увидели одинокую часовню «аулия» и – о блаженство! – туркменскую кибитку; над ее крышей вился дымок... Из кибитки вышел благообразный седой туркмен, почтительно приветствовал нас, сообщил, что он меджеур – хранитель часовни и могил...»*, *«Он весело, с поклонами. Пригласил войти и разостлал ковры под навесом, выходящим во внутренний двор, где посередине был небольшой бассейн...разостлав коврик, он долго молился, клал земные поклоны по направлению к Мекке»*, *«...Поэтому путники особенно обрадовались, заметив в стороне, на склоне горы, полуразвалившуюся древнюю каменную башню»*, *«Посреди плоской крыши поднимался остроконечный минарет. Выложенный сверкающими на солнце изразцами. На балкончике минарета показался муэдзин, зашептал тонким, высоким голосом обычный утренний призыв к молитве»*.

Частое упоминание восточной архитектуры, ее внешняя структура и внутреннее наполнение, стремление к возвышенности, комбинация звуковых и архитектурных, живописных элементов, стремящихся к высоте формы, и выражающая чувства находит свое отражение в этих примерах. Все вышеназванные и перечисленные образы-символы, по – нашему мнению, концентрируются в понятиях «дом» (в самом широком смысле слова) и «путь», являющиеся главными концептами в рассказах писателя. Философ О. Шпенглер предложил термин *«парасимвол»* для характеристики культуры в пространственной протяженности, в арабской культуре-это мир-пещера, и идея такого мировосприятия выразилась в изобретении арки и купола. У кочевых же народов это воплотилось в

ином: природно-климатические условия степей Средней Азии продиктовали их обитателям особый тип жилища – юрты, шалаши, шатры. За несколько столетий существования юрта почти не претерпела изменений в конструкциях и в форме, более того, она сохранила древние символы и традиции. В. Ян описывает это следующим образом: *«Мы подъезжали к арабским шатрам. Оранжевый огонек метался среди черной мглы, облизывая большой котел, и отблески красного света прыгали по косым полотнищам темных палаток, припавших к земле, словно крылья летучей мыши», «Они ведут полукочевой образ жизни и любят на некоторое время уходить в горы из своих деревень со стадами баранов и тогда живут в темных шатрах, напоминающих арабские палатки», «Вслед за стариком я прошел внутрь дома. За узким коридором оказалась довольно просторная комната без окон, свет проникал через отверстие в потолке», «...когда тень заслонила отверстие в потолке, я хотел взглянуть наверх, но почувствовал, как я ослабел», «В комнате было темно, душно от ароматного дыма, а сквозь отверстие в крыше падали капли дождя...».* Здесь нужно отметить, что исследованию образа дома как в русской литературе, так и в национальных литературах отводится значительное место. Дом, как один из важных компонентов национального художественного мышления, рассматривается при изучении национальной картины мира. У многих тюркских народов образ аила (юрты, шалаша) рассматривается как архетипический. Дом – выражение, характеризующее целостность, сохранность, устойчивость юрты и ее благополучие. Геометрически простой внешний вид и форма юрты (круглая или конусная), являют собой горизонтальную и вертикальную модель Вселенной. Центральное верхнее дымовое отверстие определяет вертикальное направление и позволяет жильцам ночью наблюдать за движением звезд через «дымоход», что является свидетельством продолжения традиций предков, как кочевого социума, где жизнь и обычаи народа связываются с лунным календарем. Форма жилища, его части, обращенные во все стороны света, а материал, из которого строилось жилище, цвет, качество его составляющих компонентов связано с ментальным, идеологическим понятием. Ценность образа дома, сложившаяся в рамках той или иной культуры, является характеристикой национальной ментальности. Кроме того, шатер представляет собой бытовой пространственный образ и противопоставляется как частично закрытое пространство – открытому. При этом отмечается тесная связь с мотивом пути. Если освоение человеком мира и осознание своего места в нем сопровождалось выходом из дома в пространство внешнего мира и определяется как «путь – дорога от порога в бесконечность».

В рассказах В. Яна можно встретить множество национальных атрибутов быта и культуры восточного (особенно кочевого) народа. Но эти атрибуты не есть только внешнее воплощение и описание культуры и нравов определенного народа, они из произведения в произведение «обрастают» новыми смыслами, приобретая более глубокое значения и тем самым «перерастая» в символы-архетипы. Одной из основных предпосылок этому может служить систематичность и повторяемость их в рассказах, т.е. они «кочуют» из рассказа в рассказ, также как и сам автор из одной страны в другую.

Рассмотрев основные образы-символы, а точнее концепты, относящиеся в «Пространству», мы можем предположить, что они располагаются следующим образом:

1. Символ горы, имеющий значение священного пространства и являющийся олицетворением почетного места, соотносящийся со словами «огонь, гореть», в творчестве писателя кроме традиционного набора качеств и значений, приобрел и другие, такие как:

- ✓ Гора – пейзаж, постоянный фон и атрибут окружающего мира писателя;
- ✓ Гора – пространство для дальнейшего путешествия и пространство для творчества;
- ✓ -Гора – препятствие, мешающее путникам;
- ✓ Гора- предание, место, где происходят непонятные истории, складываются легенды;
- ✓ Гора – священное место и место почета, где находятся мечети и на склоне гор мазары праведных;
- ✓ Гора – как приют для усталых путников, своеобразный кров, дом (условно) от жары и солнца (т.к. есть тень), от нападений диких животных пустыни и разбойников и т.д.
- ✓ Гора – как переход от одного пути к другому, от одной линии к другой.

2. Солнце и луна приобрели следующие смыслы: дневное и ночное светило, вечные спутники путешественников, природные силы, с которыми соотносятся внутренние состояния героев произведений;

3. Форма полукруга и круга трансформирующаяся на протяжении всех рассказов;

4. Отдельные образы – символы (венки, талисманы, одежда и т. д.) переходя из одного произведения в другое «обрастают» новыми значениями- коннотациями и превращаются в отдельные концепты материального и экзистенциального значения.

Литература:

1. Данилова Г. И. Мировая художественная культура М.: 2003
 2. Конрад Н. И. Средне-Восточное Возрождение и Алишер Навои // Восток-Запад М.: 1987
 3. Малюга Ю. Я. Культурология М.: 2004
 4. Шпенглер О. Закат Европы // Избранные работы по философии М.: 1993
 5. Ян В. Г. Собр. соч. в IV Т., т. I М.: 1989
- <http://www.ruscorpora.ru>
<http://www.lrc-lib.ru>

Н. Турдиева (СамДЧТИ)

Э. ХЕМИНГУЭЙНИНГ “ЧОЛ ВА ДЕНГИЗ” АСАРИДА ИМПЛИЦИТ АХБОРОТНИ ПРЕСУППОЗИЦИЯ ОРҚАЛИ БЕРИЛИШИ

Рус прагмалингвисти М.Л. Макаров матнни умумий тузилишини ўрганишда новербал ифодаланадиган имплицит *ахборотни пресуппозиция пропозиция, референция, экспликатура, инференция, импликатура, релевантлик* каби новербал воситалар орқали талқин қилишни таклиф қилади [1, 119-137]. Куйида улар ҳақида алоҳида тўхталамиз.

ПРЕСУППОЗИЦИЯ. Матнинг ва умуман турли кўринишдаги нутқий тузилмаларнинг имплицит мазмунини белгиловчи ходисалардан бири бу- пресуппозициядир. Пресуппозиция французча «presupposer» феълидан олинган бўлиб «мўлжалламоқ», «тахмин қилмоқ» деган маъноларни англатиб, прагматик белгини мантиқий, фалсафий ва лисоний таҳлил қилишни кўзда тутди. Масалан, куйидаги мисолда муаллифнинг матн воқеаларига нисбатан прагматик муносабати пресуппозиция орқали ифодаланмоқда:

But after forty days without a fish the boy's parents had told him that the old man was now definitely and finally *salao*, which is the worst form of unlucky, and the boy had gone their orders in another boat which cut three good fish the first week. (1)

У билан қирқ кун бола бирга бўлди. Ҳадеганда қўли қуруқ қайтавергач, ота-онаси унга энди чолнинг ўтакетган *Salao*, яъни “ўлгудай омади юришмаган одам” эканини айтиб, бундан буён бошқа қайқда денгизга чиқиш кераклигини қулоғига қуйдилар (1).

Пресуппозиция тилнинг коммуникатив функциясидаги яширин имкониятларини очиш усули сифатида таржимашуносликда ҳам кенг қўлланилади. Пресуппозиция махсус адабиётларда инференциянинг хусусий кўринишларидан бири сифатида талқин қилинади ва бунда ифодаланаётган фикр-хукмнинг ҳақиқий ёки ўринли эканлиги эътиборга олинади. Бунинг учун мулоқот иштирокчилари воқелик, юз бераётган ёки хабар қилинаётган ходиса ҳақида олдиндан бирор бир умумий маълумотга эга бўлишлари талаб қилинади.

Асардан олинган куйидаги мисолда пресуппозиция инференция қилинган ва персонажнинг кейинги қиладиган ишларига ишора қилинмоқда:

... thought he was quite sure no local people would steal from him, the old man thought that a gaff and a harpoon were needless temptations to leave in a boat.

Гарчи чол ўз нарсаларига шу ерлик одамлардан биронтаси ҳам кўз олайтирмаслигига амин бўлса-да, ҳар қалай, чангак ва гарпунни ёмон кўздан холироқ тутишга ҳаракат қиларди (3).

Пресуппозиция талаб қилинаётган лисоний фаолият ижросидан олдин содир бўладиган, назарда тутилган имплицит ахборотдир. Масалан:

“Perico gave it to me at the bodega,” he explained. “I’ll be back when I have the sardines. I’ll keep yours and mine together on ice and we can share them in the morning. When I come back you can tell me about the baseball.”

“The Yankees cannot lose.”

“But I fear the Indians of Cleveland.”

“Have faith in the Yankees my son. Think of the great DiMaggio.”

“I fear both the Tigers of Detroit and the Indians of Cleveland.”

“Be careful or you will fear even the Reds of Cincinnati and the White Sox of Chicago.”

“You study it and tell me when I come back.” (3)

Менга буни вино дўконида Перико берди, - деб тушунтирди чол.

- Мен сардин тутаману қайтаман. Ўзимникини ҳам, сеникини ҳам бирга музга қўяман, эрталаб бўлишиб оламиз. Қайтиб келганимда, бейсбол ҳақида гапириб берасан.

- «Янки»нинг ютқазиси мумкин эмас.

- Кливленд «Ҳиндилари» уларни бошлаб қўймаса деб қўрқаман.

- Қўрқма, ўғлим. Улуғ Ди Маджиони бир эслагин-а.

- Мен фақат «Ҳиндилар»дангина эмас, Детройт «Йўлбарслари»дан ҳам кўркаман.

- Худо кўрсатмасин, сен ҳали цинцинатилик «Қизилтанлар»дан ҳам, Чикаго «Оқ пайпоқлари»дан ҳам кўрқиб ўтирарсан.

- Газетани ўқиб тур, мен қайтгач, гапириб берасан (4)

Бу каби гапларни матнда қўллаш ва уни тушуниш учун сўзловчи ва тингловчи «Янки», «Ҳиндилари», Детройт «Йўлбарслари», «Қизилтанлар» каби тушунчалар нимани англатишини билиши керак бўлади.

Аксар ҳолларда пресуппозиция ҳақида гапирар эканмиз сўз замиридаги яширин интуиция орқали англашиладиган тағмаёно мавжуд эканлиги назарда тутилади. Масалан:

“Keep the blanket around you,” the boy said. “You’ll not fish without eating while I’m alive.” (4) - «Одеялни йиғиштирма, - деди бола. - Мен тирик эканман, овқатланмасингдан туриб, сени балик овлашга қўймайман.» (5) жумласини айтиш учун сўзловчи чолнинг ёши, унинг касби, бола унга ким бўлишлиги ҳақидаги маълумотга эга бўлиши лозим. Бу маълумотларни берувчи пресуппозициялар соҳиби сўзловчи ёки муаллифдир. Бу турдаги маълумот асосида хулосавий ҳукм чиқарилади.

Пресуппозициянинг гап таркибидаги лисоний бирликлар ва синтактик тузилмалар билан боғлиқлиги лексик ва структуравий пресуппозициялар мавжудлигидан далолат беради. Масалан, «У чекишни ташлади», «У яна шикоят қила бошлади» гапларининг пресуппозициялари «У илгари чекар эди», «У илгари ҳам шикоят қилар эди» эканлигини «ташламоқ» «бошламоқ» сўзларига таяниб аниқлаймиз.

Структуравий пресуппозицияни қуйидаги сўроқ гаплар мисолида аниқлаймиз: «У қачон кетди? = У кетган. Бу велосипедни қаердан сотиб олдинг? = Сен велосипед сотиб олгансан. Прагматик пресуппозиция ҳодисаси талқинида икки йўналиш мавжуд: улардан биринчисида нутқий ҳаракатнинг жўялилиги ва самарадорлиги асосий мезон сифатида қабул қилинган. Ижро этилаётган нутқий фаолият ва қўлланилаётган лисоний тизилмалар жўяли, ўринли бўлган тақдирдагина мулоқот натижалари кўчишини биламиз.

Шунинг учун ҳам нутқий жўялилик ва самарадорлик шартлари прагматик пресуппозициянинг асосий тамойили ҳисобланади. Иккинчи йўналишдаги талқинда прагматик пресуппозиция мулоқот иштирокчиларининг ахборот мавзуси, предмети ҳақидаги умумий билими, сифатида талқин қилинади. Бунда коммуникатив фаолиятнинг ички ва ташқи шарт-шароитларининг когнитив идроки асосий ўринни эгаллайди. Масалан:

“I’m ready now,” the old man said. “I only needed time to wash.”

Where did you wash? the boy thought. The village water supply was two streets down the road. I must have water here for him, the boy thought, and soap and a good towel. Why am I so thoughtless? I must get him another shirt and a jacket for the winter and some sort of shoes and another blanket (4-5).

Ҳай майли, ювиниб олсам бўларди-да. «Қаерда ҳам ювинардинг?» - ўйлади бола. Бу ердан колонкагача икки квартал бор эди. «Унга совун ва яхши сочиқ олиб бериш зарур, сувнинг ҳам кетини узмаслик керак. Бу тўғрида нега аввал ўйлаб кўрмаган эканман. Унга янги кўйлак, қишқи куртқа, бирон этик-петик ва яна бир одеял ҳам лозим» (5).

Бу кўринишдаги талқинда прагматик пресуппозиция бевосита матн таркиби, унинг қисмларининг ўзаро муносабати билан боғлиқлиги аён бўлади. Мулоқот бирлигининг жўялилиги шундай қилиб фақатгина контекстда, унинг бўлаклари таркибида аниқланади.

Прагматик пресуппозициянинг матнга хослиги, контекстга оидлиги лисоний бирликларнинг кўп маънолилиги, уларнинг турли мулоқот вазиятларида турлича мазмун ифодалашлари мумкинлигини унутмаслик лозим. Матннинг прагматик хусусиятларини англашда икки тур пресуппозициядан фойдаланилади.

Биринчи турдаги пресуппозиция «аниқлик» пресуппозицияси деб аталади ва у тил бирликларининг лисоний-семантик категорияларининг мослигига асосланади. Масалан:

But a young girl straight from Sligo...

Бироқ бу ёшгина киз эндигина қишлоқдан келди...

Иккинчи тур пресуппозиция эса «миллий-маданий» пресуппозиция бўлиб, тил белгиларининг экстралингвистик категорияларига таянади. «Аниқлик» пресуппозицияси дейилганида - реал-семантик адекватлик, яъни тил бирлиги ифодалаган маънонинг объектив ҳақиқатга мос келишлиги тушунилади.

«Аниқлик пресуппозиция»си қуйидаги шартлар билан белгиланади:

1. Прагматик ахборотни тушунишга асос бўлган ва у орқали ифодаланган тушунчаларнинг аниқ бўлиши;

2. Аслият тилида ахборот узатувчи ва таржима тилидаги ахборот қабул қилувчи ҳам тил бирлигининг ана шу маъносини бир хил тушуниб, умумий белгисини ажратиш олишлари лозим.

3. Прагматик ахборотни тушуниб олиш жараёнида умумий белгини ажратиб олиш жуда осон кечиши лозим.

«Аниқлик» пресуппозицияси ёрдамида кўчма маъноли ибораларнинг, метафорали бирикмаларнинг прагматик хусусиятларини аниқлаш, уларни бевосита ва билвосита таржималарда берилишини таҳлил қилиш қизиқарли натижаларга олиб келиши мумкин.

Пресуппозициянинг иккинчи тури – «маданий-миллий пресуппозиция» деб аталиб у аслият асари тилида сўзлашувчиларнинг миллий ҳамда социал-психологик хусусиятларини, уларнинг ижтимоий, этник ва адабий тараққиёт жараёнидаги тушунчаларининг ифодаланишидаги лисоний, семантик, стилистик хилма-хилликларни ўрганишга йўналтирилади.

Бундай тушунчалар аслият тилидаги нарса ва предметлар, воқеликларни номланишида, кўчма метафорик ибораларда ўз аксини топадики, улар китобхон ёки тингловчидан бундай тушунчаларни аслият тилидагидек тушунишни талаб қилади. Прагматик пресуппозиция ҳодисаси лисоний мулоқотнинг рамзий, маросимий, анъанага айланган расмий томонлари ҳам бор.

Масалан, инглизлар хурматли, юқори мартабали кишиларга «сэр», «мисс», «лорд», французлар «monsieur, seigneur, madame» сўзларини қўллаб мурожаат қилсалар, ўзбеклар: «таксир, ҳазрат, жаноби олийлари, аъло ҳазрат», «хўжайин» сўзларини қўллаб мурожаат қиладилар. Мулоқот жараёнида бундай талаб ва қоидаларга риоя қилиниши риторик прагматикани шаклланишига олиб келди.

Таҳлил қилинаётган асар фалсафасидан келиб чиққан холда асар қаҳрамонининг наздида бу каби юқори даражага “денгиз” чиқарилади. Масалан:

He always thought of the sea as *la mar* which is what people call her in Spanish when they love her. Sometimes those who love her say bad things of her but they are always said as though she were a woman. Some of the younger fishermen, those who used buoys as floats for their lines and had motorboats; bought when the shark livers had brought much money, spoke of her as *el mar* which is masculine. They spoke of her as a contestant or a place or even an enemy. But the old man always thought of her as feminine and as something that gave or withheld great favours, and if she did wild or wicked things it was because she could not help them. The moon affects her as it does a woman, he thought (7).

У ҳар доим денгизни, унга муҳаббат қўйган ҳамма кишилар каби хаёлидан испанчасига *lamar* деб атарди. Айрим пайтларда денгизга меҳр қўйган одамлар, у ҳақда бадхазм гаплар айтишади, аммо доимо бу гаплар денгиз эмас, гўё аёл устида бораётганга ўхшайди. Ақула жигарининг нархи ошиб бораётган кунларда сотиб олинган моторли қайиқларда юриб, қармоқларига пўпак ўрнига буй ишлатадиганлар хилидан бўлган ёшроқ балиқчилар эса денгизни *Vel mar* деб атайдиган ва унга эр кишига қарагандай қарайдилар. Уларнинг наздида денгиз гўё, худудсиз бир сайхон, гўё бир рақиб, гоҳида эса, ҳатто бир душман бўлиб кўринади (8).

Адабиётлар:

1. Макаров М.Л. Коммуникативная структура текста. – Теврь, 2003 130 с.
2. Hemingway E. "The old man and the sea". Second edition. Progress publishers. Moscow, 1967. – 86 б.
3. Хемингуэй Э. «Старик и море» М., Издательство «Правда», 1989. – 85 б.
4. Хемингуэй Э. «Чол ва денгиз» Т., «Ёш гвардия» нашриёти, 1986. – 132 б.
5. London J. Martin Eden. - New York, 2002. - 314 p.
6. www.mthenia.ru/annalvstxt/Podtxt.htm

С.Б.Шодмонова (ҚарМШИ)

БАДИЙ ТАРЖИМАДА БЎЛАДИГАН МУОММОЛАР ҲАҚИДА

“Таржима-халқлар ўртасида ўзаро иқтисодий-сиёсий, илмий, маданий алоқаларнинг кенгайиши манфатларига хизмат қилади. Таржима-миллий адабиётларнинг ўзаро алоқаси ва бир-бирига таъсири жараёни тезлаштиради. Миллий адабиётларда муштарак мавзулар, умуминсоний ғоялар, ранг-баранг адабий-эстетик шаклларнинг туғилишига сабаб бўлади. Таржима миллий тилларнинг луғат бойлигини янада оширади, янги-янги граматик воситаларни келтириб чиқаради. Адабиётнинг асосий вазифаси ҳар томонлама етук инсонларни тарбиялашдан иборатдир. Ёш авлодни тарбиялаш, уни баркамол инсон қилиб етиштириш барча асарларда ва барча адиблар ижодида мавжуд бўлган ўлмас мавзулардан биридир.

Турли млатлар, Шарқ ва ғарб ўртасида адабий муштаракликлар адабий алоқаларда бадиий таржиманинг ўрни нақадар юксак эканлиги ҳеч кимга сир эмас.

XX аср Инглиз ёзувчиси Уилян сомерсенг Моэмнинг “Ой ва чақа” романида бош қаҳрамон мусаввир Чарлз Стрикленднинг феъл атвори ва қиёфаси тасвири муҳим аҳамиятга эга.

Чункт асар сюжети бу образининг характери ва дунёқарашидан жумбоқларни ечишга қаратилган.

Рус таржимони Н.Ман ва русча матндан ўзбеклаштирилган Р.Иноғомов таржимасида Стрикленд киёфаси ҳар доим аслиятдигедек чиқмаган. Масалан: Стрикленднинг ташқи кўриниши воқеаларни ҳикоя қилиб бераётган персонаж тилидан шундай тасвирланган:

“He was bigger then I expected: I do not know why I had imagined him stender and of insignificant appearance.....”¹

Рус таржимони Н.Ман бу гапни инглизчадан кўйидагича ўгиради: “Он сказал выше, чем я думал: почему-то я вообразал, что Стрикленд- худошавий, неврачный человек.....”²

Р.Иноғомовнинг русчадан таржимаси: “У мен ўйлаганимдан кўра баланд бўймурод, ориқдан келса, кўримсизгина одам экан”³

Бу ўринда инглизчадан bigger (гавдалироқ) сўзи выше (баландроқ, навлироқ) деб ноаниқ ўчирилган, Р.Иноғомов таржимасида ҳам почему-то я воображая сўзи ташлаб кетилган. Оқибатда гавдали расом ориқдан келган одамга айланиб қолган.

Стрикленднинг юзини тасвирлашда:

“He was clean shaven, and his larde face looked uncomfortable naked”⁴ жумласини

К.Ман шундай таржима қилган:

“Он был чисто выбрит, и его большое лицо казалась неприятно обнаженным”⁵

Ўзбек таржимони эса инглизчадан uncomfortable naked (ялонғочдай ёқимсиз) сўзларини ғалати деб учирган: меъеридан катароқ бўлган, соколи қартишлаб олинган юзлари ғалати таъсурот қолдиради”⁶

“His hair was reddish, vit very shart, and his lyes were small, blue or grey” жумласида рус таржимони small (кичкина) сўзини ўғирлаб ташлаб кетади. Ўзбек таржимасидан ҳам бу такрорланган.

Русча таржимада: “Волосы у него были рыжеватые коротко остриженные, глаза не то серые, не то голубие”⁷

Р.Иноғомов таржимасида:

“Сочлари сарғишдан келган, калта қилиб олинганда, кўзлари кулранг билан кўк рангли ўртасидаги қандайдир рангга мойилроқ эди”⁸

Асар воқеаларини баён этаётган персонажнинг Стрингленд ҳақидаги айрим мулоқотларини учиршига ўзбек таржимони аслиятда мавжуд бўлмаган сўзларни кўшиб ортиқча ижодий эркинликка берилган. Оқибатда ёзувчи тасвири таржимада ўзгариб қолган.⁹

Русча таржималари яхши бўлмаганлиги учун аслиятда яқин ўзбекча таржималари ҳам мавжуд ва бунга мисол қилиб Шекспер, Марк Твен, Жек Лондон ва Этель Лимон Қайнеч асарларининг таржимонларини кўрсатиш мумкин. Аммо таржималар ҳам ўзбек таржимонлари йўл кўйган камчиликларидан ташқари яна воситачи тил орқали содир бўлган анчагина хато ва камчиликларни такрорлайди. Жек Лондоннинг “Мартен Иден” романида жумла таркибида қўлланилган.

“ To make hay whele the sun shines” образли фразологик иборасининг “Куй жемзо, пака, горячо” – Темурни қизиғида бос” вариантлари асосида эмас, балки эркин сўз бирикмалари воситасидв тасвирий талқин эканлигини матнни бадий тасвирий хусусиятидан маҳрум этган:

We nud scarcely to assure you that we are making while the sun shunes.¹⁰

Может быть уверены что мы стараемся как можно лучше использовать момент» .¹¹

Кўнглингиз тўқ бўлсин вазиятдан имкони борича яхшироқ фойдаланиб қолишга ҳаракат қиламиз.¹²

Таржима тиллар доирасида амалга ошириладиган маданиятлараро алоқа воситасидир.

О.Генрининг “ фаришталар тухфаси” деб номланган ҳикояси инглиз тилидан ўзбек тилига истеъдодли ёш таржимон Дилором Бегматова томонидан ўгирилган. Таржима жуда аниқ ва равон кўчирилган. Ҳикоя “ The Yift of the maggi” деб номланган бўлиб таржимон сарлавҳанинг ўзбекча муқобилини тўғри танлай олган. “ Maggi ёки 3 та ақлли одам бўлиб, христианларниг урф-одатларига кўра 3 та астролог руҳонийлар шарққа саёхат қилганларидан сўнг, Вифлимдаги чакалов Шусга совғалар келтирганлар.

Инглизча матн:”

“The door opened and zim stepped in and closed it. He looked thin and very serious.Poor fellow,he was only twenty-two and to be burdened with afamily!¹

Ўзбекча матн (Д Бегматова таржимаси):

“Эшик очилди, жим уйга кирди ва эшикни ёпди. Унинг юзлари қоқчакак, ташвишли кўринарди. Йигирма икки ёшида рўзғор тебратиш осон иш эмас!²

Ёш таржимон thin сўзини юзлари қоқчакак деб нотўғри ўгирган. Бу ерда озгин деб берилганда ҳам бўларди. Инглиз ва рус тиллари ўзаро ўзоқ бўлган тиллардир. Шунинг учун бу тилларда яратилган асарларни бир бирига таржима қилиш муайян қийинчиликларни келтириб чиқаради. Таржима қилиш қийинчилиги фақат бу тилларни лингвистик тузилишидаги тафовутларга эмас, балки сўзларнинг маъно томонидан фарқланишига ҳам боғлиқдир.

Жек Лондоннинг “Бўри ўғли” (The Son of the wolf) ҳикоясини Т.Шамадалиева инглиз тилидан ўзбек тилига таржима қилган. Таржимада ютуқлар билан биргаликда камчиликлардан ҳам ҳоли эмас.

“Nor had scruff Mackenzie for all his sceming carelessness failed to nate these phenomena/ In fruth, rolled sleeping furs, he thought it all over, thought serionsly, and emptied many pipes in mapping and a campaign”⁴

“Маккензи ўзининг безътибор тутса-да, буни жуда яхши тушинди. У тунда конкўрпа ичига кириб ётганида, барини ипидан-игнасанганча уйлаб, режа тузиб чиқди, бунинг учун озмунча трубка тамаки чекдими”⁶ (Т.М таржимаси)

Аслиятда қўлланилган sleeping furs ўзбек тилида конкўрпа ўгирилган. Fur сўзи рус тилида мих, шерсть, шкура, деган маъноларга эга.

Ўзбек тилида эса тери, мўйна, жун газлама деган маъноларни билдиради. Бу ерда таржимон rolled in his speering furs” ни “мўйнали кўрпасига ўралиб” деб таржима қилганда мақсадга мувофиқ бўларди.

“Таржима бу йўқотишлар саъати-деган эди машхур таржимон М.Лазинский,-Нимани йўқотиш мумкин-бадийликними ёки аниқликни, буни таржимон танлайди. Йўқотишлар қанча кам бўлса, таржимоннинг маҳорати шунча баланддир”.

Таржима орқали халқлар бир бирлари билан фикрлашганлар, адиблар бир бирлари билан мулоқотда бўлганлар. Ҳамма замонларда ҳоҳ адабий, ҳоҳ илмий, ҳоҳ сиёсий китоблар таржимаси бўлсин-халқ, у яратган маданият, фан, адабиёт ва сиёсат бундан фақат наф кўрган”. (Ғ.Саломов).

Хулоса қилиб айтганда, ҳар бир таржима ўзига хос санъат асари. Унда ҳар бир ижодкорнинг шахсий дунёқараши, руҳияти, ҳис туйғулари яққол ифодаланади.

Таржимон худди заргар каби сўз дурларини ўрни-ўрнига қўйиб гўзал санъат намунасини яратади.

Адабиётлар

1. Саломов Ғ. “Таржима назариясига кириш” Тошкент, ўқувчи, 1978 й.
2. Mangham S. The Moon and sixpence -Москва: Прогресс, 1969 й.38 бет.
3. Моэм С. Луна и грош. Театр Рассказы- Москва: Правда, 1983 й 22-бет
4. Моэм С. Ой ва чақа. “ Жаҳон адабиёти” журнали,-1- сон, 2006 й 52-бет
5. Jeck London. «MartenEden» London, 1909
6. Джек Лондон. «Мартин Иден» -Ленинград, 1979.
7. Жек Лондон. «Мартин Иден» -Тошкент, 1968.
8. Henry O. “The Yigt of the magi / American stories. Macmullan Literature collection. 2009-р 13

А.К.Эшқобилов (СамДЧТИ)

САМАРҚАНД АДАБИЁТШУНОСЛАРИНИНГ ПОЭТИК-СТРУКТУР ТАҲЛИЛ МАКТАБИ ёки фанимизнинг унут саҳифалари

Собиқ Иттифоқ даврида улкан мамлакат олий таълим тизимида тўртта адабиётшунослик мактаби дунё олимлари томонидан эътироф этилиб, тан олинган эди: Москва, Ленинград, Тарту ва Самарқанд адабиётшунослик мактаби...

Шуни таъкидлаш жойизки, олий ўқув юрти қайси таълим йўналиши бўлишидан қатъий назар ҳар бир кафедрада ўз илмий мактабини шакллантиришга, уни тараккий топтиришга ва қўллаб-қувватлашга ҳаракат қилмоғи лозим, акс ҳолда ўша таълим йўналишида кадрлар тайёрлаш, илмий салоҳиятни ўстириш ва келажакка замин ҳозирлаш ишлари сусаяди, жамоа иши сифатсизланиб боради ва охири оқибат кадрсизланади. Буни ўз вақтида чуқур англаган самарқандлик бир гуруҳ адабиётшунослар ўтган асрнинг 50-йилларида мамлакатдаги ягона ҳукмрон мафкура ва таълимотга зид тарзда илмий тадқиқотлар олиб боришиб, бадий *матннинг поэтик-структур таҳлили илмий мактабига* асос солишади ва бу мактаб катта нуфузга, таъбир жойиз бўлса, халқаро мақомга эга бўлади. Шуниси эътиборга молиқки, ушбу илмий мактаб тарихини ўзига хос тарзда ёритган вакили Б.С.Михайличенко «хатто мактабнинг номланишида ҳам ўша даврда ман этилган «поэтика» ва «структура» каби иккита атама мавжуд» бўлганлигини таъкидлайди («Проблемы литературоведения: теория литературы», СамГУ, 2009, 64 с.). Мактаб вакилларининг ўша пайтда чоп этилган кўплаб илмий тўпламларининг ҳар бирида илмий мактаб ёки илмий гуруҳ ҳақида эслатилган дастурий кириш мақолалари чоп этилар эди. Поэтик-структур таҳлил илмий мактаби асосчиси эса профессор Яков Осипович Зунделович эди (1893-1965).

Улуғ олим Смоленск губерниясига қарашли Польшанинг рус тилида сўзлашувчи Лодзь шаҳарчасида туғилади. Ўша пайтдаги оғир ижтимоий-сиёсий-маданий тузум сабабли, бошланғич таълимдан сўнг, ўн етти ёшида таълимни хорижда, Жанубий Франциянинг Монпелье университетида, филология факультетида давом эттиради. Университетни тугатгач, дастлаб Лодзьга қайтади; Норкомпросга ишга киради, сўнгра буюк шоир В. Брюсов таклифи билан Хўжалик институтида дарс

бера бошлайди. 1925-1929 йилларда Академияда аспирантурада тахсил олади (ГАХН). Утопик хаёллар оғушида Москвага ишлашга боради. Дастлабки йилларда унинг омади чопади: янги чоп этилган бадиий асарларга қатор тақризлар ёзади – ўз билимини хаётга татбиқ этиш имкони пайдо бўлади - илмий-амалий жихатдан пишиқ мақолалари етакчи ноширлар назарига тушади ва икки жилдли «Адабий энциклопедия» (1925) таҳририятига таклиф этилади. Ўз вақтида илмий доираларда катта обрўга эга бўлган, ҳали ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган мазкур рус тилидаги нашрнинг деярлик барча шеърӣ жанрлар назарияси ва поэтик троплар ҳақидаги мақолалари Я.О.Зунделович томонидан ёзилади. Олим 1929 йилдан ГИКда (Давлат киноматография институти), 1933-1935 йиллар МИФЛИда маърузалар ўқийди.

Ўтган асрнинг 30-йилларида ҳам олим илмий нашриётларда фаолиятини давом эттиради; адабий энциклопедиядан ташқари Катта ва Кичик совет энциклопедиялари редакциялари билан ҳамкорлик қилади. Унинг катта-катта илмий муаммоларга бағишланган мақолалари ўз даврининг машҳур «Иностранная литература», «Иностранная книга» каби журналларда чоп этилади. Янги ҳамда мумтоз поляк ва Ғарбий Европа адабиёти вакиллари ижоди олимнинг илмий қизиқишлари марказида доимий туради. У немис, француз ҳамда инглиз ёзувчи ва шоирлари, айниқса, Э.Хемингуэй ижоди билан яқиндан қизиқади. Ўз шеърлари тўпламини эълон қилади.

1937 йилнинг ноябрида машҳур 58-модданинг 10-банди бўйича қамоққа олиниб, халқ душмани сифатида ўн йилга қамоққа ҳукм қилинади. 1943 йилда касаллиги сабабли қамоқдан озод қилинади ва Ивановодаги пединститутга ишга киради, аммо катта шаҳарларда ишлаши мумкин эмаслиги ва антисемит ҳаракати сабабли у ердан ҳам кетишга мажбур бўлади. 1947 йилда Самарқандга келиб университетга ишга киради. 1953 йилдан кафедра мудири вазифасида ишлайди. Олимнинг ҳақиқий илмий иқтидори айнан Самарқандда намоён бўлади. У дастлабки йиллар қаттиқ назорат ва тазйиқлар сабабли кўп мақола чиқармайди, фақат 1955 йилдан сўнг унинг ижоди гуркирайди. Олим қатор мақолалар, иккита монография чоп этади: «М.Горькийнинг «Фома Гордеев» қиссасида образлар тизими» («Система образов в повести Горького «Фома Гордеев»») ва «Достоевский романлари» («Романы Достоевского»). Унинг вафотидан сўнг шогирдлари ўқиган маърузалари асосида «Тютчев лирикаси этюдлари» («Этюды лирики Тютчева») китобини чоп этишади.

Нафақат рус, балки жаҳон адабиётшунослиги учун ҳам назарий ва ҳам амалий жихатдан ўта муҳим бўлган Зунделович методининг асосий ҳолатлари, тадқиқ усуллари асарлари ҳамда самарқандлик шогирдлари Р.П.Шагинян, Еф.П.Магазанник, Э.Б.Магазанник, Г.Ф.Меньшиков, Ю.П.Гольцекер, В.Б.Лагутов, Б.С.Михайличенко, Л.Х.Абдуллаевларининг хотираларида, илмий ишларида ўз аксини топади. Поэтик-структур таҳлил илмий мактаби дастлабки босқичда (1947-1965 йй.) шаклланиш, илмий-методологик асосни яратиш ва дастлабки ўта муҳим натижаларга эришиш жараёнларини бошдан кечирган бўлса, кейинги ўн йилликларда (1965-1995) йилларда ривожланиш ва юксалиш даврини бошдан кечирди. Бу даврда ф.ф.профессор Роберт Петрович Шагинян, доцентлар В.Б.Лагутов ҳамда Б.С.Михайличенколар СамДУ адабиёт назарияси ва чет эл адабиётлари тарихи кафедрасига мудирлик қилишди. Айниқса, етмишинчи-саксонинчи йилларнинг охири, тўқсонинчи йилларнинг бошида бу мактаб шунчалик катта салоҳиятга ва мамлакат миқёсида нуфузга эга эдики, буни биргина мисол билан кўрсатиш мумкин. Ушбу сатрлар муаллифи 1991 йилда кафедра аспиранти бўлган чоғларимда кафедрада ўттиз учта штат бирлиги бўлиб, унда учта фан доктори, профессор, ўттизта фан номзоди, доцентлар ишлашарди, хатто кафедра лоборант-котибаси ҳам илмий даражага эга эди. Бу ерда чоп этиладиган илмий тўпламлар, албатта, бутун Иттифоқ миқёсида акс-садо берарди. Энг муҳими, яратилган илмий тадқиқ методи адабиётшунослик соҳасига, жумладан ўзбек назарий адабиётшунослигига, йил сайин кенг ва чуқур жорийланиб борарди.

Афсуски, сўнгги йилларда салоҳият ва қобилият савиялари турлича кафедраларнинг кўшилиши, ходимлар штатининг қисқариши, етакчи олимларнинг кексайиши, айримларни иш ўринларини ўзгартириши ҳамда илмда тасодифий кишиларнинг пайдо бўлиши оқибатида машҳур кафедра амалда тўқсонинчи йиллар ўртасида тарқалиб кетди: бир неча ёшлар бошқа институтлар ўтишди. Аммо Самарқанд адабиётшунослари илмий мактаби яратган илмий методнинг асосий жихатлари ва анъаналари илғор тафаккурли замонавий ўзбек адабиётшунослари ишларида, илмий-педагогик жараёнда тез-тез намоён бўлади.

Я.О.Зунделович яратган методология бадиий матнни, унинг қурилишини, бадиий қатламларини, шакл ва мазмундаги яхлитликни микродеталлар призмаси орқали ўрганишни англади. Бу методологиянинг хусусиятлари амалиётда исботланган ва таҳлил қилинган қатор қоидалари билан асосланади. Бу қоидалар сирасига тадқиқотчи ва фақат матн, таҳлил учун алоҳида танланган муаллиф ва асар, «секин ўқиш» матнинг поэтик-структур таҳлили техникаси сифатида, матннинг «жарангдор» деталларини кўриш, эшитиш, тушуниш, танлаш ва улар билан ишлаш, уларни ўрганишдаги объектив

ва субъектив омиллар кабилар киради. Бу методология қоидаларини Б.С.Михайличенко юкорида кўрсатилган асарида батафсил ёритади.

Ўтган асрнинг етмишинчи йилларида адабиётшунослик соҳасида адабий-тарихий методология устуворлик қилганлиги унинг ижтимоий, баъзан синфий баҳолаш усули ва фактографияга таяниши, бадиий матннинг сўз санъати ҳодисаси эканлигини ғайритабиий тарзда четга суриб қўйганди. Бунга зид тарзда, поэтик-структур таҳлил методи назарий-теорияларидан бири Еф.Магазанник шундай ёзади: «Адабиётшуносликка оид тадқиқотлар, уларнинг мақсад ва вазифаларидан қатъий назар, ўзининг специфик предмети – асарнинг бадиий, эстетик моҳиятига максимал яқинлашмоғи керак... Тадқиқот нуқтаи назари ва унинг предмети хос бадиий-эстетик сифат-савия ўртасидаги фарқни енгиб ўтиш, фақатгина **поэтик таҳил** воситасида амалга оширилиши мумкин. Бизнинг наздимизда, поэтика, бадиий асарнинг поэтик тузилиши унинг у ёки бу усул билан формаллашадиган унсурлари тузилиши-структураси эмас, балки асар таркибида «органик», «табиий» унсурлари хоссасининг, уларнинг ролини унда бевосита-эстетик намоён бўлишидир» (Магазанник Еф. «Проблемы поэтики», СамГУ, 1980, 10-с.- таржималар ўзимизники- Э.В.).

Таъкидланган фикрни одмилаштириб, оддий тилда изоҳлайдиган бўлсак, бадиий матнга сўз санъати ҳодисаси сифатида баҳо берилганда, унинг шаклда ярқ этиб «кўзга ташланадиган» сиёсий-мафкуравий элементлари-унсурларига қараб эмас, балки матн қатламида миллий ўзига хосликни, умуминсоний тубсиз чуқур фалсафани, гўзаллик-эстетикани элтувчи микродеталлар - ҳар бир сўз, деталь, ҳар бир шаклий кўриниш, хуллас барча-барча энг оддийдан тортиб ўта мураккаб унсурларгача баҳоланиши, англаниши, этимологияси ва семантикаси турли-туман параметрларда ўрганилиши ва охир-оқибатда юксак бадиийликни ҳосил қилувчи яхлит унсурга айланиши таҳлил қилинмоғи лозим. Очиғини айтоқ лозим, ушбу поэтик-структур таҳлил методологиясига ўхшаш илғор илмий назарияларнинг чуқур ўзлаштирилмаганлиги, олий *таълим тизимида адабиёт илмига етарли эътибор берилмаётганлиги* бугунги кунда санъат ҳодисаларини баҳолашда ҳар-хилликни, турли туманликни, охир-оқибатда тушуниш мушкул бўлган изоҳ ва талқинлар пайдо бўлишига сабаб бўлмаяптими, деб ўйланиб қоласан. Зеро, турли санъат турларига оид ҳодисаларга ОАВ, ТВ ва радио орқали бериладиган талқинлардан баъзан ёқа ушлайсан. Масалан, бир неча йиллардан буён театр ва кино соҳаларида замонамиз қахрамони образи кўринмайди, шундай қахрамонлар ҳақида бадиий асарлар, драмалар яратилмаяпти, деган савол ўртага ташланган. Рус адабиётшуноси ва файласуфи илғор тафаккурли зиёлилар кенг эътироф этишадиган Бахтин адабиёт сўзини ёқтирмас экан. У кўпроқ сўз санъати иборасини қўллаган. Зеро, олим назарида адабиёт, русчасига «литература» сўзи “босма, қўйма сўз” сифатида совуқ таассурот қолдиради, идрок этишда маъносига путур етади, деган бир ғоя бор. Бизнинг назаримизда қахрамон сўзи ҳам худди шундай хоссага эга: қандайдир сиёсий, мафкуравий ёхуд сунъий талаб асосида истъеъмолга киритилганга ўхшайди. Ўша Бахтин назариясида асар персонажи қахрамон эмас, образ тарзида талқин этилади. Зеро, образ дейилганда, сиёсий-мафкуравийлаштирилган курук атама эмас, илмий, янада муҳими, санъатга хос чуқур мазмундаги маъно тушунилади. Айтилганлар, гўёки оддий сўз ўйинидек кўринади, аммо бу фикримиз санъат, хусусан, сўз санъати соҳасига оид атамаларни тўғри англаш, тўғри, мақсадга мувофиқ қўллаш уни юзакилик ва сохталикдан асрайди, сўз санъати ёки бошқа санъат турлари вазифаси ва предметини мантиқий идрок этиш ва англаш имконини беради. Бу назарий гапларни оддий китобхон учун бир оз тушуниш мушкул, аммо олий таълимда биз юкорида тўхталган назариялардан бохабар бўла олган зиёлилар гап нима ҳақда эканлигини жуда яхши англашади.

Сўнгги чорак асрда ижтимоий-маданий ҳаётда юз берган улкан ўзгаришлар, маданий-маънавий силкинишлар илмий-маданий сиёсатда, турмушда улкан ўзгаришларга олиб келди. Миллий-маънавий қадриятларнинг тикланиши, ўрганилиши ва авайлаб асралиши Мустақил юртимиз эришган ютуқларнинг пойдевори эканлиги рости. Юртимизда китобхонлик маданиятини ривожлантириш давлат сиёсати даражасига кўтарилган бир пайтда бадиий матннинг поэтик-структуравий таҳлили каби илмий методлар бу соҳанинг ўта муҳим назарий пойдевори бўлиб хизмат қилиши аниқ. Зеро жамиятда ҳар қандай маънавий-маърифий ғоянинг ҳаётга татбиқ этилиши унинг тарғиботчилари бўлган ўқитувчиларнинг тўғри ва самарали, асосланган илмий назариялар асосида амалга ошириши исбот талаб қилмас далилдир.

T.S.Nasrullaeva (SamDChTI)

GAZETA SARLAVHALARI KLASSIFIKATSIYASI

Gazeta sarlavhalari ikki asosiy prinsip bo'yicha klassifikatsiyalandi. Birinchi klassifikatsiya gazeta matni tarkibi asosidagi sarlavha turiga bo'linadi. Har qanday gazeta sarlavhalarining bir necha ko'rinishida foydalanib, ushbu sarlavhalar o'zining roli belgilanishi va tutgan ahamiyatiga ko'ra bir biridan farqlanadi.

Oddiy sarlavha undan quyida turgan material haqida tushuncha beradi. Gazetada chop qilinadigan har qanday ma'lumot sarlavhaga egadir. Sarlavhadan tashqari ba'zi maqolalar ikkinchi sarlavha deb nomlanuvchi kichik hajmdagi sarlavha tagida joylashgan matnga ega bo'ladilar. Bu sarlavha turlarini biz quyidagilarga bo'lamiz:

a) Tag sarlavha – aksar hollarda tematik xususiyat kasb etib ustida turuvchi asosiy sarlavhadagi ma'lumotni tushuntirib, aniqlashtirib davom ettiradi.

Win or bust

Hillary Clinton risks all on one last throw of the dice

Pul topish yoki xonavayron bo'lish

Hillari Klinton bor yo'g'ini qaltis ishga tikdi

Ushbu maqola Hillari Klinton va Baraka Obama o'rtasidagi nizo to'g'risida ma'lumot beradi.

Tag sarlavha rasmiy (ya'ni, ma'lumot olingan manbani ko'rsatuvchi) yoki ichki bo'lib, berilayotgan materialning turli bo'limlari haqida ma'lumotni mujassam etadi. Ba'zan ichki sarlavhalar maqola mazmunini ochib beradi, ya'ni u haqida qisqacha ma'lumot beradi.

b) rubrika, ya'ni sarlavhaning ikkinchi turi bo'lib berilayotgan materialning yo'nalishi va janriga asosan xarakterlanadi. Rubrika asosiy sarlavhaning ustida joylashtirilib ushbu material joylashtirilgan gazeta bo'limini aniqlashtiradi (masalan, Business Business, Sport). *Sport*

Sharapova Leads Russia in Fed Cup

Sharapova Rossiyani federatsiya kubogiga olib chiqmoqda. (ya'ni, mashhur tennischi Mariya Sharapovaning yirik xalqaro turnirdagi muvaffaqiyatlari haqida gap ketmoqda).

b) «Shapka» — bir nechta gazeta maqolalarini birlashtiruvchi sarlavha bo'lib, har bir maqola o'zining kichik sarlavhasiga ega bo'ladi. Odatda shapka maqolaning eng yorqin fikrini ajratib ko'rsatib, aksar hollarda esda qolarli yoki ifodali iboradan sitata keltiradi. «Shapka» doimiy ravishda o'quvchini maksimal darajada qiziqitirishga yo'naltiriladi. Shu bois aksar hollarda «shapka» maqolaning mazmunini yetarli darajada, ba'zan esa umuman ochib bermaydi va u bilan bog'liq bo'lmaydi.

Bluff, bluster and bullshit at Counterpunch

Mubolag'a, g'azab va bema'nigarchilikka to'la javob zarba (ayollarga nisbattan bepisand munosabatni qo'llab quvvatlovchi web saytdagi maqola shapkasi)

Yuqorida keltirilgan sarlavhalarning barcha turlari ham alohida ha jamuljam qo'llanilishi mumkin. O'zaro ta'sirga kirishib ular o'quvchiga maksimal darajada birlamchi ma'lumotni yetkazib beradi. Shunday qilib «rubrika» gazetada keltirilgan materialning janrini aniqlab bersa, sarlavha maqolada keltirilgan asosiy mavzu va mazmun haqida xabar beradi, tag sarlavha esa ulardan farqli ravishda konkret ma'lumot beradi. Gazetada aksar hollarda sarlavhalarning ikkala turi ham ishlatiladi.

Sarlavhalarning ikkinchi klassifikatsiyasi ularning informativligiga asoslanadi. I.V.Arnold barcha sarlavhalarni besh guruhga bo'ladi:

1. informativ sarlavhalar. Bu kabi sarlavhalar maqola mazmunini qisqacha aks ettirib, ularga xos bo'lgan xususiyat qisqalidir (masalan, ularda harfli abrivaturalar va fe'lining tushirib qoldirish holatlari kuzatiladi). O'quvchidan oldindan biron bir voqea hodisa haqidagi bilim talab qilinmaydi.

Italy's radio, TV workers on strike.

Italiyaning radio va televideniya ishchilari ish tashlamoqda.

2. O'quvchiga ma'lum bo'lgan voqea hodisaga asoslangan sarlavhalar.

How GB beat Russia at gymnastics

Britaniya gimnastlarining rossiyaliklar ustidan g'alabasi haqida

Bu kabi sarlavhalarga duch kelgan o'quvchi, avvalambor ma'lum bir voqea hodisa haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

3. Qofiyalangan sarlavhalar. Bu kabi sarlavhalar odatda tashviqotchilikka oid maqolalarga berilib, ular o'zining aniq qofiyasiga asosan oson va tez esda qoladi.

Back to work – to kill the bill.

Ishga qaytmoq – qonunni ag'darmoq.

4. emotsional baholovchi sarlavhalar. Bu kabi sarlavhalar maqola mavzusini yoritmasdan, ularni maqsadi o'quvchini ma'lum bir yo'nalishga boshlash, tasvirlanayotgan voqeaga nisbatan aniq munosabatini shakllantirishga qaratilgan.

Ugly noises from Los Angeles mayor's nest.

Los-Anjeles meri uyasida g'alati shovqinlar

Bu holatda muallif ingliz tilida so'z o'yiniga asoslangan stilistik vositani qo'llamoqda mayor's nest – mare's nest, bema'ni ixtiro – saylov oldidan olib boriladigan ko'zbo'yamachiliklar. O'quvchining e'tiborini saterik yo'nalishdagi sarlavha o'ziga jalb etadi va unga fikrini muallifga kerak bo'lgan ma'lum yo'nalishga yo'naltiradi.

5. Shov – shuvli sarlavha. Bu kabi sarlavhalarning asosiy vazifasi maksimal darajada qisqa, aniq va asosiy mazmuni o`zida aks ettrishdir. Biroq u sirliligi bilan o`quvchini o`ziga jalb qilishi kerak.

Convict sentenced to life for coffin girl kidnap.

Umrbod qamoq jazosiga mahkum qilingan jinoyatchi, o`g`irlangan qizchani tobutda yashirmoqda.

O`quvchi maqolaning sirliligiga qiziqib maqolani o`qiydi va voqealarning keyingi rivojini bilishga harakat qiladi (qamoqdan qochgan jinoyatchi millionerning qizini o`g`irlab, tovon puli talab qilish jarayonida uni taxta qutida saqlaydi, oxir oqibat qizcha qutqarilib jinoyatchi jazoga tortiladi) [1, 55].

Adabiyotlar

1.Шаков С.Я. Перевод газеты: адекватность на уровне структуры текста // Коммуникативно-стилистические аспекты переводческой деятельности. М., 1994. – 200с.

Р.Р.Ганиева (СамГАСИ)

ОБУЧЕНИЕ РУССКОМУ ПРОИЗНОШЕНИЮ И УДАРЕНИЮ

Необходимым условием активного владения языком является усвоение правильного произношения и ударения. Поэтому привитие орфоэпических навыков составляет важный раздел в обучении русскому языку нерусских студентов, речь которых нередко пестрит ошибками в произношении. Неправильное произношение приводит часто и к ошибочным написаниям. Привитие навыков орфоэпии необходимо как для повышения культуры устной речи обучающихся, так и для их орфографической грамотности.

